


621.7

T 69.

B.M. Saydumarov

PROKAT ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYALARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

B. M. SAYDUMAROV

**PROKAT ISHLAB CHIQARISH
TEXNOLOGIYALARI**

Darslik

Toshkent - "NIF MSH" - 2020

UDK: 6T 2
BBK: -39.38
T 69

B. M. Saydumarov.
Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari /darslik/. Toshkent: "NIF MSH", 2020, 272 bet.

Darslikdan texnika oliv o'quv yurtlari, asosan "Prokat ishlab chiqarish texnologiyasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, shuningdek turdosh soha xodimlari foydalanishlari mumkin. Darslikda fanning asosiy tushunchalari, prokat ishlab chiqarish texnologiyalari, hamda prokat stanlarining ishonchiligi bo'yicha bilimlar yoritilgan.

Taqrizchilar:

Berdiyev D.M. -

"Metallarga bosim bilan ishlov berish" kafedrasi mudiri texnika fanlar doktori, professor;

Abdukarimov A.A. -

V.L.Galperin nomidagi "Toshkent Truba Zavodi" qoshidagi Po'lat simlar va navli prokat ishlab chiqarish sexi boshlig'i o'rinnbosari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.

ISBN 978-9943-6793-5-1

**©B.M. Saydumarov, 2020.
© "NIF MSH", 2020.**

854.90

KIRISH

Yurtimizda metallurgiya va mashinasozlik sohalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'llaniladigan texnologiyalarni takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoxda. 2017-2021-yillarda, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da, jumladan "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, eng avvalo, butlovchi buyumlar importining o'mini bosish" vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan metallurgiya va mashinasozlik, prokat ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2016-yil 26-dekabrdagi PQ 2698-son "2017-2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 27-apreldagi PK-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 PF-5847 sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga prokat ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Metallurgiya va mashinasozlik sohasi prokat ishlab chiqarish texnologiyalari va keng ko'larda iste'mol buyumlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi va u hamma jamiyat ishlab chiqarishning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Mashinasozlikni takomillashtirish mehnat unumdonligini oshirish va mahsulot tayyorlashda mehnat hajmini kamaytirishga yo'naltirilgan. Bu rivojlanishning bosh omillaridan biri bo'lib, hamma korxonalarda texnologik va ishlab chiqarish mashinalari va jihozlari hisoblanadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish mehnat unumdonligi oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini yaxshilash va buyum ishlab chiqarishga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish va mehnat sotsial sharoitini yaxshi tomonga

o'zgartirish kabi masalalarni yechadi va insonni texnologik jarayonlardagi operatsiyalarni bajarishdan bevosita ozod qiladi.

Boshqarish tizimlarida elektron texnikaning qo'llanilishi o'ziga o'lcham va texnologik jarayonlar parametrlarini nazorat qiladigan, ba'zi hollarda jihozdagi ish tartibini o'zgartiradigan murakkab, ko'p agregatli avtomatik qatorlarni yaratish imkonini beradi. "Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari" fani 5322100-Prokat ishlab chiqarish texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, prokat ishlab chiqarish sohasi, prokatlash texnologiyasi ularni ish unumdorligini oshirish va prokat mahsulotlarini ishlab chiqarishni hisobga olgan holda lentalar, armaturalar, listlar, tasmalar va boshqalar ko'rinishida dastlabki materialdan zagotovkalar tayyorlash texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek hisoblash tamoyillari, prokat ishlab chiqarish texnologiyalarining asosiy usullari, prokat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ham bilimlar keltirilgan.

1-BOB. QORA METALLAR SIFATI VA PROKAT ISHLAB CHIQARISH TEENOLOGIYASINING UMUMIY SAVOLLARI

1.1. Prokat ishlab chiqarish texnologiyasining umumiylumotlari

Tayyor prokat olish texnologik jarayoni metallurgiya ishlab chiqarishda yakuniy bosqich sanaladi. Metallurgiya korxonalarining prokatlash sexlari orqali po'lat eritish sexlarida eritilayotgan po'latlar 85% dan ko'prog'i o'tadi.

Metallurgiya korxonalarida metallni prokatlash uchun turli xildagi va maqsaddagi stanlar o'rnatiladi. Prokatlash stani bu - metall o'rmlarining plastik deformatsiyasini va keyinchalik uni qayta ishlashni (to'g'rilash, kesish va hokazo) bajaradigan mashina va agregatlar majmui. Shuningdek prokat sexlarida metallni qizdirish, yumshatish va normallash moslamalari, uning sirtini tozalash va himoya qoplamalarini qo'llash uchun aggregatlar, bundan tashqari sifatlari tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boshqa mashina va yig'ish materiallari o'rnatilgan. Prokatlash stanlarining tarkibi va mahsulot turiga ko'ra metallurgiya korxonalarining listli, navli va aralash profilli korxonalarga bo'linadi.

Zamonaviy metallurgiya korxonalarida prokat ishlab chiqarishning texnologik jarayoni asosan ikki bosqichdan iborat: yarim tayyor mahsulot (zagatovka) olish va uni tayyor profilda prokatlash. Zamonaviy metallurgiya zavodi asosiy sexlarining joylashish sxemasi metall oqimining faqat bir yo'nalishda harakatlanishini ko'zda tutadi, bunda metall domna pechidan boshlab prokat sexlarining tayyor mahsulot omborlariga tomon boradi.

Prokat sexlari orqali po'lat eritish sexlarida eritiladigan po'latlarni deyarli hammasi ishlataladi, faqat uning biroz qismigina kuyishi sodir bo'ladi va temirchilik sexi orqali o'tadi. Tayyor prokat olishning texnologik jarayoni metallurgiya sanoatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Qora metallurgiyadagi texnik taraqqiyot aggregatlarining birlik quvvatini oshirish, texnologik jarayonlarni jadallashtirish, yangi jarayon va qurilmalarni joriy qilish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish yo'li bilan ta'minlanadi. Prokat ishlab chiqarish jihozlarining holati va rivojlanishi, prokat sanoati texnologiyasi va jo'valarni kalibrash izchil tarzda bayon qilingan,

mahsulot sifatini shakllantirish va boshqarish masalalariga juda katta e'tibor berilgan.

Prokat stanlarining barcha asosiy turlari: siquvchi, tayyorlovchi, uzlusiz va yarim uzlusiz navli, issiqlayin va sovuqlayin prokatlash uchun uzlusiz agregatlar, yuqori sifatlari mahsulotni ta'minlovchi jihozlar, uzlusiz stanlar va termoishlov berish liniyalari (tizimlari), qoplamlar qoplash agregatları haqida bayon qilingan.

Darslikda prokat sanoati texnologiyasini ko'rib chiqishda listli po'lat ishlab chiqarishga, yangi yuqori samarali texnologik jarayonlarning qo'llanishiga alohida e'tibor berilib, tayyor prokat sifatiga texnologik va konstruktiv parametrlarning ta'sirini tahlil qilish bo'yicha ham material berilgan. Mutaxassislar tayyorlashning ilmiy darajasini oshirish uchun ushbu darslikda prokatlash texnologiyasi ko'rib chiqilgan.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalar qurilmoqda. Ayniqsa, metall quvurlar, armaturalar, qora va rangli metallardan prokat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni tobora ortib bormoqda. Shu o'rinda prokat ishlab chiqarish va prokatlash mashinalarining o'rni ishlab chiqarishda juda muhim rol o'ynaydi. Prokatlash mashinalari sohasini talabalarga o'rgatishda dastlabki oliy ta'lilda alohida ahamiyatga ega bo'lgan fan "Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari" fani hisoblanadi.

"Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari" fanining o'quv dasturi "Prokat ishlab chiqarish texnologiyasi" va "Metallarga bosim bilan ishlov berish mashinalari", Texnologik mashinalar va jihozlar (prokat mashinalari) yo'nalishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar, kasbiy faoliyat turlari, prokat ishlab chiqarish texnologiyalari va mashinalari fanining rivojlanish istiqbollari, yo'nalish bo'yicha umumiy bilimlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni qamrab olgan.

Metallurgiya sanoatining bundan keyingi rivojlanishining asosiy yo'nalishi metall mahsulotlarining ishlab chiqarish turlarining sifatini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu masalalar yechimi sifatida ushbu sohada o'quv mashg'ulotlarining sifatini va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Metallurgiya sanoati bundan keyingi rivojlanishning asosiy yo'nalishi metall mahsulotlarining samarali turlari sifati va ishlab chiqarish hajmlarini tubdan oshirish bo'lmog'i kerak.

Mashinasozlikning asosiy tayyorlov bazasi bo‘lib, mashinasozlikda rivojlangan sohalardan biri prokat ishlab chiqarishdir. Keyingi yillarda mashinasozlik sanoatida ham tub o‘zgarishlar bo‘ldi. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallarni olishning zamonaviy usullari, ularga ishlov berishning yangi texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Respublikamiz avtomobilsozligi, to‘qimachilik, paxta sanoatida mashina detallari mustahkam va uzoq muddatda ishlashini ta’minlash uchun ularni tayyorlashning zamonaviy texnologik jarayonlari ishlab chiqilmoqda.

1.2. Prokat ishlab chiqarish tarixi

Metallarni prokatlashning kashf etilishi o‘rtalarda asrlarga to‘g‘ri keladi va bu metall listlarni olishga bo‘lgan talabni oshishi bilan tushuntiriladi. XVI asrgacha listlarni olishning eng ko‘p tarqalgan usuli bolg‘alash usuli bo‘lgan. Listlarni bolg‘alash list bilan kurashuvchi ish deb atalgan, u bilan antik va ayniqsa, o‘rtalarda temirchilar shug‘ullanganlar. Lekin, listni ma’lum bir aniq qalinlikda uning hamma yuzasi bo‘ylab bolg‘alash usuli bilan olish imkonsiz edi. Bu jiddiy exnik muammoni silliq gidravlik jo‘vaga ega bo‘lgan prokat stanini qo‘llash bilan muvaffaqiyatlari yechilgan.

Eng avval qalayni prokatlash uchun ishlatiladigan qurilma yozuvi buyuk olim Leonardo da Vinci qalamiga mansub bo‘lib, rasm ko‘rinishdagi hujjat va u 1495-yilga to‘g‘ri kelishi aytilgan. Muallif qo‘lda ishlaydigan silliq gidravlik jo‘vaga ega bo‘lgan prokat stanining tasvirini tushuntirish yozuvi bilan qoldirgan. Olimning ma’lumotiga ko‘ra, prokat stani “yupqa va bir tekisdagi qalayli listlarni” tayyorlashga mo‘ljallangan edi. Leonardo da Vinci jo‘valarni qo‘ng‘iroqli metallardan tayyorlanganligini, u qattiqroq bo‘lishini hamda temirdan tayyorlangani va o‘q bilan ta’minlanganligini ta’kidlagan. Ma’lumki, Leonardo da Vinci prokat stanida uzatma pastki jo‘valaridan biri bo‘lgan va uning o‘qiga chevryakli g‘ildirak o‘rnatalgan. Prokat jo‘vasiga harakat chevryakli juftlik orqali massivli dastakka uzatilgan. Hozirga qadar Leonardo da Vinci prokat stanining tasviri uning kashfiyoti hisoblanganmi yoki muallif uni qiziqtirgan va amaliyotda qo‘llanilayotgan texnik yangilikni eskizi bo‘lganmi degan yagona bir fikrga kelinmagan.

Taxminan XVII asrning oxiriga qadar prokat stanining uzatmasi qo'lda harakatga keltirilgan, XVIII asrga kelib suvli uzatmada harakatga kelishga o'tilgan. Taxminan shu vaqtga kelib, temir prokatlash ishlab chiqarilishi boshlandi. Rossiyada esa, bu ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan bo'lib, prokatlash stani tom yopish uchun mo'ljallangan temirni ishlab chiqarishga mo'ljallangan. XVIII asrning oxiriga kelib, prokat stanini uzatmasini harakatga keltirish uchun bug'mashinalari qo'llanila boshlandi va bu bilan metallurgiya zavodlarida ishlab chiqarish sikllarining uch asosiy bo'g'ini sifatida prokatlash qo'llanila boshlandi va asta-sekin bolg'alashning nisbatan kam unumdorlikka ega bo'lgan usullarini siqib chiqara boshladi. Ushbu davr 1783-yil ingлиз olimi Kort tomonidan konstruksiyasi ishlab chiqilgan kalibrlovchi jo'vega ega bo'lgan prokatlash stanini ishlab chiqarish qo'llanilishiga to'g'ri kelgan hamda prokatlash stani asta-sekin ixtisoslashgan holga kela boshlagan. Ularni siqvchi, listli va sortli turlarga bo'lishgan. XIX asrning 30-40-yillarida turli davlatlarda temir yo'llarni qurishning shiddat bilan rivojlanishi temir yo'l reslarini prokatlash bilan ishlab chiqarilishiga olib kelgan. 1856-1857-yillarda Saarda (Germaniyada) katta gabaritli balkalar ishlab chiqaradigan birinchi prokatlash stani o'matildi. Bu stanlarning konstruksiyasi va ixtisoslashuvi AQSHda XIX asrning oxirida birinchi blyuming va slyabinglar ishlab chiqaradigan siqvchi stanlarni paydo bo'lishiga olib keldi. 1867-yilda esa Angliyada uzlusiz ishlaydigan sim oladigan stan qurildi. 1885-yilda Germaniyada qiya joylashgan jo'valarga ega vintli prokatlash stanida choksiz trubalar ishlab chiqarilishi kashf etildi. 1886-yil AQSH da tez harakatlanadigan simni o'raydigan qurilma yaratildi. AQSH da 1892-yilda uchuvchi qaychilar o'matilgan. Shuningdek, 1897-yil Germaniyada prokatlash stanini uzatmasini harakatga keltirish uchun elekrodvigatel ishlatila boshlandi. 1906-yil Slovakiyada reversli elektrodvigatel ishga tushirildi. Listlarni uzlusiz issiq holda prokatlash tamoyili 1892-yilda Chexiyada amaliyatga qo'llanila boshladi va u yerda yarim uzlusiz ishlaydigan stan o'matilgan. 1923-yilda AQSH da birinchi marta uzlusiz ishlaydigan keng polosali list ishlab chiqaradigan stan qurildi. Listlarni sovuq holda prokatlash XIX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Trubalarni sovuq holda prokatlash asosida ishlab chiqarish usuli 1930-yilda AQSH da yaratilgan.

Sobiq ittifoq davrida Makeev va Dneprodzerjinskiy nomli metallurgiya zavodlarida Ijorskiy metallurgiya zavodida tayyorlangan ikkita blyumingni ekspluatatsiya qilinishi joriy etildi. butun ittifoq ilmiy-tadqiqot va loyihalash-konstrukturlik institutlari (VNIIMETMASH) tomonidan 1940-1960- yillarda metallurgiya mashinasozlik yangi texnologik jarayonlar uchun bir qator prokatlash stanlari yaratilgan. Bu jihozlar ko‘p buyumlar ishlab chiqarishni ta’minlab berdi hamda bu buyumlar (katta qadamli vintlar, qovurg‘ali trubalar va boshqalar) avval boshqa, nisbatan kam samarali usullar bilan olingan. 1959-1962-yillarda (VNIIMETMASH) va og‘ir mashinasozlikning elektr po‘lat zavodi bilan yangi truba ishlab chiqaradigan stanlar ishlab chiqara boshladi. Avtomobil sanoatining ilmiy-tadqiqot instituti va Gorkiy avtomobil zavodida silindrli va konussimon g‘ildiraklar prokatlashga mo‘ljallangan birinchi stanlar yaratildi.

XX asrning 60-yillarda sobiq ittifoq, AQSH, Germaniya va Italiya kabi davlatlarda quymakorlik prokatlash agregatları yaratilgan bo‘lib, unda uzlusiz quyma va prokatlash jarayonlari birlashtirildi. Keyinchalik bunday agregatlar alyuminiy va mis qotishmalaridan tayyorlangan katankalar, alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan listlar va po‘latidan yasalgan zagotovkalarni ishlab chiqarishda keng ko‘lamda qo‘llanila boshlandi.

Ko‘p miqdordagi magistral neft va gaz trubalari, gigant zavodlar, katta-katta ko‘priklar, katta flot, atom sanoati va boshqa muhim ishlab chiqarish sohalarida keng formatli listni prokatlash talab etiladi. Rossiyada 2012-yilda uchta keng polosali stan ekspluatatsiyasi yo‘lga qo‘yildi: bular, Kolpino, Magintogorsk va Vikse shaharlarda qurildi.


Hozirgi vaqtida Rossiyada yiliga 1,5 mln tonna va qalinligi 48 mm gacha bo‘lgan prokatlash listlari ishlab chiqaradigan quvvatga ega bo‘lgan stanlar ishlatilmoqda.

O‘zbekistonda ham bu sohaga katta e’tibor qaratilgan. Shulardan biri Toshkent viloyatida “Bekobod metall zavodi” bu zavodda armatura, xo‘jalikda ishlatiladigan idish tovoqlar, qurilish mahsulotlari, shveller, purut va sharli prokat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Toshkent shahrida V.L.Galperin nomidagi “Toshkent quvur zavodi” ushbu zavodda rulonli listlar, palosali listlar, qurilishda ishlatiladigan armaturalar, purutlar, elektr to‘kini yaxshi o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan rangli materiallardan similar va chokli quvurlar ishlab chiqariladi. Ayniqsa, hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev-

ning tashabbuslari bilan 2020-yilda Toshkentda qurilgan “Toshkent metallurgiya zavodi” MCHJ da po’latdan rulonli listlar va avtolistlar katta hajmda ishlab chiqarilishi yo’lga qo’yilmoqda. Ushbu loyihadan ko’zlangan maqsad O’zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobilarni tashqi korpuslarini ishlab chiqarishda ishla-tiladigan avtolistlarni o’zimizda ishlab chiqarish hamda maishiy texnika vositalarini ishlab chiqarishda qo’llaniladigan rulonli listlarni ishlab chiqarish, ya’ni mahsulot tannarxini pasaytirish hisoblanadi.

1.3. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari


Prokatlash deb zagotovkaga talab etilgan shakl va o’lchamlar berish maqsadida aylanuvchi jo‘valar orasida siqib o’tish jarayoniga aytiladi. Prokatlash jarayoni quyidagi tarzda amalga oshiriladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Prokatlash sxemasi:
1-prokatlanadigan zagotovka tilimi; 2/aylanuvchi jo ‘va

Qalinligi N bo‘lgan prokatlanadigan zagotovka tilimi (polosasi) 1 uning yuzasi va aylanuvchi jo‘valar yuzasi 2 orasida yuzaga keladigan ishqalanish kuchi ta’sirida ular orasidagi tirkish orqali tortilib olinadi. Tirkish balandligi prokatlanadigan tilim boshlang‘ich balandligidan kichik, shuning uchun plastik siqishdan keyin tilimni oxirgi o’lchamini dan kichik bo‘ladi. Tilimni boshlang‘ich va oxirgi o’lchamlari orasidagi farqiga absolyut siqlish deyiladi. absolyut siqlishga erishish uchun zagotovkani jo‘valar orasidan bir necha marta o’tkazilishi mumkin. Bu qiyamat bir qancha sabablar bilan chegaralanadi. Juda ham


kichik siqilishda prokatlash vaqt oshadi, metall sovib qoladi va uning prokatlash uchun katta kuchlar talab qilinadi. Zagotovkani katta kuchlar bilan siqishda unda darzlar paydo bo'lishi mumkin. Mana shuning uchun har bir zagotovka uchun aylanuvchi jo'valar tezligi, ular orasidagi masofa hisoblanadi va bunda materialning mustahkamlik tavsifnomalari hisobga olinadi.




1.2-rasm. Prokatlashdagi metall tolalarining ko'rinish sxemasi.

Prokatlashda tilimni qalinligini kamayishi uning enini oshishiga olib keladi. Metallurgiyada bu jarayon kengayish deb ataladi. Uni zagotovka o'lchamini hisoblashda e'tiborga olinadi. Masalan, agar zagotovkani kengayishi hisoblangan qiymatidan katta bo'lsa, u holda metallning eni bo'yicha keragidan ortiq qismi yuzaga keladi va u jo'valar orasidagi tirqishga bosim bera boshlaydi, natijada keragidan ortiq metall qismi elementi g'adir-budur (zausensa) hosil bo'ladi va uni olib tashlash kerak. Juda ko'p metall va qotishmalar sovuq holatda yetarli darajada plastik emas, shuning uchun zagotovka ma'lum bir temperaturagacha dastlabki holatda qizdiriladi. Prokat ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan jihozlarni asosiy konstruktiv qismlarini qisqacha ko'rib chiqamiz. Prokatlash uchun ishlatiladigan jo'valar metallarni prokatlashda ishlatiladigan ishchi asboblar hisoblanadi. Har bir jo'va silindr ko'rinishga ega bo'lib, mustahkam cho'yan yoki po'latdan quyilgan bo'ladi. Tilim, listlar va plastinalarni prokatlashda jo'valar silliq tayyorlanadi. Andozali va navli prokatlar olishda kalibrangan jo'valardan foydalananadi. Ularning aylanasi bo'ylab yo'lakchalar u yoki bu shaklda o'yilgan bo'ladi. Ularni ariqchalar deb ataladi. Bir

jo'vani boshqa jo'vaga qo'yilganda ma'lum bir profildagi oraliq hosil bo'ladi. Masalan, ikki tavrli balkalarni prokatlash bilan tayyorlash kerak (1.3-rasm,b). U bosqichma-bosqich prokatlanadi. avval 1-balka 2- va 3-roliklar yordamida prokatlanadi.




1.3-rasm. Ikki tavrli balkalarni prokatlash sxemasi:
1-balka, 2 va 3-roliklar




**1.4-rasm. Turli xil ko'rinishdagi
ikki tavrli balkalarni prokatlash sxemasi**

Keyin prokatlanadigan profilni oxirgi shaklgacha bir qancha bosqichlarda olinadi. 1.5-rasmida bunday profillarning turlari berilgan. Jo'valarni shakli va ular orasidagi masofani o'zgartirish orqali prokatlash profillarini turli turlarini olish mumkin.



1.5-rasm. Prokatlash turlari:
a-prutok; b-ugolok; d-tavr; e-ikkatavr

Prokatlash yordamida maxsus profillar olinadi. Masalan, gilzani prokatlashdan keyin choksiz trubalar olinadi (1.6-rasm).




1.6-rasm. Quvur uzatmani prokatlash yordamida tayyorlash:
*1-prutok; 2-jo'va; 3-konussimon opravka; 4-jo 'vaga nisbatan o'zaro
aylanuvchi; 5-gilza*

Bu yerda 1 prutok o'rnatilgan tartibda uncha katta bo'limgan burchakda (80 dan 240 gacha) bir tomonga 2- jo'vani 4- jo 'vaga nisbatan o'zaro aylanuvchi oraliqqa uzatiladi. Ushbu holatda prutok qizdiriladi. Jo'valar orasida prutokni harakatlanish yo'lida 3 konussimon opravka o'rnatiladi va uni odatda dorn deyiladi. U silindr shaklning ichki tekisligini hosil qiladi. Natijada qalin devorli bo'sh profil-5 gilza olinadi. Proshivka qilingandan so'ng gilza qalin devorga ega bo'ladi

(20 % quvur diametri o'lchamiga ega). Bundan tashqari uning yuzasida (jo'va va dornlardan) vintli chiziq ko'rinishda izlar qoladi. Bundan keyin boshqa prokatlash stanlarda ishlov berish yordamida silliq yuzaga ega bo'lgan berilgan o'lchamdagি kichik devorli quvurlar olinadi.

Prokatlash stani aylanuvchi jo'valar orasida metallarni bosim bilan ishlov beruvchi mashinadir. Bir qator ishlab chiqarishlarda prokatlash stani mashina tizimidan tashkil topgan bo'ladi va u tizimga o'z prokatlash stanidan tashqari prokatni kesuvchi, to'g'rilovchi mashina, buxta yoki tayyor rulon buyumini o'ragich (masalan, yupqa listlarni), prokatlangan materialni transportirovka qilish kabilar kiradi. Prokatlash stanini asosiy qismiga ishchi klet (1.7-rasm) bo'lib, u 1 stanina, 2 jo'va va 3 shpindeldan tashkil topgan bo'ladi. Jo'valar elektrodvigatel yordamida reduktor va mustalar yordamida shpindellar bilan aylantiriladi. Prokatlash stanida bir yoki bir necha kletlar bo'ladi.




1.7-rasm. Prokatlash stani:
1-stanina; 2-jo'va; 3-shpindel;

Stanlar ishlatishiga qarab, ikkita asosiy turga bo'linadi: sortli prokatni olish uchun dastlabki zagotovka hisoblangan yarim tayyor mahsulotlar olish uchun mo'ljallangan va tayyor prokat ishlab chiqaradigan stanlar.

Birinchi turdag'i prokatlash staniga siquvchi stanlar blyuming va slyabinglar kiradi. Ularni massasi 25 tonna bo'lgan slitkalari ni prokatlashda ishlatiladi. Blyuminglardan blyumlar - kvadrat kesimga ega bo'lgan zagotovkalar (200x200 va 350x310) va slyablar to'g'ri burchakli kesimga ega bo'lgan zagotovkalar (kengligi 1600 mm gacha va 300 mm qalinglikka ega bo'lgan) olinadi.

Ikkinci turdag'i prokatlash staniga quyidagilar kiradi: rels balkalar-sortli prokatlar, simlar (diametri 5-10 mm gacha bo'lgan), listlar va quvurlar hamda maxsus turdag'i prokatlar olinadi. Konstruktiv jihatdan stanlar ishchi kletda jo'valar soni va jo'valarning joylashishiga qarab tayyorlanadi. Jo'valarni joylashish sxemasi (1.8-rasm) da tasvirlangan.

Ikki jo'vaga ega bo'lgan stanlar duo deb ataladi. U ikki gorizontal jo'vaga ega bo'ladi. Kletda joylashgan uchta jo'valar joylashgan stanlar uchstanlar deyiladi. Uch kletlar prokatlashni ikki tomonga amalga oshiradi. (1.6-rasm)dan ko'rinish turibdiki, prokatlash bir tomonga yuqorigi va o'rtadagi jo'valar yordamida, boshqa tomonga esa o'rtada va pastki jo'valar yordamida amalga oshiriladi.




1.8-rasm. Stanlarning sxemasi:
a-duostan; b-uchstan; d-kvartostan

To'rtta jo'vaga ega bo'lgan kletlar-ikki ishchi kichik diametrali va ikki tayanch jo'valar kvartostan deyiladi. Kvartostan qalin va yupqa listlarni issiq holda prokalashda hamda yupqa list va tasmalarni sovuq holda prokatlashda qo'llaniladi. Kvartostanlar listlarni qalinlikda katta aniqlikda oladi, bu jo'valarni egilmasligi sababli yuz beradi. Yana ko'p jo'vali stanlar yupqa lentalarni sovuq holda prokatlashda qo'llaniladi.

1.4. Qora metallarning turi va sisati

Prokat mahsulotlarining turi. Prokat mahsulotlari ko'ndalang kesim shakliga ko'ra shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga

bo'linadi: listli prokat, navli prokat, quvurlar, maxsus profillar (mashinasozlik uchun aniq zagotovkalar, bukilgan profillar va boshqalar)




1.9 - rasm. Sortli prokat turlari

Qoidaga ko'ra listli prokat qalinligi bo'yicha qalinlistli (qalinligi 4 mm va undan yuqori), ingichkalistli (qalinligi 4 mm dan kam)ga bo'linadi.


Ingichkalistli prokat ayniqsa, sovuqlayn prokatlash bu metall mahsulotlarning iqtisodiy turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli uning prokat mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 50-60% gacha va sovuqlay prokatlashning 25-30% gacha o'sishi qora metallurgiyani rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Navli prokat ko'ndalang kesim shakliga ko'ra oddiy (1.9 - rasm) va shaklli (1.10 - rasm) profillarga bo'linadi. Oddiy profillar aylana, kvadrat va tasma shakllariga ega bo'ladi. shaklli profillar (murakkab shaklli) umumiy va maxsus profillarga bo'linadi. Umumiy shaklli profillarga olti burchakli profillar, burchakli (teng va teng bo'lmagan), shvellerlar, ikki tavrli balkalar va boshqalar kiradi (1.9. rasmga qaralsin). Maxsus shaklli profillarga qishloq xo'jaligi, mashinasozligi, kemasozlik, ko'mir, neft va tog'-kon sanoatida va boshqalarda ishlataladigan murakkab ko'ndalang kesimli prokat mahsulotlari kiradi.




1.10-rasm. Yupqa devorli profillar

Yupqa devorli (yengil turdag'i) va keng tarmoqli, balkalar metallni 25% ga tejash imkonini beradi. Qurilish sanoati uchun qalinligi 3 mm bo'lган profillar ishlab chiqarish o'zlashtirilmоqda. shaklli aniq profillar (maxsus maqsadlar uchun eng yuqori aniqlikdagi profillar) issiq va sovuqlay prokatlash, stanlarda cho'zish orqali metallurgiya va mashinasozlik zavodlarida olinadi (1.10-rasm). Barcha navli prokatlar shartli ravishda to'rt guruhga bo'linadi: yuqori navli, o'rta navli, past navli va katanka.



1.11 - rasm. Payvandlangan quvurlar


Quvurlar ikki guruhgaga bo‘linadi: choksiz va payvandlangan. Quvurlarning nisbiy og‘irligi har yili prokat mahsulotlarning umumiy hajmiga ko‘ra ortadi. Ayniqsa, payvandlanuvchi va sovuqlayn prokatlanuvchi quvurlar ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda (1.11 - rasm). Hozirgi vaqtida shaklli quvurlar ham prokatlanmoqda. Yupqa devorli, o‘ta yupqa devorli, pretzisionli, kapilyar va boshqa quvurlar uglerodli, ligerlangan va yuqori ligirlangan po‘latlardan tayyorlanadi. Listli prokatlarni profillash jarayonini payvandlash, bolt va parchin bilan biriktirish ishini kamaytiradigan yoki butunlay yo‘q qiladigan egilgan profillarni (stsnlarni) ishlab chiqarishning ta‘minlaydi.



1.12-rasm. Butkilgan profillar:

1-teng yoqli burchakli; 2-maxsus burchakli; 3-shveller; 4-G-simon; 5-idishsimon; 6-C-simon; 7-ramali; 8-to‘siqlar uchun; 9-transport mashinasozligi uchun.


Qalinligi 0,2...20 mm bo‘lgan list yoki tasmdan yasalgan ochilgan profillar (1.12 - rasm) sanoatning turli sohalarida keng qo‘laniladi. Issiqlayn prokatlangan profillarga nisbatan egilgan profillar yuqori aniqlikni ta‘minlaydi, qalinligi kam, prokatlab olinmaydigan yopiq shakkarda tayyorlanishi mumkin (1.13 - rasm).



1.13 - rasm. Yupqa devorli shakldor profillar

Mashinasozlikni turli sohalarida davriy prokat profillari keng qo'llaniladi, ular metall sarfini sezilarli ravishda tejaydi (20...30% gacha), ulardan detallar tayyorlashda mehnat sarfini pasaytiradi va bolg'lash mashinalari ish unumdonligini oshiradi.

Armatura sarfini kamaytirishga uni yuqori mexanik xossalarga ega bo'lgan po'latdan (buning uchun termik va termomexanik qayta ishlash qo'llaniladi) ishlab chiqarish, bundan tashqari uning betonga yopishish qobiliyatini oshirish orqali erishiladi (1.14 - rasm). Temir - beton armatura uchun davriy profillardan foydalanish metall sarfini 40% ga kamaytiradi (1.14 - rasm).



1.14 - rasm. Armaturalar

Prokat mahsulotlarning sifati har bir holatda metall buyumlarning konstruksiyalarida, mashinalarda ishlash sharoitlariga ko'ra aniqlanuvchi mustahkamlik, egiluvchanlik, sovuqqa chidamlilik,

payvandlanuvchanlik, korroziyaga chidamlilik sirt holati, o'Ichov aniqligi va boshqa xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ekspluatatsiya tavsiflarini oshirishning texnologik usuli bu - metallga harorat kuch ta'sirining termomexanik (TMI) va mexanik termik (MTI) ishlov berish kompleks usullaridan keng foydalanish. Bunday qayta ishlashdan so'ng po'latning mustahkamligi, uning plastikligi, toliqish va kontakt parchalanish va yeyilishga qarshiligi ortadi. Yaqin vaqtga qadar ommaviy ishlab chiqarilgan metall mahsulotlarning mustahkamligini sovuqqa chidamliliгини va boshqa bir qator xossalariни oshirish uchun po'latga ko'p miqdorda legirlovchi elementlar marganes, vanadiy, kreleni, xrom, nikel qo'shilar edi. Shu bilan birga po'latni mikrolegirlash va unga qo'shimcha ishlov berish kombinasiysi, keyinchalik tayyor prokatning termik mustahkamlanishi, legirlovchi materiallarni sezilarli tejash va ishlab chiqarish xarajatlari bilan zarur sifat darajasini ta'minlash mumkinligi isbotlangan.

Vanadiy (0,05...0,12%), azot va vanadiy (0,07...0,15% va 0,015...0,030%) yoki niobiy (0,02...0,05%) mikro qo'shimchalardan foydalanish tinch va yarimtinch margannets po'latining mustahkamligi va sovuq bardoshligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Natijada mas'ul payvand konstruksiyalari uchun oquvchanlik chegarasi 400-450 MPa dan kam bo'limgan mayda donali po'lat markalarining qator iqtisodiy navlari yaratiladi. 15G2AFDps, 18G2AFps, 14G2AF, 16G2AF, 15GF, 15G2SF, 10G2B markadagi karbanitridli mustahkamlangan ilg'or po'latlar mashinasozlik va ko'priq qurilishida payvand tuzilishining ishonchlilagini oshirish uchun tavsiya qilinadi. Nitrid mustahkamligi termo qayta ishlangan po'latlardan tayyorlangan prokat mayda donalar (№ 9...10), yuqori oquvchanlik chegarasi (σ_t) va yirik qalinlik diapazonida 70°C dan past haroratda me'yoriy talablarga javob beruvchi zarbiy qovushqoqlik bilan xarakterlanadi, ammo doim ham tarkibida nikel saqlovchi kam legirlangan oddiy po'latlar bunday xossalarga ega bo'lmaydi. Vannadiy va azot bilan mikrolegirlangan po'lat mexanik eskirishga nisbatan past sezgirlikka ega.

Yuqori bardoshli va sovuqqa chidamlı istiqbolli po'lat turlarini yaratish bilan bir qatorda uglerodli po'lat sifatini tubdan yaxshilash uchun termik ishlov beriladi va mikrolegirlanadi. Shunday qilib bannadiy, alyuminiy va titan bilan mikrolegirlash yo'li bilan termik qayta ishlanganda ingichka listlar uchun qo'llaniluvchi chuqr cho'ziluvchi

simlar (07T) uchun eskirmas po'latlar (08 Fkp, 08Yu) ishlab chiqariladi.

Titan magniy ligaturasi bilan mikrolegirlangan po'latlar temir yo'l reqlarini kontakt charchoq shikastlanishlariga qarishi mustahkamligi 25-30 % ga ortadi. Shunday qilib, po'latni termik ishlash va mikrolegirlash metall buyumlarning xossalarini yaxshilaydi va iqtisodiy samaraga ega bo'lgan konstruksiyalar mashina va mahsulotlar mustahkamligi ortadi.

1.5. Sifatni yaxshilash uchun standartlashtirish

Mahsulot sifati standartlashtirish yo'li orqali amalga oshiriluvchi davlat miqyosida rejalashtirish obyekti hisoblanadi. Standart sifat ko'rsatkichlari asosiy xususiyatlari miqdoriy ko'rsatkichlarini belgilashga xizmat qiladi, ularning umumiyligi mahsulotlarning asosiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlash imkonini berdi. Standart va sifat tushunchasi ajralmas va bir biriga bog'liq. Standartlarda belgilangan talablar qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot sifat darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Qurilish, kemasozlik, temir yo'l transporti turli maqsadlar uchun lo'zda tutilgan turli maqsaddagi quvurlar, simlar, po'lat arzonlar va oshqa bir qator mahsulotlar uchun standartlashtirilgan mahsulotlar arkibiga uglerodli va kam uglerodli legirlangan konstruksion po'latlar kiradi.

Standartlarga muvofiq sifat ko'rsatkichlari asosiy iste'mol xususiyatlarining to'plamidir. Prakat uchun majburiy xususiyatlar quyidagilardir: tashqi ko'rinish, shakl, o'lchamlar va fizik-kimyoiy xossalar. Prokat mahsuloti sifatining umumiy o'sishi birinchi navbatda po'latdan yasalgan profillar, o'lchamlar va navlarning maqbul kengayishi bilan ta'minlanadi va mahsulotning ma'lum bir turi sifatini yaxshilash haqiqiy o'lchamlar va haqiqiy xususiyatlarni standart tomonidan belgilangan nominal qiymatga yaqinlashtirish orqali ta'minlanadi, ya'ni bir xillik ortadi. Standartlar kafolatlangan mahsulot sifatini aks ettiradi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar ilmiy asosga qurilgan. Ko'p yillik tadqiqot ishlarining natijalari davlat standartlari loyihibarini ishlab chiqish uchun material bo'lib xizmat qiladi. Sanoat tarmoqlarida

iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun standartlashtirish bo'yicha 500 ga yaqin asosiy tashkilotlar mavjud.

Barcha davlat standartlari ikki asosiy guruhga bo'linishi mumkin: mahsulot standarti va usullar standarti. Birinchi guruh sanoat mahsulotlari uchun barcha standartlarni o'z ichiga oladi. Standartlarning ikkinchi guruhi mahsulotlarning belgilangan sifat ko'rsatkichlarini olish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan nazorat usullarini tartibga soladi.

Mahsulotlar uchun standartlar sanoat tarmoqlari bo'yicha O'zstandart davlat agentligi tomonidan har yili davlat standartlari indeksi bo'yicha tasniflanadi. Tegishli mahsulot turlari bo'yicha tasniflashdan tashqari usullar uchun standartlar materiallarning xususiyatlarga ko'ra guruhlangan bo'lishi mumkin.

Qora metallurgiya mahsulotlarining asosiy turiga prokat va to'rtinchи chegara deb nomlanuvchi mahsulotlar (quvurlar, metizlar, simlar va boshqalar) kiradi. Bu mahsulotlar xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi, va ko'p hollarda metall kesiladi, payvandlanadi, bukiladi, termik ishlanadi. Shuning uchun detallar, agregatlar va konstruksiyalar ishslash jarayonida metall (konstruktiv mustahkamlik, korroziya bardoshlik va issiq bardoshlik)ga ega bo'lishi, kerak, bu me'yorlarga qo'shimcha ravishda metall va konstruksiyalami ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lgan texnologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak (shtamplanuvchanlik, payvandlanuvchanlik, prokatlanish va boshqalar). Ushbu xususiyatlар standartlashtirishga ham muhtoj.

Po'lat va prokatlar uchun davlat standartlari orasida ularning katta qismi yuqori sifatli po'latlarga tegishli. Sifatli po'lat standartlari to'rtta asosiy turga bo'linadi. Tasniflash standartlari po'latning kimyoviy tarkibi va umumiy sifat xususiyatlarini muayyan turdag'i prokatlarga ajratmasdan tartibga soladi. Bunday standartlarga misol sifatida GOST 5632 - 72 "Po'lat va yuqori legirlangan, korroziyabardosh, olovbardosh va issiqbardosh (deformatsiyalanuvchi markalar)" kiritilishi mumkin.

Saralash standartlar prokatlarning shaklini, qalinligi yoki diametr o'lchamlarini, prokat uzunligi yoki kengligini va barcha standart o'lchamlarni belgilaydi. Saralash standartlari umumiy (ular tarqatiluvchi guruhlari ko'rsatilmaydi) va xususiy (po'lat va qotishmalar guruhlari yoki navlarini aniqlash uchun) bo'lishi mumkin. Saralash

standartlariga misol tariqasida GOST 2590-71 “Issiqlay cho‘ziluvchan yumaloq po‘latlarni” keltirishimiz mumkin.

Texnik talablar uchun standartlar po‘lat yoki qotishmalarning ma’lum navlaridan olingan ma’lum bir yoki bir necha turdag'i prokat mahsulotlarining sifat xususiyatlarini tartibga soladi. Ushbu standartlar standartlashtirilgan obyektlar hajmini kengaytirish nuqtayi nazardan eng keng tarqalgan va istiqbolli hisoblanadi. Masalan, GOST 5949-75 “Issiqbardosh va korroziyabardosh va po‘lat navlari. Texnik talablar”.

Umumiy standartlar po‘lat navlaring ma’lum bir guruhida yasalgan prokat mahsulotlarning bir yoki bir necha turiga qo‘yiladigan texnik talablarni belgilaydi va bu markadan boshqa turdag'i prokatlarning kimyoviy tarkibiga qo‘llaniladi. Masalan, GOST 1050-74 “Yuqori sifatli konstruksion uglerodli po‘lat: Markalar va umumiy texnik talablar” va GOST 4543-71 “Konstruksion legirlangan po‘lat. Markalar va texnik talablar”. Ushbu ikkala standart ham diametri (qalinligi) 250 mm gacha bo‘lgan issiqlay cho‘ziluvchan va bolg‘alanuvchan po‘lat turlariga qo‘yilgan texnik talablarni tartibga soladi va kimyoviy tarkibi jihatidan ushbu po‘latdan yasalgan boshqa turdag'i prokat mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladi. Xuddi shu guruh tarkibiga po‘lat turlari va ularga qo‘yiladigan texnik talablardan tashqari, bir qator mahsulotlar va o‘lchamlarni o‘z ichiga olgan standartlar kiritilishi kerak. Standart bilan yuqori magnit o‘tkazuvchanligi bo‘lgan qotishmalardan tayyorlangan simlar, listlar va tasmalar uchun aniq o‘lchamlarni bundan tashqari kimyoviy tarkibining umumiyligi standartlarini va har bir turdag'i mahsulotning o‘lcham guruhlari uchun magnit xususiyatlarining differensial normalarini belgilaydi.

Bu guruhga nafaqat ayrim mahsulot turlari uchun texnik talablarni, balki individual ko‘rsatkichlarni sinash usullarini ham belgilaydigan standartlarni o‘z ichiga oladi. Bunday standartlarga masalan GOST 801-78 “Rolik podshipnikli sharikli po‘latlar” uning muhim qismi metallmas eritmalar uchun namuna olish qoidalari va sinov usullarini belgilovchi metodik ko‘rsatma hisoblanadi.

1.6. Ishlab chiqarish va mahsulot sifatini boshqarish

Zamonaviy korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish alohida e’tiborga loyiqliqdir. Birinchi marta 1903-yilda F. Teylor o‘zining “Korxonalarni boshqarish” asarida amaliy va nazariy tajribasini

umumlashtirib, mahsulot sifatini yaxshilash nafaqat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, balki ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash, ishchilar ish haqini oshirish va yuqori malakali ishchilarни rag'batlantirish zarurligini isbotladi va bu barcha xodimlarni doimiy ravishda o'qtish uchun sharoit yaratadi. F. Teylordan keyin korxonalarni boshqarish kasbga aylanadi va ushbu yo'nalishni rivojlantirish zamonaviy sanoat va zamonaviy boshqaruv usullarini yaratishga olib keldi.

Urushdan keyingi yillarda yaponiyaliklar noldan ajoyib natijalarga erishgan holda ishlab chiqarishni boshqarish ilmini, birinchi navbatda, o'z mahsulotlari sifatini boshqarishni joriy etdilar. "Yaponiya mo'jizasi" nazariyotchilari Amerikalik iqtisodchilar U.E. Deming, J.M. Juran, Pareto va boshqalar mahsulot sifatining 80-85% ishlab chiqarishni boshqarish tizimi va faqat 15-20% ijrochilar tomonidan ta'minlanishi aniqlandi. Tayyor malisulotni boshqarish uchun mablag'larni ko'paytirish orqali sifatga erishish mumkin emas, mahsulotni ishlab chiqishdan boshlab, uni ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida kiritish kerak. Yaponiya ko'plab tarkibiy qismlardan iborat yaxlit sifat menejmenti tizimini joriy qildi. Ular orasida ishlab chiqarishda texnologiyani boshqarish muhim ahamiyatga ega, amino yetakchi roldan yiroq. Shuningdek, ishchilarning xulq-atvor va qobiliyatları va barcha darajadagi ishlab chiqarish xodimlarini tarbiyalash hamda doimiy ravishda tayyorlash tizimi, menejerlar va xizmatchilar o'rtaсидаги munosabatlarning yumshoq usullari va boshqalar ham muhimdir. Ehtimol, ushbu tizimning asosiy elementi zaxiralarni boshqarish bo'lib, amalda bu zaxiralarni nolga kamaytirishdir. Texnologiyalar, jihozlar, uskunalar, materiallar ishlab chiqarilmoqda va takomillashtirilmoqda, bunda kichik partiyalarda va faqat yuqori sifatlari mahsulot ishlab chiqarish foydali bo'ladi. Bu oraliq omborlar va yarim tayyor mahsulotlarning ortiqcha zaxiralari bo'lmaganda ishlab chiqarishni boshqarishning tezkor tizimi *Just-in-time* va uni qo'llab-quvvatlovchi "Kanban" axborot tizimidan foydalangan holda "aniq va o'z vaqtida" prinsipi bo'yicha aniq ishlarni talab qiladi. Har bir oraliq qayta taqsimlashda dastlabki xaridlar va materiallar kerakli vaqtida, kerakli miqdorda, ishlab chiqaruvchining aniq manzili va har doim yuqori sifatga ega bo'ladi. Foydaga "ortiqcha" va nuqsonli mahsulotlarni ishlab chiqarishda yo'qotishlarni bartaraf

etish bilan bir qatorda, ishchining o‘zi ishlab chiqargan mahsulotning yuqori sifatiga bo‘lgan mas’uliyati va qiziqishi ham muhimdir.

Yevropa va Amerika korxonalarida mahsulotni umumiylashtirish savatda ishlab chiqarish, ishchining mas’uliyatini kamaytiradi. Har kim o‘zi uchun ishlaydi. Bu yerda mahsulotning haddan tashqari ko‘p ishlab chiqarilishi tufayli yuqori sifatga erishish, bu bozorni tez to‘ldirish va raqobatchidan ustun turish imkonini beradi. Sifatni yaxshilash, tez o‘zgarib turadigan talab sharoitida kichik o‘lchamdagagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kompyuter tizimlari asosida murakkab ishlab chiqarishni boshqarish tizimlarini joriy etish, murakkab matematik usullarni qo‘llash, hisoblash va yechish texnikasini takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga yapon korxonasida hamkorlik psixologiyasi, korxonaga sadoqat, muammolarni hal qilishning guruhiy usullari, doimiy va universal o‘rganish va o‘sish muhiti muhim ahamiyatga ega. 70 - yillardan beri Ishlab chiqarishni boshqarishdagi yapon tajribasi ba’cha iqtisodiy rivojlangan davlatlar tomonidan o‘rganilmoqda va qisman amalga oshirilmoqda. Biroq, ko‘plab iqtisodchilarining fikriga ko‘ra, mahsulot sifatini integratsiyalashgan boshqarish nuqtayi nazaridan kechikish kamaymaydi, aksincha, faqat ortadi. Biroq, ko‘plab iqtisodchilarining fikriga ko‘ra, mahsulot sifatini integratsiyaashgan (kompleks, uyg‘unlikda, birqalikda) boshqarish nuqtayi nazaridan kechikish qisman kamaymaydi, aksincha, faqat ortadi.

Ishlab chiqarish va bozor munosabatlari sohasidagi hamkorlikning rivojlanishi munosabati bilan mahsulot sifatini baholashda turli davlatlarning pozitsiyalari yaqinlashmoqda. Yakka tartibdagi tadbirkorlik falsafasiga asoslangan yagona sifat falsafasi paydo bo‘ldi. Uning asosiy sharti va tasdig‘i bu - mahsulotning sifati uchun to‘liq javobgarlik ishlab chiqaruvchiga yuklanganligidir. Sifatli mahsulotning parametrlari kutilgan talablarga javob beradigan xususiyatlar to‘plami sifatida iste’molchi tomonidan belgilanadi. Iste’molchi talablarini to‘liq va aniqroq qondirish uchun ishlab chiqaruvchi sifatni ta’minlash usullarini va sifatni boshqarish tizimini takomillashtirishga majburdir. Mahsulot sifati konsepsiyasini ishlab chiqishda u bir necha bosqichlardan o‘tdi.

Birinchidan, iste’molchi zarur sifatni ta’minlashi shart va “faqat mos, ya’ni standartlarga javob beradigan mahsulotni olishi kerak deb ishonishgan. Nuqsonli mahsulotlar iste’molchidan olib tashlanishi

kerak". Nuqsonli mahsulotlar iste'molchiga tushmasligi uchun mahsulotni boshqarish tizimi yaxshilanishi kerak.

Ikkinchi bosqich mahsulot sifatini boshqarishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchining asosiy maqsadi standartlarga mos keladigan mahsulotlarni olish. Ammo asosiy harakatlar ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga, jarayonlar bo'yicha texnologik operatsiyalarni boshqarishga qaratilgan bo'lib, bu mos keladigan mahsulotlar rentabelligini oshirishni ta'minlaydi va yaroqsiz mahsulotlarni rad etish jarayonini avtomatlashtiradi.

Sifat konsepsiyasining hozirgi rivojlanish bosqichida asosiy vazifa mahsulot sifatini boshqarish dasturini tuzishdir. Dastur nafaqat texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirishga, balki sifat menejmenti tizimini qurishga asoslanadi, uning elementlari sifat muammolarida korxonalarini yuqori boshqaruvida bevosita ishtiroy etadi, barcha darajadagi xodimlarni yuqoridan pastgacha sifatni ta'minlash usullarida o'qitadi va statistik boshqaruv usullarini hamda yuqori sifatga erishishni rag'batlantirishni joriy qiladi. Mahsulot sifati mahsulotni tayyorlash siklida allaqachon rejaliashtirilgan. Ishlab chiqarish samaradorligini baholash o'zgarib bormoqda. Oldingi bosqichlarda samaradorlik ishlab chiqaruvchining o'zi tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlandi: samaradorlik, sotilgan mahsulotni sotishdan olingan foyda, rentabellik. Endi iste'molchilarining ehtiyojlarini qondiradigan ko'rsatkichlar, masalan, mahsulot sifati, bozordagi raqobatbardoshlik, mahsulotning o'zi va ishlab chiqarishning atrof-muhitga zararli ekanligi ta'kidlanadi.

Yangi konsepsiya muvofiq, ISO 9000 tizimining xalqaro standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, unga mijozlarni sifatli mahsulot bilan ta'minlash bo'yicha talab va tavsiyalar kiradi. Ushbu standartlar birinchi navbatda "mahsulotga talablar" va "sifat tizimiga qo'yiladigan talablar" tushunchalarini aniq belgilab beradi. Sifat tizimiga qo'yiladigan talablar mahsulotlarga qo'yiladigan texnik talablarni to'ldiradi. ISO 9000 tizimining standartlari mahsulot sifatini oshirish usullarini tavsiflamaydi bu - muammolarni hal qilish korxona rahbariyatiga taqdim etiladi. Ammo ular kompaniya tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan sifat tizimining bir qator tashkiliy va texnik vazifalarini ishlab chiqadilar, shunda uning mahsulotlari umumiy xalqaro talablar doirasida yuqori sifatli mahsulotlar sifatida sertifikatlanishi mumkin. Sifat bo'yicha ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

berilgan ISO 9000 seriyasining xalqaro standartlarida barchasi hisobga olinmaydi va faqat sifatga eng katta ta'sir ko'rsatadigan korxona elementlari hisobga olinadi. ISO 9000 seriyasining xalqaro standartlarida sifatli ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan, lekin hammasi ham hisobga olinmagan, faqat sifatga eng katta ta'sir ko'rsatadigan korxona elementlari hisobga olinadi. Va ushbu elementlarning kombinatsiyasi sifat menejmenti tizimi sifatida taqdim etiladi. Sifatni boshqarish funksiyalariga qo'shimcha ravishda (mahsulotni tekshirish, tuzatuvchi nazorat choralarini va boshqalar), ushbu tizim ishlab chiqarish, dizayn, ta'minot va boshqa elementlarni o'z ichiga oladi, ular faoliyatning qaysi sohalariga tegishli bo'lishidan qat'i nazar ISO 9000 qonuniy ravishda har qanday korxona faoliyatining kompleks tarzda o'zaro ta'sir ko'rsatadigan texnologik jarayonlar tizimi (K.Ishikava tushunchasi) sifatida ko'rsatilishini ta'minlaydi. Mahsulotga qiymat qo'shish ishlarini bajarish uchun barcha jarayonlarning tarmog'i mavjud. Kompaniya doimiy ravishda tahlil qilinib va takomillashtirib turiladigan mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha jarayonlar tarmog'ini yaratadi, ta'minlaydi.

Har bir jarayon uch bosqichdan iborat:

kirish, shu jumladan mehnat va xomashyo, qayta ishlanadigan materiallar, energiya, ma'lumot, hisoblash dasturlari va hk.;

mehnat obyekti va resurslarni mahsulotga aylantirish mexanizmi; aylantirish (transformatsiya) jarayoni mehnat obyektiga qiymat qo'shish va uning yangi sifatiga erishish bilan bog'liq;

chiqish, bu - nafaqat korxonaning asosiy mahsulotlariga, balki qo'shimcha mahsulotlarga modda, yarim tayyor mahsulot, qurilma, hujjat, xizmat ko'rsatish, chizma, intellektual mahsulot, boshqaruv tizimi va boshqalarga ham xizmat qilishi mumkin.

Odatda, har bir bosqichda o'lchash uskunalar, asboblar, o'lchash tizimlari, shu jumladan avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshiriladi.

ISO 9000 standartlariga muvofiq, talablar jarayonining har bir bosqichini tashkil qilish uchun talab qilinadi va ishlab chiqarilgan mahsulot turidan qat'i nazar, ular har bir bosqich uchun bir xil. Mahsulot sifatini umumiy boshqarishga jarayonni boshqarish usullarini standartlashtirish va jarayonni tashkil etishning birligi orqali erishiladi.

Stanlar tuzilishi bo'yicha ishchi kletalarining joylashishi:
 Ishchi kletalarining joylashishiga prokat stanlari besh guruhga bo'linadi: bir kletali; chiziqli ko'pkletali, ketma-ketli, yarim uzliksiz va uzliksiz (1.15 - rasm).

Turli xil ko'rinishdagi metall konstruksiyalari

Konstruksiya ning profil ko'rinishi	Kontur bo'yicha elevdan him oyalaishi			Yeng'indan him oya qilishi qon shaklida bajarsidi		
	4 ton'dan	3 ton'dan	4 ton'dan	3 ton'dan	2 ton'dan	
		

1.7. Prokat stanlарining tuzilishi

Bir kletli (1.15 - a, b - rasm) stanlar birmuncha sodda yuritma valli qurilmalar asosan ishchi kletalarini boshqa tartibda joylashgan stanlarda takrorlanadi. Umumiy holatda bunday stanning ishchi kletasi va valli yuritmasi shpindel, oltiyoqli, reduktor mufta va asosiy


elektrodvigateldan tashkil topgan. Bu guruh staplariga slyabing va blyuminglar, universal va talab etilgan stallar kiradi.

Chiziqli stanlarga (1.15- d-rasm) ishchi kletlar bir (alohida yuritmali) yoki bir necha chiziqli (bitta dvigatelli yuritmaga ega) bo'lib joylashadi. Bunday turdag'i stanlar reversiv emas. Ular navli yoki listli bo'lishi mumkin. Chiziqli stanlarning samaradorligi past.

Ketma ket stanlarda (1.15 - e, f - rasm) har bir kletdag'i tasmalar faqatgina bir marta prokatlanadi, shuning uchun bunday stanlarda klet soni uzatmalarining maksimal soniga teng bo'lishi kerak. Sex kengligi va uzunligi kamaytirish maqsadida kletlar bir necha parallel qatorlarda joylashtiriladi, masalan uchta (zigzagsimon stanlar). Ushbu turdag'i stanlarning xilma-xilligi shaxmatsimonligida, unda yakuniy kletlar shaxmat tartibida o'matiladi. Ketma-ket stanlarning samaradorligi chiziqliga nisbatan yuqori ammo yarim uzlucksizga nisbatan past.

Yarim uzlucksiz stanlar (1.15-g-rasm) ikki guruh kletdan tashkil topgan: uzlucksiz va chiziqli (yoki ketma - ket). Kletning bir guruhida tasma uzlucksiz prokatlanadi, u bir vaqtning o'zida ikki, uch va undan ko'p kletlarda bo'lishi mumkin. Boshqa guruhda prokat yuqorida keltirilgan prinsip bo'yicha amalga oshiriladi (chiziqli va ketma-ket stanlar).


Uzlucksiz stanlar (1.15-h, I - rasm) tasmalar bir vaqtning o'zida bir nechta kletlarda prokatlanadi. Stanning ishchi kletlari bir-biri bilan ketma-ketlikda joylashtiriladi, vallar aylanishi bir xil yo'nalishga ega bo'ladi. Kletlarda vallar aylanish tezligi shunday boshqariladiki, bunda har qanday kletlar prokatlanuvchi metall hajmi vaqt birligida doimiy bo'ladi. Bu stanlarning afzalliklari: yuqori samaradorlik, prokatalash jarayonlarini butunlay avtomatlashtirish, kapital sarflarning ozligi.



1.15-rasm. Stanlarda ishchi kletalarining joylashish sxemasi:

a-bir kletali; *b*-ketma ket oshirilgan; *c*-chiziqli ikki pog'onali; *d*-zigzagsimon ketma-ketlikda; *e*-shaxmat ketma ketlikda; *g*-yarim uzlusiz simli; *h*-uzlusiz ketma-ket keng tasmali; *i*-uzlusiz; *l*-*l*-kletlar


Prokatlash stanlari. Qora va rangli metallar va ularning qotishmalarini prokatlash natijasida xilma-xil buyumlar ishlab chiqaruvchi mashinalar “prokatlash stanlari” deyiladi. Prokat stanlarida zagotovkalarни plastik deformatsiyalab ko‘ndalang kesimiga zaruriy shakl berib, bo‘yiga uzaytiriladi (1.16 - rasm).



1.16 - rasm. Prokatlash stanining sxemasi:

1-jo'valar; *2*-qotirish joyi; *3*-shpindellar; *4*-tref muflit; *5*-korpus; *6*-ish kleti; *7*-kulachokli muflit; *8*-reduktor; *9*-elektr dvigatei

Ishlatilishiga ko'ra yarim va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi prokatlash stanlariga bo'linadi. Bundan tashqari prokatlash stanlarining rels-balka ishlab chiqaruvchi, yirik, mayda, o'rtacha sortli prokat stanlari, sim ishlab chiqaruvchi prokat stanlari kabi turlari ham mavjud. Prokatlash stanlari jo'valari soniga ko'ra ikki, uch, to'rt va ko'p jo'vali xillarga ajratiladi (1.17 - rasm).



1.17 - rasm. Prokat stanlar turlari:

a - ikki jo'vali; b - jo'valari gorizontal va vertikal o'rnatilgan; d - uch jo'vali; e - t - 'rt jo'vali; f -olti jo'vali; g - ko'p jo'vali; h - universal; i - k - quvurlar tayyorlash jo'valari; l - quvurlar cho'zuvchi jo'valar

Stanlarning maqsadga muvosiq tasniflash. Ishlab chiqariluvchi mahsulotlar turiga qarab prokat stanlari siqib ishlov beruvchi, blyuming, slyabing), zagatovkalar tayyorlovchi, rels balkali, yirik navli, o'rta navli, mayda navli, simli, qalin listli, keng listli tasma prokatli, quvur prokatli va maxsus maqsadli stanlarga (g'ildirakli va bandaj prokatlio'zgaruvchan va davriy profillarni prokatlash uchun) bo'linadi.

1.7.1. Prokat stanlarining tasnisi va qo'llanish sohalari

Prokat stanlarning ishlatilishiga, ish kletlarining holatiga, jo'valar soniga va joylanishiga ko'ra ajratiladi (1.18 - rasm). Ishlatilishiga ko'ra: ular yarim va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga bo'linadi.

a). Yarim mahsulot. Yarim mahsulot ishlab chiqaruvchi prokat stanlarga blyuming, slyabing kiradi va ularda ko'ndalang kesimi yirik

quymalar yarim mahsulotlarga prokatlanadi. Bu stanlar jo‘valar diametri 800 - 1400 mm bo‘ladi.

b). Zagotovkalar. Zagotovkalar tayyorlovchi prokat stanlar ham yarim mahsulotlar tayyorlovchi bo‘lib, bunda blyum yoki quymalardan u qadar massasi katta bo‘lмаган (1500 kg gacha) kichik kesimli buyumlar tayyorlanadi. Tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi prokat stanlarga esa quyidagilar kiradi:

1). Rels - balka ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda temir yo‘l relsleri. qo‘shtavrli balkalar, yirik o‘lchamli shvellerlar va boshqa yirik profillar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 750 - 900 mm oralig‘ida bo‘ladi;

2). Yirik sortli prokat stanlar. Bu stanlarda po‘latlardan doiraviy, 80 - 200 mm li kvadrat, № 12 - 24 li shvellerlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 500 - 700 mm oralig‘ida bo‘ladi;

3). O‘rtacha sortli prokat stanlar. Bu stanlarda o‘rtacha kesimli doiraviy, 40-80 mm li kvadrat, № 16 gacha bo‘lgan shvellerlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 350 - 500 mm oralig‘ida bo‘ladi;

4). Mayda sortli prokat stanlar. Bu stanlarda kesimi kichik bo‘lgan doiraviy, 8 x 40 mm li kvadrat. 50 x 50 mm gacha bo‘lgan ugolok va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 250 - 350 mm oralig‘ida bo‘ladi;

5). Shtripli sortli prokat stanlar. Bu stanlarda eni 64-500 mm, qalinligi 1,5-1,0 mm gacha bo‘lgan polosalar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 300-400 mm bo‘ladi,

6). Sim ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda diametri 5 dan to 10 mm gacha bo‘lgan yumaloq, kesimli simlar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valari diametri 250-300 mm bo‘ladi,

7). Qalin listlar ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda qalinligi 4 dan to 60 mm gacha bo‘lgan listlar ishlab chiqariladi. Bu stanlar jo‘valarining bochka uzunligi 2000 - 5000 mm bo‘ladi;


8). Yupqa listlar ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda qizdirilgan va sovuqlayin holda qalinligi 4 mm dan kichik bo‘lgan listlar ishlab chiqariladi. Bunday stanlar jo‘valarining bochka uzunligi 700 - 2800 mm bo‘ladi.

9). Universal stanlar. Bu stanlarda eni 200 dan to 1500 mm ga-cha bo‘lgan polosalar ishlab chiqariladi;

10). Quvurlar ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda choksiz va chokli quvurlar ishlab chiqariladi;

11). G'ildirak va bandaj ishlab chiqaruvchi prokat stanlar. Bu stanlarda temir yo'l g'ildiraklari va bandajlari ishlab chiqariladi. Bulardan tashqari maxsus prokat stanlari ham bo'ladiki, ulardan masalan, sharlar, shatun, tishli g'ildirak kabi buyumlar olinadi.

Shuni ham qayd etish joizki, qabul etilgan texnologiyaga ko'ra, ularni ish kletlari bittali (masalan, blyuming va slyabinglarda) bo'ladi. Lekin ko'p hollarda ularda bir necha zarur kalibrler joylashtirib bo'lmagani sababli ko'pincha ko'p kletli stanlardan foydalilanadi va birining ketidan ikkinchisi chiziqli o'matiladi. Odatda bunday o'matilgan kletlar soni ikkidan beshgacha bo'ladi. Bunday o'matishlar zagotovkalar tayyorlovchi yirik va o'rta sortli stanlarda qo'llaniladi. Bularning kamchiligi shundaki, barcha kletlarda aylanish sonlarining bir xilligidir. Bu holda prokatlangan buyum uzuqligining ortishidar kletlar tezligi ortib prokatlanmaydi. Bu hol ish kletlarni bir chiziq bo'ylab emas, bir necha ketma-ketlikda o'matilib, jo'valar aylanish sonlarining har biri ortadi. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi d'yarli ortadi.



1.18-rasm. Prokatlash jo'valari, kalibrler va qo'shtavr balkani tayyorlashning texnologik ketma-ketligi: a-silliq silindrik jo'va; 1-bochka; 2-bo'yin; 3-tref; b-sortli buyumlar oluvchi o'yiqli jo'va; 4-o'yiq; d-ochiq kalibr; e-yopiq kalibr; f-qo'shtavr.

Zamonaviy mahalliy prokat stanlarining texnik xususiyatlari 1.1 jadvalda keltirilgan.

1.1. Zamonaviy mahalliy prokat stanlarining texnik xususiyatlari

Stanlarning qo'llanilishi	Stanning nomi	Ishchi soni	Prokashashning eng katta tezligi, m/s	Samaradorligi, ming/t/yil	Dastlabki material (massasi yoki ko'ndalang kesimi)	Tayyor mahsulot sortamenti
Siquvchi	Blyuming 1300	1	6	6000	13 t gacha bo'lgan quymalar	400x400 mm gacha bo'lgan blyumlar
	Slyabing 1150	1	5	6000 gacha	38 t gacha bo'lgan quymalar (slyatki)	300x1900 gacha bo'lgan slyablar
Zagotovka tayyorlovchi	Uzluksiz zagotovka tayyorlovchi 900/700/500	14	7	5000 gacha	400x400 mm gacha bo'lgan blyumlar	Kvadrat zagotovkalar 80... 200 mm
Rels-balkali	Chiziqli rels-balkali 800... 850	4	4	1500	400x400 mm gacha bo'lgan blyumlar	Relslar 38... 75kg/m, balandligi 200... 600 mm li balka
Yirik-sortli	Yirik-sortli yarim uzluksiz 600	17	10	1600	300x300 mm gacha bo'lgan blyumlar	120 mm gacha bo'lgan aylana, balandligi 200 mm gacha bo'lgan balka
O'rta-sortli	O'rta-sortli yarim uzluksiz 350	14	15	1000	300x300 mm gacha bo'lgan blyumlar	75 mm gacha bo'lgan aylana, 90x90 mm gacha bo'lgan burchak
Mayda-sortli	Mayda-sortli uzluksiz 250	23	20	800	80X80 mm va 100x100 mm li zagotovkalar	30 mm gacha bo'lgan aylana, 40x40 mm gacha bo'lgan burchak
Provolkali	Provulkali uzluksiz 250	37	40	800	60X60 mm va 80x80 mm li	Katanka 6...9 mm

						zagotovkalar	
Issiq holatda listli va polosali prokatlash	Qalin listli 3600 Keng polosali uzlusiz 2000	3 14	6 20	1750 6000	16 t gacha bo'lgan slyablar, 37 t gacha bo'lgan quynalar, 36 t li slyablar	5...50 mm li listlar 1,2...16 mm li polosalar	
Sovuq holatda listli va polosali prokatlash	Uzlusiz kletli 2000 Uzlusiz 6 kletli qattiq-prokat 1400	5 6	5 25... 40	33 2500 750	45 t li rulon 30 t li rulon	0,4...3,5 mm li list va polosalar 0,1.-0,6 mm	

Navli prokat stanlarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida prokat jo'valarining diametri yoki shesternyali kletlar qabul qilingan. Agar shunda bir nechta klet bo'ladi, butun stanning barcha parametrlariga jo'va diametri yoki yakuniy shesternya, kletlar kiradi. Masalan, stan 300 da ishchi va shesternya jo'valarining kletlari 300 mm ga tengligini ildiradi.

Listli stanlar uchun asosiy ko'rsatkichlarga jo'va bochkasining uzunligi kiradi. Masalan stan 2000 jo'va bochkasi uzunligining 2000 mm ga teng ekanligini bildiradi.

1.8. Prokatlash texnologik jarayonlarining asosiy tamoyillari


Metallurgiya zavodi quyidagi texnologik jarayonlarga muvofiq ishlaydi. Domen pechlarida olingen cho'yan va po'lat konverterlarida, marten yoki elektr pechlarida qayta ishlanadi. Po'latni eritish sexlarida uzlusiz ishlashini ta'minlovchi suyuq cho'yan zaxirasi mikserlarda saqlanadi. Po'lat eritish sexlarida olingen quymalar maxsus (striller) bo'linmasiga kiritiladi, u yerda ular qolidan ajratiladi va prokat sexlariga yuboriladi.

Hozirgi vaqtida maxsus uskunalarda po'latni uzlusiz quyish usuli bilan yarim tayyor mahsulotlar (zagotovka) ishlab chiqarish keng tarqalmoqda, bu esa qisqich stanlarda qayta ishlashni, prokat ishlab chiqarish texnologik jarayonidan chiqarib tashlash imkonini beradi. Zamonaviy prokat sexlarida quyma yoki uzlusiz quyma

zagotovkalarda tayyor mahsulotlarga bo‘lgan prokat ishlab chiqarishning asosiy tuzilishi (1.19 - rasm) da ko‘rsatilgan.

Metall sifatining standart talablariga muvofiqligi ko‘p jihatdan boshqarish tizimining takomillashganligiga, shu maqsadda ishlatiladigan usul va vositalarning ishonchligiga bog‘liq. To‘g‘ri o‘matilgan texnik nazorat butun texnologik jarayonni va har bir operatsiyani alohida qamrab olishi kerak. Nazorat nafaqat iste’molchilar yoki keyingi operatsiyalarda yuzaga keluvchi nuqsonlarni, balki o‘z vaqtida nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olish kerak. Metallurgiya zavodlarida yuqori sifatlari po‘lat ishlab chiqarish uchun, prokatning to‘liq (100%) va tanlangan nazorati qo‘llaniladi. Birinchi usulning afzalliklari aniq ammo murakkabligi uni amalga oshirish bilan bog‘liq katta moddiy xaratjatlar har doim ham o‘zini oqlamaydi.


Sifat nazorati standart yoki buyurtmaga mos kelmaydigan quyma va zagotovkalarni prokatlashni oldini olish uchun (kimyoviy tarkib, nuqsonli xususiyatga ega yoki ptokatlash jarayonida nuqson yuzaga kelishiga moyil) amalga oshiriladi.



1.19 - rasm. Quyma va uzluksiz quyish bilan olingen zagotovkadan prokat ishlab chiqarish sxemasi

Yuqori sifatli po'latdan tayyorlangan quymani prokatlashda eritib nazorat qilish qo'llaniladi; har bir eritishda nazorat quymalari prokatlanadi va chuoqur sifat nazoratidan o'tkazilgandan so'ng qolgan quyma eritmalari prokatlanadi. Eritish nazorati ushbu eritmadiagi metallning buyurtmalarning bajarish uchun yaroqliligini aniqlash. Eritish xususiyatlarini inobatga olgan holda qolgan eritmalarni prokatlash uchun oqilona texnologiyani tanlash, eritish xaritasi va kimyoiyi tahlil natijalariga ko'ra eritish tayinlanganda nuqsonlarni oldini olish imkonini beradi. Amaldagi quymaning ko'rsatilgan tartibdagi sifat nazorati faqatgina suyuq holatdagi stan ish jarayonida qo'llaniladi. Qisqich stanlar asosan issiq ishlov berish (85...95%) da ishlaydi, shuning uchun boshlang'ich quymalarning sifati po'latni eritish va quyish texnologiyasi bilan kafolatlanadi va texnologik hujjalarga muvofiq baholanadi.

Prokat stanlarida asosiy texnologik operatsiyalar nazorati quyidagi tekshiruvlardan o'tkaziladi: sirt sifati, blumlar markasi, qizdirish pechlariga zagotovkani yuklashdan avvalgi nazorat, prokatlashdan avval metallni qizdirish rejimi va stanga (zagotovka) quymani yuklash ketma-ketligi, ko'ndalang kesim o'lchami va oraliq profillari sirti sifati, prokatlashni markirovkalash sifati va to'g'riliqi metallni texnologik sinash uchun namunalarni saralash.



1.20 - rasm. Rulonli list ishlab chiqarish sxemasi

Oxirgi, eng muhim qadam iste'molchilarga yetkazib berishdan avval tayyor mahsulotning xususiyatlarini va sifatini tekshirish hisoblanadi. U o'z ichiga prokatlashdan keyin metallning sovitish rejimini boshqarish, metallning mexanik xususiyatlarining sifat nazorati va sinovi (standart va buyurtma talablariga javob beradimi), sirt sifati, bo'yicha prokatni saralash, ko'ndalang kesim va uzunlik o'lchamlari ichki va sirtdagi uzilishlarni aniqlash uchun metallni buzmaydigan sinov, eritishning to'liqligi, po'latning kimyoviy tarkibini chiqiq markaziga muvofiqligini tekshirish, paket og'irligi, qadoqni nazorat qilish; buyurtmalar bo'yicha metallni to'g'ri qadoqlash va jo'natishni nazorat qilish va transportning texnik hujjatlarini rasmiylashtirishni oladi.

Tayyor mahsulot sifati namunaviy nazorat natijalariga ko'ra baholanadi. Eritish nazoratining to'liq hajmi quyidagi sinovlarni o'z ichiga oladi: eritishning kimyoviy tahlil qilish markaziy g'ovaklikni aniqlash uchun makro va mikrostruktura nazorati; nuqtali xilma-xillik, likvatsiya, likvatsion kvadrat, nometall qo'shimchalar, ichki darzlar va boshqalar; tolalar nazorati (bosqichma-bosqich), fazaviy tarkib (metallografik va magnit usullar), donalar kattaligi, uglerodsizlan-tiril an qatlam chuqurligi (metall strukturasiiga ko'ra metallografik usu, termo EDS usuli, sirt qatlam qattiqligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha), zanglamas po'latlarning kristallararo korroziyaga moyilliги.

Keltirib o'tilgan nazorat usullariga bukish texnologik sinovlarini kiritish lozim (metallning chegaraviy plastikligini baholash va d formatsiyalanish qobiliyatini aniqlash) sovuq va issiq holatdagi bo'kmalar (metallning deformatsiyalanish xususiyatini aniqlash va sirt aqsonlarini aniqlash), tekislash bukilish va o'rash kiradi.

Prokat sifatining asosiy xususiyatlaridan biri-profil o'lchamlari ning aniqligi, kalibrlashning to'g'riligi va prokat vallarini charxlash, kalibrlarni ishlab chiqarishni va metall deformatsiyasining haroratini hisobga olgan holda stanni sozlashning puxtaligi, hisoblanadi. Tayyor prokat profilining to'g'riligini o'lchov asbob-uskunlari, maxsus vizual shablonlar yordamida aniqlanadi. Prokat va boshqa sexlarda nazorat texnik nazorat bo'limlari zavod laboratoriyalari, sexning texnik xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtma bo'yicha jo'natiluvchi metall mahsulotlar texnik nazorat xizmati tomonidan qabul qilin-gan hujjatlar va sertifikatlar ijrosi bilan nazorat qilinadi. Ishlab chiqarishning har qanday bosqichida buzilgan mahsulotlar to'liq rad

etiladi yoki qo'shimcha qayta ishlataladi va diqqat bilan nazorat qilinadi.

Mahsulot sifatini yaxshilashning asosiy yo'nalishi ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishdir. Matematik statistik usullarni murakkab hisoblash texnologiyalari bilan birgalikda ishlatalishga nisbatan qisqa vaqt davomida o'rganilayotgan jarayonni matematik model yordamida to'liq namoyish etish va ishlab chiqarishni bajarishning eng samarali mezonlarini tanlash imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Prokat mahsulotlari ko'ndalang kesim shakliga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Prokat sifatini aniqlash ko'rsatkichlarini sanab o'ting?
3. Prokat stanlari qanday klassifikatsiyalarini?
4. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
5. Prokat mahsulotlarining sifatini baholashning qanday usullari mavjud?
6. Prokatlash deb nimaga aytildi?
7. Prokat mahsulotlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Prokat stanlarining tuzilishi qanday bo'ladi?
9. Prokatlash tarixi haqida nimalarni bilasiz?
10. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari qachondan boshlab rivojlana boshlagan?
11. Prokatlash stanlari haqida nimalarni bilasiz?
12. Prokatlashda zagotovkalar qanday olinadi?
13. Prokat stanlarida qanday texnologik operatsiyalar bajariladi?
14. Prokatlashda qanday mahsulotlar olinadi?
15. Sortli prokat mahsulotlarining turlarini bilasizmi?
16. Listli prokat mahsulotlarining turlarini bilasizmi?
17. Prokatlashda qanday zagotovkalar prokatlanadi?
18. Zagotovkalarni uzluksiz quyish stanlari haqida nimalarni bilasiz?
19. Zamonaviy mahalliy prokat stanlarining texnik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
20. Prokat stanlarining tasnifi haqida nimalarni bilasiz?

21. Prokat mahsulotlarining sifatini boshqarish qanday amalga oshiriladi?
22. List ishlab chiqarish texnologiyasini bilasizmi?
23. Prokat profillari qanday usullarda olinadi?

2-BOB. ZAGOTOVKALAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

2.1. Zagotovkalar ishlab chiqarish texnologiyasi

Blyumingda prokatlangan zagotovkalar, quymalar blyum deb ataladi. Uning o'lchamlari 100x100...400x400 mm bo'lgan kvadrat (yoki unga yaqin) aylana burchakli oraliqlarga ega. Slyabingda quymalar prokatlangan yassi zagotovka (ba'zan blyum orqali) slyab deb ataladi. Slyab qalinligi 100...300 mm va kengligi 600...2000 mm bo'lgan ko'p burchakli aylana burchak oraliqlarga ega.


Po'lat eritish sexlaridagi stril bo'limidan keltirilgan quymalar prokatlashdan avval qizdiriladi. Ushbu maqsad uchun quduq guruhlari ko'rinishdagi qizdirish uskunalari qo'llaniladi, ularni har biri bir necha katakchadan tashkil topgan. Zamona viy o'ralar odatta rekulerativ (100, 200 t cho'kmali) ustki va ostki qizdirishga ega. Gaz bilan qizdiriladi (domenning koks bilan aralashmasi) yonish issiqligi 5800...8500 kDj/m³ ni tashkil etadi. Yonilg'i sarfni iqtisod qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va sifatli qizdirish maqsadida o'ralarga 800...900°C haroratga ega quymalar yuklanadi (issiq yuklash). Ularni tutib turish va 1260...1300°C haroratgacha qizdirish uchun 2,5...3,5 soat vaqt sarflanadi. Sovuqlay yuklashda (quyma harorati 200...300°C) qizdirish uchun 2...2,5 barobar ko'p vaqt talab etiladi. O'rta uglerodli po'latdan tayyorlangan quymalarni yuklashda o'raning samaradorligi ko'rsatkichlarga asosan 15...18 t/s sovuq holatda 8...10 t/s tashkil etadi. O'ralarda quymalarni yuklash va tarqatish maxsus klesh tutqichli ko'priklar kranlar yordamida amalga oshiriladi.

Zamona viy reversiv siqv stanlarining yillik samaradorligi (slyabinglar, blyuminglar va diametric 1150...1500 mm bo'lgan gorizontall jo'vali blyuming slyabinglar) 3...6 mln. t ga yetadi. Prokatlash tezligi 5...6 m/s. Blyumingda prokatlanuvchi quymalar og'irligi 10...22 t, slyabing va blyuming – slyabinglarda 40...45 t.

Slyabinglar faqat slyablarni prokatlash uchun qo'llaniladi, shuning uchun ishchi kletning gorizontal valkalari silliq (silindrik) qilib tayyorlanadi. Ishchi kletada yon tomonlari to'g'ri burchakli kesimlarning keng slyablarini olish uchun gorizontallardan tashqari vertikal (gorizontaldan avvalgi yoki keyin joylashgan) mavjud.

Bunday klet universal deb ataladi. Blyuminglar blyumlar va qisman slyablarni prokatlash uchun qo'llaniladi (barcha navlarning 30% gacha), shuning uchun ishchi kletning gorizontal valkalari kalibrli qilib amalga oshiriladi.

(2.1 - rasm) da 1300 blyuming uskunalarining joylashish sxemasi ko'rsatilgan blyum kesmali prokatlarga 300x300...350x450 mm va (umumiy navlar hajmining 15% gacha) qalinligi 100...200 mm va kengligi 700...1000 mm quyma og'irligi 8...13 t slyablarni 6 m/s tezlikkacha prokatlash uchun mo'ljallangan.



2.1-rasm. 1300 blyuming uskunasining joylashish sxemasi:

I-qizdirish o'ralar bo'limi; II-stan oralig'i; III-elektromashina zali; IV-skrap oralig'i; V-blyum ombori; 1-qizdirish o'ralar; 2-quyma tashuvchi; 3-rolgang; 4-quyma itargich; 5-tarobi; 6-blyumning ishchi kleti; 7-manikulyator; 8-olovli tozalash mashinasi; 9-qaychi; 10-kesmalarni yig'ish uchun konveyer; 11-blyumning tozalash uchun vosita.

Qizdirish o'ralar bo'limida 12 guruh o'ralar ko'rib chiqilgan (ustki qizdirishli pechka turi) har birida to'rtta kamera (katak)li. Bitta kameraning issiqlayin quymani yuklashdagi yillik samaradorlik 120...150 ming t ni tashkil etadi. Quymalarni prokatlash ritmini ta'minlash uchun aylana o'ralarda qo'llanuvchi rolgang foydalilanildi. 1300°C haroratgacha qizdirilgan quymalar, o'ralardan kelish tutqichli, ko'priklar kran yordamida chiqariladi. Har bir navbatdagi quymani oluvchi quyma uzatgich rolganga yetkaziladi.

Quymani o'lhash va 180 °C ga aylantirish rolgang yo'lida o'rnatilgan qurilma orqali amalga oshiriladi. Ishchi kletning oldingi tarafida joylashgan o'chirg'ich va uning ikki tarafida joylashgan manikulyator chizg'ichlari berilgan prokat dasturi bo'yicha ishlaydi. Qo'shma og'irligi va blyum kesmasiga ko'ra bir yoki ikki quymali prokatlash amalga oshiriladi. Blyumning jo'vasi diametri 1300 mm (kalibr burtlari bo'yicha) bochka uzunligi 2800 mm. Har bir ishchi jo'va nominal davri 1100 kN.m quvvati 6800 kvt doimiy tokli elektrosvigatelga ulangan individual yuritma bilan jihozlangan.

Blyumingdan quymani prokatlash 9...13 revers boshqaruvchi va 90°C burchak ostida o'chirg'ich orqali amalga oshiriladi. Taxlamni kalibrdan kalibrga o'zgartirish uchun manipulyator chizg'ichlar, o'chirg'ich uchun o'chirg'ichlar qo'llaniladi. Oraliqdagi siqish kattaligi metalni jo'vada tutish sharoitlariga, asosiy yuritma quvvati va stan detallari mustahkamligiga bog'liq. Slyab va blyumlarning issiq yuzalarini tozalash (darzlarni, kuyindi, shlaklarni yo'qotish) uchun ishchi klet orqali rolgang yo'nalishiga olovli tozalash mashinasi (OTM) o'rnatiladi. Agar prokatlashdan so'ng slyab va blyumni tozalash talab etilmasa u holda (OTM) keskichlari rolgang yo'nalishidan olib qo'yiladi. Mashinaning ishlash rejimi avtomatlashirilgan. Olovli tozalashda metallning sirt qatlami 1,5...2,5 mm qalinlikda kuydiriladi. Bunda metallning yo'qotilishi 1...2,5% ni tashkil etadi. Olovli tozalash mashinasiga 1250 MN kuchlanishli quyi keskichli qaychilar o'rnatilgan. O'lchov uzunligida blyum va slyablarni kesishda noaniq kesmalar miqdorini kamaytirish uchun (1200...6000 mm) qaychilar EXMLar yordamida boshqariladi, buning uchun kesishgacha bo'lgan tasma uzunligini datchiklar qo'llaniladi. Boshlang'ich va yakuniy qism kesmalar maxsus temir yo'l platformalaridagi konveyerlarga yig'iladi. Blyum va slyablarning burchaklari qaychida kesilganda so'ng ularni tamg'alash masofaviy tamg'a olishtirgichli avtomatlashirilgan tamg'alash mashinalarida amalga oshiriladi. Bunda blyum va slyablarning boshlang'ich va yakuniy qism chiqindilari (kesmalar) og'irlik (yiliga 500 mingdan to 1mln tonnagacha)ning 10...25% tashkil etadi, ularni po'lat eritish sexlariga yuborishdan avval po'lat markalariga bo'lish murakkab va qiyin masalalarni yuzaga keltiradi. Ko'p-gina blyuminglarda (1300 blyumingdan tashqari) tamg'alash jarayoni qo'lida amalga oshiriladi.

Blyumlarni qaychida kesishdan so'ng tamg'alashdan keyin ular rolgang boylab uzluksiz zagotovkalash stani 900/700/500 tomonga harakatlanadi, slyabr esa itargich yordamida taxlagich stalga olinadi va undan so'ng (aravacha yoki ko'targich) bilan omborga sovitish va tozalash uchun yuboriladi.

Universal balkali stan bir qancha holatlarda jo'va bochkasi uzunligi 3550 mm 1500 reversiv blyumingli kompleksda o'rnatiladi. U oralig'i 250x250...400x400 mm va uzunligi 3,6...11,4 m bo'lgan blyumlar, oralig'i 200x1600 mm va uzunligi 2...3,4 m bo'lgan slyablar, bundan tashqari og'irligi 9,7...21,8 t oralig'i 185x450 mm dan 450x1225 mm gacha bo'lgan har xil shaklli balka zagotovkalarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Taxlamani tiraksiz kesish uchun ishchi klet o'Ichov uzunligi bo'ylab 16 MN maksimal kesish kuchiga ega qaychilar o'rnatilgan. Kesishlar soni daqiqasiga 4...12 tashkil etadi. Stan va ishchi klet oqimidagi qaychilar OTZ bilan ko'rib chiqiladi. 1500 Blyumingning yillik loyihaviy samaradorligi 3 mln t ni tashkil etadi, mexanik uskunaning og'irligi 8650 t, stang asosiy elektrovdvigatellar umumiyligida quvvati 14000 kWt.

2.2. Metallni qizdirish sifati va rejimlari

So'ngi o'n yillikda avvalgi ishlab chiqarilgan quduqlarda zarur issiqlik texnikasi va konstruktiv chora tadbirlar amalga oshiriladi, bu esa quymalar qizdirish jarayonlarini jadallashtirish va ularning ish ko'rsatkichlarini texnik iqtisodiy taraflama bir muncha yaxshilash imkonini beradi. Biroq ko'p hollarda qizdirish quduqlar bo'linmalari siqish sexlarida kichik joyni egallaydi.

Qizdirish qurilmalari. Metallurgiya zavodlarida blyuming-lar va slyabinglarda quymalarni qizdirish uchun asosan regenerativ va rekulerativ qizdirish quduqlari qo'llaniladi, tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) bir o'rinci katakchaga ega regenerativ quduqlar;
- 2) ko'p o'rinci kameraga ega regenerativ quduqlar;
- 3) ko'p o'rinci rekulerativ quduqlar, markazi tubidan qizdiruvchi va bir yoki ikki isitkichiga ega qurilmalar.

Bir o'rinci katakchaga ega regenerativ quduqlar anchayin eskirgan (tuzilishi va texnologiyasi) va oz miqdorda saqlanib qolgan. Ko'pgina

quduqlar gazsimon yonilg'i bilan qizdiriladi. Koksdomenli aralashma, ayrim zavodlarga domen yoki aralash gaz qo'shiladi. Suyuq yonilg'i faqatgina ayrim korxonalarda to'liq bo'lman metallurgik jarayonlarda qo'llaniladi. Ko'p o'rinali regenerative qizdirish quduqlari har bir guruhda to'rtta bo'lim katakdan tashkil topgan. Bitta kataknning nominal sig'imi 6,8 va 10 ta quymani tashkil etadi. Kataklar odatda parlanib ishlaydi. Regenerativ quduq turining kamchiliklari (yonilg'i yoqish tizimining nomukammalligi, o'tkazgich klapinli qurilmalarning murakkabligi, kataklarning kichik sig'imi va katta o'lchamli qoniqarsiz sanitar sharoitlar va boshq.) sababli ulardan voz kechib bir muncha zamonaviy tuzilishga ega qizdirish qurilmalari rekulerativ quduqlar foydasiga o'tiladi. Tub markazidan qizdiruvchi rekulerativ quduqlar keng qo'llanilmoqda. Bu quduqlar aralash aralash gazlar bilan (yonish issiqligi 6300...7500 kDj/m³) havo bilan va ba'zan yonilg'i bilan qizdiriladi. Quduq guruhlari sig'imi 12 dan 14 quymagacha bo'lgan mustaqil ikkita kameradan tashkil topgan. Shlak ajratish quruq yoki suyuq bo'lishi mumkin.

Markaziy isitgichli rekulerativ qizdirish quduqlari metallni bir muncha sifatlari qizdirilishini ta'minlaydi, biroq bir qancha jiddiy kamchiliklarga ega: kerakli rekuleratorlarda havoning katta yo'qotilishi, kataklar kengligining kam darajada ishlatilishi, quymalarning balandligi bo'yicha notejis qizdirilishi, Hattoki rekuleratorlar bir tekis taxlanganda havoning yo'qotilishi 20...30% ni tashkil etadi, foydalanish so'ngida esa 50...60% bu esa quduqlar samaradorligining kamayishiga olib keladi. Qisish sexlarida rekulerativ qizdirish quduqlarining ikki yagona qizdirgich gorelkali quduqlarda tubning barcha kengligidan quymalarni o'rnatish uchun foydalanish mumkin. Bunda yuklarna og'irligining sezilarli darajada ortishiga eritish mumkin (bitta quduqda 200 t gacha).

Bitta ustki gorelkali quduqlar sanoatda ko'pdan beri qo'llaniladi, ammo metalluriya zavodlarida ular so'nggi 15-20 yildan beri keng qo'llanilmoqda. Bunday quduqlar 1300 blyuminglarda ishlaydi. Bu qizdirish qurilmalarining katta o'tkazgich qobiliyati mavjud, ixchamlik (kataklar sig'imi 40% ga ortganda bo'limlar uzunligi 20% ga qis-qaradi), turli quymalarning keng qizdirish imkonii (og'irligi 7...30 t), havo va gazning yuqori qizishi (300 va 800°C gacha), qizdirish jarayonini boshqarishning avtomatik tizimlari mukammalligi va bir qator boshqa afzalliklar yillik samaradorligi 5,5...6,0 mln t bo'lgan

quvvatli qisish stanlarini qizigan metall bilan ta'minlash masalalarini hal etadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan qizdirish quduq turidan tashqari elektr quduqlardan kam foydalaniлади. Ularning afzalligi kuyishning minmalligi hisoblanadi, bunda boshqa turdagи quduqlarning 2% ga qarashi normal sharoitda 0,3% dan oshmaydi. Bu o'z navbatida yuqori legirlangan qimmatbaho po'latlarni prokatlashda elektr qizdirishning yuqori samaradorligiga sabab bo'ladi.


Quvurlarning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlariga ularning samaradorligi kiradi. Uni yuklash va tarqatishdagi kuyindi, chiqindisi hisobga olgan holda aniqlash mumkin. Biroq metall kuyindisini hajmiy aniqlash murakkabligi sababli samaradorlik faqatgina yuklangan metall og'irligi bo'yiga aniqlanadi.

Bir guruh qizdirish quvurning o'rtacha soatlik samaradorligi t/s,

$$P_{ch} = \frac{m_{ya} \cdot n_s \cdot Q}{\tau_0} \cdot k_{i,h}$$

(2.1). rasm

Bunda m_{ya} - guruhdagi kataklar soni; n_s - katakdagi qizdiriluvchi quymalarning o'rtacha soni; Q - quyma og'irligi, t; τ_0 - katakning aylanish vaqt, s; $K_{i,h}$ - quvurning foydalanish koeffitsiyenti;



2.2 - rasm. Plastik bog'liqlik a - deformatsion qarshilik b - 1 - 11X15; 2 - 60C2; 3 - P18; 4 - 4X13; 5 - X25 po'lat markalari uchun harorat.

Asosiy omillarni umumilashtiruvchi va qizdirish qurilmalarining ish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarga quvurlar guruhining yillik samaradorligi kiradi. U nafaqat quvurning konstruktiv afzalliklarini balki ta'minlash, qizdirish jadalligi va ishlab chiqarishni, tashkillashtirishni ham xarakterlaydi. Bu ko'rsatkichlar bir turdag'i quvurlardan foydalanish darajasini solishtirish imkonini beradi.

Metallni qizdirishni yakuniy harorati. Bu pechdan chiqarilayotgan metall harorati qizdirishdan maqsad metallni deformatsiyalanishiga qarshiligini kamaytirish va unga kerakli plastliklarni ta'minlashdan iborat. (2.2 - rasm). Qizdirish harorati ruxsat etilgan va belgilangan turlarga bo'linadi.

2.1-jadval. Kuyishning nazariy harorati va qizdirish harorati °C

Po'lat	Kuyish	Qizdirish (ruxsat etilgan)
Uglerodli, % C:		
0,1	1490	1350
0,2	1470	1320
0,3	1410	1280
0,5	1350	1250
0,7	1280	1180
0,9	1220	1120
1,1	1180	1080
1,5	1140	1050
Kremniy marganetsli prujina	1350	1250
Nikelli	1370	1250
Xromvannadiyli	1370	1250
Xromnikelli	1350	1250
Tezkesar	1380	1280
Austenitli xromnikelli	1420	1300

Ruxsat etilgan qizdirish harorati berilgan po'lat markasi uchun yuqori harorat chegarasi hisoblanadi. U asosan po'latning kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi, holat diagrammasining solidus chizig'ida aniqlanadi va undan 100...150 °C past etib qabul qilinadi (2.1 - jadval).

Qizdirishning belgilangan harorati ruxsat etilgandan past bo'lishi mumkin. Uni tanlash omillarga asoslanadi:

metallning plastikligi (ayrim po'latlarda harorat oshishi bilan kamayadi (2.2 - rasm) bu qizdirishning yakuniy haroratini cheklaydi); metallning oksidlanishi (mayda profillar qizdirilganda qizdirishning yakuniy harorati metall kuyindisini kamaytirish natijasida kamayadi);

metallni uglerodsizlantirish (po'latni prokatlashda uglerodsizlant irishga moyillikda, ayniqsa, yakuniy chegarada, undan tashqari tayyor mahsulotni prokatlashda, keyinchalik mexanik qayta ishlanmaydi), yakuniy qizdirish harorati 1000°C dan 1150°C gacha pasaytiriladi;

prokatlash yakunida metall harorati (bir qator holatlarda zarur strukturaga ega bo'lish uchun berilgandan yuqori bo'imasligi kerak 2.2 - jadval), qizdirishning yakuniy harorati (boshqa omillar bilan chegaralanadi, masalan zanglamas po'latlarning qizdirishda a - fazaning o'sishi, "asosiy kuyish" xavfi va boshqalar).

2.2-jadval. Legirlangan po'latlarni prokatlashda boshlang'ich va yakuniy harorat, °C

Po'latlar	Quymalar		Yarim tayyor mahsulot		
	boshlanishi	yakuniy, past emas	boshlanishi	Yakuniy Yuqori emas	Past emas
Yuqori sifatli legirlanmagan asbobsuzlik va Legirlangan asbobsuzlik markalari XG, X, 9X, 9XS, B1, B2, XBG, Ф	1100...1050	750	1100...1000	850	750
X4C, 7X, 7X3, 5XBS, 4XHB, 5XH14 X12, X12M, XB5	1100...1050 1150...1100 1050...1000	850 800	1050...1000 1130...1080 1020...980	850 -	750 750
Tezkesar va xromvolframli 3XB8	1200...1150	900	1180...1130	-	900
Sharikli va sharikopodshipnikli	1150...1100	850	1080...1030	850	750
Magnitli	1180...1150	850	1160...1100	850	750
Ressor uchun prujinali	1130...1080	900	1100...1050	-	850
Dinamli va transformatorli	1250...1200	1000	1220...1180	-	750
Zanglamas martensitli	1180...1130	900	1180...1130	-	900
Zanglamas austenitli	1180...1130	900	1180...1130	-	900
Xromlanmagan	1100...1050	950	1100...1050	-	950

Agar keltirilgan omillarga rioya etish zarur bo'limasa (masalan kam uglerodli po'latlardan tayyorlangan quymalarni qizdirish) berilgan qizdirish harorati ruxsat etilgani bilan mos kelishi mumkin.

Quymalarni qizdirishda yuzaga keluvchi nuqsonlar

Qasmoq (metall kuyindisi) - Metallni qizdirish jarayonida uning sirt qatlami oksidalanadi va (metall kuyindi) qasmoq hosil bo'ladi. Qasmoq bu metallning kislorod bilan birikishi. Uning hosil bo'lishiga qizdirish harorati, qizdirish davomiyligi va metallning kimyoiy tarkibiga tasir ko'rsatadi.

Haroratning qanchalik yuqoriligi, metallni qizdirish vaqtining kattaligi va yonuvchi mahsulotlarda kislorod miqdorining yuqoriligi natijasida metall kuchliroq oksidlanadi. Kisloroddan tashqari qasmoq hosil bo'lishiga pechdag'i uglerod angidrid gazlari ham tasir ko'rsatadi.

Qasmoq miqdori qizdirilayotgan po'latning kimyoiy tarkibiga bog'liq bo'ladi. Bunda kreminiy, nikel, xrom, alyuminiy juda zichlik, oksid plyonkasining yuqori yopishqoqligini hosil qiladi, ularni keyingi oksidalnishlardan saqlaydi. Qasmoq hosil bo'lishi metall sirti sifatini yomonlashtiradi.

Uglerodsizlantirish. Metallni 800...850°C dan yuqori qizdirilganda sirtqi qatlamidagi uglerod miqdori kamayadi. Bu hodisa uglerodsizlantirish deb ataladi va metall kuyindisi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Uglerodsizlantirilgan metall qatlami qalinligi 2...3 mm qalinlikka yetishi mumkin, qalinlik qanchalik ko'p bo'lsa u holda metall yuqori haroratda uzoqroq turadi. Uglerodsizlantirish yonuvchi mahsulotlari tarkibida kislorod, karbonat angidrid gazi va vodorodning ortishi natijasida kuchayadi, bunda ularning tasiri metall haroratining ortishi bilan kuchayadi.

Uglerodsizlantirish - zararli hodisa, bunda metallning fizik - mexanik xossalari asosan uning qattiqligi yomonlashadi.

O'ta qizish va kuyish. O'ta qizish mohiyati juda yuqori haroratda qizdirishda donalarning jadal o'sishi va metallni davomiy tutib turishdan iborat. Donalar hajmi sekin qizdirilganda ham ortadi. O'ta qizdirilgan metall yumshatib to'g'irlanadi, bunda 900° C va undan yuqori haroratgacha qizdiriladi so'ng davomli sekin sovitiladi.

O'ta yuqori haroratda (solidus chizig'iga yaqinlashganda) va quvurlarda metallning davomiy saqlanishida donalar o'sishidan tashqari donalar aro qatlam erishi va donalar sirtining oksidalanishi yuzaga keladi. Bu hodisa kuyish deb ataladi. Asosan legerlangan po'latlar kuyishga moyil bo'ladi. O'ta kuygan metall yakuniy nuqsonga aloqador bo'ladi.

Ichki darzlar. Issiqlik o'tkazuvchanligi past va katta hajimdagi quymalarni tez qizdirish natijasida ichki darzlar hosil bo'lishi mumkin. Ular ichki va ustki qatlam oralig'idagi haroratning katta miqdorda tushishi natijasidagi kuchlanish tufayli yuzaga keladi. Prokatlash jarayonida notejis qizdirish ichki darzlarni yon burchaklarida ochiq ko'ndalang darzlar hamda "nuqson" deb ataluvchi darzlar hosil qiladi. "Nuqson" hosil bo'lishi quymaning ko'ndalang o'lchamlariga havf tug'diradi. "Nuqson" hosil bo'lishini oldini oluvchi jarayon bu quymani sekin asta qizdirish hisoblanadi.

2.3. Nuqsonlarni yo'qotish

Nuqsonlarni yo'qotish uchun prokatni tozalash prokat ishlab chiqarishda asosiy pardozlash jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ayrim zavodlarda prokatlangan zagotovkalar va slyablar 95% gacha, yirik navli prokatlar 100% gacha, mayda navli prokatlar 64% gacha va qalin listlar 90% gacha tozalanadi.

Avvallari nuqsonlarni pnevmatik bolg'a bilan urish, olovli keskichda qo'lda tozalash va ko'lda silliqlash mashinalarida yo'qotilar edi. Xozirgi kunda ko'pgina zavodlarda OTM lar stanlar va yarim mahsulotlarda ishlatilmoqda. Issiq metallning OTM da qayta ishslash qo'lda olovli tozalashga qaraganda 40...75% ga arzonroq.

Metallni olovli tozalash. Olovli tozalash jarayoni yonuvchan gaz va kislorod aralashmasini keskich mundshuk orqali metall sirtiga uzatishdan iborat. Zagotovka sirtida qizdirishni temirning yonish haroratigacha jadallashtirish uchun odatda atstilen - kislorod alangasi qo'llaniladi. Koks yoki boshqa gazlarni qo'llash ham mumkin.

Qizdirish kam uglerodli po'lat simda qizdirgich alanga uzatilganda kuchayadi. Zagotovkaning sirt qatlami 900...1100°C haroratgacha qizdiriladi, undan so'ng kislorod oqimi ochiladi, va temir reaksiyaga kirishadi.



Bunda endametrik tafsif natijasida reaksiyadagi harorat birdaniga oksidlangan temir va sirt qatlam metall suyuq oquvchan bo'ladi va reaktsya maydonidan gaz bilan so'rib olinadi.

Yuqori uglerodli va legirlangan po'latlarda darslar hosil bo'lishining oldini olish uchun ular avval qizdiriladi, zagotovka kesimi bo'ylab harorat pasaytiriladi. Yuqori uglerodli va xromnikelli po'latlar uchun kislorod - flyusli qo'llaniladi. Flyus sifatida alyumin - magniyli kukunning ferrosilitsiy yoki silikokalsiyli aralashmasi qo'llaniladi. Bunda aralashma sifatida yana alyuminiy va magniyning teng miqdoridagi qo'shilmasidan ham foydalanish mumkin. Olovli tozalash uchun yonuvchan gaz sifatida yonish issiqligi past bo'lgan (15000 kDj/m^3 dan ko'p bo'lмаган) gazlar qo'llaniladi. Blyumning oqimida OTM o'rnatish uchun misol (2.1 - rasm) da ko'rsatilgan. Ayrim OTM larning texnik tavsifi (2.3 - jadval) da keltirilgan.

Mashinani harakatlantirish mexanizmi, vertikal va gorizontal forsunkalar, gorizontal va vertikal yo'nalishdagи bloklar avtomatik boshqariladi. Chiqindilar bilan metallni yo'qotishni kamaytirish uchun dasturiy qurilmalar qo'llaniladi, bunda suyuq shaklni taxlam uzunligi bo'ylab turli tozalash chuqurligini belgilanadi kuyish natijasida hosil bo'gan metall qatlami samaradorligi $50 \text{ m}^3/\text{s}$ bosimi 3 MPa bo'lган nasos qurilmada tozalanadi.

2.3 - jadval. Ayrim kombinatlarda o'rnatilgan olovli tozalash mashinalarining texnik ko'rsatkichlari

Tavsifi	Universal		Blyumli	Slyabli
Tozalanuvchi taxlam o'chamlari, mm: kenglik balandlik	1000 300	1000 400	- -	700...1550 150...230
Blyum kesishmasi, mm: minimal maksimal	250X 250 300X300	250X 250 400X400	250X 250 -	- 380X450
Gorizontal silindr o'chamlari, mm: Silindr diametri Shtok diametric	150 50	150 50	70 60	120 -
Vertikal silindr o'chamlari, mm: diametr shtok diametric	200 55	200 55	80 70	200 -
Maksimal qadam, mm: gorizontall (ikkala blokda) vertikal (yuqori blok) vertikal (quyi blok)	750 550 200	750 550 200	500 350 150	650 300 200
Blokmani aralashtirish tezligi, m/c	0,4	0,4	0,3	-
Silindrdagi bosim, MPa	40...60	40...60	40...60	30...60
Taxlam roliklarini siqish maksimal kuchi, kh	9,0	9,0	3,0	3,0
Shlakni gidrourish tizimidagi suv bosimi, MPa	1,6	1,6	до 3,0	до 3,6
Mashina gabarit o'chamlari, mm: uzunlik kenglik balandlik	3400 3700 4415	3900 1600 3900	8370 1150 2775	13500 3900 5315
Rolgang mashinasи og'irligi, Kg	67 782	66 405	92 000	126 977

Butun metall oqimini samadorlikni kamaytirmasdan tozalashni ta'minlash uchun zamonaviy blyuminglarda galma-gal ishlovchi ikkita mashina o'rnatish maqsadga muvofiq. Mashinani oqimga kiritish yoki uni zaxiradagiga almashtirish uchun 25 s talab etiladi, bu esa turli navli maksimal samaradorlikka ega blyum va slyablami tozalash imkonini beradi. Metallni tozalash $0,25\dots0,75$ m/s tezlikda amalga oshiriladi, tozalash chuqurligi katta chegarada prokat harakati tezligi va kislorod sarfi o'zgarishi bilan boshqariladi, turli taxamlar tozalash sikl vaqtiga $30\dots40$ s.

OTM larda sirtni tozalashning samaradorligi va ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi asosiy faktorlarga metall tozalash harorati tozalik, kislorod sarfi va uning atmosferadagi oqim uzunligi kiradi. Olovli tozalash mashinasi metall sirtidan kichik nuqsonlarni katta qismi olib tashlansada chuqur yoriqlar, katta uzilishlar va kamchiliklar qoladi. Shuning uchun metall qo'shimcha ravishda qo'lda tozalanadi. Universal mashinaning ishlash ko'rsatkichlari 2.4 jadvalda ko'rsatilgan.

2.4 - jadval. Universal OTM (olovli tozalash mashinasi) ishchi ko'rsatkichlari

Tavsifi	Zagotovka o'lchami, mm		
	250X250	300X300	350X350
Ajratiluvchi qatlam qalinligi, mm	1,5	1,5	1,5
Chiqindida metall sarfi, %	2,49	2,0	2,6
Tozalash davrida maksimal kislorod sarfi, m ³ /s	4175	5000	7900
Tozalashda kislorodning nisbiy sarfi, m ³ /t	3,55	2,98	4
Nisbiy metall uchun kislorod sarfi, m ³ /kg	0,148	0,149	0,15
Tabiiy gazning maksimal sarfi, m ³ /s	300	360	500
Tabiiy gazning o'ttacha vaqtdagi sarfi, m ³	142	134	228
Metallni tozalash uchun tabiiy gazning nisbiy sarfi, m ³ /s	0,257	0,212	0,253
Mashinani sovitish uchun suv sarfi, t/s	12,5	12,5	12,5
Gidrourishdagi suv sarfi, t/s	150	150	150
Siqilgan havo sarfi, m ³ /s	60	60	60
Elektroenergiya sarfi, kvt s	500	500	500
Metallni tozalash tezligi, m/s	0,25...0,75	0,25...0,75	0,25...0,75
Samaradorlik , t/s	600...1000	600...1000	600...1000
Siklning umumiy vaqt, s	44	37	34

Prokatni olovli tozalash texnologik jarayonning muhim bosqichiga keng istiqbolli tanlab tozalash kiradi. Sovuq va qizdirilgan metallni tanlab tozalash nuqsonlarini oldindan tekshirish va markalashni talab qiladi. Olovli tanlab tozalash jarayonini avtomatlashtirish uchun ishonchli ishlovchi nuqson aniqlagich zarur, bu esa uning joylashishi, chuqurligi va nuqsonlar o'lchamiga qarab kamchilikni butunlay bartaraf etish imkonini beradi.

Prokatni tozalash uchun o'tkir kesuvchi asboblar. Tanlab tozalash sxemalarini ishlab chiqarishda shuni nazarda tutish kerakki oqimdag'i issiq metallga ishlov berilgandan so'ng olib tashlangan qatlam qalinligida katta chuqurlikka ega bo'lgan nuqsonlar qoladi. Tanlab tozalash vaqtida yordamchi operatsiyalarni mexanizatsiyalashga alohida e'tibor berish kerak (tekshirish, nuqsonlarni belgilash, uzatish, chetlatish va metallni tozalash).

Keng qo'llaniladigan usullardan biri pnevmatik bolg'a va keskich bilan tozalash hisoblanadi. Tozalanuvchi metall qattiqligiga ko'ra keskich 47, 48, 49 po'lat markasidan tayyorlanadi, konstruksion po'latlardan tozalash uchun 10...45 va 6xS, legirlangan va uglerodli qattiq po'latlarni qayta ishlash uchun 4xBS, 5xBS, 60S2 markalardan tayyorlanadi. Eng yaxshi natijalar 5xBS po'latdan yasalgan keskichlar tomonidan olinadi, bolg'alanuvchanlar bolg'alash boshida harorat 1050°C va bolg'alash yakunida o'rtacha 900°C, suvda toblanganda 820...830°C, davomiy bo'shatishda 230...250°C.

Quymalar, slyablar, blyumlarni butunlay tozalash uchun maxsus va universal bo'ylama-randalash dastgohlari qo'llaniladi, ular ikkiga bo'lingan supportga ega, bu bir vaqtin o'zida zagotovkaning ikkita kesishgan tomonlarini ustki va yon tomonlarini qayta ishlash imkonini beradi. Bu usulning boshqalar bilan solishtirganda samaradorligi kam shu sa'abli kam qo'llaniladi. Bundan tashqari metall qirindisi sarfi 15% ga va undan ko'pga yetadi.

'rokatni mexanik tozalash usullaridan yana biri frezerlash usuli hisot anadi. Bu maqsad uchun frezer dastgohlari va mashinalar qo'l' miladi, bunda quymalar butunlay va alohida tanlab tozalanadi, slyablar va tayyor prokatlar sovuq va issiq holatda tozalanadi.

Termofrezer tozalash (issiq holatda tozalashning yangi usullariga so' shtinganda) quymalar va zagotovkalarni butunlay yoki tanlab tozalash uchun qo'llaniladi. Issiq quymalarni tozalashda eritmani qo'ipdan ajratgandan keyin uni sovitish jarayoni va darzlar hosil bo'lish havfi oldi olinadi, tozalash jarayoni samaradorligi 10...20 karta ortadi. Tinch quymalarni tanlab tozalash hech qanday natija bermaydi, chunki ular faqatgina qobiqlar bilan emas balki (ba'zan outun uzunligi bo'ylab) darzlar bilan qoplangan. Yarim tayyor mahsulotni termofrezerlash usuli bilan butunlay tozalash odatda prokat stani oqimida amalga oshiriladi.

Maxsus po'latlar va qotishmalarni qayta ishlash uchun ishlov berilgan sirt nuqsonlarini elektr yoy razryadi bilan eritishga asoslangan usullar katta ahamiyatga ega. Bunday usullarga havo-yoyli, yoyli kislorod-yoyli va elektrokontakt usullari kiradi.

Havo-yoyli tozalashning mohiyati shundaki, metall kuchli elektr yoyi yordamida eriydi, va bir vaqtning o'zida siqilgan havo oqimi bilan chiqariladi. Bunday holda elektr yoyi uglerod yoki grafit elektrodlar va qayta ishlanuvchi metall o'rtasida yonadi. Tozalashda uglerodli

payvandlash elektrodlariga nisbatan katta qarshilikka ega bo'lgan grafitlangan plastinkali elektrodlar o'zlarini yaxshi namoyon etadilar. Havo yoyi bilan ishlov berish yordamida prokat mahsulotlarining nuqsonlari bartaraf etiladi, (qumtoshlar, qusurlar, qobiqlar, burmalar, darzlar va boshqalar). Havo yoyi bilan qayta ishlash, pnevmatik keskich bilan kesishi va kislorod-flyusli tozalash usuli bilan solishtirganda bir qancha afzalliklarga ega: samaradorlik ortadi va mehnat sarfi kamayadi.

Tozalashning yoyli usuli elektr yoy razryadi issiqligi bilan metallni eritishga asoslangan, bunda truba (chuqurchalar) hosil bo'ladi, eritma o'z og'irligi ostida chiqariladi. Tozalash uchun uglerod metall elektrodlar qo'llaniladi. Qayta ishlanayotgan sirtga 10...60° burchak ostida joylashtirilgan elektrod shunday tezlikda harakat qiladiki eritilgan metall tomchilari yoy ta'sirida bo'ladi. Tozalashning yoyli usuli zagotovkalarini joylarda, abraziv aylana, zubilo uchun qiyin joylarda bundan tashqari nometall qo'shimchalardan zararlangan yerlarda qayta ishlash imkonini beradi. Yoyli tozalash pnevmatik zubilo bilan sidirishga nisbatan samaraliroq.

Tozalashning kislorod yoyli usuli po'latni bir vaqtning o'zida elektr yoy ta'sirida kislorod oqimi bo'ylab kuydirishga asoslangan; bunda kimyoviy oksidlanish reaksiyasi va kislorod oksidining mexanik energiyasi bilan bir qatorda yoy razryadining elektr energiyasidan foydalaniadi. Kislorod yoyli usulda tozalangan slyab listlar sirt sifati to'la randalab tozalangan listlar sifatiga yaqin.


Elektrokontakt tozalash elektr toki impulslarining ishlov berilgan yuzasiga bo'lgan issiqlik ta'siriga asoslangan va metallni qayta ishlashning elektroerrozion turidan biri hisoblanadi. Qattiq po'lat quymani kesib qayta ishlash elektrokontakt tozalash o'tkirlashga solishtirganda samaradorlik 10 barobar ortadi, tannarxni 2...3 barobar pasaytiradi.

Tozalashning ta'riflangan usullari ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga teng emas. Ulardan foydalinish ishlov berilgan materialarning fizik xossalari, prokat mahsulotlari yuzasida nuqsonlarning joylashishi tavsifi, ishlash talablari, sifati va boshqalaridan kelib chiqadi.


2.4. Yirik kesimli prokatlashda metallning harorat maydoni

Quymalarni prokatlashning harorat rejimi asosiy omillardan biri hisoblanadi, bunda zagotovka va blyumlar sirt sifati uskunaning ish sharoitlari va prokatning energiya kuch ko'rsatkichlari aniqlanadi. Quymalarning o'rtacha 85...95% quvurlarga issiqlayn yuklanadi, ya'ni ularning sirt harorati $700\ldots900^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Uglerodli va kam legirlangan po'latlarni yuklash uchun ko'rsatilgan harorat oraliq'i uchun quvurdagi qizdirishning umumiyligi vaqtiga (quvurlar turiga bog'liq) 7...10 t li quymalar og'irligida 2...5 soatni tashkil etadi. Sovuqlayin yuklashda qizdirish vaqtiga 6...11 s gacha oshiriladi. Yuqori legirlangan po'lat markalari uchun qizdirish vaqtiga o'z o'zidan ortadi, aynan issiqlay yuklashda 6...8 soatgacha sovuqlayin yuklashda 17...28 soatgacha. 1300 Blyumingda mahsulotning asosiy qismini ikki turdag'i 12,5 t og'irlidagi uglerodli va kam legirlangan quymalar tashkil etadi: pribil qismida yuqori tomon kengayganda o'lcham va pastga tomon kengayganda mm, quymalar balandligi 2500 mm ni tashkil etadi. O'rtacha 90% quymalar quvurlarga issiqlayin yuklanadi, unda sirt harorati $760\pm20^{\circ}\text{C}$. Quymalarni qizdirish bitta markaziy isitkichda isi iluvchi rekuperativ qizdirish quvurlarida amalga oshiriladi. Qizdirishning o'rtacha vaqtiga 460 ± 20 daqiqa, tutib turish harorati $140\ldots1350^{\circ}\text{C}$.

Tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki haroratdagi o'zgarishlar quyma izilishiga bog'liq va sezilarli kattaliklarga erishadi: quyma kesimi o'ylab 200°C yuqori uzunligi bo'yicha 180°C .



2.3-rasm. Tekislagich kesishmalarining nisbiy o'lchamga bog'liq harorati $t/\sqrt{0,5B}$ turli po'latlar uchun (x-tekislash sirtidan oraliqqacha bo'lgan masofasi, haroratning o'lchanishi; B-tekislash kengligi): 1-po'lat StZ; 2-po'lat 35GS; 3-po'lat 20; 4-po'lat 14G2; 5-po'lat St5



2.4-rasm. Po'lat StZ uchuu tekislagich 300 X 300 mm kesish-masi bo'ylab harorat maydoni sxemasi

Quyma kesishmasi va uzunligi bo'yicha harorat taqsimlanishi ikki turga ajratiladi. Pastga tomon kengaygan quymalarda belgilangan qism harorati asosiy qism haroratidan past o'rtacha $600\ldots 70^{\circ}\text{C}$, haroratning maksimal o'zgarishi 180°C . Yuqoriga kengayuvchi quymalarda haroratning maksimal o'zgarishi 100°C ni tashkil etadi.

Prokat staniga ko'chirish jarayonida quymalar sirti jadal soviydi, markaziy qatlamlar o'zgarmas haroratni saqlab qoladi. Natijada kesma bo'ylab harorat o'zgarishi yuzaga keladi bu esa deformatsiyalash sharoitlarini yomonlashtiradi, tub va yon tekislanishini oshiradi, sirt sifatini pasaytiradi va kesimni kattalashtiradi.

(2.16) formulasi bilan uglerodli po'latlar uchun (yon chegaradagi og'malar) qutili kalibrda chiqishlarni aniqlaymiz, legirlangan po'latlar uchun

$$\Delta_{kl} = m_l \delta_K. \quad (2.40)$$

δ_K yoki δ_{kl} uchun olingan ko'rsatkichni butun songa (katta tomonga) aylantiramiz

(2.17) formulasi bilan h_p oqim chuqurligini aniqlaymiz.

Qutili kalibrarda aylana radiuslar kalibr tubi bo'ylab qabul qilinadi

$$r_1 = (0,8 \dots 1,0)r;$$

$$\text{burtada} \quad (2.41)$$

$$r = (0,22 \dots 0,25)h_p,$$

bunda $h_p = 0,5 (h_k - s_1)$; $s_1 = 10 \dots 20$ mm - burta oralig'idagi tirqish.

Burta oralig'idagi normal tirqishda yon kalibrlar balandligi

$$h_{k_1} = 2h_{p_1} + s_1 + 2r(1 - \sin\varphi_1), \quad (2.42)$$

bunda φ_K - yon chegaralar qiyalik burchagi ($\operatorname{tg} \varphi_K = \delta_K$).

Kalibr tubi f_1 qavariq o'qini $0 \dots 10$ mm chegarada qabul qilamiz. O'q bo'ylab kalibr balandligi

$$h'_{k_1} = h_{k_1} - 2f_1 \quad (2.43)$$

$D_{p_{max}}, D_{p_{min}}$ diametirlari (kalibr yonlari bo'yicha) va $D'_{p_{max}}, D'_{p_{min}}$ (kalibr o'qi bo'ylab) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\begin{aligned} D_{p_{max}} &= D_0 - h_k \\ D'_{p_{max}} &= D'_0 - h_k \\ D_{p_{min}} &= D_{0_{min}} - h_k \\ D'_{p_{min}} &= D'_{0_{min}} - h_k \end{aligned} \quad (2.44)$$

Taxlam kengligini kalibr tubi kengligida (b_k) nuqta bo'yicha yoki (b_1) kesishma nuqta chegarasidagi nisbatan belgilaymiz (2.10 - rasmga qaralsin).

$$a_k = b_3/b_k = 1,0 \dots 1,06 \text{ yoki } a_k = b_3/b_1 = 1,0 \dots 1,04$$

Agar $a_k > 1$ qabul qilsak u holda tutish burchagi ortishi bilan kalibrda metall qisilish ta'sirini hisobga olish zarur. $a_k = 1$ bo'lganda uncha katta bo'limgan metall qisilishi mavjud bo'ladi, silliq jo'valarda analogik tutish sharoitlari bilan solishtirganda tutish burchagi o'rtacha 2...3° bo'ladi. $a_k = 1$ bo'lganda tutish shartlarini (2.19) formula bilan tekshiramiz. Bunda $a <= a_{pr}$ shartlarini kuzatamiz. Nisbiy tutish burchagi a_{pr} (taxlam) kalibr kengligi va tutish tezligini hisobga olib (2.14-rasm) egrilik bo'yicha aniqlaymiz.

Taxlam balandligi ($n+1$) va ($n+2$) kalibr o'qi bo'shatishlardan so'ng

$$h_{n+1} = h_n - \Delta h_{n+1}; h_{n+2} = (h_n - \Delta h_{n+1}) - h_{n+2}; \quad (2.45)$$

kalibr yonlari bo'ylab

$$h'_{n+2} = h_{n+1} + 2f_l; h_{n+2} = h_{n+2} + 2f_l. \quad (2.46)$$

Uglerodli po'latlar uchun maksimal kengayishni aniqlaymiz:

$$\Delta b_{max} = \delta_k [h'_{n+2} - s'_{n+2} - 2r(1 - \sin \varphi_k)] + 2(kf_l + c); \quad (2.47)$$

legirlangan po'latlar uchun

$$\Delta b_{\max} = m_n \delta_k [h'_{n+2} - s'_1 - 2r(1 - \sin \varphi_k)] + 2(kf_1 + c); \quad (2.48)$$

burtalar orasidagi tirqish

$$s'_1 = h'_{n+2} - 2h_p - 2r(1 - \sin \varphi_k). \quad (2.49)$$

$a'_k = b_3/b_1 = 1$ deb qabul qilsak, u holda kalibr tubi kengligi nuqtalar bo'ylab formula orqali aniqlanadi.

$$b'_k = b'_1 - 2r_1(1 - \sin \varphi_k) \operatorname{tg} \varphi_k \quad (2.50)$$

(bunda $a_k = b_3/b_k = 1$; $b_3 = b_k$).

Yon chegaralni aylana burta radiusi kesishgan nuqtalar bo'ylab kalibr kengligi

$$b'_p = b'_k + \Delta b_{\max} \quad (2.51)$$

Birinchi quti kalibrlerning o'lchamlari bir munkha kengayish imkonini beruvchi po'latlar va siqishning maksimal miqdori uchun hisoblab chiqilishi zarur. Kalibrlerda siqishda sanoqdan kam (kalibr o'lchamlarini hisoblash uchun qabul qilingan), uning taxlamidan chiquvchi kengayishni aniqlash uchun chegaralangan kengayish Δb_{ogr} (2.8) formula bo'yicha aniqlanadi.

$h_0/b_0 \leq 2$ va $h_s/l_d \leq 2$ n aylantirgich orasidagi bo'shatishlar soni 1 yoki 2 ga teng bo'lganda tasmalarni prokatlash holati uchun (2.8), (2.9), (2.10), (2.11), (2.12), (2.13), (2.47) formulalari qo'llaniladi.

$H_s/l_d > 2$ va $n > 2$ bo'lgan hotlarda uglerodli po'latlarni prekatlashda qutili kalibrlerni cheklangan kengligini aniqlash uchun (2.14) formulasidan foydalanish tavsiya qilinadi.

Birinchi qutili kalibrlerni prokatlashdan keyingi taxlam balandligi bo'shatishdan so'ng $n + 2$ (2.43) formulasi bilan aniqlanadi.

$$h_{n+2} - h'_{k_1} = h_{k_1} - 2f_1.$$

Kalibrlerni butunlay to'ldirgandagi taxlam kengligi

$$b_{n+2} = b_n + \Delta b_{\max_1}. \quad (2.52)$$

Chala to'ldirilgan kalibr taxlam kengligi

2.6-jadval. Siqish rejimini, nisbatan hisoblash natijalari

Bo'shatishlar raqami	Tekislagich o'lchami, mm		Tekislagichning siqilish tomoni	siqish Δh , mm	Kengayish mm		$\frac{D_p}{D_{p_{min}}}$	Kalibr raqami va uning o'lchamlari ($h_k \times b_k \times b_p$), mm
	H	B			Δb_{sr}	Δb_{sgr}		
	865	770					$D_0 =$ $= 130$ 0	
Kontovkalash								
1.	680	874	B	90	9	-	<u>1150</u> <u>1020</u>	Bochka
2.	610	881	B	70	7	24	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
Kontovkalash								
3.	790	615	H	91	5	-	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
4.	720	619	H	70	4	-	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
5.	650	624	H	70	5	-	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
6.	580	630	H	70	6	23	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
Kontovkalash								
7.	540	590	B	90	10	-	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
8.	450	604	B	90	14	30	<u>1150</u> <u>1020</u>	-**-
9.	504	464	H	100	14		<u>1065</u> <u>935</u>	-**-
10.	404	477	H	100	13	42	<u>1065</u> <u>935</u>	-**-
11.	387	433	B	90	29		<u>1065</u> <u>935</u>	-**-
12.	297	462	B	90	29	72	<u>1065</u> <u>935</u>	-**-
Kontovkalash								
13.	335	318	H	127	21	33	<u>1120</u> <u>990</u>	-**-

$$b_{n+2} = b_n + \Delta b_{ogr}. \quad (2.53)$$

Aylantirilgandan so'ng taxlam xuddi shu kalibr qutisida prokatlanadi yoki ikkinchi kalibr qutisiga o'tkaziladi. Belgilangan taxlam o'lchamlari: balandlik $h = b_{n+2} = b_n + \Delta b_{max}$ yoki $h = b_{n+2} = b_n + \Delta b_{ogr}$, kenglik $b = h_{n+2} = h_n - 2f_i$ (o'q bo'y lab), $b = b_n$ (yoqlar bo'y lab). Umumiy siqish

$$\sum_{n+3}^{n+4} \Delta h = \Delta h_{n+3} + \Delta h_{n+4}.$$


Agar prokatlash birinchi kalibr nuqtasida davom etsa u holda faqat taxlam o'lchamlari hisoblanadi. Ikkinci kalibrga o'tkazishda barcha hisob kitoblar shunga o'xshash tarzda o'tkaziladi.

Jo'veni kalibrlash va siqish rejimini berilgan blyuming uchun hisoblash hollarida ishchi diametr D_p ni (2.18) formula bo'yicha aniqlamasa ham bo'ladi. Biroq (2.18) shartlari H_0 quyma balandligiga va a tutish burchagiga mos ravishda qondirilishi lozim shuning uchun H_0 va D_p nisbati orasidagi tutish sharoitlarini yaxshilash uchun birinchi kalibr qutisida va bochka bo'y lab o'yiqlar va yumaloqliklar hosil qilinadi. Hisoblangan prokat rejimini qo'llash imkoniyati o'matilgan blyuming kuchi bilan tekshirilishi kerak. Misol. Blyum kesishmasi 315x330 mm og'irligi 9 t kesishmasi (865x770/725x640)x2000 bo'lgan uglerodli po'lat quymalarni prokatlash uchun siqish rejimi, kalibrlash, yangi blyum jo'va diametri hisoblansin. Hisoblash natijalari (2.6 jadval) da keltirilgan.

2.9. Zagotovkalash stanlariida prokatlash texnologiyasi

Zagotovkalash stanlari to'g'ridan to'g'ri blyuming orasida o'matiladi va tuzilishiga ko'ra turli xillarga ega bo'ladi. 1) Bir guruh kletli uzlusiz zagotovkalash stoli (masalan, stan 700) oralig'i 125x25 dan 140x140 mm gacha va 140x40 dan 200x200 mm gacha blyumli yirik navli kvadrat zagotovkalarni prokatlaydi. 2) Ikki guruh kletli uzlusiz zagotovkalash stani (masalan, 700/500 stan) 60x60 dan 140x140 mm gacha oraliqli navli zagotovkalar va 130x40 dan 200x200 mm gacha

oraliqli blyumlar prokatlanadi. 3) Ketma-ket quvur tayyorlash stanlari quvur prokatlash qurilmalarida taxlash va ishlov berish uchun 75...300 mm diametrlı aylana zagotovkalarni tayyorlaydi. 4) Zavodlarda o'rnatilgan quymakorlik turidagi zagotovkalash stani, 140x140 mm gacha oraliqli zagotovkalar og'irligi (1...3 t) sifatlari po'lat quymalarini prokatlaydi.



2.15-rasm. 900/700/500 Uzlusiz zagotovkalash stani qurilmasining joylashish sxemasi:

I. III-stan oralig'i; II-oraliq chekkasi; IV-elektromashina zali; 1, 15, 19, 20, 23 - rolganglar; 2-ikki jo'vali ishchi klet 900 X 1300; 3-kontovkalagich; 4, 5-uzluksiz ishchi guruh gorizonttal va vertikal kleti; 6-tayanch; 7-uzatgich rolgang; 8-yonlama rolgang; 9, 22-shepper; 10-tayanch; 11-uchar mayatniki qaychi; 12-kontovkalagich; 13, 14-ikkinchi uzluksiz yakuniy guruuning vertikal va gorizonttal kleilari; 16-qaychilar; 17-kesmalar konveyeri; 18-tez harakatli uchar qaychilar; 21-qadoqlovchi rolgang; 24-sovitkich; 25-ko'targich; 26-kuyindi uchun chuqur.

Kvadrat, aylana va to'g'ri burchakli zagotovkalarni prokatlash uchun ikki turdag'i uzluksiz zagotovkalash stanlari qurilgan.

1) 1300 blyuming ortida to'g'ridan to'g'ri o'rnatilgan 900/700/500 14 kletli stan, stan samaradorligi 1300 blyuming samaradorligiga mos keladi;

2) 1150 blyuming ortida to'g'ridan to'g'ri o'rnatilgan 850/700/500 12 kletli stan, stan samaradorligi 1150 blyuming samaradorligiga mos keladi.

Birinchi stan 80x80 dan 200x200 mm gacha oraliqli, og‘irligi o‘rtacha 12 t oralig‘i 400x400 mm blyumdan olingen legirlangan va uglerodli po‘lat zagotovkalarni prokatlashga mo‘ljallangan, ikkinchi oralig‘i 60x60 dan 170x170 mm gacha og‘irli 7.2 t (26) oralig‘i 300x300 mm blyum zagotovkalarni prokatlaydi. Bundan tashqari ko‘rsatilgan blyum stanlarida aylana quvurli va tekis zagotovkalar prokatlanadi. Misol tariqasida (2.15-rasm) da og‘irligi 12 t oralig‘i 400x400 mm blyumli 80x80 dan 200x200 mm oraliqli legirlangan va uglerodli po‘lat zagotovkalarni prokatlovchi 900/700/500 uzlusiz zagotovkalash sxemasi keltirilgan. U uch guruhda joylashgan ikki jo‘vali kletdan tashkil topgan: birinchisi (siqish) ikkita kletdan, ikkinchisi uzlusiz (qoralama) va uchinchisi uzlusiz (toza). Bu stanning asosiy farqlovchi afzalligi uzlusiz guruhlarda vertikal va gorizontal jo‘valarning klet bilan almashtirilishi.

Oralig‘i 400x400 bo‘lgan issiq blyum o‘lchov uzunligida kesilgandan so‘ng (qo‘srimcha qizdirishsiz) 1300 blyumingdan o‘rtacha 0.2 m/s tezlikda 900x1300 mm birinchi kletdan rolgang 1-ga kelib tushadi. Agar zarur bo‘lsa blyum gorizontal tekislikda 180 °C ga aylantiriladi yakunida mo‘rtlashuvchanlik belgilari bo‘limgan 900 kletga ishlov beriladi.

Birinchi jo‘vali ikkita klet 2 aloxida o‘matilgan; bu guruhdagi ikkinchi klet oralig‘idan ikkinchi guruh birinchi kletgacha kantovatel 3 yordamida bo‘sh blyumni kontovkalashni amalga oshirishga imkon beradi.

Ikkinci guruh 900x1300 mm li jo‘vali ikkita klet va 730x1300 mmli to‘rtta klet (ulardan birinchi va uchinchi tartib bo‘yicha beshinchi va yettinchi)-vertikal jo‘vali kletdan tashkil topgan. Ikkinci guruhda prokatlashda 200x200, 170x170 va 150x150 mm (to‘rtinchi, oltinchi va sakkizinchi kletga mos bo‘lgan) oraliqli zagotovkalarni olish mumkin.

Bunda 150x50 mm dan katta oraliqli ko‘ndalang transportir yordamida rolgang 7 dan chiquvchi yirik zagotovkalar yakuniy statsionar kuch 6 lik yon 8 lik rolgangga yo‘naltiriladi, so‘ng bu zagotovkalar rolgang 15 blan 10 mm qo‘sh kuch bilan kesuvchi qaychi 16 ga uzatiladi, 6...8 m nisbiy o‘lchov uzunligida kesiladi va 19.23 rolgang bo‘ylab sovitkich 24-tomonga yo‘naltiriladi. Rolgang 7 dan 2.3 m/s gacha tezlikda chiquvchi 150x150 mm oraliqli zagotovkalar navbatdagi prokatlash uchun 3-chi guruhga o‘tkaziladi.

Uchinchi guruh gorizontal 14 va vertikal 13 jo'vali 530x900 mm almashuvchan olti kletdan tashkil topgan. To'qqizinchi kletga doimiy haroratlari zagotovkani berish uchun oraliq rolgangda zagotovka ko'targich tirkakli 10 da qoldiriladi va bir muddat rolgangda tutib turiladi. Oldindagi notejis yuzali zagotovkalar 1,5 MN kuchli mayatnikli qaychi 11 bilan kesiladi. Zarur hollarda (jo'valarni kalibrlash shartlariga ko'ra) o'girich 12 bilan zagotovka o'giriladi. Oxirgi kletdan chiqqandan so'ng 80x80 mm gacha oraliqli zagotovka o'lchov uzunligi 8...12 mm qaychi 18 da kesiladi, kesilgan zagotovkalar qadoqluvchi roigang 21 da xatalarga yig'iladi va 23 rolgang bo'ylab sovitkich 24 ga yo'naltiriladi.

Uchinchi guruhdan: 10-chi kletdan 120x120 mm tezligi 3,5 m/s, 12-chi kletdan 100x100 mm o'rtacha 5 m/s tezlikli va 14-klet-dan 80x80 mm 7 m/s tezlikda oraliq zagotovkalar chiqariladi. 1,5 MN kuchli qaychilar bilan ko'sratilgan tezlikda harakatlanuvchi zagotovkalar kesiladi. Shu yerning o'zida tamg'alanadi.

Standa qo'llaniladi;

- 1) jo'va to'plamlarini almashtirish uchun mexanizmlar va gorizontal vertikal kletlarni harakatlantirish (qo'shni kalibrлarda prokatlashga o'tishda);
- 2) tebranish podshipniklaridagi universal shipindelli sharnirlar;
- 3) qaychidan keshmalarini sinxronlashgan holatda tozalash;
- 4) prokatlashda cho'zilgan zagotovkalar va prokatlash kuchini o'lhash uchun mesdozlar;
- 5) yarim rotorli dvigatel yuritmasidagi suv bilan sovitiluvchi rolgang roliklari;
- 6) zagotovkalarni avtomatik qadoqlash;
- 7) stan ishini boshqarish uchun dasturlovchi hisoblash mashinasi.

2.10. Uzluksiz zagotovkalash stanlarini kalibrlash

Uzluksiz prokatlashni asosiy sharti sekund ichida har bir klet orqali o'tuvchi metall hajmining tengligi hisoblanadi.

$$q_1 v_{n1} = q_2 v_{n2} = q_3 v_{n3} = \dots = q_i v_{ni} = \text{const}, \quad (2.54)$$

Bunda jo'vadan chiqishdan keying yo'lak oralig'i m^2 ; v_n -jo'vadan chiquvchi yo'lak tezligi, m/s ; qv_n -sekundda har bir klet orqali o'tuvchi metall hajmi;

Uzluksiz zagotovkalash stanida kalibrlashni hisoblashda (ayniqsa, qattiq kinematik bog'liqlik bilan) A.P.Chekmaryovga ko'ra kletlar bo'yicha prokatlash tezligini hisobga olish kerak.

Yo'lak tezligi jadallahishni hisobga olib

$$v_{n_1} = v_{B_1} \cdot h_{o_1}, v_{n_2} = v_{B_2} \cdot h_{o_2}, v_{n_3} = v_{B_3} \cdot h_{o_3}, \dots, v_{n_t} = v_{B_t} \cdot h_{o_t},$$

bunda $v_{B_1}, v_{B_2}, \dots, v_{B_t}$ - jo'valarni aylana tezligi m/s; $h_{o_1}, h_{o_2}, \dots, h_{o_t}$ - jadallahish koeffitsiyenti.

Shuning uchun (2.54) tengligini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin;

$$q_1 \cdot v_{B_1} \cdot h_{o_1} = q_2 \cdot v_{B_2} \cdot h_{o_2} = \dots = q_t v_{B_t} \cdot h_{o_t},$$

bundan

$$\frac{q_1}{q_2} = \frac{v_{B_2} \cdot h_{o_2}}{v_{B_1} \cdot h_{o_1}} = \mu_2; \quad \frac{q_2}{q_3} = \frac{v_{B_3} \cdot h_{o_3}}{v_{B_2} \cdot h_{o_2}} = \mu_3, \dots, \frac{q_{t-1}}{q_t} = \frac{v_{B_t} \cdot h_{o_t}}{v_{B_{t-1}} \cdot h_{o_{t-1}}} = \mu_t,$$

(2.55)

bu yerda μ - cho'zish koeffitsiyenti.

Bir sekundda bitta klet orqli o'tuvchi metall hajmi kengligini quyidagicha yozish mumkin;

$$q_1 \cdot D_{K_2} \cdot \omega_1 \cdot h_{o_1} = q_2 D_{K_2} \cdot \omega_2 h_{o_2} = \dots = q_t D_{K_2} \omega_t h_{o_t} = c_K,$$

(2.56)

bunda D_K -jo'va harakatlanuvchi diametri mm; ω -jo'vani aylanish chastotasi c⁻¹; c_K -kalibrash konstantasi, mm³/s.


Aniq konstantaga rioya qilish cho'zilishlarsiz prokatlashga asos bo'ladi. Amaliyotda bunga erishib bo'lmaydi, chunki sezilar-siz o'zgargan deformatsiya sharoitlarida prokatlangan metall harorati, kalibrler yeyilish natijasidagi ishqlanish koeffitsiyenti, podshipniklar yeyilishi natijasida jo'valar oralig'idagi tirqish jadallahish kattaligi va chiquvchi yo'lak o'lchamlari o'zgaradi.

Uzluksiz zagotovkalash stanlarida (tirkakli) kletlar oralig'ida ilmoqli uskunaning buzilish xavfi tufayli qo'llanilmaydi. Odatda kletlar oralig'idagi kichik cho'zilgan tasmalar prokatlanadi. Buning uchun

bir sekundda har bir klet orqali o'tuvchi metall hajmi avvalgi kletga nisbatan 1...2% ko'proq qilib qabul qilinadi. xuddi shunga taxlam qaliningini kamaytirish maqsadida jadallahishning o'sish natijalarini solishtirib chiqish tasmasining o'sish tezligini kiritamiz. Bu hisob ko'rsatgichlarda $c_k = q \cdot D_k \cdot \omega$ qo'llab jadallahish koefitsiyentini hisoblamasak bo'ladi.

Yakka dvigatel yuritmali stanlarda bir sekundda bitta klet orqali o'tuvchi metall hajmining tengligini dvigatel aylanalar sonini tanlash hisobiga ta'minlash mumkin, qattiq knamatik bog'liqli stanlarda kalibr jo'valari, ularning diametrini tanlash bundan tashqari jo'valar oralig'idagi tirqishlarni to'g'rilash orqali erishiladi.

Konstantni to'g'rilash mumkin: siqish τ_h va yo'lak balandligini o'zgartirib, tasma kengligi h ning o'zgartirib kengayish darajasini (o'zgarmas siqish va balandlikda) o'zgartirib; yo'lak kengligi va balandligini bir vaqtda o'zgartirib; harakatlanuvchi jo'va diametrini o'zgartirib; cho'zilishni o'zgartirib. To'rtinchı usulni uzlusiz zagotovkalash stanlarida slyablarni prokatlashdagi qovurg'ali bo'shatish uchun qo'llaniladi. Konstantani boshlang'ich diametrda kamaytirib to'g'rilash agar u jo'valarni zaiflashishiga va tutish burchagining maksimaldan yuqori ortishiga olib kelsa u holda tavsiya etilmaydi. Kvadratli zagotovkalar uzlusiz zagotovkalash stanlarida qutili (2.16 a-rasm), rombli (2.16 b-rasm) va kvadrat (2.16 d-rasm) kalibrarda prokatlanadi.




2.16-rasm. Uzlusiz zagotovkalash stanini kalibrlash sxemasi.

Romb-kvadrat sxemali zagotovkalarni prokatlash odatda 120x20 mm dan ko'p bo'limgan oraliqlar uchun qo'llaniladi. Bu sxemaning asosiy afzalligi yaxshi burchakli kvadrat orqali tuzilishdagi prokatlash jarayoni turg'unligi va bir qancha o'lchamli kvadrat orqali tayyor profillarni olish imkoniyatlari mavjud.

Kalibr qutilaridan farqli ravishda romb-kvadrat sxemasi yo'laklar kengligining deformatsiyalanish bir tekismasligi bilan xarakterlanadi. Rombik kalibrli kvadrat yo'laklar va kvadrat kalibrli rombik yo'laklarni prokatlashda yo'lak kengligi bo'ylab absolyut siqish kuzatiladi. Kvadrat kalibrda rombik yo'lakni prokatlashda kengayish A.P.Chekmarov tomonidan diametr 500 va 800 mm jo'vali stanlarda romb-kvadrat sxemalarini kalibrlash ishlari tahlili asosida (2.17 rasm) qurilgan kvadrat tomonlari cho'zish koefitsiyentini kengaytirish grafigi bilan aniqlanadi.

Romb-kvadrat sxemali cho'zilgan kalibr juftlarini hisoblash sxemasini ko'rib chiqamiz. Berilgan kvadrat yo'lak o'lchamlarida (kvadrat tomonlari s_{kv}) kvadrat kalibr o'lchamlari $h_{kv} = 1,41 s_{kv}$; $b_{kv} = h_{kv}$.



2.17 - rasm. ΔB kvadrat kalibrda rombli tasmani prokatlashda aylana diametrik yoki kvadrat tomonlar o'lcham kengayishi yoki jo'va diametri 500 mm (a) va 800 mm (b) oval tasmani doira kalibrda jo'valar bog'ligligi.

Aylanalar hisobga kalibr maydoni $q_{kv} = 0,98 \cdot s_{kv}^2$ ga teng. Romb-kvadrat just kalibrlerda cho'zishning umumiy koefitsiyenti $\mu_{pkv} =$

$\frac{q_0}{q_{kv}}$, bu yerda q_0 - rombik kalibrda berilgan kvadrat ko'ndalang kesimli zagotovkalar maydoni, mm^2 .

Rombik kalibrda keyingi ko'ndalang kesim yo'lagi o'lchamlari

$$h_{p_kv} = b_{kv} - \Delta b_{kv}, b_{pk} = \frac{2q_{pk}}{0,98h_{pk}}$$

Kvadrat kalibrda siqish $\Delta h_{kv} = b_{pk} - h_{kv}$; romb kalibrda $\Delta h_{pk} = 1,41c_0 = h_{pk}$; bu yerda c_0 - romb kalibrda berilgan kvadrat zagotovka tomonlari. Rombik kalibrda kengaytirish $\Delta b_{pk} = b_{pk} - 1,41c_0$.

Hisob natijalarini tutish burchaklari bilan tekshirish zarur.

Ba'zan ikkinchi guruh birinch kletlarida ishchi va bo'sh to'g'ri burchakli, bundan tashqari aylantirgich kalibrler qo'llaniladi. Ishchi kalibrlerda taxlamni siqish, amalga oshiriladi. Bo'sh kalibrler yo'lakni ko'chirish yoki aylantirish uchun xizmat qiladi. Gorizontal klet orasidagi yo'laklar o'zgartirish jo'valari yoki gelikoidal o'tkazgichlar yordamida aylantiriladi.

Gorizontal va vertikal jo'vali zamонавиуузлуксиз заготовкалаш stanlarida kletlar oralig'idа alishtiruvchi yo'laklarni prokatlashni ta'minlovchi to'g'ri burchakli kalibrler sistemasida qo'llaniladi. Agar romb-kvadrat sxemasi qo'llanilsa u xolda romb kalibrler vertikal jo'valarda kesiladi. Uzluksiz заготовкалаш stan jo'valarida uch va undan ko'p kalibrler joylanadi, bu esa turli o'lchamlardagi заготовкаларни jo'vasiz prokatlash va ishchi jo'valar davomiyligini oshirish, imkonini beradi, stan samaradorligini oshiradi, nisbiy sarfni qisqartiradi. Yangi turdagи uzluksiz заготовкалаш stanlarida prokatlash tizimlari gorizontal va vertikal jo'valarni sozlash imkon mavjud.

2.11. Ko'p oqimli prokatlashda заготовкаларни bo'lish


Ko'p oqimli prokatlashda заготовкаларни bo'lish texnologiyasi ning mohiyati shundan iboratki bitta taxlamdan bir vaqtning o'zida bir-biridan ajratib turadigan kengligi bo'yicha bir-biri bilan bog'langan bir necha заготовкalar (profillar) hosil bo'ladi (2.18-rasm).

Ko'p oqimli prokatlash заготовкаларни bo'lishning o'ziga xos xususiyati deformatsiya va bo'ylama ajratish operatsiyalardan bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket foydalanishdir. Zagotovkalarni bir-


biridan ajratish masalasi eng murakkab masalalaridan biri bo‘lib, ajratish usulini tanlash ko‘p jihatdan ko‘p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo‘lish jarayonning samaradorligini belgilaydi. Ajratish usuliga juda qattiq talablar qo‘yiladi; ajratish joylarida tozalash yoki boshqa ishlov berishni talab etmaydigan prokat sirtining kafolatlangan sifati; ajratish vaqtida chiqindilarning yo‘qligi; ko‘p tarmoqli taxlam uzunligi bo‘ylab ajratish barqarorligi, geometrik shakldagi buzilishlar, profillarni aylantirishning yo‘qligi; aylanish tezligiga mos keladigan tezliklar bilan ajratish imkoniyati; bir vaqtning o‘zida ikkitadan ortiq zagotovkalarni (profillarni) ajratish imkoniyati; ajratish uchun qurilmani sozlash qulayligi, foydalanish qulayligi, atrof-muhit ifloslanishining yo‘qligi; minimal kapital, mehnat va energiya sarfi.

Bo‘ylama ajratish bo‘yicha bir qator usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni asosiy prinsiplarga muvofiq tasniflash mumkin: o‘tish joylarini kesish, tortish, burish va eritish orqali yo‘q qilish. Yuqorida keltirilgan ajratish variantlarining ko‘plab modifikatsiyalari va kombinatsiyalari mayjud bo‘lib ulardan foydalanish prokatlash stanning o‘ziga xos ish sharoitlari uning turi, navi, yuklanishi va boshqalar bilan bog‘liq. Yuqoridagi talablar stan oqimida ham prokatlashdan keyin ham chiqindilarsiz bo‘ylama ajratish usullari bilan to‘liq qondiriladi. Shuni ta‘kidlash kerakki sovuq holatdagi stan oqimidan tashqarida bo‘linish faqat assimetrik profillarni prokatlashda oqlanadi, chunki sovitish vaqtida o‘ralish va burilishni bartaraf etish mumkin.

Ajratishning bir muncha oddiy usuli shaxmat kalibrlariga biriktirilgan profillarni o‘zaro almashinushi (2.19 a-rasm). Shu bilan birga eksperimental tadqiqotlarni ajratishda metall deformatsiyasining juda murakkab ko‘rinishini ko‘riladi: jo‘valarning ta’siri natijasida prokatlash kuchidan egiluvchan moment paydo bo‘ladi, bu esa o‘tish zonasida plastik sharnir shakllanishiga olib keladi. Ushbu sxema natijasida kesish vaqtida toza kesish sxemasi yo‘q va ajratish joyida kesish va cho‘zish kuchlanishlari birgalikda harakatlanadi. Bu ajratish joylarida g‘adir-budirliliklarni shakllantirishga va profillarning ko‘ndalang kesim qismini buzishga olib keladi. O‘tkazish paytida paydo bo‘ladigan yon tomon ish qismlarining aylanishini qisqartirish va moment qo‘lini qisqartirish bilan butunlay yo‘q qilish mumkin. Bunday holda kesish vaqtida toza kesish sxemasi amalga oshiriladi.



2.18 - rasm. Davomiy bo'linuvchi ko'p oqimli prokatlash sxemasi.




2.19-rasm. Shaxmatli kalibrarda zagotovkalarni bo'lish sxemasi:
(a) va harakat yo'nalishi (b, d, e)

Issiq holatda qo'shilgan profollarni ajratish kesish tovar, burchak shaklidagi va boshqa nosimmetrik bo'lmagan profillar ishlab chiqarish-

da qo'llaniladi. Profillarning o'zaro almashinuvni natijasida g'adir-budirlilik hosil bo'ladi, ularning qiymati asosan g'adir-budirliliklar orasidagi yon tirkishga bog'liq. Tajribalar shuni ko'rsatadiki ijobiy natijaga erishish uchun kletlarning qattiqligi talab qilinadi. Ajratuvchi g'adir-budirliliklar orasidagi yon tirkish 0,1 mm dan oshmasligi kerak. Ajratish joylarining sifatini oshirish uchun kesish yo'naliшini tutashtirgichning ma'lum bir qalinligiga yetganidan keyin teskari tomonga o'zgartirish prinsipidan foydalanish tavsiya etiladi (2.19 b, v, g-rasm).

Klinsimon burta jo'valarini joriy qilish orqali tutashtirgichlarni parchalash bir munkha oqilonqa hisoblanadi. O'zak kuchlarining shakllanishi metall jo'valar kuchining ko'ndalang gorizontal tarkibiy qismi tufayli tepada 45...90° burchak ostida deformatsiyalanishi sodir bo'ladi. Tutashtirgichda yuzaga keladigan cho'zilish kuchlanishlarning metallning kuchlanish kuchidan olib ketishi uning yo'q qilinishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki o'tkir burtalar bilan ajratish joylarining qoniqarli sifatini olish mumkin. Tutashtirgich kattaligi 4 mm dan oshmaydi, bu esa keyinchalik qizdiriluvchi yakuniy zagotovkalarga qo'llaniladi.

Ko'p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo'lish jarayoni uzlusiz quyish bilan birlashganda eng samarali hisoblanadi. (2.20-rasm) chunki bir vaqtning o'zida prokatlanuvchi zagotovka sonining ortishi bilan prokatlash jarayoni samaradorligi oshadi. Shu bilan birga bir vaqtning o'zida prokatlanuvchi zagotovkalar soni talab etilgan sifatli prokat mahsulotlarini olish uchun zarur bo'lgan minimal cho'zish koeffitsiyenti bilan cheklangan. Bunday holda zagotovka soni ortishi bilan o'suvchi prokatlash ko'rsatkichlarning energiya kuchini hisobga olish kerak. Bundan tashqari ko'p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo'lishdan so'ng zagotovkalarni ko'ndalang ajratish chiqindilarsiz uzunlikni olish bilan sodir bo'lishi kerak.



2.20 - rasm. Ko'p oqimli uzluksiz quyish prokatlash sxemasi:

1 - oraliq kovsh; 2 - yo'naltiruvchi idish; 3 - kristallizator;
4 - roliklar; 5 - sovitiluvchi forsunlar; 6 - ko'p tarmoqli silliqlash;
7 - prokatlash jo'vasi

Ko'p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo'lish usuli orqali uzluksiz quyilgan slyablarda olingan navli zagotovkalar va tayyor prokat sifatini o'rghanishda 100×100 mm ko'ndalang kesim o'lchamli makrostrukturalarda cho'zishning 2,2...2,5 koeffitsiyent yig'indisida toza bo'shatishgacha zagotovkaning markaziy qismlarida asos g'adir-budirliliklari bilan xarakterlanadi.

Metall makrostrukturasi tutashtirgich maydonida yetarlicha zinch va bir jinsli, tutashtirgich maydondagi makrostruktura va markaziy maydondagi zagotovka farqlari 4-marta cho'zishdan so'ng bartaraf etiladi. Chunki po'lat tarkibida uglerod miqdori qanchalik yuqori bo'lsa deformatsiyalanishning umumiy jarayonida taxlam kesmasi bo'y lab makrostrukturani tenglashtirish kuzatiladi. Bu po'lat kristallanishida harorat oraliq 'ining oshishiga bog'liq, natijada uglerod miqdori ortishi bilan fizik kimyoviy xilma-xillik xam ortadi. Maksimal deformatsiyalanish joylarida (tutashtirgich maydoni) o'zak g'adir-

budirlilikning mustahkamlanishi va linvatsiya maydoni yuzaga chiqishi kuzatiladi.

Katan slyablaridan ko‘p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo‘lish usulidan olingen zagotovkalar va tayyor mahsulot metall sifati bo‘yicha odatiy texnologiya bilan olingen metall sifatidan qolishmaydi. Deformatsiyalash natijasida o‘rta zagotovkalarda romb, yon zagotovkalarda ikki uchburchak likvatsiya kvadrati hosil bo‘ladi. Zagotovka bo‘g‘imlar zonasida g‘ovakliklar qaynashi yuzaga keladi, chunki bu yerda deformatsiyalanish darajasi 90% dan oshadi. Taxlam maydonlarida siqmasdan tekislash asosan metall markaziy qatlamlaridagi yuqori deformatsiya hisobiga yuzaga keladi. Ko‘p oqimli kvadrat kalibrlerda yassi zagotovkalarni prokatlashdagi nominal to‘ldirish toza bo‘shatishda kalibr balandligi 1,25...1,45 teng, ko‘ndalangiga kalibr kengligi 0,925...0,95 ga teng.

Kalibr kengligi bo‘ylab yuqori deformatsiyadagi notejislik yaqqol ko‘rilganda cho‘zishdagi notejislikni keltirib chiqaradi, bu esa ko‘p sonli taxlam kengligi bo‘ylab majburan tekislanadi. Cho‘zilishdagi tekislash siqilmaydigan bo‘limlarda bo‘ylama cho‘ziluvchan kuchlanishni yuzaga keltiradi. Siqilmaydigan normal maydondagi kuchlanishlarning turli tekislikdagi sxemalari prokatsifatiga yomon ta’sir ko‘rsatadi, taxlam qatlamlarida sirt buzilishlarining oldini olish uchun kalibr balandligi bo‘ylab 1,30...1,35 ga cha to‘ldirish koeffitsiyentini to‘ldirishni cheklash zarur.

Ko‘p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo‘lish da energiya kuchlanish ko‘rsatkichlarining ortish qonuniyati jo‘vaning metallga aloqador sirt kengligining ortishi bilan ta’riflanadi. Ammo zagotovkalar sonining ortishi bilan qo‘sishma ravishda cho‘zishning o‘sishi va kengayish yig‘indisining pasayishi kuzatiladi. Bu esa kalibrda metall zo‘riqish holati koeffitsiyenti o‘sishiga olib keladi va zagotovkani prokatlash soni, prokatlashning energiya kuchlanish ko‘rsatkichlari orasida chiziqli bog‘liqlikni yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Sim ishlab chiqaruvchi, sortli va siqish stanlarida MRP ni qo‘llanilishi samaradorlikni oshishiga, xarajatlarni qisqartirish va nisbiy energiya sarfini 10...20% ga kamaytirishga xizmat qiladi.

2.12. Yarim mahsulot ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari

Zagotovkalar, slyablar, blyumlar ishlab chiqarishdagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga metallni sarfi, metallni qizdirishdagi yonilg'i sarfi, elektr energiyasi suv sarfi, jo'va yoyilishi, yaroqli mahsulot birligi kiradi, keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar blyumlar, slyablar va zagotovkalar ishlab chiqarishda turlicha bo'ladi[19]. Metall sarfi (yo'qotilishi) qizdirish qurilmalarida quymalarни qizdirishda, kesmalar oxiridagi metall kuyindisiga bog'liq. Blyuming va slyab-larda matallni yo'qotish odatda quyma og'irligiga taalluqlidir, metallning yo'qotilgan og'irligi berilgan quyma og'irligini yakuniysiga bo'lib aniqlanadi, foizlarda belgilanadi. I t yaroqli prokatlashda metall sarfi (sarfi koeffitsiyenti) yaroqli chiqishdagi berilgan prokatka (100%) bo'lib olinadi (2.7-jadval).

2.7 - jadval. Blyum va slayablarda prokatlashda metall sarfi

Yarimmahsulot	Po'lat	Kesmada yo'qotish %	Yaroqli chiqish, %	I t yaroqli prokat uchun metall sarfi, t
Blyum	Qaynovchi	5...6,5	91...92,5	1,08...1,10
Blyum	Tinch	12,5...15,5	82...85	1,18...1,22
Slyab	Qaynovchi	8,5...10,5	87...89	1,12...1,15
Slayb	Tinch	17...20	77,5...80,5	1,24...1,29

*metall kuyindisi 2 % ni tashkil etadi, nuqson (chala jo'valanish) - 0,5 %

2.8 - jadval. Yarim mahsulotni prokatlashda jo'valar sarfi

Stan	Nuqtalar oralig'idagi son	Prokatlanuvchi metall miqdori, ming. t		I t prokat uchun jo'va sarfi, kg
		Bitta nuqta oralig'i	Barcha nuqta oralig'i	
Blyuming	6	100	600	0,08
Slyabing	6	120	720	0,08
Uzlusiz zagotovkalash:				
Birinchi guruh kleti	5	150	750	0,1
Ikkinchi guruh kleti	6	60	360	0,1

Siqish stanlari oqimida blyum va slyablarni olovli tozalashda tozalanayotgan yarim mahsulot og'irligini o'rtacha 3,5% da metallni yo'qotilishimi hisobga olish zarur. Uzluksiz zagotovkalash stanida yaroqli metallning chiqishi o'rtacha 97...98% ni tashkil etadi. Uzluksiz zagotovkalash stani oqimida frezerli tozalashda tozalanayotgan yarim mahsulot og'irligining o'rtacha 2,5% ni metall qirindisi sifatida chiqindi chiqarilishini hisobga olish zarur.

Yonilg'i sarfi. Qizdirilayotgan metall og'irlik birligining yonilg'i sarfi shartli yonilg'iga o'tkazish bilan baholanadi, yonish issiqligi 29,3 kDj/kg ni tashkil etadi.

Shartli yonilg'i sarfi. blyuming va slyablarda: gaz va havoning qizdirish uchun rekuleratorli rekulerativ qizdirish quvurlarda quymalarni qizdirish 10,5 MDj/t; faqatgina havoni qizdiruvchi rekuleratorli xuddi shunday quvurlarda quymalarni qizdirishda 11,7 MDj/t ni tashkil etadi.

Blyum va slyablarda quymalarni prokatlashda elektr energiya sarfi 12...15 kVt s/t quymani tashkil etadi va blyum va slyab yakuniy kesmasiga bog'liq bo'ladi.

Uzluksiz zagotovkalash stanidagi har bir guruhda elektr energiya sarfi o'rtacha 9...10 kVt s/t yaroqli mahsulotni tashkil etadi.

Jo'va sarfi. Uzluksiz zagotovkalash stanlari slyablar, zamona-viy blyuminglarda jo'valar sarfi o'rtacha ko'rsatkichlari (2.8-jadval) da keltirilgan.

Suv sarfi. Blyuminglarda o'rtacha suv sarfi $4,5 \text{ m}^3/\text{t}$, slyablarda $5,5\dots6,5 \text{ m}^3/\text{t}$, uzluksiz zagotovkalash stanlarida $3,5\dots4,5 \text{ m}^3/\text{t}$, ni tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. Quymalarni qizdirishda harorat rejimi nima bilan aniqlanadi?
2. Quymalarni qizdirishda asosiy nuqsonlar va ularni yo'qotish usullari qanday?
3. Blyum va slyablarda prokatlash jarayonlarini jadallashtirishga qanday yo'llar bilan erishiladi?
4. Blyumda siqish rejimi va jo'valarni kalibrlashni hisoblash usullarining mohiyati nimada?
5. Zagotovkalarni prokatlash texnologiyalarining qanday afzalliklari bor?

- 6.Zagotovkalar ishlab chiqarishning qanday asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari mavjud?
- 7.Blyum zagotovkalarini ishlab chiqarish usullari haqida nimalarni bilasiz?
- 8.Blyum zagotovkalaridan qanday mahsulotlar olinadi?
- 9.Blyum deb nimaga aytildi?
- 10.Slyab zagotovkalarini ishlab chiqarish usullari haqida nimalarni bilasiz?
- 11.Slyab zagotovkalaridan qanday mahsulotlar olinadi?
- 13.Quymalarni olishda qanday texnologik jarayonlar bajariladi?
- 14.Kalibr deb nimaga aytildi?
- 15.Uzluksiz zagotovkalash stanlarini kalibrlash qanday amalga oshiriladi?
- 16.Blyuming jo'valarida kalibrlarning simmetrik joylanishi ketma-ket joyalashgan kalibri bilan solishtirganda qanday afzallikkarga ega?
- 17.Ko'p qatlamlı prokatlash texnologiyasining afzalliklari nimada?
- 18.Olovli tozalash mashinalarining texnik ko'rsatkichlari haqida nimalarni bilasiz?
- 19.Prokat ishlab chiqarishda uzluksiz po'lat quyishning qo'llanilish boshlang'ich davri nechanchi yillarga to'g'ri keladi?
- 20.Yirik kesimli prokatlashda metallning harorat maydoni qanday bo'ladi?
- 21.Nuqsonlarni yo'qotish qanday usullarda bajariladi?
- 22.Qizdirish qurilmalari haqida nimalarni bilasiz?
- 23.Prokatlashda qanday qizdirish qurilmalari ishlataladi?
- 24.Ko'p oqimli prokatlash zagotovkalarni bo'lishning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
- 25.Metallarni uglerodsizlantirishning qanday usullari mavjud?
- 26.O'ta qizish va kuyish hodisasi qachon yuz beradi?
- 27.Metalldagi ichki darzlar qanday sharoitlarda yuz beradi?
- 28.Blyuminglar uchun siqish rejimini hisoblash usullari qanday bajariladi?
- 29.Uzluksiz zagotovkalash stanini kalibrlashning qanday usullarini bilasiz?

3-BOB. NAVLI PO'LAT ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

3.1. Metallni kesishning umumiy ma'lumotlari

Metallni kesish bo'yicha texnologik jarayonni tashkil qilish quyidagi asosiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- 1) metallni prokat uchun tayyorlash;
- 2) metallni prokatlashdan avval qizdirish;
- 3) tayyor profil kesishmasini mavjud zagotovka kesishmasiga sekin asta yaqinlashishi, kalibrarda prokatlash;
- 4) prokatlashdan keyin metallni bezash.

Prokatlash sxemasini tanlashda profilning o'lchami va maqsadi, po'lat markasi, stan turi, mexanizatsiyalash darajasi va boshqa omillar hisobga olinadi. Zamonaviy sort stanlari asosan ishchi kleti yakka yuritmalı uzluksiz va yarim uzlukli bo'ladi. Qaychi yoki arra bilan kesilgandan so'ng prokatlangan metall sovitkichda sovitilgandan so'ng g'ildirakli to'g'rinish mashinalarida omborga yuboriladi u yerda ko'zdan kechiriladi, saralanadi, yuza nuqsonlari bartaraf etiladi, nazorat tahlillaridan o'tkaziladi, tamg'alanadi, markalanadi va boshqa operatsiyalar o'tkaziladi, u operatsiyalarning hajmi profilga, uning o'lchamlariga qo'llanilishi va talablariga, GOST bilan belgilangan texnik shartlarga bog'liq.

3.2. Relsbalkali stanlar

Relsbalkali zamonaviy stan sxemasi birinchi yo'nalishda joylashgan juft reversiv siqish kleti, ikkinchi yo'nalishda joylashgan ikki uchlik klet bitta reversiv bo'lmagan ikkilik kletdan tashkil topgan prokat stanidan tashkil topgan. Zamonaviy rels balkali stanlar da blyum va relsbalkali stan orasida o'rnatilgan qizdirish pechlarida blyumdan tayyorlangan profillar prokatlanadi, bu esa blyuming va relsbalka stani mustaqil ishlashni ta'minlaydi va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradi.


Keng ko'lamli temir yo'l relslari, bundan tashqari ikki tavrli balkalar va yirik o'lchamli shvellerlar asosan zamonaviy rels balkali stanlarda ishlab chiqiladi. Mahalliy rels balkali stan turi (3.1-jadval) da keltirilgan.

3.1-jadval. Mahalliy relsjo‘vali stanlar navi

Profil	Zamonaviy stanlar (mavjudlari)		
	600	750	800
Kvadrat tomonli zagotovka, mm	100, 05, 110, 115, 120, 125, (130, 160, 180, 200)	-	100, 120, 140, 150, 160, 170
quvurli aylana diametrlı, mm	140		
Sharlarmi silliqlash uchun, mm	140		80, 90, 100, 120
Kvadrat o‘qli, mm	215		
Kvadrat po‘lat, mm	105, 127		
Shveller raqami	27	40	24, 24a, 27, 30, 36, 40
Ikki tavrli jo‘va raqami	55		24, 24a, 27, 27a, 30, 30a, 40, 45
Reqlar : temir yo‘l keng o‘lchagichli Metropoliten uchun kontaktli	P50, P65, P75	P50, P65, P75 118x90x80x20	P50, P65, P75, S 49
Turli xildagi	№ 20B2; 26B; raqamli vagonlar uchun shvellerlar № 1, 3, 4; traktorlar uchun boshmoqlar tasmalı po‘lat kemasozlik uchun simmetrik № 30810, 30812	Astar uchun tasma D65, SD65, KD65, SD50, D50 va boshqa shvellerlar № 20T, 24 - traktorlar uchun	Astar uchun tasma; shvellerlar № ZOV, ZOV-1; SHK-1 va SHP- 1; shpunkt turli kemasozlik uchun tasmalı po‘lat № 27010

Zamonaviy 900/800 relsbalka stanida UZTM tuzilishida (3.1-rasm) to‘g‘ridan to‘g‘ri blyuming yoki blyum omborlaridan olingen og‘irligi 5,9 t gacha uzunligi 3,4...4,5 m bo‘lgan blyumlar qayta ishlanaadi. Stan ikki rekuperativ metodik uch zonalni pechlar va ikki regenerative kaler pechlariga xizmat qiladi.

Rolgang bo'ylab 1200°C haroratgacha qizdirilgan blyumlar bochka uzunligi 2300 mm va 900 mm diametr jo'vali reversiv siqish kletiga uzatiladi, quvvati 6320 kVt (0...60...120 l/daq) bo'lgan doimiy tokli reversiv elektrodvigatel bilan harakatga keltiriladi. 900 kleti tuzilishi bo'yicha 1150 blyum kleti bilan bir xil va undan o'lchami, ayrim konstruktiv elementlari bilan farq qiladi.



3.1-rasm. Relsbalka stani jihozining joylashish sxemasi:

1-olib beruvchi rolgang; 2-zagotovkalarni yo'naltiruvchi rolgang; 3-qizdiruvchi pech; 4-duo 900 siqavchi kleti; 5-ishchi rolgang shleperi; 6,10-to 'g'rilovchi pres; 7-soviq holatda kesish pichoqlari; 8-soviq holatda kesish arralari; 9,24,29-stelajlar; 11,13-to 'g'rilovchi mashina; 12,19,21-sovitgichlar; 14-arralar; 15-trio 800 chernavoy kletlari; 16-duo 800 chistavoy kletlari; 17-shtempel mashinasi; 18-bukruchchi mashina; 20-izotermik pechka; 22-rolik bilan to 'g'rilovchi mashina; 23-bo'shatish pechi; 25-yopiq stelaj; 26-toblovchi baraban pechkasi; 27-rolik bilan to 'g'rilovchi mashina; 28-toblovchi qizdirish pechkasi

Ikki reversiv 900 kleti oldingi va orqa tomondan aylantirgich va manipulyator bilan jihozlanadi. 900 kletdan so'ng taxlam stanning ikkinchi yo'nalishiga uzatiladi, u ikkita qoralama uchlik klet va ikkilik toza kletdan tashkil topgan. Diametri 800 mm va bochka uzunligi 1900

mm bo‘lgan qoralama uchlik klet jo‘vasi davriy moylanuvchi, suv bilan sovitiluvchi maqsadli presslangan tekstolit yostiqlarida o‘rnatilgan va quvvati 4560 kVt 0...70...140 ayl/daq chastotali reversiv elektrotdvigatel yordamida aylantiriladi. Ochiq turdag'i klet stani yon kletlar yordamida qopqoqlar bilan biriktiriladi. Klet ustki va quyi qo‘l yuritmali siqish qurilmalariga ega. Ustki jo‘va prujina bilan muvozanatlantiriladi. Klet prokatlashdagi changni ho‘llash va jo‘vani sovitish maqsadida suvli forsunkalar bilan jihozlanadi.

Ikkilik tozalash kleti diametri 800 mm va bochka uzunligi 1100 mm bo‘lgan qoralama klet bilan bir yo‘nalishda joylashgan, quvvati 1840 kVt bo‘lgan doimiy tok elektrotdvigatelda aylanadi, aylanish chastotasi 0...80...160 ayl/daq. Tozalash klet jo‘valari to‘rt yadroli rolikli podshipniklarda o‘rnatilgan, podshipniklarni moylash bosim ostida amalga oshiriladi. Uchlik qoralama klet va ikkilik tozalash kletlarida, jo‘valash kletlarda amalga oshiriladi. Ikkinchini chiziq orqa va oldi tarafdan rolgang va shpeller bilan jihozlangan uchlik kletlar ikki tarafdan ko‘targich tebranma stol bilan jihozlangan. Ikkitarqli keng qobiqli jo‘valarni prokatlashda ikkilik tozalash kleti o‘rniga universal klet o‘rnatiladi. Universal klet diametri 980 mm, bochka uzunligi 600 mm, bo‘lgan gorizontal yuritmali jo‘vaga ega, unda vertikal bo‘sish jo‘va diametri 700 mm bochka uzunligi 300 mm, o‘q bir kenglikda gorizontal jo‘valar o‘qi bilan joylashgan. Gorizontal jo‘valarga ostki va ustki siqish qurilmalari bilan jihozlangan presslovchi tekstolit podshipniklar o‘rnatilgan.

Prokatlangan tasmalar tozalash kletidan so‘ng olti harakatlanuvchan diskli qo‘shimcha arrasiga o‘tkaziladi, bunda tasmalar o‘lchov uzunligida kesiladi. Arrada kesiladi. Arrada kesilgandan so‘ng relslar tamg‘alash mashinalarida tamg‘alanadi (eritish raqami va rels tartib raqami). So‘ng relslar tagi issiq egish uchun ikki vertikal va ikki gorizontal rolikdan tashkil topgan rolikli egish mashinasiga o‘tkaziladi.

Bukishdan so‘ng uzatuvchi rolgang bo‘ylab arqonli shpeller sovitkichiga yuboriladi. sovitkich termik ishlashga uzatishgacha relslarni aylantirish va sovitishgacha va undan keyin boshqa profillarni aylantirish uchun aylantirgich bilan jihozlangan. Barcha zamonaviy rels jo‘va stanlarida relslar flokenlar hosil bo‘lishini bartaraf etish uchun izotermik tutib turiladi yoki sekin sovitiladi.

Relslarni sekin sovitish ko‘chma qopqoqqa ega olov bardosh g‘isht joylangan quvurlarda amalga oshiriladi. Relslar sovitkichda


magnit xossalar hosil bo'lgunga qadar sovitilgandan so'ng (400...500°C dan past bo'lmanan) ular magnit kranlar bilan 100...150°C (o'rta 6...8 soat) sovitiluvchi quvurlarga yuklanadi.

Flokenlarni hosil bo'lishini bartaraf etishning samarali usuli pechda izotermik tutib turish hisoblanadi. Quyidagi qayta ishlash rejimi tavsiya etiladi: relslarni sovitish 350°C gacha, pechga yuklash 650°C tutib turish 2 soat.

Reqlar xossasini yaxshilash uchun bundan tashqari normallash qo'llaniladi. Normallash pechlardida qizdirish davomiyligi o'rtacha 30 daqiqa teng. 860...880°C gacha qizdirilgandan so'ng relslar sovitish uchun yoki relslar butun uzunligi bo'ylab katan sirtini toplash uchun havoga chiqariladi. Misol tariqasida keltirilgan relsjo'vali stanlar uchun sislati zagotovkalashda sekin sovitish qurilmasi qo'llaniladi, relslar uchun esa izotermik pechlardan foydalaniladi. Sekin sovitilgandan so'ng yoki izotermik tutib turilgandan so'ng relslar markaziy sovitkichga kelib tushadi, 50...60°C haroratgacha sovitiladi so'ng ikki rolikli to'g'rilash mashinasiga uzatiladi, u yerdan yakuniy to'g'rilash uchun to'rtta to'g'rilagich vertikal shtempelli pressga o'tkaziladi. Relslarni pardozlash bir necha oqimli yo'nalishlarda amalga oshiriladi, ular to'rtta vertikal shtemp pressi va ikki rolikli to'g'rilash mashinasidan tashkil topgan burchaklar gorizontal bir shpindelli stanlarda frezerlanadi va uch shpendelli parmalash dastgohlarida oraliqlar parmalanadi.

Reqlning yeyilishga chidamliligini va mustahkamligini oshirish uchun frezerlash va parmalashdan so'ng ulardan sorbit struktura olish uchun yuqori chastotali tok bilan toplanadi. Brinel bo'yicha qattiqlik 300...400 NV chegarasida bo'lishi kerak.

Reqlar hajmий toplash uchun pardozlash maydonidan omborga ko'chiriladi, u yerdan yuklash javoniga uzatiladi va qutilarda 8...11 donadan "yonga yotqizib" holatda yig'iladi. Yetti bo'lidan iborat toplash pechiga qadoqlar 5...7 daqiqadan so'ng kelib tushadi. Qizdirilgan relslar chiqarish maydonidan maxsus qurilma yordamida bittadan ajratiladi, rolgangda aylantiriladi va barabanli toplash pechiga uzatiladi, bunda 50...80°C haroratgacha moyda qizdirib 850°C haroratda yuklanadi.



3.2-rasm. Temir yo'l relslarini prokatlash sxemasi:
1...3-tavrli kalibrlar; 4...9-relsli kalibrlar;


Pechkadan relslar itargich va tortish roliklari yordamida yopiq javonga o'tkaziladi, u yerda 10...18 donadan qadoqlanadi, so'ng ular bo'shatish pechiga uzatiladi (450°C haroratda 2 soat davomida) bo'shatishdan so'ng relslar sovitkichda sovitiladi va vertikal va gorizontal kengliklarda to'g'rakash uchun oltijo'vali gorizontal va oltijo'vali vertikal mashinadan iborat murakkab rolik to'g'rakash mashinasiga beriladi. So'ng relslar ularni markalash uchun tekshiruv javoniga kelib tushadi. Qabul qilingan relslar maxsus uskunada qadoqlanadi va omborga yoki yuklash uchun vagonga yuboriladi.

Relslarning ekspluatatsion mustahkamligiga va sifatiga termik ishlash natijasida, prokatlashdan keyingi relslarni sovitish jarayonida yuzaga keluvchi qoldiq kuchlanishlar katta ta'sir ko'rsatadi. Rels boshchalarini avvaldan suv havoli aralashma bilan toplash qoldiq kuchlanishni sezilarli kamaytiradi, bu esa relslarning ekspluatatsion mustahkamligini oshiradi. Relsjoji'vali stanlarda prokatlangan ikkitavrli balkalar, shvellerlar va boshqa profillar salaz arrasida o'lchov uzunligi bo'yicha kesilgandan so'ng sovitkichga taxlanadi va maxsus bo'limga kelib tushadi u yerda gorizontal to'g'rilaqich presslarida va rolikli to'g'rilaqich mashinalarida tekislanadi. O'lchov uzunligidagi prokatni kesish va tekshiruv javonida ko'zdan kechirilganda aniqlangan nuqsonlarni kesish, sovuqlay kesish pichoqlari bilan amalga oshiriladi. Zamonaviy relsjoji'vali stan samaradorligi yiliga 160...200 t/s yoki 1,3...1,5 mln jo'vali stan samaradorligi yiliga 750...800 ming tonnadan oshmaydi. Temir yo'l relslarini prokatlash turli sxemalar

bo'yicha amalga oshiriladi ulardan biri (3.2-rasm) da ko'rsatilgan. Bu sxemaga ko'ra, plast kalibrлarning joylashuvi to'g'ri yoki egri bo'lish mumkin. To'g'ri burchakli kesma zagotovkali profillarni rivojlantirish uchun 9...11 bo'shatishlar; tavrli kalibrlar uchun 3...4, relsli (plastli) kalibrlar uchun 5...7 bo'shatishlar amalga oshiriladi. Tavrli kalibrlarda zagotovkalar taglik bo'ylab chuqur kesiladi so'ng yoyiladi. Bu butun temir yo'l relsining uchdan bir qismi hosil bo'lgan metall tuzilishini yaxshilaydi. Odadta dastlabki zagotovka kattaligi $H/B = 1,5...2$, cho'zishning o'rtacha koefitsiyenti $\alpha_{cp} = 1,19...1,22$.

3.3. Yirik navli stanlar

Ishchi jo'vasi 500...650 mm diametrдagi yirik navli zamonaviy stanlarida kletlar ketma-ket, zigzagsimon yoki ikki chiziqa joylashadi, yiliga 1 mln t va undan yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Mahalliy yirik navli zamonaviy stan turlari (3.2-jadval) da keltirilgan. Yarimuzluksiz yirik navli stan 600 (3.3-rasm) 17 ishchi klet va yakka yuritmalni, uchta parallel chiziqa joylashgan, siqish sexida olingen o'rtacha og'irligi 4,15 t uzunligi 5,5...6,0 mm blyum kesishmasi 300x300 mm bo'lgan quvur zagotovkalarini va uglerodli po'latlarni prokatlashga mo'ljallangan.



3.3-rasm. Yarimuzluksiz yirik navli stan 600 qurilmasining joylashish sxemasi:

1-javon; 2-yuklash qurilmasi; 3-tarozi; 4-qizdirish pechi; 5-kontovkalagich; 6-siqish kleti I; 7, 8, 9, 10, 11-kletiga mos II, III, IV, V, VI birinchi uzluksiz klet guruhi; 12-o'tishli qizdirish pechi; 13-qaychilar; 14-VII klet; 15, 16, 17-kletga mos ravishda VIII, IX, X ikkinchi uzluksiz klet guruhi; 18sovqaylin kesish arrasi; 19-cho'ntaklar; 20-prokatni qayta ishlash maydoni; 21-quvurli zagotovkani qayta ishlash maydoni; 22-relsni qayta ishlash maydoni;

23-navli to'g'rilash mashinasi; 24-statsionar diskli arra; 25-sovitkich; 26-qadoqlash mashinasi; 27-harakatlanuvchi diskli arra; 28-richagli itargich; 29-shlepner; 30, 32, 34, 36-kletka ko'ra XI, XII, XIII, XIV kletning ikkinchi parallel chizig'i; 31, 33, 35-kletga ko'ra XVII, XVI, XV kletning uchinchi parallel chizig'i

3.2 - jadval. Mahalliy zamonaviy yirik navli stan turlari

Profil	Chiziqli 550	Chiziqli 650	Yarimuzluks iz 600	Zigzagsim on 500	Zigzagsi mon 550
Silliqlanuvchi sharlar uchun zagotovka, mm	60,80,100 + 120	70,80,90, 100,110,1 20	80,90,100,1 10,120	50...105	60...150
Tomonlari kvadrat, mm	60,63,65, 70, 75,80,90, 100,120,1 50	93	-	50...90	100...150
Tasmali kenglik, mm	-	-	-	100...180	150...200
Burchakli teng tokchali, mm	140X140 X9, 10,12,160 X X160X10 ...20, 180X180 X 11,12, 200X200 X X12...30	140X140 X9, 10,12,160 X X160X 10...20, 180X180 X 11,12, 200X200 X X12...30	100X100X6, 5...16, 110X110X7, 8, 125X125X 8...16, 140X140X 9...12, 160X160X 10..20	80...125 100/63...1 40/90	90...140 140/90... 160/100
Burchakli, notekis tokchali, mm	180X110 X10 12, 200X 125X 11...16	160X100 X10,12,1 4,180X11 0X10,12, 200X125 X11...16,	100X63X 6...10, 100X70X6,5 8, 125X80X 7...12, 140X90X8,1 0, 160X100X 9...14,	50...90	50...60

			180X110X 10,12		
Aylana diametrli, mm		70,75,80, 85,90,100 105,110, 115,120, 125,130, 140,150	70,75,80, 85,90,95, 100,105, 110,120	70...105	70...150
Aylana quvurli, mm		80,85,90, 100,105, 110,115, 120,130, 140,150,	70,80,90,95, 100,105, 110,120,	50...80	100,150
Juft tavrli jo‘va, raqami	16,18,18a	18,18a20, 20a,22,22 a	12,14,16,18, 20	12	14,16
Shveller raqami	16,16a 18,18a	16a,18,20, 20a22,22a	12,12P, 14,14P, 16,16P 18,18P, 20,20P	12,14,14a	16,16a 18,18a
Ingichka kenglikdag temiryo‘l rechlari	P24	P33	P18,P24	P18	P18,P24
Turli xildagi	№18B vagonlari ni qurish uchun shvellerla r. P50,P65, P75 rechlari uchun ikkiboshli to‘shama uchun taglik	№18Osm a yo‘llar uchun juft tavrli balka. №19 jufttavrli profil osonlashtir ilgan, kuchaytiri lgan	12,14,16,18, 20 tokchali parallel yoqli shvellerlar;S VP-17, SVP-19, SVP-22 turli mustahkam- lash profili	Z-simon №8 vagonlar uchun, 150X14 tasmalni ressor po‘lati; avtomobil uchun 125X25 ressor po‘lat	To‘shama va qoplama uchun tasma; Z- simon №10 vagonlar uchun; vagon qurish uchun, shaxtali mustahka mlash uchun

belgilanishini ta'minlaydi. Uchburchakli kalibr 3 da yarimova taxlamga nisbatan yoqlari bo'yicha yaxshi o'rtasi bo'yicha kamroq siqiladi va natijada yon bo'rtiqlar hosil bo'luvchi jadal ko'ndalang deformatsiya (qalinligi bo'yicha, tayyor burchaklar qalinligiga yaqin) rivojlanadi, shuning uchun taxlam yon qirralarida yig'ilmlar hosil bo'lishi bartaraf etiladi.

3.3-jadval. 200 X 200 X 12...30 mm po'latdan 650 stanining 800 siqish kletida teng tomonli ugolnikni prokatlashdagi siqish rejimi

O'tish nomeri	kalibr nomeri	Silliqlanish qalinligi, mm	Siqilishi, mm	Silliqlanish kengligi, mm	Kengayishi, mm
1	1	310	10	250	5
2	1	290 (270)	20 (40)	255	5
Kontovkalash					
3	2	210210	45	300	10
4	3	193	-	310	10
5	3	160	35	325	15
6	3	138	22	330	5
7	4	100 (55)	38	340	10

Izoh: Qavs ichidagi o'lchamlar polkalarining qalinligi 25 va 30mm bo'lgan ugoloklarni prokatlashda ishlataladi

Sifatli yon qirrali burchaklarni olish uchun va prokatlash jarayonini stabillashda barcha o'ralgan kalibrлarni siqib kengaytirish ko'zda tutilgan, jo'va diametri bo'ylab ko'chmalar ortishini oldini olish maqsadida nuqtalar oralig'ida yopiq oqimlarni bo'shatish 20 % gacha oshirilgan. Notekis tokchali po'latlarni kalibrlashda yuqorida ko'rib chiqilgan tengtokchali burchak po'latlarni kalibrlash usullari qo'llaniladi. Bu kalibrashning afzalligi barcha o'ralgan burchakli kalibrлarda katta va kichik tokcha to'g'ri maydonlarda egilish burchaklari bir xil qabul qilinganligidir. Bunday simmetriyada katta va kichik tokchali qalinlikdagi notebris yonli o'ralgan burchak kalibrлarda egilish burchagi va jo'va o'qi orasidagi masofa bir hilda o'zgaradi, shuning uchun bitta va qolgan kalibrлarda turli qalinlikdagi tokchali po'lat burchaklarini prokatlash mumkin. Bu kalibrлarda prokatlashda taxlam turg'unligi yaxshilanadi, natijada stan va armatura sozlamalari soddalashadi jo'valash mexnat sharoiti yengillashadi.

3.9. Uzluksiz o'rta navli stanarda har xil shaklli profillarni prokatlash uchun jo'valarni kalibrlasbniog afzalliklari

O'rta navli uzluksiz stanlar uskuna tarkibi, uning joylashuvi va tayyorlanuvchi profil mahsulotiga ko'ra farqlanadi. (3.9-rasm) da zamonaviy uzluksiz o'rta nav to'sinli stan 450 uskunasining joylanishi ko'rsatilgan. Bu stan kichik va o'rta o'lchamdagisi iqtisodiy qurilish profillarini prokatlashga, ingichka devorli to'sinlar va balandligi 160-300 mm li shvellerlar, balandligi 100...180 mm normal turdagisi to'sinlar, 75x125 mm li burchakli po'latlar, diametri 30...56 mm bo'lgan aylana po'latlar, kengligi 125...200 mm qalinligi 4..16 mm bo'lgan tasmalgi po'latlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Oraliq kesishmasi 150x150, 200x200 va 200x250 mm, uzunligi 8...12 mm va og'irligi 4,7 t gacha maksimal prokatlash tezligi 12 m/s bo'lgan zagotovkalar boshlang'ich ashyo hisoblanadi. Har bir standagi texnologik jarayon o'zining afzalligiga ega. Shu bilan bir qatorda barcha stanlarga xos tomonlarni aytib o'tish mumkin.

Reversiv siqvuchi kletlarni hisobga olmaganda qolgan barcha kletlarda prokat taxlam harakat yo'nalishini o'zgartirmagan holda amalga oshiriladi, ya'ni taxlamning avvalgi yakuniy xuddi shundayligicha qoladi.


3.9-rasm. Uzluksiz o'rta sortli stan 450 jihozining joylashish sxemasi:
1-900/700/500 uzluksiz zagotovkalash stanining sovitkichi; 2-yuklash panjarasi; 3-qizdirib turuvchi pechka; 4-oxirlarni bir biriga bog'lovchi mashina; 5-taroz; 6-rekuperatiril qizadirish pechkasi; 7-o'tvuchi seksiyalni pechka; 8-zagotovkalarni oldi qismini kesuvchi pichoq; 9-birinchi uzluksiz kletlar guruhi; 10-uchuvchi ehtiyoj pichoqlar; 11-ikkinchи uzluksiz kletlar guruhi; 12-uchuvchi pichoqlar; 13-o'rovchi mashina; 14-o'ramalar uchun ilmoqli kanveyer; 15, 16-rulonlarni oluvchi va paketlovchi; 17-sovitkichi; 18-olib ketuvchi rolganglar; 19-to'g'rilovchi mashinalar; 20-diskli arralar; 21-jo'natuvchi aravalar



Prokatlash avvalidagi harorat 1160...1180°C bo'lganda prokat yakunidagi harorat 1050...1120°C ni tashkil etadi, bu barcha kletlarda katta siqishga va har xil shaklli kalibrarda bo'shatishlar sonini qisqartirishga xizmat qiladi. Uzluksiz klet guruhlarida cho'zishni boshqarish tizimining mavjudligi butun stan bo'ylab minimal cho'zishda prokatlashni amalga oshirish imkonini beradi. Taxlamni ko'chirish yo'lini qisqartirish, ko'ndalang aralashtirgichning yo'qligi, zamonaviy rolikli kiritish va chiqarish armaturalarini qo'llash prokatlashda taxlam sirtining minimum zararsizlanishini ta'minlaydi. Bularning barchasi kerakli sirt sifati va yuqori aniqlikdagi prokat olishga xizmat qiladi.


Flanetsli profillarni tayyorlash uchun jo'valarni kalibrlash, yarimuzluksiz va uzluksiz stanlarda yuzaga kelgan uzluksiz prokatlashni o'zlashtirish chiziqli navli stanlarda jo'valarni kalibrlashdan farqlanadi. Shvellerlarni ishlab chiqarishda egilgan profil devorli o'ralgan jo'valarni kalibrlash keng tarqalgan. Mavjud tasmasimon profilda flanetslarni sekin asta egish usuli asosidagi kalibrlash ko'p qo'llaniladi. Universal klet yakuniy bo'shatishda flanets qulashini bartaraf etish uchun qo'llaniladi.

Juft tavrli to'sinlar bitta universal kletli o'rta navli uzluksiz standa to'sinli kalibrarda prokatlanadi, yakuniy guruhdagi uzluksiz ikki jo'vali klet, universal klet bundan mustasno (3.10-rasm).



3.10-rasm. Balkalarui prokatlash uchun jo‘valarni kalibrlash sxemasi.

Birinchi kesish kalibrлari jo‘vada kesma chuqurligini kamaytirish uchun o‘rtada ajratgichli qilib tayyorlangan. Qolganlari Skalibrgacha qo‘shib flanets ajratgich holati o‘zgartirilgan to‘sинli kalibrni (ochiq va yopiq) tashkil etadi. Kalibr d tarkibiga bir xil o‘lchamli ustki va ostki flanetsli yopiq to‘sинli kalibrga ega. Kalibr β -to‘g‘rilovchi, davomda universal kletga tushuvchi simmetrik profil ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan.



3.11-rasm. Universal klet stanida paralleli tokchali balkalarni prokatlash uchun jo'valarni kalibrlash sxemasi.

(3.11-rasm) da 11 ta turli xildagi kalibrdan tashkil topgan to'sinlarini tayyorlash uchun jo'valarni kalibrlash ko'rsatilgan. Chunki prokatlash faqatgina ikki jo'vali kletlarda amalga oshirilgani uchun ingichka va baland kesishma talab etiladi. Jo'vada chuqur kesmalardan qochish uchun birinchi kesish kalibri o'ttada ajratgichli qilib bajariladi. S dug'i to'g'rilagich bo'shatish faqatgina bitta profil o'lchami uchun foydalananiladi. Bir va xuddi shu raqamli boshqa jo'valarni profil o'lhash uchun alohida to'g'rilovchi kalibrlar ko'zda tutilgan.

Bitta universal kalibr bilan to'sinni prokatlash sxemasi asosan sezilarsiz qismi jo'vali stanlarda qo'llaniladi. Keng tokchali jo'valarni prokatlashda to'rtta universal ikkita gorizontal klet qo'llaniladi. Kengaytirilgan parallel tokchali jo'valar ikkita yakuniy universal va ular orasidagi gorizontal kletlarda prokatlanadi.


Yuqori sonli bo'shatishda prokatlanuvchi barcha jo'valar uchun tekis va keng kesishmalar zarur. Boshqa kamchiliklarga qoralama kletda turli profillarni prokatlash uchun murakkablik qoralama kalibr kengligi chegaralanganligini kiritish mumkin. Yettinchi-sakkizinchisi universal kletlarni qo'llash optimali hisoblanadi.

Universal kletning gorizontal jo'valari shunday hisoblangangi bunda flanets taxlam ichki yoqlari orasidagi masofa asta sekin

boshlang'ichdan yakuniy klet tomon ortadi. Bu universal klet bilan solishtirganda quyidagi avfzalliklarni keltirib chiqaradi:

- flanetslar orasidagi masofa ortishi natijasida profilda bitta element kesishmasida metallning boshqasi bilan aralashishi qisqaradi;
- birinchi turli xil bo'shatishli zagotovkalar uchun dastlabki kesishma kengligi kamayadi;
- yeyilishga qadar yakuniydan avvalgi kletning guruh boshidagi yoki yakuniy jo'valarni aralashtirish imkoniyati tug'iladi, bu ularning sarfini pasaytiradi.
- Flanetslar orasidagi masofani aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur, bunda profil kalibriga tushuvchi ichki flanets chegarasi jo'valar nuqtasining u qadar balandda bo'lmashligi, chunki qarshi hollarda devor o'ta cho'zilishi kuzatiladi, va flanets ichki yonlaridagi metall devorda aralashadi (3.12-rasm). Yakuniy bo'shatish uchun jo'venning flanets bilan aloqa nuqtasi uning balandligidan 20...30% qilib belgilanishi tavsiya etiladi, birinchi universal bo'shatishda daraja 60% gacha oshirilishi mumkin, oraliq bo'shatishlarda taqsimlash chiziqli qonunga asosan amalga oshiriladi. Flanets bilan jo'vega tegishli nuqtasi joylashgan yeri prokatlanuvchi profil flanetsi va gorizontal jo've yon sirt egilish radiusiga bog'ilq.

Barcha universal kletlarda (flanets sirtii) gorizontal jo'velar sirti yon egilishi yakuniydan tashqari 2...7% ni tashkil etadi.



3.12-rasm. Balkalarni prokatlashda chistavoy universal kalibriga prokatalangan zagotovkani kirish sxemasi:

Jo'velarni prokatlash uchun jo'veni bunday kalibrlash (3.10-rasm qaralsin) gorizontal jo've sirtida yon burchaklar egilishi quyida-

gicha: *A* kalibrda- $0,5^\circ$, *B* kalibrda- 3° , qolganlarda- 6° . Har bir nazorat kalibri tashqi profilga nisbatan 3° ga katta flanets egri burchagiga ega. Bunday kalibrlashning afzalligiga quyidagilar kiradi; flanets ichki chegaralarida deyarli ishqalanish yuzaga kelmaydi va nazorat kalibrarning turg'unligi sezilarli ortadi. Kletning ortiqcha yuklanishiga yo'l qo'ymaslik va devorga kirishda yuritma elementlarining jo'va keskichlari orasidagi keskichning katta qismi kenglik bo'ylab kichik diametrda charxlanadi, bu qism prokatlangandan so'ng devor qalinlashadi.

Kalibrlashni shunday loyihalash tavsija etiladiki bunda universal kletda yuklama bir tekisda bo'lishi lozim. Devor va flanets cho'zish orasidagi farq bitta bo'shatishda o'rtaga 3% ni tashkil etish kerak.

Yakuniy guruh tarkibidagi bir nechta universal kletli o'rtalay navli uzlusiz stanlar relslarni prokatlash uchun ham yaroqli hisoblanadi. Rels tayyorlash uchun jo'vani kalibrash Xuddi jo'valarni prokatlash kabi prinsiplarda loyihalanadi, ular kesishmasining simmetrikmasligi, va tayyor profil ekspluatatsiya sharoitlari kabi afzallikkabi hisobga olinadi.

Universal kletli stanlarda qoralama jo'va kalibrarini deformatsiyalanish optimal sxemasi jo'valar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Bir qancha universal kletlarni qo'llab prokatlashda qoralama kalibr flanetslari orasidagi masofa keng va tekis qilib amalga oshiriladi. Bu uzlusiz qo'yilgan metallni zinchlash va nuqsonlarni bartaraf qilishni ta'minlaydi.

Universal kletlar sonining ortishi qoralama jo'va kalibrar sonining qisqarishi yoki flanets balandligi kamayishiga sabab bo'ladi, bu ko'chma armaturali jo'vada taxlamni yechishni osonlashtiradi.

Kalibr mustahkamligini oshirish zaxirasi, jo'valarni qisqartirish va prokat sifatini oshirish jo'valarni sovitish tizimining samaradorligini anglatadi. Jo'valar xizmat muddati, ayniqsa, jo'vani prokatlashda sirt darzlari hosil bo'lishi bilan chegaralanadi. Buning oldini olish uchun kalibr dan taxlam chiqish tomonida o'rnatilgan halqa ko'rinishdagi purkagichdan foydalananadi. Uzlusiz suv uzatishda qoniqarli natijaga erishiladi. Jo'va mustahkamligini oshirish va uni iqtisod qilish maqsadida kalibr moylanadi.

3.10. Jo‘valarni sozlashning asosiy ko‘rsatkichlari

Prokat stanini tez va sifatli sozlashning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri.

Stanni sozlash birinchidan belgilangan joizlik chegarasida berilgan o‘lchamli zarus profilni olish, ikkinchidan sirt nuqsonisiz profil olish uchun amalga oshiriladi.

Oddiy va turli xil profillarni prokatlashda stan asosan jo‘vani gorizontal va vertikal kenglikda o‘rnatish va jo‘vali armaturani to‘g‘ri o‘rnatishda sozlanadi.

Gorizontal kenglikda jo‘vaning holati daraja o‘lchagich bilan, vertikal esa jo‘va bochkasi yoki tref og‘irligini o‘lchab tekshiriladi. Ikki jo‘vali stan jo‘valar gorizontalligi quyi jo‘valar bilan tekshiriladi. Uch jo‘vali kletni sozlashda o‘rtacha gorizontal jo‘va o‘matiladi, so‘ng u bo‘yicha ustki va quyi jo‘valar tekshiriladi. Quyi jo‘vaning holati doim ishchi rolgang roliklar darajasi bilan bog‘lanadi.

Jo‘valarni o‘rnatishning to‘g‘riliqi shablona oraliq (material jihoz) bilan tekshiriladi. Burtaning mos kelmasligi noto‘g‘ri profil olishga olib keladi va jo‘vada tasmaning to‘g‘ri chiziqda chiqmasligini ta‘minlamaydi. O‘q yo‘nalishi bo‘ylab jo‘vani sezilarli surish tasmani aylanishi uning jo‘vadan chiqishi, profil qismlarini aralashishiga olib keladi bu esa masalan kvadrat notejis tomonlari, aylana profil yonlarida bo‘shatishni yuzaga keltiradi.

Alohibda klet va dvigatelda jo‘va holatini aniqlash stan chuqur sozlash deb ataladi.

Agar stanning bitta chizig‘ida bir nechta klet bo‘lsa u holda jo‘valarni prokatlash diametri shpindel kesishmasi $4\dots 4,5^\circ$ oshmagan holda tanlanadi. Bitta chiziqda qo‘shni klet jo‘valari nisbiy joizlik farqi, masalan 500 stan uchun 25 mln, 800 stan uchun 40 mm ni tashkil etadi.

Qo‘shni kletda jo‘va diametrining farqi qanchalik kam bo‘lsa stan shunchalik yaxshi ishlaydi. Qo‘shni kletda jo‘valar kesishmasi sezilarli bo‘lsa u holda metallni prokatlashda kuchli urilishlar yuzaga keladi bu esa stanni buzilishga, jo‘vani qotirishning bo‘sashishi, podshipnikning jadal yeyilishi va stan birlashtirgich detallar yeyilishiga olib keladi.

Oltiburchakli jo‘va o‘qi ishchi jo‘va o‘qi bilan to‘g‘richiziq hosil qilmaganda shpindel egilish burchagi belgilangandan yuqori bo‘ladi bu esa stanlarni (yoki ulardan birini) bir tomonqa qochishiga olib keladi.

Bu holatda ishchi jo‘va bo‘yni aylanganda aylanani ta’riflaydi, elliklar esa stanni “otib yuboradi”. Shuncha o‘xhash hodisa quyi jo‘vaning podshipniklarini kuchli cho‘kishi natijasida kuzatiladi. Stanning silkinishiga vertikal kenglikda jo‘valar kesishmasi, podshipnik asos sirtiga jo‘va bo‘ynining yetarlicha yopishmasligi sabab bo‘ladi.

Stanni silkitishda yuzaga kelgan kuchli tebranishlar flaneetsli (burchakli) qatlamning jadal yeylimishini keltirib chiqaradi. Oltiburchakli klet podshipniklarini qizdirish mustahkam to‘g‘ri profil olishni murakkablashtiradi.

Jo‘va boyni podshipniklarda shunday joylashtirilishi kerakki natijada ular qizimasligi kerak: tekstolit podshipniklar ish jarayonida jo‘va bo‘ynining o‘ta siqilishi podshipniklar jadal yeylimishiga olib keladi buning natijasida stan sozlamalari buziladi. Podshipniklarning jadal yeylimishi jo‘va kletiga notejis yuzali bo‘yinni o‘rnatish natijasida yuz beradi. Tajribadan aniqki bo‘yin zanglashi: jo‘valarni ochiq joyda moylamasdan himoya asossiz saqlash; tarkibiga turli oksidlar kiruvchi (kaltsiy, magniy, natriy) yoki ishqorlar (kremniyli va boshqalar) suv bilan bo‘yinni moylash va sovitish natijasida yuz beradi va tezlashadi. Aniqlanishicha suv miqdori va uning kimyoviy tarkibi podshipnikning ish davomiyligiga katta ta’sir o‘tkazadi. sovitish uchun sovuq svuni qo‘llaganda podshipnikning tekistalit qatlami ish davomiyligiga 1,5...2 barobar qisqaradi. Qo‘sishimcha quruq moyli presslangan tekstolit taxamlarni qo‘llash podshipnik ishlash davomiyligini bir necha marta (4...6) oshiradi, ish jarayonida oddiy buzilishlarni bartaraf etadi, prokat sifatini oshiradi.

Tekstolit qatlamlari podshipniklarni qo‘llash shuni ko‘rsatadiki ularning mustahlamligi asosan sovitish muhitni, harorati va tozaligiga bog‘liq. Jo‘va bo‘yniga suv mexanik aralashmalarsiz uzlusiz va bir tekisda butun uzunlik bo‘ylab tarqalishi kerak. sovitish va moylash uchun suv sarfi hisobi podshipnik sirti 1 sm^2 uchun $0,75 \text{ l/s}$ ni tashkil qiladi. Stanni sifatli sozlash va aniq profil olishni ta’minlash uchun rolikli va suyuq ishqalanishli zamонавиу uzlusiz stanlarda qo‘llaniluvchi podshipniklar yaroqli hisoblanadi.

Suvni nafaqat jo‘va bo‘yniga podshipnik (tekstolit podshipnikka) balki jo‘vaning ishchi va ishlamaydigan yerlariga ham uzatish kerak. Prokatlash qanchalik jadal bo‘lsa jo‘va sirti sovitishga kam vaqt talab etiladi, bochka sirt harorati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shuning

uchun jadal prokatlashda sovituvchi suvning miqdorini oshirish zarur. sovitish suvi deformatsiya markaziga tushmasligiga harakat qilish kerak. O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki deformatsiya markaziga suv tushishi va tezda parlanishi jo'va sirtining qiyshayishi va mexanik yeyilishiga olib keladi.

Jo'valarni davomiy prokatlashda kalibr balandligining qizishi va qisqarishi yuz beradi. Bunda jo'va sirt harorati 30°C ko'tarilganda kalibr balandligi 0,26 mm ga qisqaradi bu yerda sezilarli kattalik hisoblanadi. Turli xildagi profillarni prokatlashda (to'sin, shveller) jo'valar sezilarli yuqori darajada oddiy profilga (kvadrat, aylana) nisbatan qizdiriladi. Shuning uchun prokatlash jarayonida jo'valar harorati o'zgarmasligiga harakat qilish lozim. Asosiy e'tiborni yoz vaqtida sovitish suvining harorati yuqori bo'lganda jo'valarni sovitishiga qaratish lozim.

Yakuniy kalibrlashning tez-tez o'zgartirish yoki jo'valarni qayta jo'valash: jo'va sirtining parchalanishi, ularni bo'yash qizdirish to'rining hosil bo'lishi; kalibr ishlab chiqarish va ularning o'lchamlarini tutib turish natijasida yuzaga keladi.

Kalibr faqatgina prokatlanuvchi metall va jo'vali armaturaning noto'g'ri o'matilishi va noaniq ishqalanadi. Qisqa simlar jo'va jismiga urilib uning tezda ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Cho'zish va tayyorlash kalibrлari yeyilishi ko'p hollarda yakuniga nisbatan ko'proq kuzatiladi. Yakuniydan avvalgi va yakuniy kalibrлarda yeyilish minimal bo'lishi kerak, chunki berilgan o'lchamdan har qanday qochish yakuniy profil aniqligicha ta'sir ko'rsatadi. Ikki taraflama har bir ishchi klet maxsus jo'vali armatura (brus, chiziqli, qutili) bilan jihozlangan. Brusning gorizontal holati daraja bilan tekshiriladi. Yirik navli relsjo'vali stanlarning asos brus yuqori kengligi rolgang quyi roliklaridan o'rtacha 30...35 mm pastda joylashadi.

Kiritish va chiqarish chiziqlari kalibriga simmetrik ravishda o'matiladi. Chiziqlar orasidagi oraliq kattaligi tasmaning jo'vaga nisbatan normal harakatini uning kalibrda tushishini ta'minlashi kerak. Chiziqlar orasidagi masofa tasma kengligi bilan aniqlanadi. Qutili kalibrлar tizimini prokatlashda taxlamni qadoqlash hisobga olinadi. Yirik navli chiziqlar orasidagi masofa odatda tasma kengligining 15 mm dan ortadi. Chiziqning oldingi yakuni jo'va burtasidan 5...15 maksimal diametrda tashkil etadi.

Brusga quti daraja bo'ylab o'rnatiladi, bo'shatish esa qutiga vertikal bo'ladi. Qulashga yo'l qo'ymaslik va prokatlanuvchi tasma holatini ta'minlash uchun qutida bo'shatishlar mustahkam turishi va tasmani yetarlichcha zich siqish kerak. Yirik navli profillarni prokatlash uchun bitta harakatsiz va harakatli bo'shatishga ega quti konstruksiyasi o'zini oqladi. Bo'shatish harakati harakatlanuvchi kiln va vint yordamida tamomланади. Qutida bo'shatuvchilar holati kalibr burtasiga nisbatan simmetrik bo'lishi kerak.

Brus, quti yoki bo'shatgichlarni noto'g'ri o'rnatish prosiflda qator nuqsonlar hosil bo'lishi manbai hisoblanadi: prokatlanuvchi tasma aylanishi, bittasida tekis yon (lyska), boshqasida lampas (aylana profilini prokatlanganda) hosil bo'lishi, notekis yoki bo'shatgich yeyilishini tezlashishi va boshqalar. Stanning normal ishlashi uchun vertikal tekislikda prokatlangan tasmaning zaruriy yo'nalishini ta'minlovchi simlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, jo'valarni tasmadan himoya qiladi. Kalibrarning yopiq qismilariga o'rnatilgan osma kabellarga alohida e'tibor berish kerak. noto'g'ri o'rnatilgan kabellar (juda uzun yoki juda qisqa) standagi muammoli va to'qnashuv (avariyaviy) holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jo'vadan prokatlanuvchi tasmaning normal chiqishi 5...10 mm oqim tubidan pastda o'tkazgich o'rnatish bilan ta'minlanadi.

Yo'llanma kabellarning ishdan chiqishiga asosiy sabab noqulay ish sharoitida joylashgan payloqning yeyilishi: uning ishchi yuzasi harakatlanuvchi tasma bilan ishqalanadi, o'zak yuzasi jo'valar aylanish natijasida ishqalanib yeyiladi. Planetsli va boshqa tor kabellar kichik kesishma payloqli prokatlanuvchi jo'vega sig'uvchi sezilarsiz maydon-ga ega bo'lib buzilishlarga ko'proq moyil bo'ladi.

Prokatlash stanining tez yeyiluvchi detallar sarasiga mufta va shpindellar kiradi; ularning yeyilishiga ma'lum chegaragacha; ularning yeyilishiga ma'lum chegaragacha yo'l qo'yiladi. Ta'kidlanishiga reversiv ikki jo'vali stanlarda biriktirgich mustalariga yeyilishi jadalligi shesterna jo'valari ishchi tref bog'liqligi bilan farqlanadi. Katta diametrli jo'valarni aylantiruvchi mustalar kichik diametrli aylana jo'valar muftasiga qaraganda tezroq yeyiladi, bunda birinchisi katta momentga uzatiladi.

Kletning mahkamlash va asos detallarning holatiga, shuningdek yon muruvvatlarini o'rnatish holatiga alohida e'tibor berish kerak. Yon

boltlarning zaiflashishi jo‘valarning asos siljishiga va bu yuzaga bog‘liq profil nuqsonlarining hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Prokatlash boshida birinchi tasmadan namunalar olinadi, o‘lchamlar tekshiriladi va sirt holati ko‘zdan kechiriladi. Qabul qilingan o‘lchamlar talab qilinganidan chetga chiqqanda ular stan sozlamalarida o‘rnataladi. Keyinchalik nazorat qilish uchun namunalar vaqtiga bilan tanlanadi.

3.11. “Uzluksiz” prokatlash

Uzluksiz stanlarda prokatlash katta yoki kichik to‘xtalishlarda donali ishlab chiqariladi. Kletda tasmalarni belgilash jarayoni sezilarli dinamik zarb bilan kuzatiladi, bu esa asosiy tizimning buzilishiga olib keladi. Uzluksiz standa donali prokatlash jarayoni (tasmani tortish bilan) klet tasmalarida kirish va chiqish jarayonlarining o‘zgaruvchalligiga bog‘liq. Doimiy bo‘limgan kuchlanish bilan o‘qish jarayonlari ning mavjudligi uzunlik bo‘ylab tasmalar qalinligida farqlanadi.

Bu barcha kamchiliklar zagotovkalarni prokatlashda deyarli yo‘qoladi. “Uzluksiz” prokatlash jarayoni quyidagi stan ish rejimida ayniqla, samarali bo‘ladi; mayda navli stanga yonilg‘i quyish 10...15 m/s prokatlash tezligida amalga oshiriladi prokatlashdagi keying tezlik 25...45 m/s gacha oshiriladi. “Uzluksiz” prokatlash jarayonining muhim ko‘rsatkichi payvand chokining sifati hisoblanadi. Zavod sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlarga kovra chokining xususiyatlari asosiy metall xususiyatlaridan past bo‘lmasligi kerak.

Payvand chokining sifati sezilarli darajada tanlangan payvand rejimi va zagotovka burchak qoliplariga bog‘liq. Payvandlanuvchi zagotovka burchaklarning ideal qolipi sferik, qavariqli hisoblanadi. Ushbu shaklda metallning eritish jarayonida shlakli qo‘shilmalar zagotovka sirtiga ko‘chadi va metall chokining xususiyatlarini pasaytirmaydi. Zagotovka burchagini qavariqli qolipini kesib olib bo‘lmaydi. Mayda navli stanlarni “uzluksiz” prokatlash uchun uzluksiz zagotovkalash stanida uchuvchi qaychi bilan burchaklari ezilmasdan kesimalgan zagotovkalar maqbul hisoblanadi.

Statsionar qaychilar va yassi qaychi bilan zagotovkani kesish uchun presslar qoidaga ko‘ra kesish katta notekislik, qiyshaygan ezilgan va cho‘zilgan yakunli kesmalar amalga oshiriladi. Bunday zagotovkalar payvandlash boshlanishidan avval yomon markazlashadi,

natijada payvandlanuvchi zagotovkalar kesishmasiga nisbatan aralashadi.


Zagotovkani uchma-uch payvandlash jarayoni payvandlanuvchi zagotovka metall qismining erishi va ularning katta bosim ostida siqish hisobiga amalga oshadi. 80x80 mm kesishmali zagotovkalarni payvandlashdagi siqish kuchi 350...400 kN ni tashkil etadi. Buning natijasida chok o'rnida balandligi 15 mm kengligi 15...20 mmm g'udda (grat) hosil bo'ladi. Prokat g'udda taxlanadi. Payvandlashdan so'ng g'uddani yo'qotish zarur. G'uddani yo'qotishning uchta usuli mavjud: frezerli, skrebkali va olovli mayda navli stanlarda "uzluksiz" prokat bilan bog'liqligi kam yetarlicha sinovdan o'tmagan. Pyvand choki uzunligi tayyor prokatda prokatlanuvchi profil va cho'zish yig'indisiga bog'liq. Masalan, 106x106 mm kesishmali zagotovka diametri 16 mm aylana profilni prokatlashda taxlam payvand chokining uzunligi 1,5...2 m ga yetadi.

Tayyor prokatda payvand chokining sifatini davriy nazorat qilish uchun payvand vaqtida payvand chokiga yuklangan radioaktiv elementlar va vixr toki usuli qo'llaniladi. Yakunda payvand chokining maydonga o'tish paytida o'Ichov tizimining (datchik) g'alayonlanshiga asoslangan.

Zagotovkalarni uchma-uch payvandlash uchun ikki turdag'i mashina mavjud; uchuvchan va statsionar. Uchuvchi elektr-payvandlash mashinalari zagotovkalarni qizdirish pechida birinchi klet tomonga harakatlanish jarayonida payvandlaydi. Statsionar mashinalarda payvandlash uchun zagotovkalarni payvandlash vaqtida ilgaklar zaxirasi zarur.

(3.13-rasm) da. "Uzluksiz" prokatlovchi 250 stan uskunasi qo'shimcha va asosiy joylashish sxemasi keltirilgan. Stan 800 ning loyihalangan quvvati yiliga 800 ming tonna; prokatlashning maksimal tezligi 20 m/s. Stan mahsuloti aylana kvadrat va oltiburchakli profillardan tashkil topgan, tasma (12...70) x(4...20) mm burchakli profil N 2...4. Zagotovka-kvadrat kesishmali 80x80 mm va uzunligi 12 m. Zagotovkalar magnit ko'targich bilan 26 javonga uzatiladi, u yerdan shpiller bilan taxlash qurilmasiga tashlanadi va uzatma rolgangga donalab taxlanadi. Uzatuvchi rolgang chizig'ida Avtomat tarozilar o'rnatilgan, nuqsonli zagotovkalarni tashlash uchun cho'ntak ko'zda tutilgan.

250 standa "Uzluksiz" prokatlashda kuyindini kamaytirish va bir tekit qizdirish uchun induktiv pech va ilgakli quvurda, gazli metodik pechda prokatlashdan avval metallni qadamli qizdirish ko'zda tutilgan. Metodik pechda zagotovkani qizdirish harorati 1100°C ga teng induksion pechda 1130-1180°C. Ilgakli koks domenli aralashma bilan qizdiriladi, zagotovka issiqligini yo'qotish uchun 600°C gacha qizdiriladi.



3.13-rasmi. Uzluksiz prokatlash 250 kichik sortli stan jihozining joyla-shish sxemasi:

1-paketlovchi mashina; 2-karmanlar; 3-soviq holda kesish uchun pichoqlar ; 4-rolikli to'g'rilovchi mashina; 5-reykali sovitkich; 6-ikki barabanli uchar pichoqlar; 7-chistavoy klettar guruhi; 8-plastinkali konveyer; 9-o'rovchi mashina; 10, 12-ehitiyot pichoqlari; 11-oraliq klettar guruhi; 13-chernovoy klettar guruhi; 14-bo'luvchi pichoqlar; 15, 17, 19, 24-trayib aparati; 16-indiksyon pechka ; 18-sirtmoqli quduq; 20-to'g'irllovchi qurilma; 21-G'udda olib tashlagich; 22-elktryoy payvandlash mashinasi; 23-kuyindini urib chiqargich; 25-qizdirish pechi; 26-yuklovchi panjara

Qizdirish pechi ikki zonali, monolit egilgan tubli metodik. Pech uzunligi 19,5 m, kengligi 12,6. Pech koks domen aralashma bilan qizdiriladi. Stan har birining samaradorligi 110 t/s bo'lgan ikkita qizdirish pechi xizmat ko'rsatadi.

25 Pechdan chiqarilgan zagotovka payvandlash mashinasiga ko'chiriladi. Payvand mashinasidan oldin zagotovka burchagidan

kuyindini urib chiqarish uchun qurilma 23 o'matilgan. Payvandlash mashinasi 22 statcionar; payvandlashda zagotovka harorati 1000°C, payvandlash davomiyligi 10 s. Bunday turdag'i payvand mashinasining bo'shatish qobiliyati 180 payvand/soatga yetish mumkin. Avvalgi zagotovkaning payvand mashinasida yakuniy joylashishi mexanik yuritmali to'g'rilagich qurilma 20 bilan to'g'rilanadi. Impuls qabul qilinganida pnevmatik silindr yuritmali boshqariladigan siqish burchaklari ish qismini tutib pas tezlikda prokatlash yo'nalishi bo'yicha ko'chiriladi. to'g'rilagich uskunani to'xtatish uchun impuls yakuniy holatdagi fotoelement orqali kelib tushadi.

Zagotovkani payvandlash avvalgi zagotovka payvand mashinasida asl holatini egallagandan keyin boshlanadi. G'uddani yechish uchun 250 standa frezer turidagi g'udda yechish 21 qo'llaniladi. G'uddani yechish frezali ikkita yuritma barabandan tashkil topgan. Payvandlash va birinchi klet orasidagi stanga metallni uzluksiz yetkazib berish uchun to'quv mavjud bo'lib, unda zagotovkani payvandlash davrida metall zaxirasi yaratiladi. Standa qabul qilingan prokatlash tezligi (20 m/s gacha) ilgakning talab etilgan maksimal zaxirasi 23,4 m ni tashkil qiladi. Ilgak darajasining chegaralari o'matilgan datchiklar bilan nazorat qilinadi. Ilgak quduq 18 11 m uzunlik 13 m chuqurlik va 0,7 m kenglikka ega bo'ladi. Ilgakli quduqda taxlamni ko'chirish trayb-apparat 17 va 19 bilan amalga oshiriladi.

Tonnel bo'limli yakka tartibdagi pech 15 zagotovkada issiqlik yo'qotishni to'ldirish uchun xizmat qiladi, bundan tashqari zagotovka uzunligi bo'ylab haroratni tenglashtiradi. Metallni qizdirish o'rta chastotali tok yordamida amalga oshiriladi. Qizdirgichlar bloklarga olovbardosh betondan quyiladi. Pechning talab etilgan quvvati 5000 kVt. Pechdan chiquvchi zagotovka harorati 1130...1180°C. Trayb qurilma 12 stanning birinchi kletiga payvandlangan tasma harakatini yengillashtiradi.

Zagotovka payvand maydonida mashinalarni boshqarish uchun fotoelementlar foydalaniladi. Stan to'rt guruhdan tashkil topgan: qoralama 13, orqali 11 va ikkita yakuniy 7 va 9. 250 stanida "Uzluksiz" prokatlashning afzalligiga yakuniy guruhiba kombinatsiyalangan ishchi kletning borligi mahsulot naviga ko'ra vertikal va gorizontal jo'valar joylashishi mumkin. Yakuniy stan guruhida ishchi kletlarni boshqarish

avtomatlashtirilgan. Qoralama va oraliq klet guruqlarida prokatlash kletlararo cho'zib amalga oshiriladi.

Ikki tomonlama reykali sovitkich 5 ning chap tarafi burchak profillarini to'g'rilash uchun to'g'rilaqich qurilma 4 bilan va ikkita ketma-ket joylashgan sobuq kesish qaychi 3 o'rnatilgan. Tayyor malisulotni yig'ish uchun qadoqlash mashinasi 1 mavjud. Tayyor mahsulotni o'tamlarda yetkazib beriladi.

3.12. Simli stanlarni kalibrlash sxemasi va prokatlash rejimi

Simli stanlarni prokatlash texnologiyasining asosiy masalalariga berilgan diametrдан minimal qochgan geometrik qolipda to'g'ri katan olish va uning sirtida nuqsonlarni bartaraf qilish.

Uzlusiz standa tayyorlangan zagotovkalar kesishmasi qolgan teng sharoitlarda cho'zishning umumiy koeffitsiyentiga, prokatlashning yakuniy tezligiga va stan harorat rejimiga bog'liq.


Stan chizig'i bo'ylab optimal harorat rejimini ta'minlash uchun birinchi kletda zagotovkaning minimal tezligi 0,09 m/s olishi kerak. Bunday holatda minimal maydonda ko'ndalang kesmali profilni prokatlash yakuniy tezligi quyidagicha belgilanadi: , bu yerda-yakuniy kletda berilgan profilni prokatlashning maksimal tezligi, m/s; profilni cho'zishning umumiy koeffitsiyenti; 0,09 m/s-birinchi ishchi kletda prokatlashning minimal tezligi.

To'rtarmoqli yuqori tezlikdagi simli stan qurilmasini joylashtirish sxemasi: stanni to'rtta tarmog'i uchun zagotovkani bir tekis qizishini ta'minlovchi itargichli pech orqali guruhdagi 7-kletli ishchi guruh stani bunda prokatlash to'rtta tarmoqda olib boriladi, yakka tarmoqli 10-kletli blok, ularning har birida diametri 200 mm ikki juft va diametri 150 mm, sakkiz juft konsolli qotirilgan diskli jo'va. Kvadrat zagotovkali 127 mm diametrik 5,5 mm bo'lgan katankani ishlab chiqarishda qurilma prokatlash yakuniy tezligi 70 m/s (ba'zan 100 m/s) gacha hisoblanadi. Diametri 5,5 mm katanni prokatlab cho'zishning o'rtacha koeffitsiyenti 1,296 ni tashkil qiladi.

Yakuniy klet to'sin konstruksiyasining afzalliklaridan biri cho'zishni orttiruvchi va kengayishni ta'minlovchi prokatlash jo'vaising kichik diametri hisoblanadi.

Diametri 150 mm diskli jo'vaning sakkizta blok kletlari umumiy deformatsiyalanish darajasi 83% ni tashkil etadi diametri 280 mm bo'l-

ganda -74%. Bu sharoitlarda (kam kengayish va katta cho'zish) yuqori aniq o'lchamga ega bo'lishi zarur. Yeyilishga bardoshli materialdan tayyorlangan jo'valarni qo'llash natijasida davomiy vaqt oralig'ida jo'valar orasidagi oraliqni o'zgarishsiz prokatlashni amalga oshirish mumkin. Shpindel va mustasiz jo'valar yuritmasini qo'llash ularning yuqori aylanish tezligiga qaramasdan titrashni amaliy bartaraf etish imkonini beradi. Jo'valar orasidagi oraliqni o'zgarishsiz prokatlashni amalga oshirish birmuncha qulayliklarga ega bo'lib, bu usulda prokatlangan mahsulotni aniq o'lchamda olishga va sifatini oshirishga erishiladi. Prokatlash davomida jo'valarni yeyilishi va jo'valar orasidagi oraliqni kengayishiga yo'l qo'ymaslik albatta mahsulot sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.




3.14-rasm.

Jo'valar diametri 150 mm bo'lgan kletlarning blokli konstruksiysi (a) va diametri 280 mm li vertikal va gorizontal joylashgan jo'valarga (b) ega bo'lgan chistavoy sakkiz kletli kletlar guruhining kalibrlash sxemasi


(3.14-rasm) da simni prokatlashda yakuniy klet guruhida qo'llaniluvchi kalibrlash sxemasi ko'rsatilgan. O'n kletli blokning oval-doira kalibrlash sxemasi (3.15-rasm) jo'va diametri 150 mm li to'sin konstruksiysi uchun qo'llaniladi. Bitta va bir xil kletlarda (birinchisidan tashqari) nisbiy siqish va cho'zish koefitsiyenti turli

profillarni prokatlashda doimo bir hil, bu guruhli yuritma uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Katanka diametri 5...12,7 mm bo'lgan barcha mahsulotni prokatlash uchun jo'valar orasidagi bo'g'liq boshqariladi. Boshqa diametrlı katanlarni prokatlashga o'tishda yangi jo'valar asosan yakuniy klet blokiga o'matiladi. Bir muncha katta o'lchamdagи katanlar yakuniy blokning minimum to'rtta kletida prokatlanadi, buning uchun talab etilgan prokat aniqligi ta'minlanishi zarur.




3.15 - rasm. Jo'valari 150 mm diametriga ega bo'lgan o'n kletli blokning kalibrash sxemasi.



3.16 - rasm. Chistovoy kletlar blokining oval-oval kalibrlash sxemasi.

Ko'rib chiqilgan sxema katta universallikka ega, natijada jo'valardan ratsional foydalaniladi va navni almashtirishda minimum vaqt yo'qotilishiga erishiladi. Oval kalibrash sxemasi (3.16-rasm) 5,0 dan 12,5 mm gacha katanlarni prokatlash uchun, yakuniy kletning blok konstruksiyasiga qo'llaniladi. Yakunidan tashqari (aylana) har bir kalibr shunday loyihalanganki bunda normal prokatlash 80% dan oshirmsandan to'ldiriladi. Oval-oval kalibrash sxemasi kesma bo'ylab likvatsiya maydonining teng taqsimlash imkonini beradi, kalibrarning bir tekisda yeyilishi kalibr ishlab chiqarish jarayonida doimiy cho'zish rejimini ta'minlaydi. Kalibrashning bu tizimida tasmalar boshqacha nisbatan ko'proq parchalanishiga moyil, bunda tutib turilgan bo'shatishlarga (armatura) katta e'tibor qaratish zarur.



317-rasm. Chistovoy kletlar blokining uchburchak-uchburchak kalibrlash sxemasi.

Uchburchak kalibrlash sxemasi (3.17-rasm) mayda navli simli stan uchjo'vali bloklarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Har bir kletda uchta jo'va uchburchak kalibrni hosil qiladi. Uchyuoqli tasmaning aylana burchaklari navbatdagi bo'shatishda siqiladi, natijada tasmani kontovkalash zarurati yo'qoladi. Mavjud deformatsiya rejimida metallning hajmiy kuchlanish holati qiyin deformatsiyalanuvchi po'lat markalarini prokatlash imkonini beradi. Bu tizimda prokatlashda tasmaga tushuvchi ag'darish kuchi yo'qoladi.

3.13. Navli po'latni nazoratli prokatlash

Nazoratli prokatlash qotishma va po'latlarni plastik qayta ishslash jarayonining bir turi hisoblanadi, qayta ishslashning turli bosqichlarida metallni sovitishning berilgan rejimlarida, jarayonning deformatsion va

harorat ko'rsatkichlarida, qat'i belgilangan kamyoviy tarkibiga ko'ra aniqlanadi. Nazoratli prokatlash amalga oshirish berilgan strukturani maxsus turdag'i strukturani va mustahkamlash fazalarini olish imkonini beradi, bunda bir vaqtning o'zida metallning mustahkamligi va qovushqoqligi ortadi yoki unga maxsus xossalari beriladi.

Navli profillar ishlab chiqarishda qo'llaniluvchi nazoratli prokatlash jarayoni bir qator hollarda odatiy texnologiyalarda ishlab chiqariluvchi yuqori sifatlari prokatlar bilan raqobatlasha oladi. Biroq profil tuzilishining murakkabligi va prokatlash tezligining kattaligi prokatlash jarayonida taxlamni ezish uchun ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Nazoratli prokatlash bir vaqtning o'zida po'latning mustahkamlik, plastiklik, cho'ziluvchanligini oshiradi. Nazoratli issiq prokatlash natijasida mustahlamlik, plastiklik va cho'ziluvchanlikning optimal birligini olish uchta strukturali omillarga bog'liq:

1) strukturali maydalash (mayda va birjinsli donalar olish);
donani maydalab po'latni mustahkamlash natijasi 20...30 %;

2) dispersion mustahkamlash;

3) poligan substruktura olish. Sanab o'tilgan omillardan asosiy o'rinni birinchi va uchinchi usul egallaydi. Donalarni maydalash metallning cho'ziluvchanlik xossasi va monoton mustahkamlikni oshishini ta'minlaydi, poliganlashgan substrukturani olish esa mustahkamlikni oshirish bilan bir qatorda yuqori plastiklikni saqlashga imkon beradi. Dispers mustahkamlash zarur emas chunki mustahkamlik xossalari sezilarli darajada ortganda, qovushqoqlik va plastiklik tezda kamayadi. Kamlegirlangan po'latlarni nazoratli prokatlashda ajralgan dispers karbonitridlar donalarni maydalovchi asosiy usul sifatida qo'llaniladi.

Bunday holatda donalarni maydalash va substruktura olish-mustahkamlikni oshiruvchi maqsadli mexanizm hisoblanadi. Nazoratli prokatlashda boshqaruvchi ko'rsatkichlarga: austenatsiya harorati (prokatlashda qizdirish harorati) haroratni va deformatsiyalangan prokatlash rejimi (prokatlash so'ngidagi harorat); siqish va bo'shatish bo'ylab taqsimlash va ayniqsa, yakuniy bo'shatishda chiqish kattaligi; bo'shatishlar orasidagi to'xtatishlar vaqt (deformatsiya lanish orasidagi tutilishlar); yakuniy sovitish rejimi. Biroq bo'shatishlar orasida metallni tabiiy sharoitda havoda sovitish vaqtining ortishi hisobga ko'ra deformatsiyalishning yakuniy haroratining pasayishi prokatlash

stanining samaradorligining pasayishini xarakterlaydi. Yaxshilangan xossali prokat ishlab chiqarishda stan yuqori samaradorligini ta'minlash uchun deformatsiyalararo tutilishlarda tezlashtirilgan metallni sovitishni qo'llash maqsadga muvofiq.

Nazoratli prokatlashda po'latning mexanik xossalari oshirish deformatsiyalanuvchi austenitning rekrissstallanish jarayonini sekinalashtirishga asoslangan, bu esa ikki yo'l bilan amalgalashadi.

Birinchi usul: po'latni eritishda unga kuchli karbidsimon elementli mikrolegir lash qo'shimchalari qo'shiladi (niobiy, vadaniy va boshqalar) ular donalarni maydalashga va austeniteni rekristallanishni to'xtatishga xizmat qiladi, dispers qattiqlashish va uning mo'rt parchalanishga qarshiligini oshirish hisobiga po'lat mustahkamlanadi. Bunday usul listli prokatlash ishlab chiqarishda foydalilanadi.

Ikkinci usul: jadal deformatsiyalanishidan so'ng sovitishni qo'llash, mikrolegirlovchi qo'shimchalarsiz po'lat sifatlarini oshirishga imkon beradi. Tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, kamlegirlangan va uglerodli po'latlarni davomiy sovitishli austenit maydoni nisbatan past haroratda deformatsiyalanishi zarur. Prokatlash sifatini yaxshilashning bunday usuli afzal hisoblanadi, chunki bunda prokatlash stani oqimida kamlegirlangan po'latlar va uglerodli po'latlarning keng tarqalgan sifatlarini oshirishga imkon yaratiladi.

Nazoratli prokatlash jarayonini quyidagi uchta bo'limga bo'lish mumkin.

1. 1000°C haroratdan yuqori prokatlash. Bunda austenit donasining deformatsiyalanishi uning bo'shatishlar orasida to'xtalishlar vaqtida rekristallanish bilan almashadi. Natijada austenit donasi maydalanadi.

2. 950°C harorat oralig'ida prokatlash, bunda austenit donasi uzayadi va deformatsiyada ko'p sonli tasmalar hosil bo'ladi, bu esa ferritning mayda strukturasini ta'minlaydi.

3. nuqtasidan past haroratda prokatlash (tekstura hosil bo'lish davri) prokatlashning sovuqlay turg'unligi va mustahkamligini ortishiga xizmat qiladi.

Po'latning mexanik xossalariiga ta'sir etuvchi nazoratli prokatlash ko'rsatkichlariga yagona bo'shatish deformatsiyalanish darajasi va bir necha bo'shatishda umumiy deformatsiyalanish darajasi, deformatsiya tezligi, deformatsiyani bo'lish, bo'shatishda xususiy siqishni o'zgarishiga bog'liq.

Po'lat xossasi va tuzilishi deformatsiya rejimiga ta'sir o'tkazadi, ya'ni doimiy deformatsiya yig'indisida bo'shatishlar bo'ylab siqishni xarakterlaydi. Prokatlash so'ngida deformatsiyaning ortishi deformatsion qizdirish va prokatlashning yakuniy haroratini oshiradi. Bu mustahkamlash jarayonining borish tezligiga ta'sir o'tkazadi, shuning uchun siqish rejimini kamaytiruvchi prokatlashni o'tkazish tavsiya etiladi. Biroq yakuniy bo'shatishda deformatsiyalanish issiqlay deformatsiyalanuvchi po'lat hajmi bo'ylab dislokatsiyaning bir tekis taqsimlanishini ta'minlash uchun 15...20 % dan kam bo'imasligi kerak.

Legirlovchi element saqlaydigan uglerodli va kamlegirlangan po'latlar uchun (niobiy, vanadiy, titan va boshqalar) yuqori haroratda rekristallashda austenit deformatsiyalanish turg'unligini oshiradi, mexanik xossalalar issiqlay prokatlashda metallni deformatsiyalashdan so'ng va sovitish jarayonida tezlikning ortishi natijasida yuzaga keladi.

Nazoratli prokatlashda deformatsiyaning harorat rejimini boshqarish uchun metallni sovitishni boshqarish qurilmasini qo'llash zarur. Hozirgi vaqtida prokat ishlab chiqarishda metallni suv bilan sovitish qo'llaniladi. Bunda suvni laminar va oqimli uzatish tizimi qo'llaniladi. Yopiq kamerada laminar suv oqimida (sim, armatura) kichik kesimli va oddiy qolipli navli metallni sovitish uchun bir qator uskuna konstruksiyalari ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari prokat havo aralashmasi oqimi bilan ham sovitiladi. Suv havoli aralashmalar metallni kesim bo'ylab bir maromda sovitadi.

Yuqori sifat ko'rsatkichli uglerodli va kamlegirlangan po'latlar dan navli profillar ishlab chiqarish uchun tavsiyalar.

1. Navli stan oqimida boshqarib sovitishli nazoratli prokatlash texnologiyasi, prokatlash yakunida nisbatan yuqori haroratda ($850\ldots950^{\circ}\text{C}$) mexanik xossalarni yaxshilashni ta'minlaydi, deformatsiyalishdan keyingi sovitish va deformatsiyalararo sovitish tezligini boshqarishni qo'llash tavsiya qilinadi.

2. Po'latning qovushqoqlik va mustahkamlik xossalarni oshirish uchun siqish birligi 15...20 % bo'lgan sovitilgan metallni bo'lib deformatsiyalashni qo'llash maqsadga muvofiq.

3. Boshqariluvchi sovitishli prokatlash jarayonini amalga oshirishda deformatsiyalashdan keyingi to'xtalish sanoat stанининг

texnologik sharoitlaridan kelib chiqib (5 sek kam) minimal bo'lishi kerak.

Nazorat savollarri:

- 1.Metallni kesish bo'yicha texnologik jarayonni tashkil qilish qanday asosiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi?
- 2.Relsbalkali stanlar haqida nimalarni bilasiz?
- 3.Relslar xossasini yaxshilash uchun yana qanday jarayonlar bajariladi?
- 4.Universal to'sinli stanlar qanday mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan?
- 5.Yirik navli stanlarning tuzilishi va ishlashi haqida nimalarni bilasiz?
- 6.Mahalliy zamonaviy yirik navli stan turlari haqida nimalarni bilasiz?
- 7.Ikkitavrli jo'veni prokatlashda yakuniy tozalash gorizontal klet o'mniga qanday klet o'matiladi?
- 8.Universal to'sinli stanlar haqida nimalarni bilasiz?
- 9.Standa mayatnik turidagi issiqlay kesish uchun nechta arra o'matiladi?
- 10.Navli po'latni prokatlash uchun kalibrlash qanday amalga oshiriladi?
- 11.Universal kalibrlar deb qanday kalibrarga aytildi?
- 12.Navli profillarni uzluksiz prokatlashning ratsional rejimi haqida nimalarni bilasiz?
- 13.Qoralama klet guruhiha qanday kesishmali tasmalar prokatlanadi?
- 14.Navli prokatlash aniqligiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
- 15.Klet mustahkamligining optimal kattaligi nimalar bilan aniqlanadi?
- 16.Murakkab profillarni prokatlash uchun kalibrlash qanday amalga oshiriladi?
- 17.Juft tavrli to'sinlarni prokatlash uchun jo'velarni kalibrash qanday amalga oshiriladi?
- 18.Burchakli profillarni kalibrash haqida nimalarni bilasiz?
- 19.NOTEKIS tokchali po'latlarni kalibrashda qanday po'latlarni kalibrash usullari qo'llaniladi?

- 20.Uzluksiz o'rta navli stanlarda har xil shaklli profillarni prokatlash uchun jo'valarni kalibrashning afzalliklari nimada?
- 21.Yuqori sonli bo'shatishda prokatlanuvchi barcha jo'valar uchun qanaqa kesishmalar zarur?
- 22.Jo'valarni sozlashning asosiy ko'rsatkichlari haqida nimalarni bilasiz?
- 23.Yo'llanma kabellarning ishdan chiqishiga asosiy sabab nimada?
- 24."Cheksiz" prokatlash jarayoni qanaqa bo'ladi?
- 25.Simli stanlarni kalibrash sxemasi va prokatlash rejimi haqida nimalarni bilasiz?
- 26.Nazoratli prokatlashda deformatsiyaning harorat rejimini boshqarish uchun metallni sovitishni qanday qurilmasini qo'llash zarur?

4-BOB. LISTLI PO LATLARNI PROKATLASH NAZARIYASINING AYRIM ELEMENTLARI


4.1. Ishchi klet va tasmalar mustahkamligi

Listli stan ishchi kleti barcha prokatlash kleti kabi absolyut mustahkam emas. Deformatsiya o'chog'ida yuzaga kelgan kuch ta'siri ostida stanina, siqish vintlari, podshipniklar va kletning boshqa detallari zich deformatsiyalanadi, shuningdek jo'valar egiladi. Bundan tashqari deformatsiya o'chog'idan chiquvchi tasmalar qayta tiklanadi, shuning uchun jo'vadan chiquvchi tasmalar qalinligi jo'valar orasidagi oraliqdan katta. Listli prokatlashda prokatlash kuchi 10...100 MN tashkil etadi, kletning elastik deformatsiyalanishi olingan prokat qalinligining o'lchov kattaligiga yetadi. Prokatlash kuchining turli omillariga o'zgaruvchan ta'sir natijasida hattoki bitta tasmani prokatlashda kletning elastik deformatsiyasi doimiy emas, bu esa silliqlagich uzunligi bo'ylab qalinlikning izdan chiqishiga olib keladi.

Prokatlanuvchi kletning elastiklik deformatsiya yuklangan holatda jo'valar aralashmasi orasidagi farq va boshlang'ich aralashma kabi aniqlanadi. Tasmaning egiluvchan tiklanish kattaligini e'tiborsiz qoldirsak, bunda prokatlash kleti egiluvchan deformatsiyasi bilan solishtirganda ahamiyatga ega emas va qabul qilingan, quyidagiga bo'lamiz

$$\delta = h - S \quad (4.1)$$

Prokatlash kuchi va egiluvchan deformatsiya orasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. Chunki kletning egiluvchan deformatsiyasi uning alohida detallaridagi egiluvchan deformatsiyasi bilan tushuniladi, bu holda u prokatlash kuchi va ishchi klet detallari o'lchami va tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Berilgan list kengligida kletning egilish deformatsiyasi prokatlash kuchiga proportional bo'ladi (4.1-rasm).



4.1-rasm. Kletning egiluvchan deformatsiya chizig'i


Biroq haqiqatda bu bog'liqlik chiziqdan biroz farq qiladi. boshlang'ich maydonida uncha katta bo'lмаган кучда taxminan 1,5...2 MN gacha chiziqsiz bog'liqlik kuzatiladi, bu bo'shlqlar mavjudligi va ishchi klet detallarida siyraklik bilan ta'riflanadi. Prokatlash kuchining keyinchalik o'sishida uning klet egilish deformatsiyasiga *ah* maydondagi bog'liqligi chiziqliga aylanadi. Dressirovkalashdan tashqari listli stanlarda prokatlash kuchi 6...100 MNni tashkil etadi shuning uchun prokatlash kuchi va klet egilish deformatsiyasini tavsiflashda odatda to'g'ri chiziqli bog'liqlikdan foydalaniadi.

Kletning egilish deformatsiyasi hisoblash yoki eksperimental usul bilan aniqlanadi. Bunda bir juft jo'va (ishchi va tirkakli) egilish deformatsiyasini tirkakli jo'va podshipniklari, tirkakli jo'vaning ikkita yostiqlari, staninalar, siqish vinti, gaykalar tirkakli jo'vani egish natijasidagi jo'vani ishchi egilishi qo'shiladi. Ishchi va tirkakli jo'valarni egish asosan silliqlash ko'ndalang kesmasi qolipiga ta'sir ko'rsatadi.


Kletning egilish deformatsiyasi prokatlanuvchi list kengligiga bog'liq. (4.2-rasm) M.M.Safyan tomonidan eksperimental (egri 1, 2, 3, 4, 5) va hisob (egri 6) yo'li bilan olingan kvart stani 1680 kletining egilish deformatsiyasi bog'liqligi ko'rsatilgan. Prokatlanuvchi tasma kengligi ta'siri ishchi jo'va turli uzunlikda yuklangan qismi bilan ta'riflanadi. Bu klet egilish deformatsiyasini tashkil etuvchi jo'valarni egish va tekislashni o'zgartiradi.

Kletning egilish deformatsiyasi chizig'i α egilish burchagi bilan xarakterlanadi (4.1-rasmga qaralsin) kletning qatiqlik moduli M_k deb ataladi.

$$M_k = \Delta P / \Delta \delta.$$



4.2-rasm. 1-1025 mm; 2-1200 mm; 3-1400 mm; 4-1500 mm; 5-jo 'va
bo 'chkasining uzunligiga yaqin bo 'igan; 6-jo 'va bo 'chkasining uzunligiga yaqin
bo 'igan hisobiy listlar kengligidagi tasmalarni prokatlashda 1680 uzlusiz
stanini chistovoy kletlarining bikrlik xususiyatlari.



4.3-rasmin. Elementlar bo'yicha kvarto kleti deformatsiyalanishining taq-simlanish sxemasi:

$$(d_{st}/D_0 = 0,6; F_{st} = 4780 \text{ sm}^2; M_k = 5 \text{ MN/mm});$$

1 - 56 % (jo'valar); 2 - 15 % (stanina); 3 - 15 % (bosuvchi qurilma);
4 - 14 % (kletning qolgan detallari)

Klet qattiqlik moduli bu - 1 mm uchun klet egilish deformatsiyasini chaqiruvchi prokatlash kuchi. Klet qattiqlik moduli MN/mm da o'lchanadi va kvarto kleti uchun 4...10 MN/mm chegarada tebranadi. (4.1-rasm)ga ko'ra a burchak o'sganda klet qattiqligi ortadi. Klet


$$W_t = K_t \alpha_t \cdot \Delta t_p D_p + 0,5 \alpha_t \Delta t_{op} D_{op}. \quad (5.23)$$

bu yerda $K_t = 0,8 \dots 0,9$ - jo‘va bochkasi kesishmasi bo‘ylab hisobga olingan notejis harorat koefitsiyenti; $\alpha_t = 12 \cdot 10^{-6}$, 1/grad - jo‘va materiallari kengayishining chiziqli harorat koefitsiyenti; D_p va D_{op} - ishchi va tirgakli jo‘va bochkasining diametri; Δt_p va Δt_{op} - ishchi va tirgakli jo‘va bochkalar sirtida haroratning tushishi, QLST uchun eksperimental ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi $\Delta t_p = 30 \dots 50^\circ\text{C}$, $\Delta t_{op} = 5 \dots 12^\circ\text{C}$.

Ko‘ndalang turli qalinlik δ_n GOST talablariga ko‘ra stan o‘qi bo‘yicha taxlam prokatlash jarayoni turg‘unligi bo‘yicha teng list olish sharoitlarida aniqlanadi.

Jo‘valar yeyilishini aniqlash uchun analitik bog‘liqlik mavjud emas, shuning uchun QLST yakuniy kvarto kletida prokatlashning aniq sharoitlari uchun olingan tajribali ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Ishchi jo‘va bochka maydoni (5.12-rasm) unda ko‘p yeyiluvchi list yoqlari deformatsiyalanadi, bu yon haroratlar tushishi va qirralarga yaqin rivojlanuvchi kengayish natijasida nisbiy sirpanishning kattaligi bilan aniqlanadi. Bu maydonlarda yuqori kontakt kuchlanishlar yuzaga keladi. Bundan tashqari jo‘va bochkasi markazida yeyilish Xuddi shunday baland, chunki taxlam kengligi bo‘ylab kontakt kuchlanishlarning maksimal epyurasi o‘rtada joylashgan. Ishchi jo‘va yeyilishi tirgak jo‘va sirtining holatiga bog‘liq. Prokatlash sharoitiga ko‘ra ishchi jo‘vaning radial yeyilishi 100 t prokatlanuvchi list uchun 0,0127...0,038 mm ni tashkil etadi.

Tirgak jo‘vaning yeyilishi ishchi va tirgakli jo‘va bochkalarining aylana tezlik natijasida surilishi bilan bog‘liq. Tirgak jo‘va yeyilishi bir munkcha simmetrik (5.12-rasm) va uning yeyilishi harakat boshida nisbatan jadal bo‘ladi, keyinchalik u sezilarsiz o‘zgaradi.


Trio stanida jo‘valarni profillashni ikki xil turi uchraydi. Birinchi variantida ustki va ostki jo‘valar silindrik bo‘ladi, o‘rta jo‘vado‘ngli bo‘ladi. Jo‘vani ishlab chiqarishda teshiklar kattalashadi, va u maksimal ruxsat etilgan ko‘rsatkichga yetganda, o‘rtachasini katta do‘nglikli jo‘vaga almashtiriladi. O‘rta jo‘va do‘ngligi 2...2,5 mm ga yetganda barcha jo‘valar qayta jo‘valanadi. Ikkinci variant bo‘yicha trio

stanining pastki va ustki jo'valari do'nglik bilan tayyorlanadi, o'rtachasi esa egilgan bo'ladi. Ishlab chiqarishga ko'ra o'rta jo'valar kam egilgani bilan almashtiriladi, so'ng do'ngligi 1,5...2,0 mm gacha bo'lgan silindrik bo'chkaga almashtiriladi. Bunday profillashda jo'valar ishga yaroqliligi jo'va bo'chkasi uzunligi bo'ylab kontakt kuchlanishning bir maromda taqsimlanishi hisobiga kamroq yeyiladi.

Duo qoralama kletida QLST jo'valarini tayyorlash odatta slindrik bo'ladi, chunki qoralama kletda prokatlash teshiklariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, jo'valarni kichik qattiqligi taxlamda do'nglik profilini olishga imkon beradi, bu jo'valarda tasmalar turg'unligini ta'minlaydi. Biroq stan taxlam shaklini yaxshilash maqsadida katta kenglik diapazoniga ega mahsulotlar uchun qoralama kletda egilgan pog'onali profillashni qo'llash tavsiya etiladi.

Yakuniy kvarto kletlarda tirkakli jo'valar slindirik yoki do'nglama shaklida tayyorlanadi, yuqori ishchi jo'va do'ngli yoki egilgan bo'ladi. (5.13 rasm) da slindrik maydonli ishchi jo'valarni profillashning egilgan sxemasi ko'rsatilgan. Bunday profillash taxlamni stan o'qi bo'ylab tutib turishga va kenglik bo'ylab cho'zish notekisligini pasaytirishga imkon beradi, bu yakuniy bo'shatishda siqishni oshiradi va list o'lchamlar aniqligini pasaytirmasdan tekislاب bo'shatishni bartaraf etadi. Bunda samaradorlik 3...5 % ga ortadi, mexanik xossalar yaxshilanadi va metall sarfi 2 % ga kamayadi. Do'nglikli profillangan tirkakli jo'valar ba'zan chuqurligi 3...4 mm uzunligi 300...500 mm bochka chekkalarida qiyshayishlar bilan tayyorlanadi. Bu kontakt bosim taqsimlanish notekisligini pasaytirish natijasida jo'vaning yuqori turg'unligini ta'minlaydi.

Qoralama duo klet jo'valari 50XH.60XG bog'lanuvchan po'lat, magniy va nikelli cho'yandan tayyorlanadi. Kvarto yakuniy klet tirkak jo'valari 50XN, 9XF po'latidan tayyorlanadi, ishchi jo'va oqartirilgan qatlamli cho'yan yoki legirlangan cho'yandan yasaladi. Tirkak jo'valarning bochka sirti qattiqligi shoru bo'yicha 40...50 birlikni, ishchi jo'valar - 70 birlikni tashkil etadi



5.13-rasm. 2300 stan yakuniy klet ishchi jo'vasini egib profillash sxemasi.

So'ngi vaqtarda ayrim stanlarda trgak jo'valar tarkibli tayyorlanadi; o'zak bolg'alanuvchan uglerodli yoki legirlangan po'latlardan, 200...250 mm qalinlikdagi bandaj legirlangan cho'yandan tayyorlanadi.

Prokatlash jarayonida ishchi klet jo'va bochkalari yeyiladi bu ularni davriy o'zgartirishga zarurat tug'diradi. Har bir qayta jo'valashdan so'ng jo'va bochkalarini qayta sillqlash va ta'mirlash amalga oshiriladi, bitta ta'mir uchun metallni yechish kattaligi diametr uchun 1,5...3,0 mm ni tashkil etadi.

Jo'veni ta'mirlash orasidagi vaqt komponenti yoki turg'unlik deb ataladi, soatda jo'valar ishlash davomiyligini yoki tonnada prokatlanuvchi metall miqdorini xarakterlaydi. Masalan vertikal klet jo'valar turg'unligi QLST 2800 uchun 30000 t, qoralama duo klet-80000 t, kvarto yakuniy klet ishchi jo'valari-3000-4000 t, tirkakli-50000 t.

Stan texnik pasportida ko'rsatilgan bochkaning minimal diametriga erishilganda jo'valar tabiiy yeyilishi bo'yicha ro'yxatdan chiqariladi va odatiy qayta eritish uchun jo'natiladi. Masalan 2800 stan kvarto yakuniy kletining gorizontal jo'valari 760 mm minimal diametrga ega

5.8. Qalin listli po'latni pardozlash

Pardozlash operatsiyalariga to'g'rakash kesmani sovitish, termik ishlash, sirt nuqsonlarini yo'qotish va boshqalar kiradi. Qalin listli po'latni to'g'rakash listga tekis yuzani berish uchun amalga oshiriladi, qalin listli po'lat issiq yokisov uq holatda to'g'rulanadi. Yuqori haroratda to'g'rakashni ta'minlash uchun to'g'rilaqich mashina yakuniy kletdan 60...80 m masofada o'rnatiladi. Issiqlay to'g'rakash sinish zonasida ($150\ldots300^{\circ}\text{C}$) haroratda amalga oshirilishi tavsiya etilmaydi, chunki mexanik xossalari yomonlashadi. Sovuqlay to'g'rakash termik qayta ishlangan va issiq to'g'rakashda to'g'rilaqich mashinalar qo'llaniladi. to'g'rakash aniqligi qadamlar va roliklar soni bilan belgilanadi: roliklar qancha ko'p bo'lsa to'g'rakash sifati shuncha yuqori bo'ladi. Odatda qalinligi 4 mm dan katta qalin listli po'lat uchun 9...11 roliklar qo'llaniladi, roliklar qadami list qalinligiga ko'ra ishlatiladi,

to'g'rilash tezligi 1...5 m/s ni tashkil etadi. Qalin listli po'latni sovitish rolikli konveyerlardan ko'chirishda va sovitkichli joyonlarda amalga oshiriladi.

List sovitishdan so'ng ikki tomondan 180° da listlarni kontovkalash uchun jihozlangan kontovkalar bilan jihozlangan tekshirish stanlarida ko'zdan kechiriladi. List yuzasini ko'zdan kechirgich kesiladi. Sovuq holatdagi 30 mm dan ham qalinlikdagi list yon qirralarini kesish uchun diskli qaychilardan foydalilanildi, 30 mm dan katta qalinlikdagi listlar uchun gilotinlar qo'llaaniladi. Taxlam yakuniy kesish va o'ichov uzunligi bo'ylab kesish uchun gilotinli qaychilar qo'llaaniladi. Listlarni kesish jarayonida mexanik tekshiruv o'tkazish uchun namunalar o'tkaziladi. Qalin listli po'latga qo'yilgan xossalarni olish uchun termik qayta ishlash qo'llaaniladi. Po'lat markasi va talab etilayotgan xossalalar darajasiga ko'ra normallash, bo'shatib toplash, sekin sovitish va yuqori haroratda bo'shatish qo'llaaniladi. Normallash va bo'shatish toplash uchun metallni qizdirish odatda o'tishli rolikli pechlarda, yuqori haroratlari bo'shatish qopqoqli pechlarda amalga oshiriladi. Qalin listli po'latni normallashda 850...950°C haroratgacha qizdiriladi so'ng havoda tez sovitiladi. Qalin listli po'latni bo'shatib toplashda avval 850...900°C haroratgacha qizdiriladi so'ng maxsus press ostida suvda tez sovitiladi. Toblangan listlar 600...700°C haroratda o'rtacha ikki soat davomida bo'shatiladi. Bo'shatishdan so'ng listlar toplash pressida sovitiladi. Qalin listli po'latni sekin sovitish shtabeldag'i yakuniy prokatlash haroratida amalga oshiriladi.

Yuqori haroratli bo'shatish qalin listli po'lat 680...700°C haroratgacha qizdirilganda va pechda davomiy sovitilganda amalga oshiriladi. Odatda normallash puxtalikni yechish, elastiklik xossalarni yaxshilash va mayda donali struktura olish uchun qo'llaaniladi. Bo'shatib toplash po'latning mustahkamlik xossalarni oshirishga xizmat qiladi. Bo'shatish po'lat qovushqoqligi va elastiklik xossalarni yaxshilaydi, mexanik qayta ishlash va shtamplanishni ta'minlaydi. Sekin sovitish ichki kuchlanishlarni yo'qotish va po'latni elastik xossalarni oshirish uchun qo'llaaniladi. Ayrim hollarda lis mustahkamlik xossalarni oshirish uchun purkagich qurilma yordamida prokatlashdan keyin suvda tez sovitish qo'llaaniladi, bu donalar maydalanishga olib keladi. sovitish tezligi uglerod miqdoriga bog'liq:

uglerod miqdori 0,1 % bo‘lgan po‘lat uchun tezlik 4°C/c dan oshinasligi kerak.

Hozirgi vaqtida ayrim qalin listli po‘latni tayyorlash prokat qizdirishli termomustahkamlash qo‘llaniladi bu list mustahkamlik xossalari sezilarli oshiradi. Bunda listlar 2800 stan rolikli toblast mashinasida termomustahkamlashdan so‘ng mustahkamlik chegarasi 15 % ga ortadi. Qalin listli po‘lat sirt nuqsonlarini bartaraf etish harakatlanuvchi sillqlash mashinasi, pitralash qurimalari va boshqalar, yordamida amalga oshiriladi.

5.9. Qalin listli po‘latlarning asosiy nuqsonlari

Qalin listlarni prokatlashda qalinlik bo‘ylab ruxsat etilgan joizlikda; katta turli qalinlikda; kenglikni noto‘g‘ri sillqlanishi (qirralarni kesishda katta bo‘shatish); slyab og‘irligining yetishmasligi; qoralama kletdan chiquvchi taxlam shaklining noto‘g‘riligida nuqsonlar kelib chiqadi. Ingichka va keng listlar asosan qoralama kletda taxlam kengligini noto‘g‘rili natijasida hosil bo‘ladi. Qalin listli po‘lat nuqsonlaridan biri yarimoy nuqson, vertikal kenglikda jo‘valar kesishishida yoki qirralarning notejis siqilishi tufayli kuchli yeyilgan jo‘valarni prokatlashda yuzaga keladi. Qalin listli po‘latni prokatlashda qirralar turli qalinlikda bo‘lishi mumkin. Bu nuqson hosil bo‘lishiga vertikal kenglikda jo‘valar kesishishi, stan o‘qida tasmalar aralashishi, list kenglik haroratini bir xil emasligi, notejislik ishlab chiqarish yoki jo‘va bochkasi uzunligi bo‘ylab notejis qizdirish sabab bo‘ladi.

Noaniq o‘lchamlar va listlarning noto‘g‘ri shakli, noto‘g‘ri kesish (qisqa, uzun, ingichka, keng, qiyshiq kesilgan va egilgan qirrali) o‘tmas pichoqda kesish natijasida yuzaga keladi. List burchaklarining qoniqarsiz sifati katta cho‘kma g‘ovakli yoki uning noto‘g‘ri kesilishi mavjudligi bilan ta’riflanadi. Ko‘pgina uchraydigan sirt nuqsonlaridan biriga qoplangan kuyindi kiradi, bunda pardozlash natijasida ryabizna ko‘rinishidagi sirt notejisligi bartaraf etiladi.

Kuyindi nafaqat sirtni buzadi balki list qalinligini mahalliy qisqartirishga olib keladi. List sirtida egilish yoki o‘sish kuzatilishi mumkin, buning hosil bo‘lishiga ezelishlar, tiralishlar, kuyish to‘rining chuqurligi, notejislik va jo‘va sirtidagi boshqa nuqsonlar sabab bo‘ladi. O‘tkazmalarning qoniqarsiz holati list sirtida tiralishlar va xavf hosil

bo‘lishiga olib keladi. Qalin listli po‘latni asosiy nuqsonlarga qoniqarsiz mexanik xossalarni kiritish mumkin, bu po‘latni quyishda kimyoviy tarkibni mos kelmasligi prokatlash va qizdirish haroratinining noto‘g‘riliqi; yakuniy bo‘shatishda siqish rejimi noto‘g‘riliqi, prokatlashdan so‘ng noto‘g‘ri sovitish rejimi natijasida yuzaga keladi. Qalin listli po‘latni asosiy nuqsonlariga bo‘ylama va ko‘ndalang turli qalinlik va list notejisligi, kiradi.

5.10. Qalin listli po‘lat prokatlash texnologiyasini rivojlantirish

Qalin listli po‘lat ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalariga samaradorlikni oshirish, sifatni yaxshilash va metall sarfini kamaytirishga qaratilgan. Qalin listli po‘latni prokatlash texnologiyasini takomillashtirish yangi prokat stanlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida qalinligi 300...350 mm va og‘irligi 50 tonnagacha bo‘lgan uzuksiz quyilgan slyablarni qalinligi 50 mm gacha va kengligi 4500 mm gacha bo‘lgan listlarni prokatlash tendentsiyasi kuzatilmoqda, bunda mehnat samaradorligi 7...9 % ortadi va yaroqli metall chiqishi o‘rtacha 8...20 % ga ko‘payadi. Yirik slyablarni qizdirish tubi harakatlanuvchi metodik pechlarda amalga oshiriladi, bunda tezlashtirilgan va bir tekisda metall qizishi ta’minlanadi. Bochka uzunligi 3200...3800 mm qalin listli stanlarni ratsional cho‘zilishini yakuniy va qoralama, vertikal kletlardan tashkil topgan stanlar tashkil etadi. Shu bilan birga vertikal klet sifatida jo‘va diametri 1300...1400 mm bo‘lgan duo kleti qo‘llaniladi, talab etilgan taxlarn shaklini olish uchun prokatlash jarayonida jo‘valar orasidagi eritmali boshqarish imkoniyati bilan prokatlashning maksimal kuchi 10 MH. Qoralama va yakuniy kletlar to‘rt jo‘vali qilib o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan, qattiqligi 10...12 MH/mm, ishchi jo‘va diametri 1200 mm gacha va tirkakli 2400 mm gacha, stan ustini kesishmasi 10 000 sm^2 gacha maksimal prokatlash kuchi, prokatlash momenti 6...8 MH m. List kengligi va o‘lchamlar aniqligini oshirish maqsadida yakuniy kletga jo‘valarni egishga qarshi va list qalinligini boshqaruvchi avtomatik tizim o‘rnatish bunda tashqari gidravlik siqish qurilmalari qo‘llash tavsiya etiladi. Yakuniy klet sifatida jo‘va profilining jadal tashkil etuvchilarini yirik boshqarish diapazoni va yuqori mustahkamlikni xarakterlovchi olti jo‘vali kletlarni o‘rnatish mumkin.

Qalin listli po'lat prokatlash texnologiyasini rivojlantirishda assimetrik prokatlashni qo'llash ko'zda tutilgan, bu kuchni va prokatlash momentini kamaytirish va list kengligini yaxshilash imkonini beradi. Samaradorlikni oshirish maqsadida prokatlash tezligi 6...7 m/s ga cha oshiriladi.

Kelajakda qalin listli po'lat ishlab chiqarishni yanada takomillashtirishga listlarni pardozlash sifatini oshirish va past harorat sharoitlarida ishlovchi o'ta mustahkam po'lat olishga e'tibor qaratilmoqda. Qalin listli po'lat xossalaringin yuqori darajasiga termik ishlash turlarini qo'llash orqali erishiladi: chiqarilayotgan mahsulotning butun hajmini normallash, prokatlab qizdirib toplash, tezlashtirilgan sovitish va boshqalar. Deformatsiyalangan prokatlash rejimi va ratsional haroratda prokatlashni nazorat qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Nazoratli prokatlash uchun maxsus qalin listli stanlarni o'rnatish maqsadga muvofiq.

5.11. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga stanning vaqt samaradorligi kiradi, u zagotovkaning (quyma yoki slyab) dastlabki og'irligi, prokatlash sikli va stan foydalanish koeffitsiyenti bilan aniqlanadi. Yillik samaradorlik shuningdek yiliga ish vaqtning haqiqiy soniga bog'liq. Mavjud qalin listli stanlarning yillik samaradorligi turiga qarab 0,2...2,5 million tonnani tashkil etadi. Metall sarfi zarur texnik iqtisodiy ko'rsatkich. Qalin listli po'latni prokatlashda yaroqli metall chiqishi qizdirishda va prokatlash jarayonida kuyindini yo'qotish, nuqson foizi va bo'ylama qirralarni yakuniy kesish bilan aniqlanadi. Metall sarfi stan turi zagotovka turi va uning o'lchamlari, prokatlash sxemasi, siqish rejimi, tayyor list o'lchami va foydalanish shakli, po'lat markasi va list geometrik o'lchamlari aniqligiga bog'liq. Slyabda qalin listli po'latni prokatlashda yon kesmalar kattaligi list kengligining 5...10 % tashkil etadi, oldingi va orqa taxlam yakuniy kesmasi uning uzunligiga ko'ra og'irlikdan kelib chiqib 5...10 % ni tashkil qiladi, metall kuyindisi - 1,5...2,5 %. Yagona kletli stan vertikal jo'valarida qalin listli po'latni prokatlashda metall sarfi yuqori, universal standa prokatlash kam kuzatiladi. Juft kletli stan slyablarida qalin listli po'latni prokatlashda metall sarfi koeffitsiyenti po'lat markasiga ko'ra 1,18...1,27 ni tashkil qiladi, yagona kletli

stanlarda qalin listli po'lat quymalarni prokatlashda 1,35...1,187. Elektroenergiya sarfi prokatlash uchun, qalin listli po'latni termik ishslash va bezak berish mavjud material hajmiga, stan mahsulotiga, stan turiga bog'liq va 40...80 kVt ch/t ni tashkil etadi. Quymadan tayyorlangan qalin listli po'latni prokatlashda 1 t metallni qizdirish uchun issiqlik sarfi 3,34 MDj ga teng, slyablar uchun 2,51 MDj. Qayta foydalanishni hisobga olmagan holda qalin listli stanlarda suv sarfi 2100...2600 m³/s yoki 20...30 m³/t ga yetadi. Qalin listli stanlarda jo'valar sarfi 1 t list uchun 0,8...2,5 kg ni tashkil etadi (kichik ko'rsatkichlar slyabda listlarni prokatlovchi stanga taalluqli).

Nazorat savollari:

1. Qalin listli po'lat ishlab chiqarish usullari haqida nimalarni bilasiz?
2. Texnologik jarayon nimalarga bog'liq?
3. Universal stanlar qaliniligi necha millimetrlar listlarni prokatlaydi?
4. Siqish kattaligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar deganda nimalarni tushunasiz?
5. Juft kletli qalin listli stanni prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
6. Vertikal kletda prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
7. Vertikal kletda prokatlashning asosiy maqsadi nimada?
8. Chala tashqi maydon uzunligi ortishi bilan deformatsiya darajasi kamayadimi ortadimi?
9. Kenglikni o'zgartirish uchun vertikal jo'valarni qo'llash samaradorligi qanday aniqlanadi?
- 10.Qoralama kletda prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
- 11.Qoralama kletda kuyindini tozalash uchun qanday usul qo'llaniladi?
- 12.Duo qoralama kleti uchun 2800 stan jo'valari qanday o'lchamlarda tayyorlanadi?
- 13.Bug' bilan portlash usulining zaruriy sharti nimada?
- 14.O'yqli jo'valarning keng tarqalishiga nimalar ta'sir qiladi?
- 15.Jo'valarni profillash va ularni ekspluatatsiyalash haqida nimalarni bilasiz?

- 16.Qoralama klet asosan prokatlash sxemasiga bog‘liqmi?
- 17.Prokatlanuvchi tasma kengligi bo‘ylab deformatsiya o‘chog‘i tahlilidan kelib chiqib jo‘valarni profillash qanday aniqlanadi?
- 18.Tirgak jo‘vaning yejilishi nimalar bilan bog‘liq?
- 19.Trio stanida jo‘valarni profillashni necha xil turi uchraydi?
- 20.Qalin listli po‘latni pardozlash haqida nimalarni bilasiz?
- 21.Qalin listli po‘latni to‘g‘rilash nima uchun amalga oshiriladi?
- 22.Qalin listli po‘lat sirt nuqsonlarini bartaraf etish qanday usulda amalga oshiriladi?
- 22.Qalin listli po‘latlarning asosiy nuqsonlari haqida nimalarni bilasiz?
- 23.Ingichka va keng listlar asosan qoralama kletda nimaning natijasida hosil bo‘ladi?
- 24.Qalin listli po‘latni asosiy nuqsonlariga nimalar kiradi?
- 25.Qalin listli po‘lat prokatlash texnologiyasini rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor berishimiz zarur?
- 26.Qalin listli po‘lat xossalaringin yuqori darajasiga qanday erishiladi?
- 27.Asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?
- 28.Texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar haqida nimalarni bilasiz?
- 29.Elektroenergiya sarfi qanday aniqlanadi?

6-BOB. INGICHKALISTLI ISSIQLAY JO'VALANGAN PO'LATLARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI (ILJP)

6.1. List ishlab chiqarishning umumiy ma'lumotlari

So'nggi vaqtarda listli po'latlarni ishlab chiqarishda issiqlay prokatlovchi uzlusiz kengtasmali stanlar (UKS) va yarim uzlusiz stanlar ko'p tarqagan. Tasmali po'latning 70 % dan yuqorisi keng tasmali stanlarda prokatlanadi. Bu stanlarda po'lat ishlab chiqarishni jadal rivojlanishi yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan izohlanadi. Boshqa turdag'i stanlar bilan solishtirganda ular ekspluatatsiya sarf koeffitsiyenti, birlamchi nisbiy xarajatlar, qurilma og'irligini kamlig'i (ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi), katta samaradorlik bilan farqlanadi. Listli po'lat yarim uzlusiz va yirik tasmali stanlarda o'rama usulida ishlab chiqariladi, shuning uchun list ishlab chiqarishda 7...10 % arzon. O'ramali listlar sifati sirt tozaligi, va joizlik tomonlama yuqori. Listli yoki qadoqli ishlab chiqarish bilan solishtirganda o'ramali usulda samaradorlik 20...30 marta yuqori, list tannarxi 2,5 barobarga kam.

6.2. Texnologik jarayonning umumiy sxemasi


Ingichka listli issiqlay jo'valangan po'latlarni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni umumiy sxemasi (6.1-rasm) da ko'rsatilgan. Zamonaviy metallurgiya zavodlarida yarim uzlusiz va uzlusiz yirik tasmali stanlar uchun boshlang'ich zagotovkalarga blyuming, slyabing yoki zagotovkalarni uzlusiz quyish mashinasida qo'yilgan slyablar kiradi. Slyab mahsuloti kengligi 2000 mm gacha qalinligi 120...300 mm, uzunligi 10,5 m gacha.

Uzlusiz yirik tasmali stanlarda prokatlashda isitish pechlarida issiq cho'kmalardan foydalaniladi. Bu holatda olovli tozalash mashinasidan o'tgan va qaychilarda kesilgan slyablar qizdirish pechiga kelib tushadi. Ish yaxshi tashkil etilganda issiq slyablar miqdori 85 % ga yetadi. Shu sababli omborlar maydoni sezilarli darajada kamayadi, isitish pechlarining samaradorligi va yoqilg'i sarfi

kamayadi. Omborga oz miqdordagi slyablar kelib tushadi, bunda sovitilgan va tozalab ko'zdan kechirgan slyablar qizdirish pechiga yuklanadi.

Slyablar burchak cho'kmali va uzatmali metod pechlarda qizdiriladi. So'ngi vaqtarda kesma bo'ylab slyablarni bir tekisda qizdirish imkonini beruvchi harakat tubli pechlar keng qo'llanilmoqda, harakat konstruksiyasiga yuklash qurilmasini qo'llash slyab quyi maydonlarida zararni bartaraf etadi.

Pechlar domen va koks gazlari yoki tabiiy gaz bilan qizdiriladi. Zarur haroratda prokatlashni yakunlash uchun, slyab maksimal joizlik haroratigacha qizdiriladi, bu donalar kattaligini chegaralash, kuyishlar yuzaga kelishi, metallning oksidlanishi va o'rta qizishi bilan chegaralanadi. Slyabni qizdirish harorati po'latning kimyoviy tarkibiga bog'liq va 1150...1280°C ni tashkil etadi. Qizdirish davomiyligi slyab qalinligi po'lat kimyoviy tarkibi va ularning cho'kishidagi haroratga bog'liq.



6.1-rasm. Ingichka listli issiqlay jo'valangan po'latlarni ishlab chiqarishning umumiy sxemasi.


Ingichkalistli issiqlay jo'valangan po'latlarni prokatlash asosan yarimuzlukli va uzlusiz yirik tasmalni stanlarda amalga oshiriladi.

6.3. Yarimuzlukli kengtasmali stanlarda (YaKS) prokatlash texnologiyasi

Yarimuzlukli kengtasmali stanlar qalinligi 1,8...40 mm va kengligi 3200 gacha bo'lgan list va tasmalarni prokatlash uchun qo'llaniladi. Qoralama guruh bitta yoki bir nechta gorizontal jo'vali vertikal jo'vali klet va ba'zan qirralarni siqish uchun pressdan tashkil topgan. Jo'valar soni va klet tuzilishiga ko'ra qoralama guruhlar duo reversiv, duo universal va kvarto reversiv bo'ladi. Slyab sirtidan kuyindilarni yo'qotish uchun ko'pgina yarim uzlukli kengtasmali

stanlarda standan avval qoralama kuyindı tozalagichlar o'rnatilgan. Yarimuzlukli kengtasmali stanlar yakuniy guruhi 5...7 kvarto kletdan iborat. Yakuniy guruhdan avval kuyindı tozalagich o'rnatiladi. Zamonaivi yarimuzlukli kengtasmali stanlar o'z ko'rsatkichlariga ko'ra quvvatli va yuqori samaradorli agregat hisoblanadi.

(6.2-rasm) da 2800/1700 yarimuzlukli kengtasmali stan asosiy qurilmasining joylashish sxemasi keltirilgan



6.2-rasm. 2800/1700 Yarimuzlukli kengtasmali stan asosiy qurilma-sining joylashish sxemasi: 1-turtgich, 2-qizdirish pechi, 3-rolgang, 4-vertikal klet, 5-kuyundi tozalagich, 6-kvarto kleti, 7-uchar qaychi, 8-kayundi tozalagich, 9-yakuniy klet, 10-uchar qaychi, 11-purkash qurilmasi, 12-qadoqlash.

6.1-jadval. 2800/1700 Yarimuzlukli kengtasmali stanining texnik tavsisi

Klet turi	Jo'va o'lchami mm			N_{250} Dvigatel kuchi xBt	Prokatash tezligi m/c	u_{np}
	D_v	D_{op}	L_σ			
Vertikal	1000	-	700	900	1,2...3	
Qoralama duo	1150	-	2800	2x2570	1,8...3,6	
Qoralama universal kvarto: gorizontal jo'valar	800	1400	2800	5500	2,5...5	
Vertikal jo'valar	700	-	400	2x200	2,5...5	
Tozalovchi kuyindi sindirgich duo	600	-	1700	195	-	
Tozalovchi kvarto	650	1250	1700	3500	До 10,2	

2800/1700 Stani qalinligi 4...40 mm kengligi 2500 mm gacha qalin listli po'latlar va qalinligi 1,8...4 mm kengligi 1500 mm gacha uglerodli, konstruksion va legirlangan po'latdan, tayyorlangan

ingichkalistli issiqlay jo‘valangan po‘latlarni prokatlash uchun mo‘ljallangan. Zagotovka sifatida qalinligi 125...250 mm, kengligi 1500 mm gacha uzunligi 6 m gacha va og‘irligi 8,5 t gacha bo‘lgan slyablar qo‘llaniladi. 6.1-jadvalda 2800/1700 stanining qisqacha texnik tavsifi keltirilgan. 2800/1700 stan tarkibiga to‘rtta qizdirish pechi, vertikal klet, qoralama reversiv duo kleti, va universal kvarto, uchar qaychilar, duo yakuniy kuyindi tozalagich, oltita yakuniy kvarto kleti va ikkita pardozlash chizig‘i; birinchisi qoralama guruhdan so‘ng qalin listli po‘latlar uchun, ikkinchisi o‘ramali ingichka listli issiqlay jo‘valangan po‘latlar uchun.

Ta‘mir va tekshiruvdan o‘tgan turtkich 1 yuklash rolgangi 2 dan metodik pech 3 ga yuklanadi. Prokatlash haroratigacha qizdirilgan slyablar metod pechidan burchakli itargich bilan qabul qiluvchi rolgang 4 ga uzatiladi va vertikal klet 5 ga ko‘chiriladi, bunda yon qirralarini siqish va slyab sirtidan kuyindini yo‘qotish amalga oshiriladi. So‘ng qoralama duo kleti 6 da hisoblangan siqish rejimiga ko‘ra bir nechta bo‘shatishda taxlamni prokatlash amalga oshiriladi. Duo kleti oldingi va orqa tomonidan gorizontal kenglikda slyablarni jo‘valash uchun barakatlanuvchi roliklar va jo‘vada taxlamga to‘g‘ri vazifa berish uchun manipulyatorlar joylashgan. Qoralama duo kletida prokatlashdan so‘ng taxlam qoralama universal kvarto kleti 7 da bir nechta bo‘shatishda prokatlanadi va rolgang bilan yakuniy guruhga o‘tkaziladi. Uchar qaychilar 8 da taxlam oldingi va orqa yakuni kesiladi va yakuniy duo kuyindi tozalagich 9 metall plastik deformatsiyasi va suv bilan gidro urish hisobiga ikkilamchi kuyindini tozalaydi. Kuyindidan tozalangan taxlam bir vaqtning o‘zida yakuniy guruhning kvarto kleti 10 da prokatlanadi. Uzluksiz guruh yakuniy kletidan chiqishda purkagich qurilma 11 va o‘ram o‘ragich 12 yordamida tasmalar sovitiladi.

O‘ramga o‘ralgan tasmalar yarimuzlukli kengtasmali stanining pardozlash yoki keyingi qayta ishslash uchun sovuqlay prokatlash sexiga kelib tushadi. mm va mm listlarni prokatlashda qoralama guruh kleti yarimuzlukli kengtasmali stanlar QLST 2800 uchun analog bo‘lgan texnologiyada tayyor mahsulotni ishlab chiqaradi. Uzluksiz keng tasmali stanga nisbatan solishtirganda yarimuzluksiz stanlarning asosiy afzalliklariga quyidagilar kiradi: keng turdag‘i mahsulotni prokatlash mumkinligi va texnologik jarayonning katta moslashuvchanligi; murakkab deformatsiyalangan po‘lat markali listlarni


sifatli prokatlash imkoniyati; qoralama reversiv kletida amalga oshiriluvchi keng chegaralarda tezlik va siqishni talab etadi, slyab kengligidan katta list kengligini prokatlaydi; elektr qurilma quvvati og'irligining kamligi; elektr va mexanik qurilmalarning tannarxi; pastligi; sex o'tish uzunligining kamligi.

Biroq yarim uzluksiz stan bir qator kamchiliklarga ega: samaradorlikning ozligi, chunki ko'pgina profillar uchun prokatlash vaqtini yakuniy guruhda prokatlashga nisbatan reversiv qoralama kletda ko'proq; yakuniy guruh qurilmasining foydalanish koeffitsiyentining pastligi; list sirti sifatining pastligi, chunki reversiv klet bitta jo'vasida bir nechta bo'shatishlar amalga oshiriladi.

6.4. Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlash texnologiyasi (UKS)

Uzluksiz keng tasmali stanlarda odatda ikkita ishchi guruh kletidan tashkil topgan: bir-biri bilan ketma-ket joylashgan qoralama va yakuniy klet.

Zamonaviy uzluksiz keng tasmali stanlarda qoralama guruh tarkibi vertikal klet, qoralama duo kuyindi tozalagich va universal kvarto klet 4,5 ga ega. Barcha kletlar ketma-ket joylashgan va o'zaro rolgang bilan bog'langan. Ayrim uzluksiz keng tasmali stanlarda kengligi 2000 mm dan katta listlarni prokatlashda qoralama guruh tarkibida taxlam kengligi uchun kengaytirgich klet va yon qirralarni siqish uchun pressga ega. Stan qoralama guruh kletlar orasidagi masofa shunday tanlanganki bunda prokatlanuvchi tasma bir vaqtda yagona kletda bo'lishi kerak.



6.3-rasm. Uzluksiz keng tasmali stan 2000 asosiy qurilmasining joylashish sxemasi: 1-turtgich, 2-qizdirish pechi, 3-rolgang, 4-vertikal klet, 5-kuyundi

*tozalagich, 6-kvarto kleti, 7-uchar qaychi, 8-kuyundi tozalagich, 9-yakuniy klet,
10-uchar qaychi, 11-purkash qurilmasi, 12-qadoqlash*

6.2-jadval. 2000 Uzluksiz keng tasmalni stanini texnik tavsiisi

№	Klet turi	Jo'va o'lchami mm			Dvigatel kuchli N _{max} kBt	Prokatash tezligi v _{up} , m/c
		D _p	D _{on}	L _σ		
1	Vertikal	1200	-	1000	2x550	1,0
2	Qoralama kuyindisidirgich duo	1200	-	2000	5000	1,25
3	Qoralama universal kvarto	1200	1600	2000	5000	1,9
4	Yana o'sha	1200	1600	2000	10000	2,5
5	- » -	1200	1600	2000	10000	2,1
6	- » -	1200	1600	2000	10000	3,2
7	Tozalovchi kuyindi sidirgich duo	800	-	2000	1000	1,3
8	Tozalovchi kvarto	800	1600	2000	10000	1,3...3,4
9	Yana o'sha	800	1600	2000	10000	1,7...4,5
10	- » -	800	1600	2000	10000	3,2...6,3
11	- » -	800	1600	2000	10000	4,5...8,7
12	- » -	800	1600	2000	10000	5,8...12,0
13	- » -	800	1600	2000	10000	6,8...15,0
14	- » -	800	1600	2000	10000	9,0...19,0

Ma'lumki qoralama guruh kletlarida ba'zan universal kvarto klet o'rniga guruh tortishishini yo'qotish maqsadida 1...2 reversiv klet o'rnatiladi. Xuddi shu maqsadda ayrim uzluksiz keng tasmalni stanlarda masalan 2000 stanida qoralama guruhning Oxirgi 2...3 kvarto kleti uzluksiz guruhga biriktiriladi, bunda prokatlash bir vaqtning o'zida barcha kletlarda amalgalari oshiriladi. Qoralama guruh yakuniy kletidan 60...80 m masofada yakuniy guruh kleti joylashadi, u uchar qaychi, yakuniy kuyindi tozalagich, ilgich ushlagichli ishchi kvarto kleti 6...8 va ular orasidagi yo'naltirgich chizg'ich. (6.3-rasm) da uzluksiz keng tasmalni stan 2000 qurilmasining joylashish sxemasi keltirilgan.

Stan 2000 qalinligi 1,2...12 mm, kengligi 1850 mm gacha ugle-rodli, konstruksion va legirlangan po'lat markalarini prokatlash uchun mo'ljallangan. Zagotovka sifatida zagotovkani uzlusiz quyish mashinasida quyilgan qalinligi 300 mm kengligi 800...1850 mm, uzunligi 10,5 m gacha og'irligi 36 t gacha slyablar qo'llaniladi. 6.2-jadvalda 2000 stanning qisqacha tavsifi keltirilgan.

Uzlusiz keng tasmali stan tarkibiga to'rtta qizdirish pechi, qoralama duo kuyindi tozalagich, to'rtta universal kvarto kleti, uchar qaychilar yakuniy duo kuyindi tozalagich, yettita yakuniy kvarto kleti purkash qurilmasi, kalavalagich va ishlov berish chiziqlari kiradi.

Ko'zdan kechirgan va ta'mirlangan slyablar (6.3-rasm) turkich 1 tomonidan qizdirish pechi 2 ga yuklanadi. Prokatlash haroratigacha qizdirilgan ($1150\ldots1280^{\circ}\text{C}$) slyablar turkich bilan pechdan rolgang 3 ga uzatiladi va vertikal klet 4 ga o'tkaziladi, u yerda yon qirralari siqiladi va slyab sirtidan kuyindi tozalanadi. Vertikal kletdan so'ng taxlam qoralama kuyindi tozalagich 5 ga kelib tushadi, u yerda pech kuyindisi batamom tozalanadi. So'ng taxlam qoralama universal kvarto kleti 6 da hisoblangan siqish rejimiga ko'ra zaruriy tub qatlarni olingunga qadar prokatlanadi.

To'shma rolgangli qoralama guruhdan so'ng uchar qaychi 7 ga uzatiladi bunda taxlam oldi va orqa yakunida kesma amalga oshiriladi, so'ng yakuniy duo kuyindi tozalagich 8 uchun ikkilamchi (havo) kuyindisi tozalanadi. Kuyindidan tozalangandan so'ng taxlamning oldingi yakuniy uzlusiz guruh yakuniy kleti 9 orqali o'tadi, uchar qaychida 10 da kesiladi va $10\ldots12$ m/s tezlikda bolg'a 12 ga uzatiladi. So'ng barcha yakuniy kletlar bir vaqtning o'zida ishchi tezlikda harakatlantiriladi va hisoblangan siqish rejimiga ko'ra talab etilgan tasmani qalinligi bo'ylab uzlusiz prokatlash jarayoni amalga oshiriladi. Yakuniy kletni tezlikda prokatlash tasmani yuqori tezlikda prokatlash imkonini beradi, bu esa bu samaradorlikni oshiradi, bundan tashqari klin haroratini boshqarish imkonini beradi. Zaruratga ko'ra tasmalar prokatlangandan so'ng purkash qurilmasi 11 yordamida suv bilan sovitiladi. G'altakka o'ralgan tasmalar pardozlashga yo'naltiriladi yoki keyingi qayta ishslash uchun sovuq prokatlash sexiga o'tkaziladi. Uzlusiz keng tasmalari stanlar alohida maydonlarida tasmalarni prokatlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

6.4.1. Qoralama guruh kletlarida prokatlash

Uzluksiz keng tasmali stan qoralama kletida prokatlashning asosiy ko'rsatkichlariga slyab sirtidan kuyindini yo'qotish va yakuniy guruh uchun zaruriy to'shamma o'lchamini olish kiradi. Hozirgi vaqtida uzluksiz keng tasmali stanlarda kuyindini vertikal klet va qoralama duo kuyindi tozalagich bilan tozalanadi (ba'zan qoralama kuyindi tozalagich sifatida kvarto kleti qo'llaniladi). Slyabni yon siqish natijasida vertikal kletda kuyindi parchalanishi yuz beradi (taxlam sirtida uni ezmashdan). Bundan tashqari kuyindi vertikal kletda o'rnatilgan gidrourish bilan tozalanadi (14...17 MPa bosim). Vertikal kletda siqish kattaligi 3...5 % ni tashkil etadi, bu kuyindini yo'qotish uchun yetarli. Vertikal kletlar kuyindini tozalashdan tashqari slyabni kengligini 30...40 % ga kamaytirishga imkon beradi, bu to'shamma kengligini stabillashga imkon yaratadi.

Pech kuyindilarli qoralama duo kuyindi tozalagichda ham tozalanadi. Bu yerda siqish $\varepsilon = 5 \dots 25\%$ ni tashkil etadi bu taxlam sirtida ezmashdan kuyindini mexanik parchalash uchun yetarli. Kuyindi mexanik parchalanishdan tashqari metallni plastik deformatsiyalash hisobiga kuyindi tozalagichga gidrouritma o'rnatiladi.

Uzluksiz keng tasmali stan qoralama kletida prokatlash jarayoni kenglikni silliqlashsiz amalga oshiriladi, agar slyab kengligi $B_{cn} > B_n$ ($10 \dots 20$ mm da) va taxlam kengligi , u holda $B_{cn} < B_n$ bo'ladi. So'ngi holatdagi taxlam kengligi uchun kengaytirgich klet qo'llaniladi, bunda taxlam kengligini siqib bo'shatish 50 % gacha amalga oshiriladi. Kengaytirgich klet uzluksiz keng tasmali stanlar 2500 da o'rnatilgan.

Kvarto universal kletida prokatlashda taxlam bir vaqtida vertikal va gorizontal jo'valarda prokatlanadi. Vertikal jo'valarda prokatlash metall ko'p qismini metall yon qirralarida quyilishiga olib keladi. Gorizontal jo'valarda davomiy siqishda metall qoplamasini kengayishga o'tadi va qisman cho'ziladi.

B/H katta ko'rsatkichlarida vertikal jo'valarda siqish 2...3 % ni tashkil etadi. Vertikal jo'valarda siqishni oshishi tasma mustahkamligini yo'qotilishiga olib keladi. Odadta siqish kattaligi vertikal jo'valarda gorizontal kengayishga teng.

Qoralama kletda siqish kattaligini aniqlashning asosiy omillariga siqish sharoitlari (odatda faqat birinchi klet uchun), jo'valar mustahkamligi va stan kleti asosiy yuritmasining quvvati kiradi. Prokatlash jarayoniga metall haroratining o'zgarishi katta ta'sir ko'rsatadi. Qoralama guruhning tortishish kattaligi taxlam haroratining sezilarli pasayishiga olib keladi, klet guruhi tortishishi va taxlam qalinligiga ko'ra 60...120°C ga yetadi. Qoralama guruh kleti bo'yicha metall haroratini V.A. Tyagunov formulasi bo'yicha hisoblanadi. Mavjud uzluksiz keng tasmali stanlarda qoralama guruhda prokatlash haroratini nazorat qilish uchun Oxirgi kletga fotoelektrik pirametr o'matiladi, ko'rsatkichlar qog'oz lentada belgilanadi.

Qoralama guruhda harorat tushishini kamaytirish uchun ayrim uzluksiz keng tasmali stanlarda qoralama va yakuniy guruhlar ekranida yoki taxlamni qizdirish pechlari orasida o'matiladi. Shu maqsadda qoralama guruh yakuniy ikki kleti uzluksiz bo'ladi.

Uzluksiz keng tasmali stanlar qoralama guruh ratsional siqish rejimiga quyidagi talablar qo'yiladi; qoralama guruhda umumi siqish taxlamda yuqori haroratni saqlab qolishni hisobga olib maksimal bo'lishi kerak; tutish burchagi, prokatlash kuchi va asosiy yuritma dvigatev quvvati ruxsat etilgan kattalikdan oshmasligi kerak; to'shamda qalintlik chegarasi qoralama guruhdan so'ng barcha stan mahsuloti uchun yakuniy guruhnini qayta sozlashni soddalashtirish maqsadida minimal bo'lishi kerak.

Odatda kengaytirgich kletida siqish $\varepsilon_{ush} = 50\%$, qoralama guruh gorizontal kletlarda $\varepsilon = 40 \dots 45\%$, qoralama guruhda umumi siqish

$$\varepsilon_{chern.gr} = (75 \dots 80\%).$$

Tutish burchaklarida maksimal siqishni hisoblash jo'va minimal diametri uchun amalga oshiriladi bunda qoralama guruh gorizontal jo'valarda ruxsat etilgan tutish burchagi vertikal jo'valarda itaruvchi kuch hisobida bir muncha yuqori bo'lishi mumkin.

Jo'valar mustahkamlik shartlariga ko'ra ruxsat etilgan prokatlash kuchi va dvigatev quvvati aniq metodlarda aniqlanadi. Har bir qayta qurish prokatlash tezligi, kletning butun yoki bir qismi jo'valari orasida aralashmalar o'zgarishini o'z ichiga oladi, kenglikni o'zgartirishda yo'naltirilgan chiziqlar va maydalagichlar qayta quriladi. Stan yakuniy kletini qayta qurishda vaqtini qisqartirish to'shamda

qalinligi miqdorini qisqarishi hisobiga erishiladi. Odatda uzlusiz keng tasmalni stanlar uchun to'shamda qalinligi 24...32 mm ni tashkil etadi. Qoralama guruhda siqish rejimlarini hisoblash usuli quyidagicha;

1) tutish sharoitiga ko'ra qoralama gorizontal kletlarda maksimal siqishni aniqlash; kengaytirish kletida zaruriy holatdagi prokatlashda siqish slyab kengligida ortish hisobi bilan aniqlanadi.

$$\Delta h_{ush} = \frac{h_0(B_1 - B_0)}{B_1}, \quad (6.1)$$

bu yerda B_0 va B_1 - taxlam kengligini silliqlashgacha va undan keyingi kenglik;

2)taxlam uzunligi, cho'zish, kletlar bo'yicha harorat, ishqalanishda siqish koeffitsiyenti asosida aniqlash;

3) klet bo'yicha prokatlash kuchi va bosimini jo'va mustahkamligidan kelib chiqib ruxsat etilgan bilan solishtirib hisoblash;

4) klet bo'yicha dvigatel zaruriy quvvatini o'matilgan bilan solishtirib hisoblash;

5) to'shamda mahsulotining minimal qalinligini olish maqsadida hisoblangan siqishni tahrirlash.

6.4.2. Yakuniy guruh kletlarini prokatlash texnologiyasi

Yakuniy guruh kletida prokatlashda tasma qalinligi bo'ylab talab etilgan o'lchamlar, geometrik o'lchamlarning zaruriy aniqligi tasma shakli va mexanik xossalarning belgilangan darajasiga erishiladi.

Tasma talab etilgan o'lchamlarini olish klet soniga teng bo'shatishlar miqdorida siqish rejimiga ko'ra amalga oshiriladi. Yakuniy uzlusiz guruhda prokatlash o'tish va doimiy rejimlarda amalga oshiriladi. O'tish rejimlariga bir yoki bir nechta omillar (qalinligi, prokatlash tezligi, siqish va boshqalar) o'zgarishi natijasida bir nechta yoki bitta kletda prokatlash shartlari o'zgaruvchi holatlar kiradi. Bunga uzlusiz guruh ketidan kirish va chiqishda tasmalarni prokatlash kiradi. Doimiy rejimlar ikki turda bo'ladi: erkin prokatlash va tasmani tanlash yoki cho'zib prokatlash.

Erkin prokatlash tasmanda joylashgan klet orasida kuchlanishlar yuzaga kelmasligi (siqish yoki cho'zish) bilan tavsiflanadi. Bu,

prokatlashda ilgak tutqichsiz yoki ikkita qo'shni klet ishchi jo'valar tezlik birligida amalga oshiradi, natijada tasmada bo'ylama kuch hosil bo'lishi bartaraf etiladi. Erkin prokatlashda jarayon ko'rsatkichlari bir biriga ta'sir ko'rsatadi. Oqish yoki cho'zilishda prokatlash tezligi va quvvati kletlar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Cho'zish qo'shni klet jo'valarning aylanish tezligi farqi bilan (tezlikka ko'ra) yoki yakuniy guruh orasida kletlararo joylashgan ilgak ushlagichlar yordamida amalga oshiriladi.

Avvalgi cho'zish prokatlash quvvatini pasaytiradi va tezlashishning ortishi hisobiga jo'vadan chiquvchi metall tezligini oshiradi, keyingi cho'zish prokatlash quvvatini oshiradi va jo'vadan chiquvchi metall tezligini pasaytiradi. Cho'zish jo'valarda tasmalar turg'unligiga olib keladi deb hisoblanadi, bunda erkin prokatlash bunday turg'un jarayonni ta'minlamaydi. Turg'un prokatlash jarayonini ta'minlovchi minimal nisbiy cho'zish oquvchanlik chegarasida 5...15% tashkil etadi. Uzluksiz guruhda prokatlash jarayonida cho'zish kattaligini o'zgartiruvchi ta'sir yuzaga keladi. G'alayon ta'sirlariga turli qalinlik, harorat tushishi, jo'veni urish, dvigatel tezlanishi va boshqalar kiradi.

Yakuniy guruh ketida alohida maydon tasmalarini prokatlash turli sharoitlarda amalga oshiriladi: oldingi yakun faqatgina orqaga cho'zish bilan prokatlanadi, orqa yakun faqat oldingi bilan, tasma o'rtasi oldingi va orqa cho'zish bilan prokatlanadi. Yakuniy guruhning birinchi kleti faqatgina oldingi cho'zishda ishlaydi, natijada dvigatel yuklanadi, Oxirgi klet faqat orqa cho'zishda ishlaydi, natijada dvigatel yuklanadi. Dvigatel yuklamasini qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan birinchi kletda ko'proq siqish tanlanadi. Bundan tashqari har bir kletda cho'zishni o'zgartirish boshqa kletda prokatlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Cho'zish o'zgaruvchan klet miqdori keyingi kletlarda cho'zishning yuzaga keltirish bilan aniqlanadi. Yakuniy uzluksiz guruhda prokatlash jarayonida zarur normal sharoit bo'lib klet bo'ylab metall hajmining sekundda o'tuvchi doimiyligi hisoblanadi. Barcha kletlarda taxlam tengliklar kengligi bu hajimning turg'unlik shartiga ko'ra quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$h_5 v_5 = h_6 v_6 = \dots h_n v_n \quad (6.2)$$

bu yerda h_5, h_6, \dots, h_n - 5, 6 va n kletlarida taxlam qalinligi; v_5, v_6, \dots, v_n - 5, 6 va n klet jo'valaridan metall chiqish tezligi.

Odatda har bir klet taxlam qalnligi va tezligi oxirida beriladi, kletlar bo'yicha tezlik masalan, 7 klet ega 2000 stan uchun quyidagi nisbatda aniqlanadi.

$$v_{11} = \frac{v_{10}h_{10}}{h_{11}}; v_h = \frac{v_9h_9}{h_{10}} \text{ и т.д., } v_6 = \frac{v_5h_5}{h_6}. \quad (6.3)$$

Qurilmalar yo'qligi, jo'vadan chiquvchi metall tezligini belgilashda yakuniy guruh tezlik rejimi jo'vaning aylana tezligi bo'yicha beriladi va jadallahish hisobi bilan aniqlanadi.

$$h_5v'_5(1+s_5) = h_6v'_6(1+s_6) \dots = h_nv'_n(1+s_n), \quad (6.4)$$


bu yerda v'_5 , v'_6 va v'_n - jo'valar aylanish tezligi va s_5 , s_6 va s_n - mavjud klet jadallahishi.

Har bir klet jo'valar tezligi (6.4) tenglama bilan aniqlanadi, avval berilgan har bir klet tezligi va har bir klet jadalligi eksperimental ko'rsatkichlar yoki cho'zish hisobi formulasi bilan aniqlanadi.

Yakuniy guruh oxirgi kletida prokatlash tezligi klet texnik tavsifi, maksimal samaradorlik va prokatlash yakunida maksimal haroratdan kelib chiqib tanlanadi. Stan samaradorligi qurilmaning bo'shatish qobiliyati, slyab o'lchami va siqish rejimi bilan aniqlanadi. Agar standa prokatlash rejimini aniqlasak masalan qizdirish pechida, u holda prokatlash tezligi qizdirish pechi samaradorligini hisobga olib tanlanadi.

Bir xil og'irlilikdagi slyablarning bir xil kenglikdagi tasmlarni prokatlashda qizdirish pechlari ingichka tasmalarni qizdirishdagidek maksimal samaradorlikda ishlaydi, shuning uchun qalin tasinalarni prokatlashda oxirgi klet tezligi kamayadi. Tasma kengligiga bog'liq holda pechni qizdirish samaradorligi belgilanmasa prokatlash tezligi sezilarsiz o'zgaradi.

Prokatlanayotgan tasmaning po'lat markasini o'zgartirishda oxirgi klet tezligi asosiy yuritma bog'liq holda o'matiladi. Zaruriy geometrik o'lcham va tasma shaklini olish asosan uzluksiz keng tasmali stan yakuniy guruhida prokatlash orqali olinadi. Tasma geometrik o'lchamlar aniqligi bo'ylama va ko'ndalang qalnlikda aniqlanadi, shakllar esa list kengligi bilan aniqlanadi. Uzluksiz keng tasmali stanlarda tasmalarni uzunlik bo'yicha prokatlashda qalnlikning o'zgarishi (5.11-rasm) da ko'rsatilgan sifat tavsifiga ega.



6.4-rasm. Tasma uzunligi L bo'ylab kenglik B va qalinlik h tebranishi:
1 - chap qirra; 2 - tasma o'rtasi; 3 - o'ng qirra

Uzluksiz guruhda prokatlashda tasma qalinligiga cho'zilgan tasmalar sezilarli ta'sir ko'rsatadi shuning uchun asosiy tenglama quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

$$dh_1 = \frac{1}{M_k + M_p} (M_k dS + \frac{\partial P}{\partial h_0} dh_0 + \frac{\partial P}{\partial R} dR + \frac{\partial P}{\partial B} dB + \\ + \frac{\partial P}{\partial \sigma_t} \sigma_t + \frac{\partial P}{\partial f_y} df_y + \frac{\partial P}{\partial T_0} dT_0 + \frac{\partial P}{\partial T_1} dT_1), \quad (6.5)$$

bu yerda T_0 va T_1 - tasmani cho'zishning oldingi va orqa kuchlar.

6.4-rasm) da tasma uzunligi bo'ylab kenglik B va qalinlik h tebranishning uzluksiz keng tasmali stan 1700 da prokatlashda olingan eksperimental ko'rsatkichlar keltirilgan. Maksimal bo'ylama qalinlik 0,45 mm tashkil etadi, o'rtacha kattalik 0,15...0,25 mm. Orqa yakunda bo'ylama qalinlikning ortishi oldingi bilan solishtirganda 0,06...0,08 mm ni tashkil etadi. Orqa yakun qalinlashishi uzunlikda 20...30 m, oldinda uzunlik 10...15 m ni tashkil etadi. Tasmaning o'rtasi qismi qalinligi tebranishi "sirpanish belgilari" tufayli 0,04...0,06 mm dan oshmaydi. (6.5) tenglamasiga kiritilgan bir qator asosiy omillar kletli prokatlash bo'ylama qalinlikni elastik

xossalariiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bo'ylama qalinlikda ularning ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Tasma harorati bo'ylama qalinlikka deformatsiyalanish qarshiligi o'zgarishi orqali ta'sir ko'rsatadi. Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlashda metall haroratining o'zgarishi ILS prokatlash kabi omillar bilan aniqlanadi. Biroq uzluksiz keng tasmali stanlarda taxlam uzunligida harorat klini sezilarli kattalikka erishiladi, ayniqsa yakuniy guruhda prokatlash jarayoni jadallashtirishsiz amalga oshiriladi.

1700 standa tasmani prokatlash harorat rejimi (6.5-rasm) da ko'rsatilgan. Qoralama guruhdan keyingi harorat tushishi o'ttacha 10°C ni tashkil etadi. Yakuniy guruhda prokatlashda bu o'zgarish ortadi. Bunda harorat tushishning kata ko'rsatkichi o'ttacha 30...50°C yakuniy guruh bиринчи kletida kuzatiladi; Oxirgi kletdan so'ng pasayish 20...25°C gacha kamayadi, bu prokatlash tezligi ortishi bilan ko'payuvchi plastik deformatsiyalanishda issiqlik ajralishi bilan bog'liq. Aniqlanishiga qalinligi 2...9 mm tasmalar uchun 1700 standa o'ninchi kletda prokatlash haroratining o'zgarishi o'ttacha 1°C da qalinlikni 0,004...0,007 mm o'zgarishni yuzaga keltiradi. Ta'kidlash joizki uzluksiz keng tasmali stan yakuniy guruhida harorat klini tezlanish kattaligiga bog'liq holda prokatlashni tezda amalga oshirishda nolga tushirish mumkin, bundan tashqari qaytuvchi harorat klinini olish mumkin.

Metall mexanik xossalari har bir tasma uzunligi bo'ylab tasma chegaralarida o'zgaradi. Bu slyab kimyoviy tarkibining turlichaligi bilan bundan tashqari qoralama va yakuniy guruhlarda prokatlashda taxlam alohida maydonlarini sovitish rejimlarini turlichaligi bilan ta'riflanadi.

Tasma bo'ylama qalinlikda to'shamaning turlicha qalinligiga ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishiga, qoralama guruhdan so'ng to'sham bo'ylama qalinlikda ega. (6.6-rasm) da 1700 standa olingan to'sham uzunligi bo'ylab qalinlikning tebranish eksperimental ko'rsatkichlari keltirilgan. To'shamda sezilarli qalinlik tebranishiga ega, to'rtta qalinlik 0,2...0,3 mm aniq ko'rinish turibdi, va bu sirpanish belgilariga mos keladi. To'shamda turli qalinligining bo'ylama qalinlikda ta'siri bilan aniqlanuvchi to'g'rilash koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi.

k_v , kattaligiga klet va tasma qattiqligi ta'sir ko'rsatadi. Bir xil sharoitlarda klet qattiqligining ortishi bilan k_{t_v} kattaligi o'sadi. Biroq klet qattiqligi k_v , ga asosan siqish va tasmalar bog'liqligi bilan ta'sir


qiladi. Tasma qanchalik qattiq bo'lsa siqish shunchalik kam bo'ladi, k_v kletiga ta'sir bo'shroq bo'ladi. Tasma qattiqligi k_v , kattaligiga aks ta'sir ko'rsatadi: Tasma qattiqligi ortishi bilan k_v kamayadi.

k_v kattaligiga siqish ham ta'sir ko'rsatadi: siqish kamayganda k_v ortadi, shuning uchun yakuniy guruhning oxirgi kletida siqish kattaligi 10...20 % chegarada bo'ladi.

k_v kattaligi yakuniy guruhda kletlar soni bilan aniqlanadi; chunki klet sonining ortishi k_v o'sishiga olib keladi.


Uzluksiz keng tasmalni stanlar yakuniy guruhida prokatlash tezligining ПIPP ga ta'siri ishqalanish koeffitsiyentining o'zgarishi tezlik effekti, metall haroratining o'zgarishi orqali yuzaga keladi.

Prokatlash tezligi ortishi bilan issiqlay prokatlashda ishqalanish koeffitsiyenti kamayadi bu prokatlash kuchini kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari jo'va tirkaklari o'sishi yuzaga keladi. Bu bir tomondan jo'valar orasidagi aralashmani kamaytiradi, boshqa tomondan prokatlash kuchini oshiradi. Bu omillarning bir vaqtidagi ta'siri qaysi omil boshqarishiga qarab kuchning pasayishi yoki ortishiga olib kelishi mumkin. Odatda uzluksiz keng tasmalni stanlarda tezlik ortishi bilan tasma qalinligi kamayadi.



6.5 - rasm. Qoralama (a) va yakuniy (b) guruh kletlarida tasmani prokatlashda harorat o'zgarishi:


1 - $2,5 \times 1050 \text{ mm}$; 2 - $4 \times 900 \text{ mm}$ tasma




6.6 - rasm. Klet 4 uchun tasma 6×1500 mm (a) va klet 4 uchun tasma $2,8 \times 1070$ (b) taxlamlar profilogrammasi:
 1 - chap qirra; 2 - o'ng qirra

Prokatlash tezligi metall harorati o'zgarishiga kam ta'sir ko'rsatadi. Prokatlash tezligining ortishi bilan plastik deformatsiyada ajraluvchi issiqlik miqdori ham, metall harorati ham ortadi. Ayniqsa, jadal prokatlashda yuzaga keladi, bunda prokatlash tezligi $10\dots25$ m/s ga yetadi, jadallanish $0,1\dots0,2$ m/s 2 ni tashkil etadi. Uzluksiz keng tasmalı stanlarda prokatlashda taxlam kengligi bo'lmasa, tasma turli qalinligi asosan mavjud slyab qalinligi bilan aniqlanadi. Bundan tashqari qalinlikning turlichaligi yakuniy guruh kletlar orasida cho'zishning tebranishi natijasida o'zgaradi. (6.7-rasm) da tasma uzunligi bo'ylab kenglikning o'zgarishi ko'rsatilgan. Qalinlikning turlichaligi (6.5) tenglamaga ko'ra keng chegarada o'zgaradi, bo'ylama qalinlikda ta'sir ko'rsatadi. Bo'ylama qalinlik kattaligiga yakuniy guruh kletlarini sozlashda jo'valarni o'matish aniqligi bundan tashqari jo'valarning urilishi ta'sir ko'rsatadi. Chunki bir nechta kletda jo'vani urish natijasida tasma qalinligining tebranishini yig'ilishi va bo'ylama qalinlik sezilarli ortishi yuzaga keladi.

Uzluksiz prokatlashda bo'ylama qalinlikda jo'vani urish natijasida cho'zishning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Bunda cho'zish ta'siri katta kletlararo cho'zishda ishlovchi klet uzatma koefitsiyentiga ko'proq bo'ladi.



6.7 - rasm. 3x1280 mm tasma uzunligi bo'ylab kenglikning o'zgarishi



6.8 - rasm. Uzualik bo'ylab ko'ndalang qalinlikning chastotali tavsifi:

1 - $2 \times 100 \text{ mm}$, $L = 340 \text{ m}$; 2 - $1,8 \times 1020 \text{ mm}$, $L = 760 \text{ m}$;

3 - $3 \times 1420 \text{ mm}$, $L = 200 \text{ m}$; 4 - $2 \times 1250 \text{ mm}$, $L = 310 \text{ m}$

Cho'zish taranglik holati sxemasini o'zgartiradi, bu prokatlash kuchi va bosimning o'zgarishiga o'z navbatida 6.5 tenglamaga asosan qalinlik o'zgarishiga olib keladi. Cho'zish kuchi tasmaning oldingi yakuni keyingi kletdan o'tganda ortadi, yakuniy klet uzilganda kamayadi. Ko'proq cho'zish tasmaning o'rta qismini prokatlashda hosil bo'ladi. Bunda cho'zish natijasida tasma yakunida maksimal qalinlikka ega bo'ladi. Orqa cho'zish oldingiga nisbatan qalinlikka sezilarli katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun orqa yakun oldingi cho'zishda prokatlansa doim oldingidan qalin bo'ladi. Cho'zish

stanining to'g'rilash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir (5.31) tenglamasiga kiruvchi M_p va α_k kattaligiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori darajada cho'zib prokatlashda M_p kamayadi bu k_v ortishiga olib keladi, boshqa tarafdan bu α_k koeffitsiyenti o'sishiga olib keladi va k_v ga aks ta'sir ko'rsatadi. M_p va M_k barcha o'lchanuvchi tasmalarni prokatlashda α_k va $(1 + M_k/M_p)$ ga cho'zishning ta'siri taxminan bir hil, natijada k_v , cho'zish ortishi bilan sezilarsiz kamayadi.

Kichik qalinlikdagi tasmalarni prokatlashda $(1 + M_k/M_p)$ sezilarsiz 1 dan farqlanadi, α_k dagi o'zgarishlarning ta'siri ustivor bo'ladi va kuchlanishning ortishi bilan k_v koeffitsiyenti kamayadi.

Issiqlay jo'velangan ko'ndalang tasmalarning turli qalinliklari prokatlash shartlariga ko'ra aniqlanadi va keng chegaralarda tebranadi. (6.8-rasm) da uzunligi bo'ylab ko'ndalang turli qalinlikning chastotali tavsifi keltirilgan. Ko'ndalang turli qalinlik 0,09...0,1 mm chegarasida o'zgaradi. Keng tasmalar uchun turli qalinlik kattaligi ortadi, chunki jo'velar deformatsiyasi ortadi. Qoidaga ko'ra ko'ndalang turli qalinlik tasmaning bosh va dum qismida ortadi.


Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlashda tasma ko'ndalang kesimi bo'rtiq shaklga ega bo'ladi va ko'ndalang turli qalinlik (5.38) tenglamasi bilan ta'riflanadi, bunga ko'ra u jo'venning egilishi, issiqlay bo'rtiqlik, profillash va jo'velar yeyilishga bog'liq bo'ladi.

Tasma maydoni uning kengligida cho'zishni taqsimlash bilan aniqlanadi, bu esa jo'vea profilini jadal tashkil qiluvchi shakliga bog'liq. Tasma kengligiga cho'zishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tasmani cho'zish kenglik bo'ylab cho'zib o'zini tekislashga xizmat qiladi, bu tekis tasmalarni olish uchun juda ham muhim hisoblanadi. Cho'zish kengligi bo'ylab tekislash qobiliyati yanada ahamiyatli, bunda tasma ostidagi jo'velarning elastik deformatsiyasi tasma kengligining kesma birligini cho'zishga bog'liq. Tasma ostida ishchi jo'velarni tekislashni ortishi bilan kenglik bo'ylab cho'zishni taqsimlash ta'siri ortadi va tenglashadi. Cho'zishni prokatlash kuchiga va jo'vevalarni elastik deformatsiyasiga ta'siri bilan cho'zish tufayli shaklga nisbatan nazorat qiluvchi parametr bo'lishi mumkin, chunki umumiy cho'zishning ortishi shakl o'zgartiradi va cho'zishning pasayishi to'lqin shakllanishiga olib keladi. Shu sababli uzluksiz keng tasmali stanlarda issiqlay prokatlashda cho'zishning ratsional kattaliklarini tanlash zarurati tug'iladi. Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlashda belgilangan mexanik xossalalar darajasini olish yakuniy kletda siqish,

prokatlash yakunidagi harorat va o'ramdagi tasma g'altagi harorati kattaliklari aniqlanadi. Bu omillar issiqlay jo'valangan tasmaning mustahkamlik va plastiklik xossalarni bundan tashqari donalar kattaligi va uning tasma kengligi bo'ylab tarqalishini aniqlaydi. 6...7 ball chegarasida teng o'qli tenglashtirilgan donalar va mayda dispers sementit metallning yuqori shtamplanishini ta'minlaydi.


Mayda donali strukturining mavjudligi mexanik xossalarni yaxshilaydi, shtampovka sirtidagi yirik donada tangasimon tuzilish hosil bo'ladi ("apelsin sirti"). Yakuniy guruh Oxirgi kletida kamuglerodli po'lat markalarни siqish uchun dispers sementitli teng asosli donalarни olish uchun rekrisstallanish hosil bo'lishi bilan 10 % dan kam bo'lmasligi kerak; prokatlash yakunidagi harorat- A_{r_2} , kritik nuqtasidan yuqori, o'ramdagi g'altak tasma harorati - 680°C dan past.

Bu (6.9-rasm) da ko'ringan unda issiqlay jo'valangan tasmaning prokatlash yakuniy harorati va g'altak harorati tuzilishiga eksperimental bog'liqligi keltirilgan.



6.9-rasm. Issiqlay jo'valangan tasmalarning prokatlash yakuniy harorati va o'ram harorati tuzilishiga bog'liqligi: A-mayda dispers sementitli teng o'qli donalar (optimal sharoitlar); B-notekis dona (sirtdagи yirik); D-cho'zilgan dona; E-yirik sementit yig'iluvchi bir tekis yirik dona; F-notekis dona (list sirtdagи o'ta yirik); G-o'ta yirik dona o'rita, yuqori uglerodli va legirlangan po'lat markalarining mexanik xossalarni yaxshilash maqsadida tasmani sovitish rejimi o'ta differensiyal bo'lishi kerak, chunki sovitish tezligi mexanik xossalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Charx va yakuniy klet orasidagi rolgangda g'altak haroratini boshqarish uchun purkash qurilmasi o'rnatiladi, unda standan chiquvchi tasmaning ustki va ostki sirtiga soplo purkagich orqali uzatiladi. Ular Oxingi klet bilan o'rtacha 15 m masofada joylashadi. Uzluksiz keng tasmali stani yakuniy guruhibda siqish rejimi agar yakuniy guruh samaradorligi belgilangan tasmalar o'lchamini prokatlash maksimal bo'lganda; tasma geometrik o'lcham va shaklning yuqori aniqligiga ega bo'ladi; mikrotuzilish mustahkamlik xossalari va sirt sifati GOST ni qoniqtiradi; prokatlash kuchi va dvigatel quvvati ruxsat etilgan kattalikdan oshmasligi; kletlar bo'ylab prokatlash tezligi va siqishni taqsimlash stanning sodda tuzilishini va minimal qisqa vaqtda yakuniy guruhnini sozlash ratsional bo'ladi.



6.10-rasm. Uzluksiz keng tasmali stani yakuniy kletida siqishni ratsional taqsimlash sxemasi.

Stan samaradorligi berilgan slyab o'lchami yakuniy guruhiba listni prokatlash tezligi va yakuniy guruh ko'rsatkichlari orasidagi to'xtalishlar bilan aniqlanadi. To'xtalishlar vaqtida stan texnik tavsifi va qo'shimcha qurilmalar, texnologik jarayonlar, xizmat ko'rsatuvchi hodimlar ishini tashkil etishni hisobga olib aniqlanadi.

Tasmaning yuqori aniqlikdagi o'lchamlariga masalan, kletlar bo'ylab siqishning ma'lum bir taqsimlash orqali erishiladi. Shunday qilib, siqishning kamaytirilgan rejimida bo'ylama qalinlikning minimal kattaligining hosil bo'lishi (6.10 - rasm) da ko'rsatilgan.

Kletlar bo'ylab siqishni taqsimlanishi (6.10 - rasm) oxirgi ikitidan tashqari qolgan barcha kletlarda doimiy prokatlash kuchini saqlash imkonini beradi. Oxiridan bitta oldingi kletda prokatlash kuchi kattaligi avvalgi klet kuchining 75 % ni tashkil etadi, ohrida esa - 45 %. Yakuniy kletda prokatlash kuchining pasayishi (siqishni boshqarib) POR va bo'ylama qalnlilikni kamaytirish, list shaklini yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari 12...20 % chegarada yakuniy klet siqilishini boshqarish talab etilgan mexanik xossalni listlarni olishga xizmat qiladi.

Uzluksiz keng tasmali stan tajribasiga asoslanib yakuniy guruh kletlari bo'ylab nisbiy siqish quyidagicha taqsimlanadi:

Klet soni 1 2 3 4 5 6

Siqish darajasi, % 40...55 30...45 25...35 20...30 15...25 10...20

Prokatlash kuchi va dvigatel quvvati hisobi aniq usullarda amalga oshiriladi. Bu hisobda bo'shatishlar bo'ylab taxlam haroratini hisobga olish zarur. Yetarli aniqlik darajasidagi ingichka tasmalar uchun bo'shatishlar bo'ylab tasma harorati M.M Safyan usuli bilan aniqlanadi.

Berilgan klet tasma haroratining o'zgarishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta t = -\Delta t_{pl} + \Delta t_{\varepsilon} + \Delta t_{oxl}. \quad (6.6)$$

bu yerda Δt_{pl} - plastik deformatsiya natijasida tasma haroratining ortishi; Δt_{ε} - issiqlik nurlanishi natijasida tasma haroratining pasayishi; Δt_{oxl} - tasma bilan ta'sirlashuvchi detallar va jo'valarga issiqlik berish natijasida suv bilan sovitishda tasma haroratining pasayishi.

Δt_{pl} kattaligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta t_{pl} = 3,97 p_{sr} \cdot lg \cdot h_0/h_1, \quad (6.7)$$

bu yerda p_{sr} - prokatlash bosimi, MPa; h_0 va h_1 - taxlamning boshlang'ich va yakuniy balandligi, mm.

Kamuglerodli po'latlar uchun Δt_{ε} kattaligi quyidagicha.

$$\Delta t_{\varepsilon} = 18 \left(\frac{t+273}{100} \right)^4 \frac{\tau}{h} \cdot 10^{-4} \quad (6.8)$$

bunda t - kletdan oldingi metall harorati, $^{\circ}\text{C}$; τ - sovitish davomiyligi, s. Δt_{oxl} kattaligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta t_{\text{oxl}} = \frac{p \cdot \tau_M \cdot \Delta t_{\text{vod}}}{1,8G} \quad (6.9)$$

Bunda p - sovitish uchun uzatiluvchi suv bosimi amper; τ_M - mashina vaqtisi, s; Δt_{vod} - kletni sovituvchi suv haroratinining oshishi, $^{\circ}\text{C}$; G - prokatlanuvchi tasma og'irligi, kg.

Agar yakuniy kletdan so'ng va birinchi kletgacha bo'lgan tasma haroratini aniq bo'lsa, unda yakuniy guruh kletlari bo'ylab tasma haroratini aniqlashtirishga yaqinlashtirilgan quyidagi formula qo'llaniladi.

$$t = t_p - \Gamma \left(\frac{h_p}{h} - 1 \right), \quad (6.10)$$


$$\Gamma = \frac{t_p - t_{10}}{h_p - h_{10}} \cdot h_{10}, \quad (6.11)$$

Bunda t - h qalinlikdagi tasma harorati, $^{\circ}\text{C}$; t_p va h_p - yakuniy guruhdan avvalgi taxlam harorati va qalinligi; t_{10} va h_{10} - yakuniy guruh 10 chi kletidan keying qalinlik va harorat;

Yakuniy guruhda taxlam qalinligi va harorati qoramaliga nisbatan past bo'ladi, shuning uchun uzlusiz keng tasmali stan ish tajribasidan kelib chiqqan holda yakuniy guruhda siqish umumiy siqish yig'indisining 15...30 % ini tashkil etadi.

Tasma profilining aniq o'lchamlarini va metall egiluvchanligini maksimal darajada olish uchun yakuniy klet asosiy yuritmasiga elektrosvigatelni yuklash turli sxemalar amalga oshiriladi.

I Sxema (6.11 - rasm) 9 va 10 kletlarda yuklanishni pasaytirish va 5 - 6 klet dvigatelidan butunlay foydalanishda tasmani prokatlashni ko'zda tutadi. I Sxema yakuniy guruhda siqish yig'indisining yirik kattaligi uchun yoki kata qarshilikda deformatsiyalanuvchi tasmalarni prokatlashda qo'llaniladi.



6.11-rasm. Yakuniy guruh kleti bo'ylab asosiy dvigatelni yuklashni taqsimlash sxemasi:

1-sxema I; 2-sxema II; 3-sxema III

II va III sxemalar bo'yicha dvigatelni yuklash agar dvigatel quvvati butunlay foydalanmaganda tasmani prokatlash tavsiya etiladi.

Uzluksiz keng tasmali stanlar mahsulotlari keng miqyosidaligi va uni prokatlash berilgan tasma o'lchami uchun tanlangan siqish rejimida yakuniy guruh kletini qayta sozlashni talab etadi. Bir smenada katta miqdorda qayta sozlash amalga oshiriladi, shuning uchun siqish rejimida quyidagi xususiyatlarni hisobga olish zarur. Shunday qilib yakuniy kletda siqish rejimlarini hisoblash usuli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) klet bo'ylab siqishni taqsimlash;
- 2) tanlangan siqishdan kelib chiqib klet bo'ylab tasma qalinligini aniqlash;
- 3) jo'va atrofidagi tezlikni va jo'vadan chiquvchi metall tezligini aniqlash;
- 4) stan asosiy yuritmasi dvigatel quvvatini va prokatlash kuchini hisoblash.

6.11. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Uzluksiz keng tasmali stanlar va yarimuzluksiz keng tasmali stanlar vaqt samaradorligi slyab og'irligi, stan foydalanish koeffitsiyenti va prokatlash rejimiga bog'liq, yillik esa yil davomidagi amaliy

ish soatlar soniga bog'liq. Zamonaviy yarimuzluksiz keng tasmali stanlar 2 mln t gacha yillik samaradorlikka uzluksiz keng tasmali stanlar esa, 6...8 t gacha samaradorlikka ega. Uzluksiz keng tasmali stanlar va yarimuzluksiz keng tasmali stanlarda metall sarfi koeffitsiyenti qizdirishda kuyindi bilan metallni yo'qotish va prokatlash jarayonidagi davomiy qirralar va yakunni kesishdag'i yaroqsizlik 1,03...1,075 tashkil etadi.

Issiqlay jo'valangan tasmali po'latni prokatlash va pardozlashda elektr energiya sarfi 216...252 MDj/t (60...70 kVt s/t) ni tashkil etadi. Sovuq slyablarni qizdirishda issiqlik sarfi 1 t uchun o'ttacha 2,1 MDj (500 ming kkal)ga teng.

Uzluksiz keng tasmali stanlar va yarimuzluksiz keng tasmali stanlarda suv sarfi (tez sovitish qurilmasida suv sarfini hisobga olmaganda) 7000...8000 m³/s ni tashkil etadi. Standan chiquvchi tasmalarni sovitishda uzatish usuliga ko'ra qo'shimcha 5000...14000 m³/s sarflanadi. 1 t tayyor tasma uchun jo'va sarfi 0,8...1,5 kg ni tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. Ingichka listli issiqlay jo'valangan po'latlarni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
2. Slyablar qanday pechlarda qizdiriladi?
3. Pechilar qanday usulda qizdiriladi?
4. Yarimuzlukli kengtasmali stanlarda qanday zagotovkalar prokatlash uchun qo'llaniladi?
5. Yarimuzlukli kengtasmali stanlar yakuniy guruhi qanday kletdan iborat?
6. Uzluksiz keng tasmali stanga nisbatan solishtirganda yarimuzluksiz stanlarning asosiy afzalliliklariga nimalar kiradi?
7. Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Uzluksiz keng tasmali stanlarda odatda nechta ishchi guruhi kletidan tashkil topgan?
9. Uzluksiz keng tasmali stan tarkibiga nimalar kiradi?
10. Zaruratga ko'ra tasmalar prokatlangandan so'ng qanday quriyma yordamida sovitiladi?

- 11.Qoralama guruh kletlarida prokatlash haqida nimalarni bilasiz?
- 12.Uzluksiz keng tasmali stan qoralama kletida prokatlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
- 13.Kvarto universal kletida prokatlashda taxlam bir vaqtda qanday jo‘valarda prokatlanadi?
- 14.Turg‘un prokatlash jarayonini ta’minlovchi minimal nisbiy cho‘zish oquvchanlik chegarasida necha foizni tashkil etadi?
- 15.Prokatlash tezligi ortishi bilan issiqlay prokatlashda nima sodir bo‘ladi?
- 16.Prokatlash tezligi metall harorati o‘zgarishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- 17.Uzluksiz keng tasmali stanlarda prokatlashda tasma ko‘ndalang kesimi qanday shaklga ega bo‘ladi?
- 18.Tasmaning yuqori aniqlikdagi o‘lchamlariga nimalar orqali erishiladi?
- 19.Yakuniy kletda siqish rejimlarini hisoblash usuli nimalarni o‘z ichiga oladi?
- 20.Texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar haqida nimalarni bilasiz?

7-BOB. SOVUQ JO'VALANGAN PO'LAT LISTLARNI (SJPL) ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI

7.1. Ingichka listli po'lat ishlab chiqarishning umumiy ma'lumotlari

Hozirgi vaqtida ingichka listli po'lat ishlab chiqarishning 40...45% hajmi sovuqlay jo'valangan list shaklida ishlab chiqarilmoqda. Ushbu po'latning asosiy qismi avtomobilsozlik va mashinasozlik sanoatida ishlab chiqariladi. Og'irligi 45 t gacha, kengligi 700...2300 mm qalinligi 0,35...2 mm listlar sovuqlay prokatlab tayyorlanadi. Zagotovka sifatida qalinligi 1,8...6 mm, kengligi 700...2300mm og'irligi 45 t bo'lgan issiqlay jo'valangan ingichka listli po'latlar qo'llaniladi. Sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni juda murakkab, chunki u juda ko'p miqdordagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, turli xildagi murakkab uskunalardan foydalanishni talab qiladi va yuqori energiya sarfiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan SPL ishlab chiqarishda kapital quyilmalar 20...25% operatsion xarajatlar esa ingichkalistli issiq jo'valangan po'latlarni ishlab chiqarishga nisbatan 10% yuqori bo'ladi. Sovuq jo'valangan po'lat listlarni asosiy miqdori (80...85%) kam uglerodli po'latdan, 10...15% o'rta va yuqori uglerodli po'latdan, 5...7% kam va legirlangan va 1...1,5% yuqori legirlangan (asosan zanglamas) po'latdan tayyorlanadi. Sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlatilishiga ko'ra asbobsozlik, sifatli konstruksion va oddiy sifatli uglerodli po'latdan tayyorlanadi.

Oddiy sifatli uglerodli po'lat (po'lat 0, po'lat 2, ruh bilan qo'llangan) maxsus talablarsiz yetkazib beriladi, chunki keyinchalik bu po'lat chuqur cho'zilmaydi. Bu po'latdan tayyorlangan sovuq jo'valangan po'lat listlarni mashinasozlikda armaturalar tayyorlash uchun qo'llaniladi. Sifatli uglerodli po'latlardan shtamplangan list mahsulotlarini tayyorlashga mo'ljallangan listlar prokatlanadi. 08 kp, 08Yu po'-latlari avtomobil qismlarini ishlab chiqarishda alohida o'rin egallaydi. Sovuq jo'valangan po'lat listlarni cho'zish qobiliyatiga ko'ra GOST 9045-80 bo'yicha ular uch guruhgaga bo'linadi: juda chuqur (JChCh), chuqur (ChChH) va normal (NCh). Ko'rsatilgan cho'zish gutuhlariga muvofiq mexanik xossa normalari belgilanadi. Murakkab detallarni shtamplash uchun qo'llaniluvchi 08Yu va 08Fkp po'lat markalari ikki guruhgaga bo'linadi; O'MCh - o'ta murakkab cho'zish va MCh-

murakkab cho'zish. Shtamplashning asosiy ko'rsatkichi oquvchanlik chegarasining mustahkamlik chegarasiga nisbati hisoblanadi , 0,65 dan oshmasligi kerak.


Asosiy yuqori talablar sovuq jo'valangan po'lat listlarni sirt sifatiga qo'yiladi. Tayyor list sirti xira yoki yaltiroq bo'lishi zarur. List sirtida kuyindilar, tirmalishlar, g'ovaklilar, pufaklar, qobiqlar, zanglanishlar va boshqalar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. List sirti relefni shtamp ostida cho'zish uchun katta ahamiyatga ega. Avtomobil ehtiyyot qismlari uchun stan kesuvchi jo'valarida olingan xira yuzali list detallari tayyorlanadi. Bunday sirtda bo'yoq yaxshi qabul qilinadi va list yaxshi shtamplanadi. Chuqur cho'zish uchun listlar yuqori aniqlikda o'Icharn va shaklga ega bo'lishi kerak, aks holda shtamplanuvchi mahsulotda nuqson hosil bo'ladi.

7.2. Texnologik jarayonning qisqacha tavsisi

Sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarish texnologik oqim va jihozlarning to'yiganligi nuqtayi nazardan ancha murakkab ishlab chiqarish obyektlari bo'lgan sovuq prokat sexlarida amalga oshiriladi.

7.1-rasmda turli texnologik jarayonlarni o'z ichiga olgan sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarishning texnologik jarayon umumiyligi sxemasi tasvirlangan. 7.1-rasmda ko'rsatilgan sxemalar asosida biz sovuq prokatlash sexida tovar mahsulotlarini olishni ta'minlaydigan muayyan operatsiyalarini o'z ichiga olgan quyidagi texnologik jarayon turlarini ajratishimiz mumkin; I-1-2-10 (yedirilgan issiq jo'valangan list); II-1-3-4-10 (ruhlangan list); III-1-3-5-6-7-8-9-10 (listdagi qalaylar); IV – 1-3-5-6-7-9-10 (Sovuq jo'valangan po'lat listlar); V-11-3-5-6-7-8-10 (qalaylangan o'ram); VI-1-3-6-7-9-10 (Sovuq jo'valangan po'lat listlar).

Sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarishning eng keng tarqalgan texnologik jarayoni VI – variantda ko'rsatilgan. Ushbu sxema bo'yicha biz sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarish jarayonining barcha operatsiyalarini batafsil ko'rib chiqamiz.



7.1-rasm. Sovuqlay jo‘valangan po‘lat listlarini ishlab chiqarishaing texnologik jarayon sxemasi.

7.3. Kuyindini tozalash

Sovuq jo‘valangan po‘lat listlarni ishlab chiqarishda zagotovka sifatida qo‘llaniluvchi issiq jo‘valangan po‘lat tasmasi sirti kuyindi bilan qoplanganligi sababli, sovuq jo‘valangan list sirtida yuqori sifatni olish uchun uni tozalash kerak bo‘ladi.

Kuyindini samarali tozalash uning fizik-kimyoviy tarkibi, issiq jo‘valangan tasma sirtidan kuyindini tozalash jarayonni borishi sharoitlaridagi qalinlikka bog‘liq. Kuyindini tozalashning mexanik va ishqorli usullari mavjud. Hozirgi vaqtida kuyindini tozalashning ishqorli usuli bir munkha keng qo‘llaniladi. Ma’lumki issiq jo‘valangan tasma sirtida kuyindini temir oksidining uch qatlamidan tashkil topgan qalinligi 7...15 mkm: ichki vyustit (FeO), o‘rta magnetit (Fe_3O_4) va tashqigematit (Fe_2O_3). Kuyindining barcha qatlami turli mustahkamlilikka va metallga birikish darajasiga (adgeziya) ega. Vyustit qatlami boshqa temir oksidlari bilan solishtirganda biroz mustahkamlilik va g‘ovaklı tuzilishi bilan farqlanadi. Magnetit qatlami bir munkha mustahkam, zinch tuzilishga ega, metall va qo‘shti oksid qatlamlari bilan yaxshi kirishadi.

Barcha uch turdag'i kuyindi qatlamlari turlicha yediriladi. Vyustit va magnetit ishqorda eriydi, gemitit erimaydigan birikma hisoblanadi. Kuzatishlar natijasida agar kuyindi qatlami vyustit va magnetitdan iborat bo'lsa yedirilish jarayoni osonlashadi, agar yagona vyustitdan iborat bo'lsa yanada yaxshilanadi. Tasmani tozalanish tezligi kuyindi qatlam qalinligiga bog'liq. Kuyindi qatlami qalinligi va tarkibiga o'tarn va prokat yakunidagi harorat, metallni tezligi, issiq prokatlash stani yakuniy kletidan chiquvchi tasma tezligi ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishiga oz miqdordagi kuyindi qatlam qalinligini olish uchun prokatlash yakunidagi harorat kamroq, prokatlash tezligi esa ko'proq bo'lishi zarur. Biroq bunda metall tuzilishi va talab etilgan xossalarni ta'minlash shartlarini hisobga olish kerak, chunki prokatlash yakunida past harorat doim ham kuzatilmaydi.


Yuqorida keltirilganidek kuyindi yaxshi tozalanishi uchun unda vyustit bo'lishi kerak. Biroq vyustit 575°C dan yuqori haroratdagina turg'un bo'ladi, undan pastda esa tenglamaga asosan tushib ketadi.



Tushish tezligi o'rtacha 480°C haroratda maksimumga yetadi, 300°C haroratda esa nolgacha kamayadi. Ushbu harorat oraliq'ida tasmaning sovitish tezligini o'zgartirib vyustit tushish darajasiga ta'sir ko'rsatish va kuyindi qatlamining tarkibiy tuzilishini boshqarish mumkin.

Kuyindida vyustitni aniqlash uchun issiqlay prokatlash stanidan chiqarilgandan so'ng tasma purkagich qurilmalarda suv bilan sovitiladi. O'rnatilishicha tozalashning qoniqarli sharoitlariga 500...550°C haroratda erishiladi. Tasma sirtidan kuyindini yo'qotish samaradorligi kuyindining parchalanish darjasasi va tozalash aralashmasining faolligiga bog'liq: harorat, tarkib va aralashma konsentratsiyasiga. Sovuq prokatlash sexlarida uglerodli po'latlarni tozalash asosan sulfat kislotasi yoki xlorid kislotasi aralashmalari bilan amalga oshiriladi.

Temir oksidi sulfat kislotasi aralashmasi bilan tozalanganda quyidagi yuzaga reaksiya keladi.





Reaksiya tezligi (7.2) tenglamasidan (7.4) tenglamasi tomonga ortadi. Bundan tashqari ishqor temir bilan ta'sirlashadi.



Xlorid kislotasida kuyindi erish reaksiyasi quyidagi formula bo'yicha boradi.



Reaksiya tezligi (7.6) tenglamadan (7.8) tenglamaga ortadi. Ishqor temir bilan ta'sirlashadi.




Tozalashda temir kimyoviy aralashmasidan tashqari ajradib chiquvchi vodorod qiyin eruvchi oksidlarni parchalaydi va kuyindi qatlami mexanik parchalanadi. Undan tashqari bu jarayon kimyoviy eritishga nisbatan ko'pincha ustunlik qiladi. Metall kuyindisiga ishqorning yaxshiroq kirib borishi uchun tasmaga tushmasdan avval eruvchi aralashma chayqatiladi, buning uchun zamonaviy tozalash liniyalari kuyindi tozalagich kletlar bilan jihozlangan.

Tasma sirtidan kuyindini tozalash samaradorligi yuqori darajada eritma aralashmalarining faolligiga bog'liq. Eritma faolligi deganda odatda eritish tezligi tushuniladi, bu ishqor konsentratsiyasiga shuningdek eritma haroratiga bog'liq. Eng yuqori erish tezligiga 20...25% sulfat kislotasi eritmasida va 15...16% xlorid kislotasi eritmasida aralashmaning 90...95°C haroratida erishiladi. Eritish tezligiga po'latning kimyoviy tarkibi ta'sir ko'rsatadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki tinch po'lat tasmalar qaynovchilarga nisbatan yaxshi eriydi. Yarim tinch po'lat qaynovchiga nisbatan yaxshi eriydi. Bu tinch

va yarim tinch po'lat kuyindi qatlaming juda yumshoqligi sababli yuzaga keladi. Qaynaydigan po'latlarda esa aksincha vyustit qatlamasi asosiy metall bilan yaxshi ta'sirlashadi. po'latda uglerod miqdorining ortishi bilan kuyindi yedirilishi ortadi. Tasma yedirilishida ajraluvchi vodorod bir tomondan kuyindini tozalashga xizmat qiladi, boshqa tomondan esa metallda diffuziyalanib uning plastikligini oshiradi (mustahkamlik chegarasi o'rtacha 20...40 MPa ga ortadi). Metallda vodorodning diffuziyalanish tezligi qizdirish harorati va aralashma konsentratsiyasi ko'payishi bilan ortadi.

Metalnga vodorod kirishini oldini olish, eritishda metall yo'qotilishini bartaraf etish, sulfat kislotasi sarsini qisqartirish va ishchi xodimlar uchun sanitariya gigiyena sharoitlarini yaxshilash, uglerodli po'latlarni issiqlay jo'valangan tasmalarda eritish uchun neftni qayta ishlash chiqindilaridan iborat eritish qo'shimchalari va ko'pik vositalaridan foydalilanadi. Ular metall sirtini ingichka molekulyar pylonka bilan qoplaydi, bu uni sulfat kislotasi ta'siridan himoya qiladi va shu bilan vodorodning ajralishini oldini oladi. qo'shimchalar sulfat kislotasi iste'molini 15-30% ga kamaytiradi metall yo'qotilishini 5% ga kamaytiradi va shu bilan birga erish davomiyligiga ta'sir qilmaydi. So'ngi yillarda tasmani xlorid kislotasi aralashmasi bilan eritish keng qo'llanilmoqda. Bunday eritishning afzalliklariga quydagilar kiradi: eritishdan so'ng sirt sifati yaxshilanadi; eritishda metall yo'qotilishi, kamayadi; eritish narxi arzonlashadi (xlorid kislotasi sulfat kislotasiga nisbatan arzon); kuyindining eritish jadalligi 1,5...2 marotaba ortadi; eritish uskunalari samaradorligi 1,5...2 marotaba ortadi. Uglerodli po'lat tasmani eritishda temir va vodorod xloridi ajraladi. Suv va temir xloridini o'z ichiga olgan xlorid kislota eritmasi doimiy ravishda regeneratsiyadan o'tkaziladi bu yerda temir xloridi temir oksidi va xlorid kislotasiga parchalanadi. Temir oksidi (siqilgan kukun shaklida) po'lat eritish pechlarida ishlatiladi, xlorid kislotasi eritish vannasiga yuklanadi. Issiq prokatlashdan keyin legirlangan po'lat markalari mineral ishqorda qiyin eruvchi zich kuyindiga ega. Legirlangan po'lat markalarini eritish uchun kombinatsiyalangan usullar qo'llaniladi, bunda issiq jo'valangan tasmalar oldindan eritilgan eritmalardan qayta ishlanadi, natijada kuyindi yumshaydi, va keyinchalik oltingugurt, azot va xlorid kislotalar eritmasida eritib oson tozalanadi. qo'shimcha usullar samaradorlikni 1,5...2 martaga oshiriladi. Zamonaviysov uq prokatlash sexlarida eritish uzlusiz

eritish qurilmalarida (UEQ) amalga oshiriladi (7.2-rasm) ular eritish bo'linmalarida o'matiladi. Issiq jo'valangan o'rmlar ombordan kran yordamida konveyer / ga o'matishadi, bunda ular o'chirg'ich 2 ga uza-tildi. O'chirg'ichdan so'ng navbatdag'i o'ram juft pozitsiyali o'ragich 4 ga ega ko'targich stol 3 ga joylanadi. O'ramning oldingi yakuni egiladi va kuyindi tozalagich 5 va cho'zish roliklari 6 ga kelib tushadi. Kuyindi tozalagich kichik diametrali roliklar atrofisidagi tasmalarni ikki marta egish natijasida kuyindi qo'pol ravishda sindiriladi. Buning natijasida kuyindining bir qismi yo'qotiladi, tasmada qolgan kuyindida mayda darzlar hosil bo'ladi, unga eritish aralashmasi osongina kiradi. So'ng tasmalar to'g'rilagich mashina 7 bilan to'g'rilanadi va yakunlarni kesuvchi qaychi 8 ga kelib tushadi. Uzluksiz eritish jarayonini ta'minlash uchun oldingi o'ramning yakuniy orqa tasmasi uchma uch payvandlash mashinasini 9 da keyingi o'ram tasmasining oldingi yakuni bilan payvandlanadi. Payvand choklarini tozalash payvand mashinasini ortida o'matilgan gratechkich 10 pichoqlari bilan amalga oshiriladi. Qiyin payvandlanuvchi po'lat tasmalarni biriktirish uchun biriktirgich mashina 11 o'matiladi.



7.2-rasm. Uzluksiz eritish qurilmasining sxemasi;

1-konveyer, 2-o'chirg'ich, 3-stol, 4-o'ragich, 5-tozalagich, 6-roliklar, 7-to'g'rilagich mashina, 8-qaychi, 9-payvandlash mashinasi, 10-pichoqlar, 11-biriktirgich mashina, 12-ilgakli chuqurlik, 13-tortuvchi rolik, 14-drossellash kleti, 15-cho'zish qurilmasi, 16-qizdirish, 17-eritish vannasi, 18-ilgak, 19,20-qaychi, 21-maydalagich, 22-moylash qurilmasi, 23-qaychi, 24-o'ragich, 25-o'ramli konveyer.

Avvalgi o'ramming oxirgi yakunini kesish va keyingi o'ram oldindi yakunni payvandlashda tasmalarni biroz muddatga to'xtatish zarur. Tasmalarni eritish vannasida to'xtatmaslik uchun ulardan avval ilgakli chuqurlik 12 tayyorlanadi, unda ushbu vannanining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi tasmalar zaruriy zaxirasi vujudga keltiriladi.

Undan so'ng tasmalar $1\dots1,2$ MPa bosim ostidagi issiq suv oqimi bilan yuviladi va tortuvchi rolik 13 bilan drossellash kleti 14 va cho'zish qurilmasi 15 ga uzatiladi. Drossellash kletida siqishda kuyindining qo'shimcha parchalanishi $3\dots8\%$ amalga oshiriladi bundan tashqari tasma shakli va o'lchamlar aniqligi ortadi. Eritish vannasi 17 ga kelib tushishidan avval tasmalar induksion qurilma 16 da qizdiriladi. Odatda eritish qurilmalari tarkibiga $3\dots4$ eritish vannalari kiradi.

Agar sarf qilingan kislota eritmasini o'zgartirish zarur bo'lsa qurilmani to'xtatmaslik uchun uni yangilashning kaskad usuli qo'llaniladi. Bunday holatda to'rt bo'limdan iborat yagona eritish vannasi o'matiladi. Ishqorning yangi aralashmasi (tasma harakati bo'yab) oxirgi bo'limga tushadi. Bu bo'limdan past konsentratsiyasi aralashma cheklagich orqali uchinchi vannaga so'ng ikkinchi va birinchi bo'limga kiradi. Birinchi bo'limdan qayta ishlangan eritma uzluksiz regeneratsiya uchun qurilmaga quyiladi. Yangi aralashmani yetkazib berish qurilma samaradorligiga bog'liq ravishda avtomatik boshqariladi. to'rtinchisi eritish vannasida tasma issiq suvli vanna va sovuq suvli vannaga yuvish uchun yuklanadi, bu yerda $1-1,2$ MPa bosim ostida suv oqimi bilan tasmadan ishqor aralashmasi va kuyindi qoldiqlari yuviladi. Yuvishdan so'ng tasma quritish moslamasidan o'tadi u yerda issiq havo bilan quritiladi va ilgakli chuqur 18 ga uzatiladi. Yakuniy tasmadan tasma kesmasida biriktirilgan yerlarni kesish uchun gilotin qaychi 19 ga roliklarda uzatiladi. Tasmaning yon qirralari diskli qaychi 20 bilan kesiladi va qirra-maydalagich 21 bilan mayda bo'laklarga bo'linadi. Moylash qurilmasi 22 bilan tasmaga sovuqlay prokatlash stanidan avval omborga saqlanganda metallning zanglashini bartaraf etish uchun tasmaga ingichka moy qatlami surtiladi. O'ragich 24 da tasmalar, zaruriy og'irlikdagi o'ramga o'raladi (15 t va undan yuqori), so'ng qaychi 23 bilan kesiladi. o'ram konveyer 25 da to'qnashadi va sovuqlay prokatlash stani omboriga kelib tushadi.

Eritish vannasi orqali tasmaning uzluksiz harakatlanish tezligi $3\dots5$ m/s, uzluksiz eritish qurilmasiga kirishda 12 m/s gacha, UEQ dan chiqishda 7 m/s gacha.


Eritish bo'linmalari foydalanilgan eritish aralashmalarini kanalizatsiya tizimiga chiqarishdan avval ularni yo'qotish uchun qurilmalar bilan jihozlangan. Eritish asosiy nuqsonlarga quyidagilar kiradi: eritma yuqori konsentratsiyasi va haroratida, eritish tezligining kamligida to'q kul rangdagi notekis yuzali listlarni sillqlash; eritish aralashmasining past harorati yoki past konsentratsiyasi, eritishga katta tezligida sirt yuzasida hosil bo'luvchi kuyindilarni list yuzasida yuzaga kelishi; vodorodni metallga kirishi natijasida yuzaga kelgan vodorod mo'rtlik va eritish pufakchalari metallning plastik xossalarni pasaytiradi va tasmaning ayrim qismlarida shishishga olib keladi; eritishdan keyin tasma qoniqarsiz yuvilganda hosil bo'luvchi eritish dog'lari.

Kuyindini kislotali tozalash usullarining kamchiliklari: uzluksiz eritish qurilmalarining kattaligi va murakkabligi; reaktivlarning yuqori sarfi va temirning ko'p yo'qotilishi; ishqor aralashmalarining bug'-lanishi tufayli sanitariya gigiyena sharoitlarining yomonligi; foydalanilgan aralashmani qayta tiklash jarayoni murakkabligi. Qisman yuqorida aytib o'tilgan eritish kamchiliklari hali sanoatda keng qo'llanilmaydigan mexanik (xususan pitralash) usuli yordamida bartaraf etiladi. Pitralar yog'dirish usuli mohiyati shundan iboratki bunda tasma sirtiga 60 m/s tezlikda pitra uzatiladi. Tasmaga urilgan pitra (diametri 0,3-3,0 mm oqlangan cho'yan yoki mustahkamlik chegarasi 2000 MPa gacha bo'lgan po'latlar) parchalanadi va kuyindini yo'qotadi.

Tasmalarni pitr bilan qayta ishslash po'latning mahalliy mustabkamlanishiga olib keladi, bu esa mustahkamlik chegarasini 20...40 MPa ga oshiradi, natijasida po'latning plastik xossalari pasa-yadi. Pitralashdan keyin metall changini tozalash uchun ayrim qurilmalarda tasma sulfati yoki azot kislotali eritmada eritiladi. Asosiy kamchiligi past samaradorlik bo'lgan pitralash qurilmasi bir qator ijobjiy sifatlarga qurilmaning sodda tuzilishi va tannarxining arzonligi, sof temir chiqindisining ozligi va mehnat sharoitlarining yaxshiligiga ega.

7.4. Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz standarda (SPUS)prokatalash texnologiyasi

Hozirgi vaqtida sovuq jo'valangan po'latlarning o'rtacha 90% sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda olinadi. Zamonaviy sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar ishlab chiqariluvchi mahsulot turi va ishchi guruh klet soniga ko'ra tasniflanadi. Oltikletli sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar qalinligi 0,09...0,15 mm va list qalinligi 0,85 mm gacha bo'lgan tunukalarni prokatlash uchun xizmat qiladi, jo'va bochkasi uzunligi 1350 mm gacha, proktlash tezligi - 33 m/s gacha, ishchi va asos jo'valarining diametri 600 va 1420 mm, to'shamma sifatida qalinligi 1,8...3,0 mm (o'ram og'irligi 38 t gacha) bo'lgan issiq jo'valangan tasmalar qo'llaniladi. Olti-kletli standa umumiy siqish yig'indisi 95% ga yetadi. Besh-kletli sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar qalinligi 0,18 mm va undan yuqori tunukalarni ishlab chiqarishda asosiy hisoblanadi, bunday stanlarda jo'va bochkasining uzunligi 1200...1400 mm ni tashkil etadi. Bundan tashqari beshkletli stanlarda qalinligi 1,8 mm gacha, jo'va bochka uzunligi 2200 mm gacha bo'lgan listlar prokatlanadi. Beshkletli stan prokatlash tezligi 30 m/s tashkil qiladi, ishchi va tirkak jo'valar diametri 580 va 1520 mm. To'shamma sifatida qalinligi 2...4,5 mm, o'ram og'irligi 45 t bo'lgan issiq jo'valangan tasmalar qo'llaniladi. Beshkletli standa umumiy siqish 90% ga yetadi.



7.3-rasm. Sovuqlay prokatlovchi to'rt kletti uzlusiz stan 1700 sxemasi:

1-kran, 2-zanjirli transportir, 3-jo'valagich, 4-cho'zish ro'ligi, 5-
ishchi klet jo'vasi, 6-o'ragich barabani, 7-tutqich, 8-zanjirli transporter

To'rtkletli sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar qalinligi 0,4...2,0 mm ni sovuq jo'valangan listli prokatlash uchun mo'ljallangan jo'va bochkasi uzunligi 2500 mm, prokatlash tezligi - 25 m/s gacha ishchi va tirkak jo'valar diametri 530 va 1420 mm ni tashkil etadi. To'shamma sifatida qalinligi 2...4,5 mm, o'ram og'irligi 25 t bo'lgan

issiq jo‘valangan tasma ishlataladi. To‘rtkletli stanlarda umumiy siqish 80% ga yetadi.

Uch va ikkikletli sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar qalinligi 1...2 mm list va tunukalarni ikkilamchi prokatlash uchun mo‘ljallangan, bu stanlarda jo‘va bochkalar uzunligi 1320 mm, ishchi va tirkak jo‘valar diametri 585 va 1420 mm, prokatlash tezligi - 30 m/s gacha. To‘sama sifatida qalinligi 1,2...4,0 mm o‘ram og‘irligi 25 t gacha bo‘lgan issiq jo‘valangan tasma qo‘llaniladi. Bu stanlarning siqish yig‘indisi 50% ga yetadi.

(7.3-rasm) da to‘rt kletli sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar sxemasi ko‘rsatilgan, 7,1-7,2 jadvalda uning qisqacha texnik tavsifi keltirilgan.

Yedirilgan o‘ramlar 1 kran yordamida zanjirli transportir 2 ga o‘rnatiladi va jo‘valagich 3 ga o‘tkaziladi. Tasma yakuni bukiladi va tekislagich mashinasi 4 cho‘zish roliklariga beriladi. So‘ng cho‘zish roliklari bilan tasma ishchi klet jo‘vasi 5 (to‘ldirish tezligi bilan)ga o‘rnatiladi.

Tasma 4-chi klet ishchi jo‘vasidan o‘tib, tutqich 7 yordamida o‘ragich barabani 6 da o‘raladi. O‘rashdan so‘ng 3...4 o‘ramlar tutqichi 7 o‘ragich barabanidan siljiydi, kletlar o‘rtasida cho‘zish yuzaga keladi, o‘ragich, tekislagich va stan ishchi tezlikkacha jadallashtiriladi.

7.1-jadval. 1700 stanning texnik tavsifi

Tasma o‘lchami mm		O‘ram diametri, mm		O‘ram og‘irligi, t (gacha)	Prokatlash tezligi, m/s (gacha)
<i>h</i>	<i>B</i>	tashqi (gacha)	ichki (gacha)		
1,8 ... 5,0 *	600...1500	2200	600	30	25
0,4 ... 2,0					

O‘ram prokatlangandan so‘ng, o‘ragich boshchasida ikki-uch o‘ram tasma qolganda, stan tezligi to‘ldirishgacha sekinlashadi, undan so‘ng tasma yakuni ishchi klet orqali o‘tkaziladi. O‘ragich barabanida tasma oxiri siqish rolik bilan belgilanadi va o‘ramlar termik ishslash bo‘limiga o‘tkazuvchi zanjirli transportir 8 ga o‘matiladi. Bu holatda sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar uchun eritilgan o‘ram o‘zaro payvandlangan bir nechta issiq jo‘valangan tasinadan tashkil topgan (masalan sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar 1700 da o‘ram

uchta issiq jo‘valangan tasmadan tashkil topgan) payvand choklari ni prokatlash past tezlikda amalga oshiriladi. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda prokatlashda tasma uzunligi va qalinligi bo‘ylab talab etilgan o‘lchamlarni tasma shakli va geometrik o‘lchamlarning zaruriy aniqligini va berilgan mexanik xossalarini olish ta’mintanadi. Zaruriy tasma o‘lchamlarini olish sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarning har bir kletida hisoblangan rejimiga ko‘ra bitta bo‘shtishda amalga oshiriladi va bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda prokatlash jarayoni o‘zgaruvchan tezlikda amalga oshiriladi. (7.4-rasm) da uchta issiq jo‘valangan tasmadan tashkil topgan bitta o‘ramni prokatlashda tezlikning o‘zgarish diagrammasi ko‘rsatilgan.

7.2-jadval. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar 1700 asosiy yuritma dvigatellarining tavsifi


Yuritmalar	Dvigatel turi	Quvvati, kBt
1-klet	P2400/140	2 X 2400
2- klet	2P2400/235	4 X 2400
3- klet	2P2400/300	4 X 2400
4- klet	2P2400/385	4 X 2400
O‘ragich	3P1000/310	3 X 1000

To‘ldirish tezligi, m/s	Jo‘va diametri, mm		Bochka uzunligi, mm	Prokatlashti maksimal kuchi MH
	ishchi (mak/min)	tirkakli (mak/min)		
0,75	500/470	1400/1370	1700	20

Birinchi kletga tasma to‘ldirilgandan so‘ng τ_1 vaqt oralig‘ida doimiy to‘ldirish tezligi tasmaning oldingi yakuni barcha kletdan o‘tish va tasma o‘ragichida 2...3 o‘ram hosil bo‘lgunicha amalga oshiriladi. So‘ng tezlik τ_2 vaqt davomida ishchiga oshiriladi, τ_3 vaqt tufayli o‘ram doimiy ishchi tezlikda prokatlanadi. Payvand chokidan avval prokat tezligi τ_4 vaqt oralig‘ida payvand chokini prokatlash tezligigacha sekinlashtiriladi va τ_5 vaqtda o‘zgarmaydi. Undan keyin τ_6 vaqt orasida stan ishchi tezlikkacha tezlashtiriladi va qolgani (7.4-rasm) dagi kabi qaytariladi. Orqa yakunga yaqinlashganda τ_7 vaqt oralig‘ida stan

sekinlashadi, bunda prokatlash tezligi ishchidan to to‘ldiruvchigacha qisqaradi, undan so‘ng orqa yakun τ_8 vaqt davomida doimiy to‘ldirish tezligida prokatlanadi. τ_9 vaqt davomida to‘xtalishlardan so‘ng (birinchi klet o‘ramini yakuniy prokatlashdan birinchi klet boshqa tasma yakuniy momentgacha) ko‘rib chiqilgan diagrammaga ko‘ra navbatdagi o‘ramni prokatlash boshlanadi.

Bunday holatda tasmani sezilarli qismi o‘zgaruvchan tezlikda prokatlanadi bu esa prokatlash jarayoni ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi tasma qalinligi ishqalanish koefitsiyenti, prokatlash kuchi, siqish, cho‘zish va boshqalar.



7.4-rasm. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stan 1700 prokatlash tezligi diagrammasi.

Sekinlashtirilgan tezlikda payvand choclarini prokatlash qalilikning o‘zgarishi va choc mexanik xossalalarining beqarorligi bilan ta’riflanadi. Agar jo‘valar orasida payvand choclarining payvandlash tezligi kamaytirilsa, bu kuchli zarbalarga olib keladi va tasmaning sinishi yuzaga kelishi mumkin. Payvand chocini o’tkazish vaqtida prokatlash kuchi to‘satdan ortadi, kletning yuqori elastiklik deformatsiyasi hosil bo‘ladi va qolgan tasmalarga nisbatan choc kamroq siqiladi. Jo‘vadan choc chiqqandan so‘ng prokatlash kuchi birdaniga kamayadi, bu kletning elastik deformatsiyasi o‘zgarishi va tasma bo‘ylab jo‘vaning urilishiga olib keladi. Bundan tashqari stan jo‘valarining aylanish tezligini sekinlashtirganda va oshirganda tezlik effekti bilan bog‘liq burilishlar tasma qaliligi o‘lchamlarining bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlarda o‘zgarishlarga olib keladi.

Payvand chokidan o'tishda prokatlash tezligini pasaytirmaslik uchun chokda metallning mexanik xossalari bir xilligini va to'shamaning minimal turli qalinligini ta'minlash zarur. Tasma materiali va choc materiali oquvchanlik chegarasini tenglashtirib kuyindini minus yechish hisobiga choc bo'ylab siqilishni kamaytirishga erishish mumkin. Bunda choc qalinligi egri tekislikda o'zgaradi, bu deformatsiya o'chog'ini urishlarsiz to'lishini ta'minlaydi, prokatlash jarayonida qo'shimcha o'zgarishlarni kamaytiradi va chocni ishchi tezlikda prokatlash imkonи tug'iladi.

Bundan tashqari ishchi tezlikda payvand choclarini prokatlashni payvand chocini egri joylashgan holatida ham amalga oshirsa bo'ladi. Stan jo'valarining tezlashishi va sekinlashuvi paytida beqaror prokatlash vaqtini kamaytirish uchun jadal tezlanish va sekinlashishni ta'minlovchi dvigatellar qo'llaniladi.

Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlarda tasmani ko'p marta siqish jarayoni uning sezilarli darajada qizib ketishiga va o'ramni, tasmani majburiy sovitish zarurligiga olib keladi. Odatda sovitish muhiti sifatida texnologik moy xizmat qiladi. Sovuq prokatlashda moylash jo'vea va prokatlanuvchi tasma orasida ishqalanish koeffitsiyentini 0,02...0,06 gacha pasaytiradi, bu esa deformatsion qarshilik va prokatlash kuchini kamaytiradi, jo'vaning egilishini va klet elastik deformatsiyasini pasaytiradi. Shunday qilib jo'valar bir xil o'rnatilganda moylab prokatlash yuqori siqishni ta'minlaydi. Sovuq prokatlashda moylash energiya sarfini pasaytiradi, jo'valar yeyilishini qisqartiradi va listli po'lat sarfini oshiradi.

Moy prokatlanuvchi tasma va jo'valar orasida ajratuvchi sirpanma qatlama hosil qiladi: sirt silliqligi qanchalik mustahkam bo'linsa moylash samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Moylashning samaradorligi kuchli moyli plynokalar hosil bo'lishi bilan sirpanish sirtida adsorbsiyalanadigan sirt faol moddalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Moy jo'vega yaxshi birikishi, prokatlanuvchi tasma va jo'vea orasida bir tekis plynokani ta'minlanishi va prokatlash vaqtida eziłmasligi kerak. Bundan tashqari moy prokatlashdan so'ng listli po'lat sirtidan oson tozalanishi kerak. Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlar amaliy ishlaridan va ko'pgina tajribalardan ma'lumki moyli sovitish suyuqligi kabi yaxshi natijalarni mineral moy asosidagi emulsiyalar beradi. Uglerodli po'lat markalarini sovuq prokatlashda jo'valarni moylash va sovitish uchun turli markadagi emulsola-

dan tayyorlangan emulsiyalar: E-2B, T, OM va boshqalar ishlataladi. Bunday emulsiya quyidagi tarkibga ega; 5...7 % emulsola, 3% kaltsiyli soda va 91...95 % qizdirilgan suv. Emulsola tarkibi quyidagicha: E-2 (B)-natriyli sovun eritmasi neft ishqori 7...10 %, mineral moy va-20A 75...80 %; T-mineral moy va-20A 85 % olein ishqorli trietanolamin tuzi 12 %; OM-mineral moy va-20A 81 %, SJK C₁₀...C₂₀ 10 %; trietanolamin 4 %, stearoks-6,5 %. Yuqori mustahkamlik chegarasidagi korroziyabardosh va yuqorilegirlangan po'lat markalarini prokatlash uchun yuqori qovushqoqlikdagi mineral moylarni, moy asosdagi yog'larni sof shaklda yoki suv-moy dispers shaklda ishlatalish tavsiya etiladi. Moylarning samaradorligi nafaqat ularning tarkibini to'g'ri tanlashga balki jo'va va tasmaga uzatish usuliga ham bog'liq. Emulsiya prokatlanuvchi metall tasmasi va jo'vaning aloqa yerlariga ishchi kletning ikki tomonidan uzatiladi. Barcha sovuqlay prokatlovchi uzlucksiz stanlar qurilmalari jo'valarni prokatlash va sovitish vaqtida tasmani texnologik moylash uchun o'ta murakkab va katta hajmli tizimlar bilan jihozlangan. Bu tizimlar yopiq siklda ishlaydi, foydalanilgandan so'ng emulsiya qoldig'i undan qayta foydalanish maqsadida yig'maga yo'naltiriladi. Zaruriy tarkibdagи emulsiyanı tayyorlash va ularni ishchi klet jo'valariga uzatish uchun maxsus qurilma mavjud. Stanga emulsiya nasos bilan uzatiladi. Emulsiya chiqindilardan tozalash uchun filtrlar va magnit separatorlar mavjud. Emulsiyanı sovitish uchun qurilma sovitkich bilan jihozlangan.

Normal sovuq prokatlash jarayonining zaruriy sharoitlariga sekundda klet orqali o'tuvchi metallning doimiy hajmi hisoblanadi, quyidagi formula bilan tavsiflanadi.

$$v_1 h_1 = v_2 h_2 = v_3 h_3 = v_4 h_4, \quad (7.10)$$

bunda v_1, v_2, v_3, v_4 - jo'vadan chiquvchi metall tezligi; h_1, h_2, h_3, h_4 - kletdan chiquvchi tasma qalinligi.

Hagarilanmani hisobga olib

$$v_{a_1}(1 + s_1)h_1 = v_{a_2}(1 + s_2)h_2 = v_{a_3}(1 + s_3)h_3 = v_{a_4}(1 + s_4)h_4 \quad (7.11)$$

bunda $v_{B_1}, v_{B_2}, v_{B_3}, v_{B_4}$ - klet bo'ylab jo'valar chiziqli tezligi; s_1, s_2, s_3, s_4 - klet bo'ylab ilgarilanma.

Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda sovuq prokatlash sezilarli cho'zish bilan amalga oshiriladi, prokatlash kuchini kamaytiradi, prokatlash jarayonini mo'tadillashtiradi va tasma qalinligicha boshqaruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Prokatlash kuchiga va jo'vaning elastik deformatsiyasiga ta'sir qiluvchi cho'zish shakliga nisbatan boshqaruvchi ko'rsatkich bo'lishi mumkin: umumiyo cho'zishning ortishi shakl hosil bo'lishiga ta'sir qilishi va bukilishlar yuzaga kelishi mumkin, cho'zishning kamayishi esa qirralar bo'ylab to'lqinlar hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Kletlararo cho'zish darajasi kritik kuchlanishlarni oshirmsandan tanlanadi. Kletlararo nisbiy cho'zish ($0,3 \dots 0,6$) σ_t tashkil etadi. Odatda birinchi klet tasmasiga faqatgina yakuniy cho'zish ta'sir qiladi, oxirgi va oraliq kletlarga oldingi va orqa cho'zish ta'sir ko'rsatadi. Kletlararo cho'zish kelishilgan tezlik hisobiga yuzaga keladi, oxirgi kletda oldingi cho'zish o'ragichda yuzaga keladi.

Sovuq prokatlashning alohida afzalligiga puxtalashning mavjudligi kiradi, natijada oquvchanlik chegarasi, mustahkamlik chegarasi tezda ortadi va nisbiy cho'zilish kamayadi. Masalan X18H10T po'lati uchun oquvchanlik chegarasi 320 MPa ga teng, 50 % siqb prokatlashdan so'ng u 1150 MPa gacha ortadi. Eksperimental tajribalar ko'rsatishiga nisbiy siqish va oquvchanlik chegarasi orasida bog'liqlik mavjud va turli po'lat markalarining oquvchanlik chegarasini aniqlash uchun approksimer funksiyani beradi. Bu ko'rsatkichlar ko'rsatishiga oquvchanlik chegarasi birinchi kletda jadal ortadi, oxirgi kletlarada jadal o'sish sezilarli pasayadi.

Metall sovuq plastik deformatsiyalanishida sezilarli issiqlik ajralishi bilan boradi shuning uchun tasma harorati $150-250^{\circ}\text{C}$ ga yetadi. Ko'p sonli tajribalar tahlili oquvchanlik chegarasi kattaligiga metall haroratining ta'sirini hisoblash zarurligini ko'rsatadi.

Harorat ta'siri hisobi harorat koefitsiyenti hisobi yordamida amalga oshiriladi.

$$\sigma_t^t = \sigma_t n_t \quad (7.12)$$

bunda σ_t^t - harorat hisobiga ko'ra haqiqiy oquvchanlik chegarasi; n_t - harorat koefitsiyenti.

Harorat koeffitsiyenti formula bo'yicha aniqlanadi

$$n_t = 1 - \frac{n_x \sqrt{t}}{100} \quad (7.13)$$

bunda t - metallni qizish harorati, °C; n_x - po'lat kimyoviy tarkibiga bog'liq empirik koeffitsiyenti (7.3 - jadval).

7.3 - jadval. n_x koeffitsiyent ko'rsatkichlari

Po'lat markasi	(7.13) tenglamasida qo'llaniluvchi harorat oraliqi, °C	n_x
08 KP	50...250	0,95
3	50...300	0,90
1X18H10T	50...500	1,05


Oquvchanlik chegarasining haroratga ta'sir hisobi murakkabligi deformatsiya o'chog'ida metall harorati ma'lumotlari zarurligi bilan ta'riflanadi, ko'p hollarda buni aniqlash juda qiyin.

Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda prokatlash yuqori deformatsiya tezligi (1 dan 10^3 gacha) xarakterlanadi, oquvchanlik chegarasiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu ta'sir sezilarsiz va uni odatda oshirib yuborishadi.

Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlarda list shakli va zaruriy geometrik o'lcham aniqligini olish zarur masala hisoblanadi, chunki aniqlik ortishi bilan metall iqtisod qilinadi va agregatlar ishi barqarorlashadi, sovuq jo'valangan tasmalar zagotovka sifatida qo'llaniladi.

Sovuq jo'valangan listli po'latlarning asosiy aniqlik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Bo'ylama turli qalinlik (6.5) tenglamasiga binoan asosiy texnologik parametrlar o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Sovuq prokatlashda uzlusiz stan to'shma turli qalinligi bartaraf etilmaydi, faqatgina tenglashtiriladi. (7.5 - rasm) da tajribalar asosida olingan 1700 stani uchun tenglashtirish koeffitsiyentining tajriba ko'rsatkichlari keltirilgan. Stanning alohida kletlarida tenglashtirish koeffitsiyenti yuqori chegaralarda o'zgaradi (0,65 dan 1,4 gacha) siqishning oshishi dastlabki uchta ustun uchun k_v ning pasayish tendensiyasi aniq ko'rindi.




7.5-rasm. Uzluksiz to'rt kletli sovuq prokatlovchi 1700 stani uchun tenglashtirish koeffitsiyenti k_B tajriba ko'rsatkichlari.

Qatlam qalinligi o'zgaruvchanligi ta'sirini qatlam o'zgarishi, jo'valar tekislanishi va cho'zilishidagi o'zgarishlarga ko'ra hisobga olish kerak. Dastlabki qalinlik farqiga ko'ra mexanik xossalarda siqishning o'zgarishi M_p va ga ayniqsa, yuqori siqilishli qoplamasiz tasmalarni prokatlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tasmaning dastlabki siqilishi ortishi va bo'shatishda siqishning kamayishi bilan bu ta'sir kamayadi. Qoplashning ortishi bilan M_p ortadi, tekislash koeffitsiyenti kamayadi.

Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlarda qatlam turli qalinligi kletlararo cho'zilishni o'zgarishi va jarayon turg'unligning buzilishini keltirib chiqaradi bu esa tekislash koeffitsiyentiga ta'sir ko'rsatadi. Nisbiy cho'zishning o'zgarishi prokatlash kuchining qo'shimcha o'zgarishlarini keltirib chiqaradi, bu va ko'rsatkichlari hisoblanadi va o'z o'mida k_B aniqlovchisi sanaladi. Bundan tashqari M_n ham o'zgaradi.

Tasmani cho'zish tasma qalinligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; cho'zish ortishi bilan tasma qalinligi kamayadi. Tasmaning orqa cho'zilishi stanni tekislash qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir M_p tasma qattiqligiga va α_k koeffitsiyentiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Umumiy holatda tekislash koeffitsiyenti cho'zishning ortishi bilan kamayadi bunda bir muncha ingichka tasmalar uchun jadal kamayish ancha yuqori bo'ladi. Bu (7.6-rasm) da hisoblash yo'li bilan olingan egrilik bilan tasdiqlangan.

Stanni tekislashning umumiy koeffitsiyenti pasayishi () asosan o'rta kletlar uchun α_k koeffitsiyentining oshishi bilan yuzaga keladi chunki birinchi kletdan oldin va yakuniy kletdan keyin tasmaning cho'zilishi doim kletlararo cho'zilishdan kam. Shunday qilib sovuq jo'valangan tasmadan bo'ylama qalinlikni qisqartirish uchun ayniqsa, ingichka tasmalarni prokatlashda uncha katta bo'lmagan cho'zishli prokatlashni amalgalash zarur. Barqaror prokatlash jarayonida uzunlik bo'ylab tasma o'lchamlari yuqori aniqligini ta'minlash uchun $G = (0,2 \dots 0,4) G_T$ chegarasida cho'zishni saqlash maqsadga muvofiq.



7.6.- rasm. Kletlararo cho'zish darajasining tekislash koeffitsiyenti :
1- $1,5 \times 1020$ mm, po'lat 0,8kp tasma; 2- $0,5 \times 1020$ mm, po'lat 08kp tasma

Tasma uzunligi bo'ylab taxlam mexanik xossalari bir tekis taqsimlanmagan. Mexanik xossalari xilma-xilligi bilan bir qatorda issiq jo'valangan o'ram silyablarga kimyoviy tarkib xilma-xilligiga ko'ra tasma o'rtasi va yakunini sovitishga turli rejimlarida qo'shimcha xilma-xillik yuzaga keladi. Tasma yakuni tez soviydi natijada o'ram boshi va oxirida metallning mustahkamlik chegarasi o'rtacha nisbatdan 10...18% yuqori.

Jo'valar urilishi bo'ylama qalinlikka ko'ra ta'sir ko'rsatadi. Sovuqlay prokatlovchi uzlucksiz stanlarda tayyor tasma uchun nisbiy bo'ylama qalinlik quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\frac{\delta h_p}{h_p} = \frac{\delta s_i^e}{\left(1 + \frac{M_{pi}}{M_k}\right) h_i k_{v_{(i+1)...n}}}, \quad (7.14)$$

bu yerda $k_{v_{(i+1)...n}}$ - klet guruhibda ($i+1$) dan yakuniy kletgacha tekislash koefitsiyenti.

(7.14) tenglamasi tahlili ko'rsatishiga, stan birinchi klet jo'valarinining urilishiga ko'ra bo'ylama qalinlik tasma mustahkamligi kamayishi natijasida ortadi. Biroq navbatdagi kletlarda qalinlik farqi o'zgaradi, shuning uchun standan chiquvchi alohida kletlarning jo'valarga urilishi tufayli qalinlikdagi farq nisbati tekislash koefitsiyentiga ko'ra farq qilishi mumkin.

Bundan tashqari bo'ylama qalinlikka jo'va urilishi natijasida tasma cho'zilishining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Siqish o'zgarishini hisobga olgan xolda jo'va urilishida tasma bo'ylama qalinlik quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\delta h_i = \frac{\delta s_i^e}{\varphi_i k_{s_i}} \quad (7.15)$$

Bu yerda ψ_i - bo'ylama qalinlikda cho'zish tebranishi ta'sirini hisobga olish koefitsiyenti k_{s_i} - i - chi kletga uzatish koefitsiyenti.

Faza bo'ylab tasmani cho'zish va qalinlikning o'zgarishi jo'valar urilishi tufayli jo'valar orasidagi bo'shlinqning o'zgarishi bilan mos keladi. Jo'valarni o'zgartirishda uzatma koefitsiyent qalinlik o'zgarishi tomon $\psi_i > 1$ bo'lib ortadi. Cho'zish ta'siri kletlar aro yuqori cho'zish bilan ishlovchi kletlarning uzatma koefitsiyentlariga ko'proq ta'sir qiladi.

Klet bo'ylab jo'valarning bir xil urilishida tasmaning nisbiy bo'ylama qalinlik kichik qalinlikdagi tasmalar uchun tasma qattiqligining kattaligiga qoramoy yuqori bo'ladi. Tasma qalinligi kamayishi bilan jo'va urilishi tufayli bo'ylama qalinlik nisbati yakuniy kletdan birinchisi tomonga ortadi. Shunday qilib qalinligi 0,5 mm bo'lgan tasmalar uchun birinchi kletdag'i jo'valar urilishi turli qalinlikka ustunlik qiladi (boshqa kletlarga nisbatan 2...3 marta yuqori).

Shu sababli stan kletlari bo'ylab jo'valarni to'g'ri sozlash jo'va ekstsentrifikligiga qarab jo'va urilishi tufayli, bo'ylama qalinlikni kamaytirish mumkin. Bu holda jo'valarni to'ldirish kerak ular uchun

jo‘vaning urish ta’siri sezilarli darajadagi ingichka tasmalarni prokatlashga qaratilgan.

Klet va tasma qattiqligi tekislash koeffitsiyentiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Sovuq prokatlashda $M_p/M_k = 2\dots 20$ nisbatni tashkil qiladi va ishchi klet qattiqligini oshirish samaradorligi stan turiga ya’ni tasmaning qattiqlik kattaligiga bog‘liq. Shunday qilib sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlar 1700 kletining qattiqligi 1,5 barobarga ortganda to‘samaning nisbiy qalinligi 1,3\dots 1,74 marta kamayadi. Bunda birinchi kletning qattiqligini oshirish samaradorligi yakuniga nisbatan 2\dots 5 marotaba yuqori. Bu tasma qalinligi kamayishi va uning qattiqligi oshishi bilan izohlanadi, chunki metallni qoplash ortadi. Bundan tashqari, klet qattiqligi ortishi bilan jo‘va urilishi natijasida tasma qalinligi xam ortadi, uzatma koeffitsiyenti bunda kamayadi. Uzluksiz standa prokatlashda, keyin kletlarda, tasmani tekislashni hisobga olib -kletda jo‘valar urilishi tufayli //kletdan keying nisbiy bo‘ylama qalinlik va kletlar orasidagi cho‘zishning o‘zgarishi quyidagicha bo‘ladi.

$$\left(\frac{\delta h_p^e}{h_p}\right)_t = \frac{\delta s_i^e}{\varphi_i k_{s_i} h_i} \frac{1}{\prod_{j=i+1}^n k_{s_j}} \quad (7.16)$$

(7.16) tenglama tahlili shuni ko‘rsatadiki, klet qattiqligi ortganda ψ_i va k_i koeffitsiyentlari kamayadi, navbatdagi klet tekislash ta’siri ortadi. Shuning uchun alohida stan kletlarida bo‘ylama qalinlikka ta’sir qayta taqsimlanadi - oxirgi kletlarda jo‘vaning urilish natijasida bo‘ylama qalinlik ulishi ortadi va stan birinchi kletlarida jo‘valar urilishi tufayli qalinlikning ortishida qattiqlik kamayishi mumkin.

Tasmaning boshlang‘ich bo‘ylama qalinlik δh_0 , jo‘valar urilishi δs_i^e va bo‘ylama qalinlikdan chiqish δh_1 birgalikda ta’siri va (7.15) tenglamalarining qo‘shma yechimida aniqlanadi.

$$\delta h_1 = \delta h_0 = \frac{\alpha_{k+\frac{\delta s_i^e}{\varphi_i \delta h_0} \cdot \frac{M_k}{M_p}}}{1 + M_k/M_p} \quad (7.17)$$

Qatlam qalinligi o‘zgarishini alohida kletda qatlam qalinligi hisobga olib samaradorlik ko‘rsatkichi jo‘valar urilishi va cho‘zishning qisqarishini tenglamada η koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

$$\eta' = \frac{\delta h_1}{\alpha_k \delta h_0} = \frac{1+c M_k/M_p}{1+M_k/M_p} \quad (7.18)$$


bunda $c = \frac{\delta s^e}{\alpha_k \varphi_i \delta h_0}$ – klet qattiqligini o'zgartirishni tavsiflovchi parametr.

M_k ning ortishi bilan yoki M_k/M_p nisbatida η' koefitsiyenti ortadi yoki kamayadi bundan kelib chiqib c kattaligiga bog'liq holatda δs^e yoki δh_0 kattaligidan biri daminart bo'ladi. Har bir stan c kattaligi klet qattiqligini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligini aniqlaydi. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar uchun klet qattiqligining ortishi qachonki $c < 1$ bo'lganda ahamiyatga ega. Qolgan holatlarda tasmlar qalinligining tarqalish maydonini oshirmsaslik uchun klet qattiqligini kamaytirish zarur.

Siqish rejimi $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ nisbatida tekislash koefitsiyentiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa siqish ortishi bilan juft va toqlik tezda kamayishi yordamida aniqlanadi. (7.7 - rasm) da nisbiy siqishda $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ nisbat bog'liqligi keltirilgan. Nisbiy siqish ortganda $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ kattaligida $f\sqrt{R/h_0} = 0,5 \dots 1$ kamayadi.

$f\sqrt{R/h_0} = 1,5 \dots 3,0$ uchun nisbiy siqish $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ nisbatiga ikki karra ta'sir ko'rsatadi ya'ni ma'lum siqishdan boshlab $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ koefitsiyenti siqishning o'sishi bilan ortadi. Cho'zish koefitsiyenti ortishi bilan $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ kamayadi va jadallik kamayishi bilan siqish ortadi.

Prokatlanuvchi tasma qalinligi kamayishi bilan, uni qoplash ortishi bundan tashqari jo'va radiusini tekislash ortganda $f\sqrt{R/h_0}$ kattaligi ortadi. Tajribalarga ko'ra sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlar 1700 uchun tasma qalinligida $f\sqrt{R/h_0} = 0,6 \dots 2,5$ kattaligi $0,5 \dots 2,0$ mm ga teng.



7.7 - rasm. 08_{кп} po'latni uzuksiz prokatlash stanida sovuq prokatlashda ε dan $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ nisbatiga bog'liqligi:

$$\sigma_{st} = 0,26\sigma_t \text{ (tekis chiziq); } \sigma_{st} = 0,46\sigma_t \text{ (uzuk chiziq)}$$

7.4 - jadval. Turli siqish rejimlarida k_s to'g'rilash koefitsiyenti

Klet raqami	I variant		II variant	
	$\varepsilon, \%$	k_s	$\varepsilon, \%$	k_s
1	35	1,01	15	1,09
2	38,5	0,96	35	0,99
3	30	0,93	35	0,98
4	10	0,99	30	0,99
Stan bo'ylab	75	0,89	75	1,05

Shunday qilib $(1 - \varepsilon)/\alpha_k$ koeffitsiyent ortganda siqish ortadi yoki deyarli o'zgarmaydi, prokatni katta siqish bilan o'tkazish zarur bo'ladi ya'ni umumiy siqishning asosiy qismiga e'tibor qaratadi.

7.4 - jadvalda qatlama qalinligi 2,0 mm $v_b = 12 \text{ m/s}$, $\sigma = 0,2\sigma_t$ 08_{кп} po'latining 0,5x1020 mm tasmasini prokatlashda ikki turdag'i siqish rejimi uchun hisoblash ko'rsatkichlari keltirilgan.

7.4 - jadvalda keltirilishicha II variant bo'ylab bo'ylama qalinlik kletlari bo'ylab siqishni taqsimlash natijasida 1,05 marta ya'ni 5 % ga kamayadi. Bundan tashqari bu holatda tasma qalinligini avtomatik


boshqarish ish sharoitlari yaxshilanadi va bu oraliqda tasma qalinligi ortishi hisobiga yakuniy klet orasida tasmaning uzilish ehtimoli kamayadi, nisbatan turg'un prokatlash jarayoni ta'minlanadi.

Shunday qilib, tasma o'lchamlarining aniqligini oshirish uchun birinchi kletda siqishni kamaytirish va navbatdagisida ko'paytirish maqsadga muvofiq, ayniqsa, ingichka tasmalarni prokatlashda. Klet soning ortishi tasma aniqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki har bir klet uchun tekislash koeffitsiyenti ortadi va klet bo'ylab siqish kamayadi.

Prokatlash tezligi bo'ylama qalinlikka ishqalanish koeffitsiyenti, prokatlanuvchi material oquvchanligi va moyli plenka qalinligi o'zgarish natijasi orqali ta'sir ko'rsatadi. Amaliy tajribalar ko'rsatishicha prokatlash tezligining 5...7 m/s gacha ortganida ishqalanish koeffitsiyenti 0,15 dan 0,06 gacha pasayishi yuz beradi, so'ng u deyarli doimiy bo'lib qoladi. Ishqalanish koeffitsiyenti kamayishi, prokatlash kuchi kamayishiga va tasma qalinligi kamayishi-ga olib keladi. Prokatlash tezligi ortgani sari issiqlik ta'siridagi plastik deformatsiya natijasida metall harorati ortadi. Metall haroratining ortishi (7.12) tenglama bo'yicha oquvchanlik chegarasi pasayishi va shunga mos ravishda tasma qalinligi, prokatlash kuchi kamayishiga olib keladi.

Suyuq oquvchanlik chegarasi ta'siri tasma qalinligini kamayishi yoki ortishiga olib keladi. Sovuq jo'valangan listli po'lat ko'ndalang qalinligi, jo'valar egilishi, issiq qavariqli, dastlabki jo'vani profillash va jo'va yeyilishi orqali aniqlanadi.

Tajribalar ko'rsatishicha sovuq jo'valangan po'lat listlarning ko'ndalang profilini cho'zish kengligi teng bo'lgancha kamayuvchi sifatli issiq jo'valangan tasma profillarini takrorlaydi. (7.8 - rasm) da sovuqlay prokatlovchi uzlucksiz stanlar 1700 da sovuq jo'valangan va issiq jovalangan profil tasmalari tasvirlangan. Sovuq jo'valangan tasmaning ko'ndalang profili shaklan to'shamo ko'ndalang profiliga o'xshash. Sovuqlay prokatlovchi uzlucksiz stanlarda turli qalinlikdagi qatlamda turli xil qalintikka ega bo'limgan ko'ndalang list profilini olish kenglik bo'ylab cho'zish notekisligi natijasida ichki kuchlanishlar yuzaga keladi, natijada to'lqinliklar yoki qiyshayishlar hosil bo'ladi. Issiq jo'valangan tasmalar ko'ndalang profil o'ramidan o'ramgacha barqaror bo'lishi juda muhimdir, chunki profil o'zgartirilganda jo'valar ko'rsatkichlarini o'zgartirish zarur.



7.8 - rasm. Turli qalilikdagagi sovuq jo'valangan (1) va issiq jo'valangan (2) tasmalar profilogrammasi.

Jo'valar egilishi issiq qavariqlar dastlabki profillash va jo'valar yeyilishiga bog'liq ko'ndalang turli qalinlik. Sovuq jo'valangan po'lat list tekisligi (notekisligi) tekislikdan og'ish kattaligi bo'y lab aniqlanadi va tasma kengligi bo'y lab cho'zish notekisligi mavjud bo'lganda to'lqinlar va qiyshayishlar shaklida namoyon bo'ladi. Ko'ndalang profil va list shakli orasida yaqin aloqa mavjud. Zaruriy mexanik xossalarga ega bo'lish prokatlashning eng muhim vazifasi hisoblanadi, chunki sezilarli darajadagi struktura va listli po'latning bog'lanuvchanligi sovuq prokatlash rejimi bilan aniqlanadi. Kichik deformatsiya darajasida, kritikdan pastda, issiq jo'valangan metall donalari deyarli maydalanmaydi va keyin yumshatish jarayonida dokalar o'sishi umuman kuzatilmaydi, chunki rekristallanish bo'lmaydi. Kritik deformatsiya darajasida (masalan 08kp po'lat uchun 7...10 %) rekristallash jarayonida juda yirik donalar hosil bo'ladi. Deformatsiya darajasining ortishi bilan ferrit donasi maydalanadi va prokatlash yo'nalishida cho'ziladi, donalararo moddalar parchalanadi, donalar chegarasi deyarli yo'qoladi, sementit ham prokat yo'nalishi bo'y lab cho'ziladi. 50 % dan yuqori siqishda struktura tasmasimon (tekisturali) ko'rinishida bo'ladi, siqishning davomiy ortishida oquvchanlik chegarasi mustahkamlik chegarasi bilan deyarli bo'ladi, plastik deformatsiya maydoni qisqaradi, chunki metall


mustahkamlanadi va keyin prokatlash qiyinlashadi (uglerodli po'lat uchun bu hodisa ε = 95...97 % yuz beradi).

Desformatsiya darajasining ortishi bilan sovuq jo'valar kuydirilgan po'latning oquvchanlik va mustahkamlik chegarasida o'sish yuzaga keladi. Kuydirilgan po'lat oquvchanlik chegarasining eng kichik kattaligi 30...40% siqish orqali olinadi, bu esa oquvchanlik chegarasini pasaytirish va yuqori plastiklikni olish imkonini beradi. Shu bilan birga bunday siqish rejimi uchun issiq prokatlovchi uzlusiz kengtasmali stanlarda olish qiyin bo'lган ingichka to'shamma talab etiladi. Shuning uchun sovuq prokatlashda siqishning umumiy yig'indisi 50...80% ni tashkil etadi, zaruriy mexanik xossalarni olishini po'latning optimal kimyoviy tarkibi va yumshatish rejimini ta'minlaydi. Masalan, 50...55% siqishdan so'ng oraliq yumshatishni qo'llash mumkin, bu nisbiy uzayishni 8...10% ga oshirish oquvchanlik chegarasini 30...50 MPa va qattiqlikni 3...6 Brinel birligiga kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu holatda issiq prokatlash stanida prokatlanuvchi to'shamma maksimal qalinligi chegaralanmaydi.

7.5. Reversiv va ko'pjo'vali stanlarda sovuq prokatlash texnologiyasi

Reversiv stanlar qalinligi 0,2...2,5 mm, kengligi 1550 mm gacha, to'shamma qalinligi 2...4,5 mm va o'ram og'irligi 15 t gacha bo'lган kam uglerodli, legirlangan va elektr texnik po'lat tasmalarni sovuq prokatlash uchun mo'ljallangan. Bunday stanlar keng turdag'i tayyor tasmalar va prokatlangan po'latlarni kichik hajmda ishlab chiqaruvchi sovuq prokatlash sexlarida o'rnatiladi. (7.9-rasm) da sovuq prokatlovchi 1700 reversiv stanining umumiy ko'rinishi keltirilgan. 1700 stani tasma qalinligi 0,5...2,5 mm kengligi 1550 mm gacha taxlam qalinligi 2-4,5 mm, o'ram og'irligi 15 t gacha bo'lган tasmalarni sovuq prokatlash uchun mo'ljallangan, bunda ishchi va tirkak jo'va diametri 500 va 1700 mm, jo'va bochkasi uzunligi 1700 mm, prokatlash tezligi 5...10 m/s, asosiy yuritma dvigatelining quvvati - 4000 kVt, prokatlashning maksimal kuchi 26 MN, umumiy siqish-90 % gacha. Issiq jo'valangan po'lat yedirilgan o'ram transporter / va qabul stoli / da ko'targich stol / ga o'tkaziladi. Ungga joylashgan yakuniy o'ram o'ragich / o'qiga o'rnatiladi.

O'ragich boshchasiga o'ram mahkamlangandan so'ng magnet eggich tasmani to'g'ri tortuvchi rolik va (chap o'ragich dan aylanib o'tib) jo'valarni ko'targich klet 7 ga o'matadi. To'ldirgich tezligida jo'vadan chiqishda tasmaning oldingi uchi o'ng o'ragich 8 da to'ldiriladi, o'ragich tasmani cho'zishni keltirib chiqaradi, prokatlash tezligi ishchigacha ortadi va birinchi bo'shatish amalga oshiriladi. Barcha tasmalar o'ragich 1 da o'ralganda va yakuniy uchi jovagacha 200...300 mm qolganda stan to'xtaydi. Shundan so'ng ishchi klet jo'valari 2 ikkinchi bo'shatishdagi zaruriy siqishgacha siqish qurilmasida siqiladi, stan reversivlanadi va prokatlanmagan tasmaning so'nggi uchi chap o'ragich 6 oralig'ida siqiladi. So'ng o'ragich yordamida avvalgi va keyingi cho'zish hosil bo'ladi va ikkinchi bo'shatish amalga oshiriladi. Navbatdagi bo'shatishlar o'ragich va jo'valarni reversivlash bilan amalga oshiriladi. Yakuniy bo'shatishdan so'ng o'ng o'ragich 8 dagi tasma o'rami lenta bilan bog'lanadi va o'ram yechgich yordamida javonga o'tkaziladi.




7.9-rasmi. Sovuq prokatlovchi to'rtjo'vali reversiv stan 1700 sxemasi: 1-transportir, 2-qabul stoli, 3-ko'targich stol, 4-o'ragich, 5-rolik, 6-chap o'ragich, 7-ko'targich klet, 8-o'ng o'ragich.

Reversiv standa prokatlash texnologiyasi ayrim afzalliliklaridan ham yuqorida keltirilgan sovuqlay prokatlovchi uzlucksiz stanlar texnologiyasiga o'xshash. Ratsional siqish rejimini tanlashda quyidagi holatlar hisobga olinadi: bo'shatishdan bo'shatishgacha nisbiy siqish kamayadi; oquvchanlik chegarasi ortishi natijasida prokatlash kuchi barcha o'tishlarda deyarli bir hil; yuqori uglerodli va legirlangan po'lat markalarida uglerodliga nisbatan o'tishdagi siqish past; yuqori aniqlik va sirtni tozalash bilan tasmalarni prokatlashda o'tishlar soni ortadi. Ayrim hollarda plastikligi past po'latlarni prokatlashda ishchi klet


va o'ragich oralig'ida o'rnatilgan induksion qizdirish elementlari yordamida tasmalarni 250°C haroratgacha avvaldan qizdirish qo'llaniladi.

Prokatlash vaqtida o'ragich aylanadi, aylanish sonini boshqarish hisobiga doimiy cho'zish ta'minlanadi. Sovuqlay prokatlovchi uzlusiz stanlardan oldingi reversiv stan afzalliklari: texnologik jarayonini boshqarishning keng imkoniyatlari; po'lat markalari va o'lchamlari bo'yicha tasmaning keng turi; plastikligi past po'lat listlarni prokatlash imkoniyati. Reversiv stanlarning kamchiliklari quyidagilar: jo'vadan o'ragichgacha bo'lgan masofada har bir o'ram yakunida tasma uzunligidagi qalinlikning mavjudligi; sezilarli vaqt mobaynida jarayonning beqarorligi; samaradorlikning pastligi.

MKV turidagi sovuq prokatlash reversiv stanlari (7.10-rasm) asosiy yuritma jo'valari / va bo'sh tirkak roliklari / ga tirmashgan kichik diametrli o'zgaruvchan ishchi jo'valar / va / ni qo'llash hisobiga keng turdag'i mahsulotni ishlab chiqaradi. Bunday stanlarda qalinligi $0,1\dots 2\text{ mm}$ tasmalar va qalinligi $0,03\text{ mm}$ gacha kengligi 1250 mm gacha tezligi 15 m/s bo'lgan tasmalar prokatlanadi.



7.10 - rasm. MKV stan kleti sxemasi.



7.11-rasm. 55x1200 yigirmajo'vali stau sxemasi.

Maxsus ko'p uglerodli va yuqori aniqlikdagi korroziyabardosh po'latlardan yupqa va o'ta ingichka tasmalarni olish uchun ko'po'vali (6-12-20-jo'vali) stanlar o'matiladi. (7.11-rasm) da 55x1200 yigirmajo'vali reversiv stanining umumiy ko'rinishi ko'rsatilgan. 55x1200 stani qalinligi 0,1...0,5 mm kengligi 1000 mm gacha tasma qalinligi 1...3,5 mm o'ram og'irligi 15 t gacha bo'lган legirlangan va elektrotexnika po'lat tasmalarini prokatlashga mo'ljallangan. Prokat 3,5...7,7 m/s tezlikda va umumiy siqish 85...90 %, asosiy yuritma dvigatel quvvati 2600 kVt da amalga oshiriladi.

Stan ishchi klet (7.11-rasm) va ikkita o'ragich / dan tashkil topgan. Ishchi klet stanining katta qismi yuqori qattiqlikdagi monoblok ko'rinishida quyiladi. Simmetrik o'q prokatlash stanida bochka uzunligi 1200 mm bo'lган 20 ta jo'va diametri 55 mm li ikkita ishchi uzluksiz jo'va /, o'ta mustahkam xrom volfram po'latidan tayyorlangan bochka qattiqligi shoru bo'yicha 100...105 birlik; diametri 100 mm li to'rtta oraliq tirkakli uzluksiz jo'va /; diametri 175 mm oltita oraliq jo'va /, ulardan ikkita yuqori va ikkita quyilari yurutmali hisoblanadi; sakkizta tirkakjo'va /, ularning har biri diametri 300 mm li oltita podshipnik va kengligi 200 mm to'rt qatorli silindrik roliklardan tashkil topgan.

To'rtta yurutmali oraliq jo'valari ikkita elektrodvigateldan doimiy tokkao'tkaziladi, har birining quvvati 1300 kVt, universal reduktor orqali shesternya kleti va to'rtta universal shpindelga o'tkaziladi. Siqish qurilmasi sifatida tishli reykali va to'rtta gidravlik silindirli (ikkita tepada va ikkita pastda) ekssentrik o'qli rolik (ikkita o'rta, yuqori va ikkita quyi) yurutmalar qo'llaniladi. Bundan tashqari ishchi kletda yuqori roliklarni egib prokatlash jarayonida tasma profilini boshqarish uchun qurilmalar ko'zda tutilgan, ular o'z tayanchlariga nisbatan ekssentrik (barcha qolganlari kabi) o'matiladi. Ishchi kletning ikki tomonidan tasmani cho'zishni o'lhash uchun roliklar joylashgan. Ko'pjo'vali sovuq prokatlash stan afzalligiga ishchi klet va o'ragich orasida tasmani katta cho'zish kiradi. Ko'pjo'vali sovuq prokatlash stani qalinligi 0,002...0,05 mm ingichka lentani prokatlaydi, buning uchun bochka uzunligi 60...700 mm, diametri 3...30 mm jo'valar qo'llaniladi. Dastlabki zagotovka sifatida qalinligi 0,03...1,0 mm li sovuq jo'valangan tasma qo'llaniladi. Bu stanlar asosan pretzision qotishmalar va legirlangan po'latlarni prokatlash uchun mo'ljallangan. Ko'pjo'vali stanlarda tasma va listlarni prokatlash yuqori aniqlikdagi zaruriy o'lchamlarni olish va hisoblangan siqish rejimlariga ko'ra belgilangan bo'shatishlar miqdorida talab etilgan mexanik xossalarni olish maqsadida amalga oshiriladi. Ko'pincha ayniqsa, plastikligi kam po'latlarni prokatlashda metall qoplamasini yo'qotish maqsadida oraliq yumshatish qo'llaniladi. Ko'pjo'vali stanlarda siqish rejimi ruxsat etilgan prokatlash kuchi va asosiy yuritma quvvati, minimal qalinlikdagi tasma prokatlash sharoitlaridan kelib chiqib tanlanadi. 20 jo'vali stan uchun belgilangan diametrali jo'valarda minimal qalinlikdagi tasmalarni prokatlash sharoitlari D/h_{min} nisbati bilan aniqlanadi bunda D -ishchi jo'va diametri h_{min} -standa prokatlanuvchi tasmaning minimal qalinligi. Bunda 20 jo'vali 55×1200 stan uchun D/h_{min} nisbati < 2000 . Ko'pjo'vali stanlarning asosiy afzalliklariga listli po'lat o'lchamlarining yuqori aniqligi, umumiy siqishning yuqori kattaligi, qurilma massasining kichikligi, kapital quyilmalarning kamligi kiradi. Ko'p jo'vali stanlarning mayjud kamchiliklariga samaradorlikning kamligi, va jo'valarni o'matishning murakkabligi kiradi. Ko'pjo'vali stan normal ishlashi uchun asosiy ko'rsatkich sovitish va ishchi jo'valarni moylash hisoblanadi, buning uchun mineral moy yoki emulsiya qo'llaniladi. Ko'pjo'vali stanlar tasma

qalinligini kontaktsiz o'lhash qurilmasi, tasmani cho'zish va jo'valar oralig'idagi bo'shliqni avtomatik boshqarish tizimi bilan jihozlangan.

7.6. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Tasmalarning sovuq prokatlash stanlarining vaqt samaradorligi o'ram og'irligi, prokatlash tezligi va stan foydalanish koeffitsiyenti, yillik esa yil bo'yli ish soatlar miqdorining amaldagi soni bilan aniqlanadi. Zamonaviy uzlusiz sovuq prokatlash stanlarining yillik 1...2,6 mln t gacha samaradorlikka ega.

Metall sarfi sovuq prokatlashda uning eritishda yo'qotilishi, yakuniy kesmasi va tasmaning ko'ndalang qirralari, mahsulotni qalinlik bo'ylab ajratish va parchalanishlar bo'yicha nuqson, mexanik xossalar notejislik, sirt nuqsonlari yig'indisiga bog'liq. Uglerodli po'latlar uchun sovuq prokatlash sexlarida metall sarfi koeffitsiyenti 1,07...1,13, elektrotexnik po'latlar uchun-1,37 gacha.

Prokatlash, termik ishslash va sovuq jo'valangan uglerodli po'lat ishlarni qayta ishslashda elektr energiya sarfi 324...432 MDj/t (90...120 kVt·s/t) ni tashkil etadi, elektrotexnik markalardan-4...5 marta katta, tunuka ishlab chiqarishdan-540...1440 MDj/t (150...400 kVt·s/t). Prokatni termik ishslashda issiqlik sarfi 0,96...1,0 MDj/t (230...265 ming/kkal/t). 1 t Uglerodli konstruksion po'lat ishlab chiqarish uchun suv sarfi o'rtacha 1 m³ ni tashkil etadi, 1 t tunuka uchun-17...18 m³. Yumshatishda himoya gazi sarfi 1 t tayyor mahsulot uchun 12 m³ ga yetadi. 1 t issiq jo'valangan to'shama eritish uchun sulfat kislota sarfi 10...15 kg ni tashkil etadi, tunuka ishlab chiqarishda 12...18 kg. 1 t sovuq jo'valangan po'lat uchun jo'va sarfi 0,8...1,25 kg.

Nazorat savollari:

1. Ingichkalistli po'lat ishlab chiqarish haqida nimalarni bilasiz?
2. Sifatli uglerodli po'latlardan qanday mahsulotlarini tayyorlashga mo'ljalangan?
3. Sovuq jo'valangan po'lat listlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
4. Kuyindini tozalash qanday amalga oshiriladi?
5. Kuyindini tozalashning qanday usullari mavjud?
6. Tasmani tozalanish tezligi kuyindini nimasiga bog'liq?

7. Metall kuyindisiga ishqorning yaxshiroq kirib borishi uchun nima qilish kerak?
8. Uzluksiz eritish qurilmasi haqida nimalarni bilasiz?
9. Tasmaning yon qirralari qanday qaychilarda kesiladi?
10. Kuyindini kislotali tozalash usullarining kamchiliklari nimalardan iborat?
11. Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlarda prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
12. Sovuqlay prokatlovchi to‘rt kletli uzluksiz stan 1700 haqida nimalarni bilasiz?
13. Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanlarda prokatlash jarayoni qanday tezlikda amalga oshiriladi?
14. Payvand chokidan o‘tishda prokatlash tezligini pasaytirmaslik uchun nimalarga e’tibor berish zarur?
15. Moy prokatlanuvchi tasma va jo‘valar orasida nimani hosil qiladi?
16. Tasma uzunligi bo‘ylab taxlam mexanik xossalari bir tekis taqsimlanganmi?
17. Prokatlash tezligi ortgani sari nimalar sodir bo‘ladi?
18. Reversiv va ko‘pjo‘vali stanlarda sovuq prokatlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
19. Reversiv standa prokatlash texnologiyasining afzalliklari nimada?
20. Reversiv stanlarning kamchiliklari nimada?
21. Ko‘pjo‘vali stani normal ishlashi uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
22. Texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar haqida nimalarni bilasiz?

GLOSSARIY

Prokat - Metallurgiyada issiqlayin va sovuqlayin prokatlab olinadigan metall mahsulotlari (list, polosa, lenta, rels, balka, truba va boshqalar).

Prokat jo'valari - prokat stanining ish organlari, metallga tegishli o'lcham va shakl berish uchun prokatlashning asosiy operatsiyasini deformatsiyalash (siqish)ni bajaradi. Prokat jo'valari 2-guruhi bo'linadi: listli (list, polosa va lentalarni prokatlaydigan) va sortli (dumaloq, kvadrat, kesimli, shakldor metallar, rels, qo'sh-tavir balka va boshqa profillarni prokatlaydigan).

Prokat profillari - prokatlab olingan metall profillari. Profillar shakliga ko'ra prokat profillarining uzunligi bo'yicha ko'ndalang kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchan profilli va maxsus xillari bor.

Prokat stani - metallurgiyada metallarga aylanuvchi jo'valar orasidan siqib bosim ostida ishlov berish (prokatlash), shuningdek yordamchi operatsiyalar (ishlanadigan mahsulotlarni ombordan qizdirish pechlariga keltirish va stan jo'valariga uzatish, prokatlanadigan metallni prokatlash protsessida surish, metall polosani qirralash, to'g'rakash, ularni kesish, marka yoki tamg'a bosish, o'rash joylash, tayyor mahsulot saqlanadigan omborga uzatish va boshqalar)ni bajarish uchun mo'ljallangan mashinalar sistemasi.

Prokatlash - metallarga prokat stanining aylanuvchi jo'valari orasida siqib bosim ostida ishlov berish; bunda quyma yoki zagotovka kesimi kichrayib, kerakli shakl oladi. Prokatlash odatda, metallurgiya sanoatida yakunlovchi bo'g'in hisoblanadi. Prokatlashning quyidagi 3-ta asosiy turi mavjud bo'ylama, ko'ndalang-vintsimon.

Sortli prokat - prokat ishlab chiqarishdagi asosiy mahsulotlardan biri, ya'na jo'valab olingan har-xil kesimli (ichi bo'sh bo'limgan) mahsulotlar (prokat profillari). Sortli prokat oddiy profilli (aylana, kvadrat, oltiburchak, polosa), shakldor profilli (rels, balka, burchakli temir, sheveller) va turli maxsus profilli (gildirak, bandaj, shar va boshqa) xillarga bo'linadi.

Sortlistan - sortli prokat tayyorlanadigan prokatlash stani.

Slyab - po'lat quymalarni prokatlash natijasida olingan ko'ndalang kesimi to'g'ni to'rtburchak bo'lgan mahsulot. Uning qalinligi 75-600 mm uzunligi 1000-2000 mm bo'ladi. Undan listlar olishda foydalilanadi.

Klet - prokat ishlab chiqarishdagi klet-stanning ikkita quyma stanimadan iborat asosiy qismi; podshipnikli prokat valiklari yoki aylanma harakat uzatuvchi valiklarni shesternyalari (shesternyali klet) uchun tayanch vazifasini o'taydi.

Slyabing - yirik po'lat quymalardan slyablar olishda foydalaniладиган qisuvchi stan.

Kalibr - Prokat jo'valar sirtida aylana bo'yicha o'rnatilgan shaklli moslamalar qo'shilishidan hosil bo'lgan o'yma. Metrologiyada buyumlarni shaklli o'lchamlarini va qismlarini o'zaro joylanganligini kuzatuvchi shkalasiz asbob.

Rels - maxsus profilli po'lat balka, masalan, poyezd, tramvay izlari.

Texnologiya - materiallarni ishlab chiqarish va ulardan aniq shaklli va o'lchamli buyumlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlarni o'rganish ilmi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017- yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8 oktiyabridagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasining oliv ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" to'g'risidagi farmoni, Toshkent sh.
3. Abdullaev F.S., Mahkamov Q.X. Metallarga bosim bilan ishllov berish nazariyasi asoslari. O'quv qo'llanma - Tashkent: TDTU. 2000. - 400 b.
4. Машиностроение. Энциклопедия / Ред. совет: К.В. Фролов (пред.) и др. М.: Машиностроение. Машины и агрегаты металлургического производства. Т. IV-5/ Н.В. Пасечник, В.М. Синицкий, В.Г. Дрозд и др ; Под общ. ред. В.М. Синицкого, Н.В. Пасечника. 2000. - М.: - 912с.
5. Колесников А.Г., Яковлев Р.А. Механизмы и устройства рабочих клетей прокатных станов: Учеб пособие по курсу «Расчет и конструирование прокатных станов». - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2008. - 63с.
6. Колесников А.Г., Яковлев Р.А. Конструкция и расчет калиброванных валков. Учеб. пособие. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2007. - 67с.
7. Колесников А.Г., Яковлев Р.А. Расчет и исследование напряжений и деформаций станин прокатных станов. Учеб пособие. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана. 2005. - 55с.
8. Проников А.С. Параметрическая надежность машин. - М.: Изд. МГТУ. 2002. - 560 с.
9. Соколова О.В., Восканьянц А.А., Комкова Т.Ю. Технология и оборудование производства труб на станах ХПТ: Учеб пособие /. Под ред. А.П Молчанова. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2007. - 40с.
10. Яковлев Р.А. Асимметричное нагружение прокатных станов. Учебное пособие. - М.: МГТУ, 2001. - 84с.
11. Яковлев Р.А. Усталостная прочность и долговечность деталей прокатных станов. Учебное пособие. - М.: МГТУ, 2000. - 44с.
12. Рудской А. И., Лунев В. А. Теория и технология прокатного производства. Учебное пособие. - СПб.: Наука, 2008. - 507 с.
13. Колесников А.Г. Технологическое оборудование прокатного производства: учебное пособие / А.Г. Колесников, Р.А. Яковлев, А.А. Мальцев. - М.: Издательство МГТУ им Н.Э. Баумана, 2014. - 158 с.
14. William F., Robert M. Metall Forming: Mechanics and, Cambridge United Kingdom: Metallurgy Cambridge university press, 2011. - 345 pp.
15. Гулидов И.Н. Оборудование прокатных цехов (эксплуатация, надежность): Учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. - М.: Интермет Ижевкининг, 2004. - 320 с.
16. Коваль Г.И. Проектирование предприятий и цехов металлургического производства. Учебное пособие. - Челябинск. Изд - во ЮУрГУ, 2012. - 113 с.
17. Zyonet.uz
18. Ziyo.uz
19. edu.uz
20. gov.uz

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 - BOB QORA METALLAR SIFATI VA PROKAT ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASINING UMUMIY SAVOLLARI	5
1.1. Prokat ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy ma'lumotlari.....	5
1.2. Prokat ishlab chiqarish tarixi	7
1.3. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari.....	10
1.4. Qora metallarning turi va sifati	15
1.5. Sifatni yaxshilash uchun standartlashtirish.....	21
1.6. Ishlab chiqarish va mahsulot sifatini boshqarish	23
1.7. Prokat stanlarining tuzilishi	28
1.7.1. Prokat stanlarining tasnifi va qo'llanish sohalari	31
1.8. Prokatlash texnologik jarayonlarining asosiy tamoyillari	35
Nazorat savollari:	40
2 - BOB ZAGOTOVKALAR ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	42
2.1. Zagotovkalar ishlab chiqarish texnologiyasi	42
2.2. Metallni qizdirish sifati va rejimlari	45
2.3. Nuqsonlarni yo'qotish.....	52
2.4. Yirik kesimli prokatlashda metallning xarorat maydoni	59
2.5. Ko'p qatlamlı prokatlash texnologiyasi	61
2.6. Quyish va prokatlashni yagona texnologik jarayonda umumlashtirish	63
2.7. Blyumingdag'i texnologik jarayonni jadallashtirish	70
2.8. Blyuminglar uchun siqish rejimi va jo'valarni kalibirlashning xisoblash usullari	75
2.8.1. Siqish rejimini hisoblash	82
2.8.2. Quymalarni prokatlash uchun bo'shatishlar daslabki sonini xisoblash ..	83
2.8.3. Silliq bochkada prokatlashning texnologik ko'rsatkichlarni xisoblash ..	85
2.8.4. Qutili kalibrarda prokatlashning texnologik ko'rsatkichlarini xisoblash ..	84
2.9. Zagotovkalash stanlarida prokatlash texnologiyasi	92
2.10. Uzluksiz zagotovkalash stanlarini kalibrash	95

2.11. Ko'p oqimli prokatlashda zagotovkalarni bo'lish	99
2.12. Yarim mahsulot ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari ..	105
Nazorat savollari:	106
3 - BOB. NAVLI PO'LAT ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI	108
3.1. Metallni kesishning umumiy ma'lumotlari.....	108
3.2. Rebsalkali stanlar	108
3.3. Yirik navli stanlar.....	114
3.4. Universal to'sinli stan	119
3.5. Navli po'latni prokatlash uchun kalibrlash sxemasi	122
3.6. Navli profillarni uzluksiz prokatlashning ratsional rejimi	125
3.7. Navli prokatlash aniqligiga ta'sir etuvchi omillar	127
3.8. Murakkab profillarni prokatlash uchun kalibrlash sxemasi	135
3.8.1. Juft tavrli to'sinlarni prokatlash uchun jo'valarni kalibrlash	137
3.9. Uzluksiz o'rta navli stanlarda har hil shakilli profillarni prokatlash uchun jo'valarni kalibrashning avfzalliklari	142
3.10. Jo'valarni sozlashning asosiy ko'rsatkichlari	148
3.11. "Uzluksiz" prokatlash	152
3.12. Simli stanlarni kalibrlash sxemasi va prokatlash rejimi	156
3.13. Navli po'latni nazoratli prokatlash.....	160
Nazorat savollari:	164
4 - BOB LISTLI PO'LATLARNI PROKATLASH NAZARIYASINING AYRIM ELEMENTLARI	166
4.1. Ishchi klet va tasmalar mustaxkamligi	166
4.2. Tasma qalinligining asosiy tenglamasi	170
4.3. Jo'va profilini faol yuzaga keltirish xaqida tushuncha	173
Nazorat savollari:	176
5 - BOB QALIN LISTLI PO'LAT ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI	178
5.1. Qalin listli po'lat ishlab chiqarish usullari	178
5.2. Texnologik jarayonning qisqacha tasnifi	179
5.3. Siqish kattaligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar	182

5.4. Juft kletli qalin listli stanni prokatlash texnologiyasi	188
5.5. Vertikal kletda prokatlash texnologiyasi	190
5.6. Qoralama kletda prokatlash texnologiyasi	195
5.7. Jo'valarni profillash va ularni ekspluatatsiyalash	198
5.8. Qalin listli po'latni pardozlash	202
5.9. Qlin listli po'latlarning asosiy nuqsonlari	204
5.10. Qalin listli po'lat prokatlash texnologiyasini rivojlantirish	205
5.11. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar	206
Nazorat savollari:	207
6 - BOB. INGICHKALISTLI ISSIQLAY JO'VALANGAN PO'LATLARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI (ILJP).....	209
6.1. List ishlab chiqarishning umumiy malumotlari	209
6.2. Texnologik jarayonning umumiy sxemasi	209
6.3. Yarimuzlukli kengtasmalı stanarda (YaKS) prokatlash texnologiyasi ..	210
6.4. Uzluksiz keng tasmalı stanarda prokatlash texnologiyasi (UKS)	213
6.4.1. Qoralama guruh kletlarida prokatlash	216
6.4.2. Yakuniy guruh kletlarini prokatlash texnologiyasi	218
6.5. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar	231
Nazorat savollari:	232
7 - BOB SOVUQ JO'VALANGAN PO'LAT LISTLARNI (SJPL) ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI	234
7.1. Ingichkalistli po'lat ishlab chiqarishning umumiy ma'lumotlari	234
7.2. Texnologik jarayonning qisqacha tavsifi	235
7.3. Kuyundini tozalash	236
7.4. Sovuqlay prokatlovchi uzluksiz stanarda (SPUS) prokatlash texnologiyasi	242
7.5. Reversiv va ko'pjovli stanarda sovuq prokatlash texnologiyasi	259
7.6. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar	264
Nazorat savollari:	264
GLOSSARIY	266
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	268

B. M. SAYDUMAROV

**PROKAT ISHLAB CHIQARISH
TEXNOLOGIYALARI**

Darslik

Toshkent - "NIF MSH" - 2020

Muharrir

Bakirov N. F.

Texnik muharrir

Yoqubov A.F.

Hoshimbekova U.Sh.

Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.

"Times New Roman" garniturasi.

Offset bosma usulida bosildi.

*Shartli bosma tabog'i 17. Nashr bosma tabog'i 17.
Adadi 300 nusxa.*

*"NIF MSH" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*

ISBN 978-9943-6793-5-1

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN number 978-9943-6793-5-1.

9 789943 679351